

«SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА  
АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ  
БОШ ТАҲРИРИЯТИ  
ТОШКЕНТ — 2014

UO‘K: 821.512.133-3

КВК 84(50‘)6

М 22

Шундай қилиб, Шайтонвачча туртиниб-суртиниб ўсмир ёшига ҳам кириб қолди. У Хўжақишлоқдан қувилиб, Ажинашамолнинг қанотида катта шаҳарга келиб тушди. Биласиз, катта шаҳарнинг ташвишлари ҳам катта бўлади. Бироқ қаердаки фирибгар, порохўр, лақма Одам болалари бор экан, Шайтонваччалар кўчада қолиб кетмайди. Бунга учинчи китобимиздаги воқеалар гувоҳдир...

---

Shunday qilib, Shaytonvachcha turtinib-surtinib o‘smir yoshiga ham kirib qoldi. U Xo‘jaqishloqdan quvilib, Ajinashamolning qanotida katta shaharga kelib tushdi. Bilasiz, katta shaharning tashvishlari ham katta bo‘ladi. Biroq qayerdagi firibgar, poraxo‘r, laqma Odam bolalari bor ekan, Shaytonvachchalar ko‘chada qolib ketmaydi. Bunga uchinchi kitobimizdagi voqealar guvohdir...

М 22 **Malik, Erkin**

Shaytonvachchanning nayranglari: Ma‘rifiy qissa, uchinchi kitob. – T.: «Sharq», 2014. – 352 b.

ISBN 978-9943-00-942-4

UO‘K: 821.512.133-3  
КВК 84(50‘)6

ЭРКИН МАЛИК

# ШАЙТОНВАЧЧАНИНГ НАЙРАНГЛАРИ

(УЧИНЧИ КИТОБ)



# SHAYTONVACHCHANING NAYRANGLARI

(Ma'rifiy qissa)

«SHARQ» НАШРИЁТ-МАТБАА  
АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ  
БОШ ТАХРИРИЯТИ  
ТОШКЕНТ — 2014

Бисмиллаҳир Роҳманир Роҳийм

## ШАЙТОНЛАР ОЛАМИ САРОСИМАДА

*(ёки навбатдаги ҳайъат йиғилиши)*

Ҳайъат йиғилиши анча таҳликали бошланди. Ҳамма ўзидан ўтганини ўзи билади. Айниқса, янги ташкил этилган Шарманка шуъбасининг бошлиғи тўрвасини олдирган гадойдек ўтирибди. Хумдек боши бошқаларникидан бир калла тушиб кетган. Бундоқ ботиниб ён-атрофига қарай ҳам демайди. Бу бўлим кейинги кунларда шохдор раиснинг ишончини қозониб, Одамшайтончалик бўлмаса ҳам, ҳарқалай жаноби олийларининг эътиборига тушиб қолган эди. Шарманка дегани шарманда-ю шармисор дегани бўлиб, унинг вазифаси Одам болаларини ҳаёдан, иймондан чиқариш эди. «Шарманка» сўзи югурдак жинларни чалғитиш учун шунчаки топилган бир ном эди, холос. Ҳайъат аъзолари нима бўлганда ҳам бугунги гап шу Шарманкадан бошланишини чин дилдан хоҳлаб ўтиришарди. Чунки Шарманкада иш чаппасига кетган эди. Бошқа шуъбаларда эса раиснинг эътиборини тортадиган ҳеч гап йўқ. Раис Шарманка бошлиғининг ўтиришидан нимадир бўлганини сизди. Аммо сезиб туриб, сезмасликка олди. Бутун ҳаёли Одамшайтонда эди. Одамшайтон домдараксиз кетгандан бери раиснинг еган-ичгани ичига тушмай қолди. Ҳаёлида шайтонлар олами бамисоли ўғри урган уйдаи хувиллаб ётарди. 108-каналда ҳам тайинли гап йўқ. Ҳар замон, бир замонда ўзга сайёралик деб ҳисобланилаётган Одамшайтонни кидириш билан боғлиқ эълон бериб қўйиларди: «Бўйи бир-у етмиш. Ёшига қараганда найновроқ. Буғдой ранг. Қоши-кўзи қора. Сочи малла. Ўта сермулозамат. Аммо ўзга сайёралик бўлгани учун мулозаматни унчалик ўрнига қўя олмайди. Бизчалик

Bismillahir Rohmanir Rohiym

## SHAYTONLAR OLAMI SAROSIMADA

*(yoki navbatdagi hay'at yig'ilishi)*

Hay'at yig'ilishi ancha tahlikali boshlandi. Hamma o'zidan o'tganini o'zi biladi. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan Sharmanka shu'basining boshlig'i to'rvasini oldirgan gadoydek o'tiribdi. Xumdek boshi boshqalarnikidan bir kalla tushib ketgan. Bundoq botinib yon-atrofiga qaray ham demaydi. Bu bo'lim keyingi kunlarda shoxdor raisning ishonchini qozonib, Odamshaytonchalik bo'lmasa ham, harqalay janobi oliylarining e'tiboriga tushib qolgan edi. Sharmanka degani sharmanda-yu sharmisor degani bo'lib, uning vazifasi Odam bolalarini hayodan, iymondan chiqarish edi. «Sharmanka» so'zi yugurdak jinlarni chalg'itish uchun shunchaki topilgan bir nom edi, xolos. Hay'at a'zolari nima bo'lganda ham bugungi gap shu Sharmankadan boshlanishini chin dildan xohlab o'tirishardi. Chunki Sharmankada ish chap-pasiga ketgan edi. Boshqa shu'balarda esa raisning e'tiborini tortadigan hech gap yo'q. Rais Sharmanka boshlig'ining o'tirishidan nimadir bo'lganini sezdi. Ammo sezib turib, sezmaslikka oldi. Butun xayoli Odamshaytonda edi. Odamshayton dom-daraksiz ketgandan beri raisning yegan-ichgani ichiga tushmay qoldi. Xayolida shaytonlar olami bamisoli o'g'ri urgan uyday huvillab yotardi. 108-kanalda ham tayinli gap yo'q. Har zamon, bir zamonda o'zga sayyoralik deb hisoblanilayotgan Odamshaytonni qidirish bilan bog'liq e'lon berib qo'yilardi: «Bo'yi bir-u yetmish. Yoshiga qaraganda naynovroq. Bug'doy rang. Qoshi-ko'zi qora. Sochi malla. O'ta sermulozamat. Ammo o'zga sayyoralik bo'lgani uchun mulozamatni unchalik o'rniga qo'ya

ерпатак бўла олмайди. Учига чиққан лўттивоз. Ашаддий жиноятчи. Жиннихонадаги бир болакайни ўлдириб, киёфасига кириб олган. Бир жарроҳ ва бир чолнинг ўлимида гумон қилинади. Тўридан гўри яқин бир кампирнинг ўлимлигини ўмарган, киссавур. У ҳақда 108-каналга хабар берганларни озаммас, кўпаммас – бир миллион долларлик мукофот кутмокда. Шошилинг, хушёрликни оширинг, миллион доллар эгаси бўлинг!»

Бу эълон Одам болаларини қанчалик шошириб кўйган бўлса, шайтонлар-у жинларни ҳам шунчалик шошириб кўйди. Бирон жойдан Одамшайтоннинг дараги чиқиб қолармикан, деб изғишгани изғишган. Одам болалари Одамшайтон учун бир миллион тикканда, шохдор раис мана бўлмасам, деб икки миллион тикиб юборди. Мақсад – бу ноёб нусха одамлар кўлига тушиб қолмасин. Ҳали дунё дунё бўлгандан бери битта шайтоннинг нархи бунақа осмон-у фалакка чиқмаган эди. Шайтонлар баттар шошиб қолдилар. Одам болалари уни кўлга туширсалар, ўз қонунлари бўйича суд қилиб, қамаб юборишлари аниқ. Аммо шайтонлар-чи? Ушлашса, унга қандай чора кўришади? Ҳамма гап шунда. Бунисини шохдор раисдан бўлак ҳеч ким билмайди. Унинг тақдири шу улуғ зотнинг кўлида.

Раис сездики, Одамшайтон ҳақида унга таскин берадиган ҳеч гап йўқ. Ҳайъат аъзолари муздеккина бўлиб, олма пиш, оғзимга туш, деб ўтиришибди. Раис тутақиб, овозини баландлатди:

– Шайтонлик ғурурларинг қани сенларнинг? Бунчалар аммамнинг бузоғи бўлмасаларинг? Яна булар кимсан, Одам болаларининг қон томирида юрармиш-а?! Ҳе, сатқай шайтон кетинглар. Кимда бор бунақа имконият, а, қайси махлукда бор? Қон томирда юриб, ўз қондошларингни тора олмасаларинг. Суф-е сенларга! Ҳаммангнинг думингни ечиб, кўчага ҳайдайман. Кўча супуришдан бошқага ярамай қолдиларинг сенлар...

– Маъзур тутинг, ҳазрати олийлари, – дея юрак

olmaydi. Bizchalik yerpatak bo‘la olmaydi. Uchiga chiqqan lo‘ttivoz. Ashaddiy jinoyatchi. Jinnixonadagi bir bolakayni o‘ldirib, qiyofasiga kirib olgan. Bir jarroh va bir cholning o‘limida gumon qilinadi. To‘ridan go‘ri yaqin bir kampirning o‘limligini o‘margan, kissavur. U haqda 108-kanalga xabar berganlarni ozammas, ko‘pammas – bir million dollarlik mukofot kutmoqda. Shoshiling, hushyorlikni oshiring, million dollar egasi bo‘ling!»

Bu e‘lon Odam bolalarini qanchalik shoshirib qo‘ygan bo‘lsa, shaytonlar-u jinlarni ham shunchalik shoshirib qo‘ydi. Biron joydan Odamshaytonning daragi chiqib qolarmikan, deb izg‘ishgani-izg‘ishgan. Odam bolalari Odamshayton uchun bir million tikkanda, shoxdor rais mana bo‘lmasam, deb ikki million tikib yubordi. Maqsad – bu noyob nusxa odamlar qo‘liga tushib qolmasin. Hali dunyo dunyo bo‘lgandan beri bitta shaytonning narxi bunaqa osmon-u falakka chiqmagan edi. Shaytonlar battar shoshib qoldilar. Odam bolalari uni qo‘lga tushirsalar, o‘z qonunlari bo‘yicha sud qilib, qamab yuborishlari aniq. Ammo shaytonlar-chi? Ushlashsa, unga qanday chora ko‘rishadi? Hamma gap shunda. Bunisini shoxdor raisdan bo‘lak hech kim bilmaydi. Uning taqdiri shu ulug‘ zotning qo‘lida.

Rais sezdi, Odamshayton haqida unga taskin beradigan hech gap yo‘q. Hay‘at a‘zolari muzdekkina bo‘lib, olma pish, og‘zimga tush, deb o‘tirishibdi. Rais tutaqib, ovozini balandlatdi:

– Shaytonlik g‘ururlaring qani senlarning? Bunchalar ammamning buzog‘i bo‘lmasalaring? Yana bular kimsan, Odam bolalarining qon tomirida yurarmish-a?! He, satqayi shayton ketinglar. Kimda bor bunaqa imkoniyat, a, qaysi maxluqda bor? Qon tomirda yurib, o‘z qondoshlaringni topa olmasalaring. Suf-e senlarga! Hammangning dumingni yechib, ko‘chaga haydayman. Ko‘cha supurishdan boshqaga yaramay qoldilaring senlar...

ютиб раиснинг гапине бўлди шуъба бошлиқларидан бири, – ҳамма гап шундаки, у бизнинг ихтиёримиздан аллақачонлар чиқиб кетган. Олдинги йиғинларда ҳам буни сизга маълум қилган эдик. Қувваи хофизаларидан фаромуш бўлибти, чоғи...

– Қачон қараса шу гап, – унинг оғзига урди раис. – Ахир, у ихтиёримиздан чиқиб қаёққа кетибди? Ерга кирибдими ё осмонга чиқибдими?

Бунақа пайтда битта шуъба бошлиғи юрак ютиб гарирдими, уни бошқалари қўллаб юбормаса бўлмас эди.

– Ҳазрати олийлари, – деди бошқаси, – сиз Одам болаларининг қонида юришимизни тўғри таъкидладингиз. Бу Тангри таолонинг бизларга қилган катта марҳаматидир. Лекин битта нарсани унутмаслигимиз керак. Ҳа, биз Одамшайтоннинг қонида юра олмаймиз. Минг афсуски, шундай. У одамга айланиб қолгани билан барибир унинг томирларида ўзимизнинг қонимиз оқяпти.

– Мен йўлини топдим, – деб юборди шошапиша Ахборотчи ва дик этиб ўрnidан туриб кетди. Кесакдан ўт чиққандек туйилиб, ўтирганлар ҳам унга қарашди. Наҳотки Ахборотчидан ҳам жўялироқ бир гап чиқса... – Маслаҳатим, – деди у, – эринмай, ҳа, бир бошдан ҳар бир одамнинг қонига кириб чиқиш керак. Кимнингки қонига қира олмасак, демак, ўша Одамшайтон бўлади, қалай?..

У тантана билан кўзини лўқ қилиб атрофидагиларга қаради.

Юзаки қараганда Ахборотчининг гапида жон бордек. Лекин у яхшигини қовун туширган эди. Бечоранинг калласи майда-чуйда ахборотчалар билан шунчалик саёзлашиб қолган эдики, бошқа шуъба вакили уни бир чўқишда қочирди:

– Ахборотингиз учун, ҳамкасаба, – деди у пешанасига тақиллатгандек қилиб, – биз шайтонлар илмига амал қиладиган олимларнинг, рўзадорларнинг, сахий бойларнинг, тақводорларнинг, эҳ-ҳе... уларнинг тури жуда кўр, уларнинг ҳам қонида юра



– Ma’zur tuting, hazrati oliylari, – deya yurak yutib raisning gapini bo’ldi shu’ba boshliqlaridan biri, – hamma gap shundaki, u bizning ixtiyorimizdan allaqachonlar chiqib ketgan. Oldingi yig’inlarda ham buni sizga ma’lum qilgan edik. Quvvai hofizalaridan faromush bo’libti, chog’i...

– Qachon qarasa shu gap, – uning og’ziga urdi rais. – Axir, u ixtiyorimizdan chiqib qayoqqa ketibdi? Yerga kiribdimi yo osmonga chiqibdimi?

Bunaqa paytda bitta shu’ba boshlig’i yurak yutib gapirdimi, uni boshqalari qo’llab yubormasa bo’lmas edi.

– Hazrati oliylari, – dedi boshqasi, – siz Odam bolalarining qonida yurishimizni to’g’ri ta’kidladigiz. Bu Tangri taoloning bizlarga qilgan katta marhamatidir. Lekin bitta narsani unutmasligimiz kerak. Ha, biz Odamshaytonning qonida yura olmaymiz. Ming afsuski, shunday. U odamga aylanib qolgani bilan baribir uning tomirlarida o’zimizning qonimiz oqyapti.

– Men yo’lini topdim, – deb yubordi shosha-pisha Axborotchi va dik etib o’rnidan turib ketdi. Kesakdan o’t chiqqandek tuyilib, o’tirganlar ham unga qarashdi. Nahotki Axborotchidan ham jo’yaliroq bir gap chiqsa... – Maslahatim, – dedi u, – erinmay, ha, bir boshdan har bir odamning qoniga kirib chiqish kerak. Kimningki qoniga kira olmasak, demak, o’sha Odamshayton bo’ladi, qalay?..

U tantana bilan ko’zini lo’q qilib atrofida gilarga qaradi.

Yuzaki qaraganda Axborotchining gapida jon bordek. Lekin u yaxshigini qovun tushirgan edi. Bechoraning kallasi mayda-chuyda axborotchalar bilan shunchalik sayozlashib qolgan ediki, boshqa shu’ba vakili uni bir cho’qishda qochirdi:

– Axborotingiz uchun, hamkasaba, – dedi u peshanasiga taqillatgandek qilib, – biz shaytonlar ilmiga amal qiladigan olimlarning, ro’zadorlarning, saxiy

олмаймиз. Буларни сиз билишингиз керак, шекилли, а, лаббай?

Бечора Ахборотчи қандай ўрнидан турган бўлса, худди шундай дўқ этиб ўтириб қолди. Унинг таслим бўлгани шу эди. Раис Ахборотчининг думбултентак гапларига ўрганиб қолгани учунми, масалани чуқурлаштирмади. Аммо ҳайъат аъзолари келтирган важ-карсонлар раисга зиғирча ҳам таъсир қилмади. Ҳайъат аъзоларини қандай бўлмасин жазолаш ҳақида ўйларди. Одам болалари: «Камбағални урма-сўкма, тўнини йирт», – дейишади. Хўш, шайтонларнинг тўни борми? Бор. Уларнинг тўни васваса қилиш. Васваса билан Одам болаларини йўлдан уради, битмаган ишларини битиради. Одам болалари ҳам анойи эмас. Қуруқ васвасага учаверишмайди. Шайтон уларга битмас-туганмас бойликлар, айш-ишратлар ваъда қилади. Албатта, бунда сопини ўзидан чиқаради. Шайтонда пул қайда. Пул заводи бўлмаса. Даромадни солиқчилардан қандай қилиб беркитиш, бировнинг ҳақиға хиёнат қилиш, қарзга фоиз олиш, закотдан бўйин товлаш, порахўрлик... Буларнинг барини Одам болаларига чиройли қилиб кўрсатади. Шайтон васвасаси билан топилган бойлик, албатта, шайтонларнинг ҳисоб рақамида туради. Ҳайъат аъзоларининг қанча бойлиги борлигини бикқидек бўлиб ўтиришларидан ҳам билса бўлади. Буларни ўша бойликдан маҳрум қилиш керак. Ҳисоб рақамида ҳемири йўқ шайтон – шайтон бўптими?!

– Гап бундай, – деди шохдор раис ўзини босиб олиб, – навбатдаги йиғилишимизга кимки бугунгидек бўш калла билан келса, бор захирасидан маҳрум қилиб, думини ечиб, кўчага ҳайдайман, вассалом.

Ўтирганлар тагига чўғ босилгандек бир кўзғалиб олишди.

Шунча гап-сўзлардан кейин ҳам Шарманканинг бошлиғи кўзғалиш у ёқда турсин, бошини кўтариб ҳам кўймади.

– Ҳа, – деди раис беписандлик билан унга қараб, –

boylarning, taqvodorlarning, eh-he... ularning turi juda ko'p, ularning ham qonida yura olmaymiz. Bularni siz bilishingiz kerak, shekilli, a, labbay?

Bechora Axborotchi qanday o'rnidan turgan bo'lsa, xuddi shunday do'q etib o'tirib qoldi. Uning taslim bo'lgani shu edi. Rais Axborotchining dumbul-tentak gaplariga o'rganib qolgani uchunmi, masalani chuqurlashtirmadi. Ammo hay'at a'zolari keltirgan vajkarsonlar raisga zig'ircha ham ta'sir qilmadi. Hay'at a'zolarini qanday bo'lmasin jazolash haqida o'ylardi. Odam bolalari: «Kambag'alni urma-so'kma, to'nini yirt», – deyishadi. Xo'sh, shaytonlarning to'ni bormi? Bor. Ularning to'ni vasvasa qilish. Vasvasa bilan Odam bolalarini yo'ldan uradi, bitmagan ishlarini bitiradi. Odam bolalari ham anoyi emas. Quruq vasvasaga uchaverishmaydi. Shayton ularga bitmas-tuganmas boyliklar, aysh-ishratlar va'da qiladi. Albatta, bunda sopini o'zidan chiqaradi. Shaytonda pul qayda. Pul zavodi bo'lmasa. Daromadni soliqchilardan qanday qilib berkitish, birovning haqiga xiyonat qilish, qarzga foiz olish, zakotdan bo'yin tovlash, poraxo'rlik... Bularning bari ni Odam bolalariga chiroyli qilib ko'rsatadi. Shayton vasvasasi bilan topilgan boylik, albatta, shaytonlarning hisob raqamida turadi. Hay'at a'zolarining qancha boyligi borligini biqqidek bo'lib o'tirishlaridan ham bilsa bo'ladi. Bularni o'sha boylikdan mahrum qilish kerak. Hisob raqamida hemiri yo'q shayton – shayton bo'ptimi?!

– Gap bunday, – dedi shoxdor rais o'zini bosib olib, – navbatdagi yig'ilishimizga kimki bugungidek bo'sh kalla bilan kelsa, bor zaxirasidan mahrum qilib, dumini yechib, ko'chaga haydayman, vassalom.

O'tirganlar tagiga cho'g' bosilgandek bir qo'zg'alib olishdi.

Shuncha gap-so'zlardan keyin ham Sharmankaning boshlig'i qo'zg'alish u yoqda tursin, boshini ko'tarib ham qo'ymadi.

жа биз еб, сен куруқ қолгандек ўтирибсан, нима бўлди, гапир?

– Илтимос, ҳазратим, мени ҳозироқ асфаласофилинга жўнатиб, олдингизда гуноҳкорман, – деди у ёш боладек пиқиллаб.

– Асфаласофилинни тек кўй...

– Сиз очган стриптиздаги қизлар қочиб кетишди.

– Қочиб кетишди, нимага?

– Ўйин кўрсата туриб, олдин кўйлақларини, ундан кейин сийнабандларини ечишарди, шу билан томоша тугарди. Томошабинлар у ёғини ҳам ечишсин, деб талаб қилишди.

– Хўш?

– У ёғига алоҳида пул тўлаш керак, у ёғи қиммат туради, деб фоҳишалар унамади.

– Унайдиганларини топ унда. Топмасанг, билиб кўй, фоҳишаларнинг ўрнида ўзингни ўйнатаман.

Мажлис ана шундай тарангликда ниҳоя топди.

## ЎХШАТМАСДАН УЧРАТМАС

*(ёки Шайтонваччанинг «ТАҚВО» кафесидида кўрган-кечирганлари)*

Ажинашамол Шайтонваччани осмону фалакда бир айлантиргандан минг айлантириб, кун ботгунча учириб юрди. Охири чароғон бир шаҳарнинг янада чароғон бир гўшасига ташлаб кетди. У тушган жой гуллари куриган, суви ўчган фаввора атрофидаги майдонча эди. Шундай бўлса ҳам ўриндиқлар бўш эмас, севишганлар билан обод. Улар осмону фалакдан гур этиб тушган нимарсадан кўрқиб, ура қочиб қолишди. Лекин узоқлаб кетишмади. Қизиқувчанлик ёмон-да. Бундай қараб, осмондан тушган нарса одам эканлигини пайқаб қолишди. Во ажаб... Яқин ўртада дарахт бўлганда ҳам бошқа гап эди. Дарахтдан сакради-да, деса. Шайтонвачча тик оёқда тура олмай, нукул бир жойда маст одамдек қилтангларди. Ажинашамолнинг беланчагида боши

– Ha, – dedi rais bepisandlik bilan unga qarab, – ja biz yeb, sen quruq qolgandek o‘tiribsan, nima bo‘ldi, gapir?

– Iltimos, hazratim, meni hoziroq asfalasofilinga jo‘nating, oldingizda gunohkorman, – dedi u yosh boladek piqillab.

– Asfalasofilinni tek qo‘y...

– Siz ochgan striptizdagi qizlar qochib ketishdi.

– Qochib ketishdi, nimaga?

– O‘yin ko‘rsata turib, oldin ko‘ylaklarini, undan keyin siynabandlarini yechishardi, shu bilan tomosha tugardi. Tomoshabinlar u yog‘ini ham yechishsin, deb talab qilishdi.

– Xo‘sh?

– U yog‘iga alohida pul to‘lash kerak, u yog‘i qimmat turadi, deb fohishalar unamadi.

– Unaydiganlarini top unda. Topmasang, bilib qo‘y, fohishalarning o‘rnida o‘zingni o‘ynataman.

Majlis ana shunday taranglikda nihoya topdi.

## O‘XSHATMASDAN UCHRATMAS

*(yoki Shaytonvachchanning «TAQVO» kafesida ko‘rgankechirganlari)*

Ajinashamol Shaytonvachchani osmonu falakda bir aylantirgandan ming aylantirib, kun botguncha uchirib yurdi. Oxiri charog‘on bir shaharning yanada charog‘on bir go‘shasiga tashlab ketdi. U tushgan joy gullari qurigan, suvi o‘chgan favvora atrofidagi maydoncha edi. Shunday bo‘lsa ham o‘rindiqlar bo‘sh emas, se-vishganlar bilan obod. Ular osmonu falakdan gup etib tushgan nimarsadan qo‘rqib, ura qochib qolishdi. Lekin uzoqlab ketishmadi. Qiziquvchanlik yomon-da. Bunday qarab, osmondan tushgan narsa odam ekanligini payqab qolishdi. Vo ajab... Yaqin o‘rtada daraxt bo‘lganda ham boshqa gap edi. Daraxtdan sakradi-da,

айланиб, ҳамон ўзига кела олмасди. Атрофидаги нарсалар гир-гир айланар, кўз олдидан аллақандай чироқлар чизик тортиб ўтарди. Улар осмондаги юлдузларга ҳечам ўхшамасди. У бир амаллаб ҳозиргина ошиқлар ташлаб қочган ўриндиқлардан бирига ўтириб, кўзларини чирт юмиб олди. Шу пайт:

– Ҳей, – деб биров елкасидан туртди.

Шайтонвачча истамайгина ўгирилди. Кимдир «ич» дегандек унга баклашка тутди. У ўлардек чанқаган, очиққан эди. Одам болалари барибир яхшида. Меҳрибон. Узатилган баклашкани олибоқ оғзига тутди. Аммо зум ўтмай оғзидагини пуркаб ташлади. У сув эмас, захар-заққум бир нарса экан.

– Сув, сув бер, – деди ўқчиб.

Қўлига бошқа баклашкани тутқазишди. Хайрият, буниси сув экан. Мириқиб-мириқиб ичди. Жисми жони яйраб кетди. Сув қанчалар мўжиза-я! Таърифлашга сўз ожиз. Шайтонвачча сал бўлмаса Худога шукр, деб юборай деди. У одамлар орасида минг марталаб Худога шукр, дерди-ю, лекин ўзи ёлғиз қолганда зинҳор-базинҳор айтмас эди.

Шайтонваччага меҳр ва оқибат кўрсатганлар пиёнисталар эди. Салда улар нари кетиб, ўрнини ёш йигит-қизлар эгаллади. Учрашувга чиққан қизлардан атир бўйлари анқирди.

– Бу ерга қаёқдан келиб қолдингиз, ака?

Қиз боланинг «ака» деган қўнғирокдек овози унга бирам ёқди. Шунгами, шошиб қолиб, ёлғон гапира олмади. Шайтонвачча боши билан осмонга ишора қилди.

– У ёқдан.

– Вой, у ёқда нима қилиб юрувдингиз ё самалётдан йиқилиб тушдингизми?

Тавба, бунча ёқимли бу қизнинг овози. Шайтонвачча Хўжақишлоқда юриб, қизлар билан ошқатик бўлмаган, бунчалик нафаси нафасига тегиб гаплашмаган эди. Қизлар Овсар деб калака қилиб, ўзларини ундан олиб қочарди. Ҳатто олтин медаллар

desa. Shaytonvachcha tik oyoqda tura olmay, nuqul bir joyda mast odamdek qiltanglardi. Ajinashamolning belanchagida boshi aylanib, hamon o'ziga kela olmasdi. Atrofidagi narsalar gir-gir aylanar, ko'z oldidan allaqanday chiroqlar chiziq tortib o'tardi. Ular osmondagi yulduzlarga hecham o'xshamasdi. U bir amallab hozirgina oshiqlar tashlab qochgan o'rindiqlardan biriga o'tirib, ko'zlarini chirt yumib oldi. Shu payt:

– Hey, – deb biron yelkasidan turtdi.

Shaytonvachcha istamaygina o'girildi. Kimdir «ich» degandek unga baklashka tutdi. U o'lardek chanqagan, ochiqqan edi. Odam bolalari baribir yaxshida. Mehribon. Uzatilgan baklashkani oliboq og'ziga tutdi. Ammo zum o'tmay og'zidagini purkab tashladi. U suv emas, zahar-zaqqum bir narsa ekan.

– Suv, suv ber, – dedi o'qchib.

Qo'lga boshqa baklashkani tutqazishdi. Xayriyat, bunisi suv ekan. Miriqib-miriqib ichdi. Jismi joni yayrab ketdi. Suv qanchalar mo'jiza-ya! Ta'riflashga so'z ojiz. Shaytonvachcha sal bo'lmasa Xudoga shukr, deb yuboray dedi. U odamlar orasida ming martalab Xudoga shukr, derdi-yu, lekin o'zi yolg'iz qolganda zinhor-bazinhor aytmas edi.

Shaytonvachchaga mehr va oqibat ko'rsatganlar piyonistalar edi. Salda ular nari ketib, o'rnini yosh yigit-qizlar egalladi. Uchrashuvga chiqqan qizlardan atir bo'ylari anqirdi.

– Bu yerga qayoqdan kelib qoldingiz, aka?

Qiz bolaning «aka» degan qo'ng'iroqdek ovozi unga biram yoqdi. Shungami, shoshib qolib, yolg'on gapi-ra olmadi. Shaytonvachcha boshi bilan osmonga ishora qildi.

– U yoqdan.

– Voy, u yoqda nima qilib yuruvdingiz yo samalyotdan yiqilib tushdingizmi?

Tavba, buncha yoqimli bu qizning ovozi. Shaytonvachcha Xo'jaqishloqda yurib, qizlar bilan osh-qatiq bo'lmagan, bunchalik nafasi nafasiga tegib gaplashma-

олиб, машхур бўлиб кетганида ҳам қибла қиё қараб қўйишмаган.

– Мени Ажинашамол учириб келди, – деди у яна рост гапириб.

– Вой, анави, нукул «тарнада, тарнада» деб ваҳима қилишади-ку, ўшами?

– Ўша десаям бўлади, – деб Шайтонвачча қизини бегона йигит билан гаплаштириб қўйиб, ўзи бир чеккада бепарво қараб турган йигитга қаради. «Шалвирамай ўл, эссиз қиз сенга», – деб қўйди ичида.

– Вой, қаёқларга келиб қолганингизни ҳам бил-массиз унда? – меҳрибончилик билан сўради қиз.

– Ўзи шаҳарга отланиб турувдим, яхши қиз...

– Ана холос, унда теппа-текин кевобсиз-да.

– Шунақага ўхшайди...

– Жа кўп гапирвординг-да, – деди ниҳоят йигитининг гаши келиб.

– Жа қизиқсиз-а, одамгарчилик деган гаплар бор-ку дунёда. Ундан кўра танишайлик, дўст бўлайлик, демайсизми? Менинг исмим Азиза, – деб Шайтонваччага қўл чўзди қиз.

– Камина Шайтон бўламан, – деб қизнинг кафтини кафтига олди Шайтонвачча.

Қиз бирдан қаҳ-қаҳ отиб кулиб юборди. Шайтонваччанинг гапи унга нашъа қилган эди.

– Вой, қўлларингиз совқотиб қопти-ку, Шайтон ака.

– Тепа совуқ-да, – деб яна тепага ишора қилди Шайтонвачча.

– Ҳеч ерингиз оғримадими, бир гурсиллаб тушдингизки ўзиям, Шайтон ака, – деб қиз яна кулди.

– Йўқ, ташвиш қилманг, отдекман, – деб Шайтонвачча ўрнидан туриб, ёш боладек қўлларини икки ёққа ёзиб, ер тепиниб, бир-икки сакраб қўйди. Шу пайт унинг кўзи рўпарадаги «Такво» кафеси» деган ёзувга тушди-ю, нотаниш қизнинг кўнғирокдек овозини ҳам, меҳрибончилигини ҳам унутди. Хушбўй



gan edi. Qizlar Ovsar deb kalaka qilib, o‘zlarini undan olib qochardi. Hatto oltin medallar olib, mashhur bo‘lib ketganida ham qibla qiyo qarab qo‘yishmagan.

– Meni Ajinashamol uchirib keldi, – dedi u yana rost gapirib.

– Voy, anavi, nuqul «tarnada, tarnada» deb vahima qilishadi-ku, o‘shami?

– O‘sha desayam bo‘ladi, – deb Shaytonvachcha qizini begona yigit bilan gaplashtirib qo‘yib, o‘zi bir chekkada beparvo qarab turgan yigitga qaradi. «Shalviramay o‘l, essiz qiz senga», – deb qo‘ydi ichida.

– Voy, qayoqlarga kelib qolganingizni ham bilmasiz unda? – mehribonchilik bilan so‘radi qiz.

– O‘zi shaharga otlanib turuvdim, yaxshi qiz...

– Ana xolos, unda teppa-tekin kevobsiz-da.

– Shunaqaga o‘xshaydi...

– Ja ko‘p gapirvording-da, – dedi nihoyat yigitining g‘ashi kelib.

– Ja qiziqsiz-a, odamgarchilik degan gaplar bor-ku dunyoda. Undan ko‘ra tanishaylik, do‘st bo‘laylik, demaysizmi? Mening ismim Aziza, – deb Shaytonvachchaga qo‘l cho‘zdi qiz.

– Kamina Shayton bo‘laman, – deb qizning kaftini kaftiga oldi Shaytonvachcha.

Qiz birdan qah-qah otib kulib yubordi. Shaytonvachchanning gapi unga nash‘a qilgan edi.

– Voy, qo‘llaringiz sovqotib qopti-ku, Shayton aka.

– Tepa sovuq-da, – deb yana tepaga ishora qildi Shaytonvachcha.

– Hech yeringiz og‘rimadimi, bir gursillab tushdingizki o‘ziyam, Shayton aka, – deb qiz yana kuldi.

– Yo‘q, tashvish qilmang, otdekman, – deb Shaytonvachcha o‘rnidan turib, yosh boladek qo‘llarini ikki yoqqa yozib, yer tepinib, bir-ikki sakrab qo‘ydi. Shu payt uning ko‘zi ro‘paradagi «Taqvo» kafesi» degan yozuvga tushdi-yu, notanish qizning qo‘ng‘iroqdek ovozi ham, mehribonchiligini ham unutdi. Xushbo‘y

атир хидлари ҳам эсидан чикди. Орқасидаги сафар халтачасини бир ушлаб қўйиб:

– Кечирасиз, яхши қиз, мен бўридек очман, – деб хайр-маъзурни ҳам насия қилиб, кафега қараб юриб қолди.

– Биз-чи, бизни таклиф қилмайсизми, Шайтон ака? – деб орқасидан қикирлаб кулди қиз.

– Шайтонлар ўз овқатига бировни шерик қилмайдилар, яхши қиз, – деб Шайтонвачча яна ростини айтди.

Кафега киргач, турли-туман овқатлар ҳидидан Шайтонваччанинг боши айланиб, кўзи тинди. Столга ўтирмасданок елкасига сочиқ ташлаб, бир кўлида чилоччин, бир кўлида офтоба кўтариб олган йигитча пайдо бўлди. Шайтонваччанинг миясига «Такво» деган ёзув гуп этиб урди. Такво одобини сақлаб, шошмай кўлини ювди. Бармоқлари орасига хилол қилди. Камига оғзини ҳам чайиб қўйди. Шундан кейин бошқа бир йигит пайдо бўлиб, кўлига таомнома тутқазиб, одоб билан рўпарасида кўл қовуштириб турди. Таомномани ўқиб, Шайтонваччанинг яна кўзи тиниб, боши айланди. У шу тобда бутун дунёни еб ташлашга тайёр эди.

– Нима бўлса, барини обкелаверинг, – буюрди у.

Шайтонвачча яқин ўртада бунақа бўкиб овқат емаган эди. Бечора официант йигит овқат ташиб чарчади. Бу ўтирган одамми ё аждарҳоми, деб қараб-қараб қўярди. Овқатдан кейин Шайтонвачча бир самовар чойни ҳам кўрдим демади. Энди ҳисоб-китоб қилиб, шу ердаги йигитлардан бошпана сўрайман, деб турганда, бирдан кафеда тўс-тўполон бошланиб кетди. Формали-формасиз миршаблар келиб, хўрандалардан кафени тезда бўшатиб қўйишларини сўрашди. Тезда чироқлар ўчирилиб, эшиклар сўрғичланиб, «Антисанитария, кафе уч-тўрт кунга ёпилади» деган ёзув осилди.

– Бирортаси овқатдан заҳарланган бўлса керакда, – деди хўрандалардан бири.

atir hidlari ham esidan chiqdi. Orqasidagi safar xaltachasini bir ushlab qo'yib:

– Kechirasiz, yaxshi qiz, men bo'ridek ochman, – deb xayr-ma'zurni ham nasiya qilib, kafega qarab yurib qoldi.

– Biz-chi, bizni taklif qilmaysizmi, Shayton aka? – deb orqasidan qiqirlab kuldi qiz.

– Shaytonlar o'z ovqatiga birovni sherik qilmaydilar, yaxshi qiz, – deb Shaytonvachcha yana rostini aytdi.

Kafega kirgach, turli-tuman ovqatlar hididan Shaytonvachchanning boshi aylanib, ko'zi tindi. Stolga o'tirmasdanoq yelkasiga sochiq tashlab, bir qo'lida chilobchin, bir qo'lida oftoba ko'tarib olgan yigitcha paydo bo'ldi. Shaytonvachchanning miyasiga «Taqvo» degan yozuv gup etib urdi. Taqvo odobini saqlab, shoshmay qo'lini yuvdi. Barmoqlari orasiga xilol qildi. Kamiga og'zini ham chayib qo'ydi. Shundan keyin boshqa bir yigit paydo bo'lib, qo'lga taomnoma tutqazib, odob bilan ro'parasida qo'l qovushtirib turdi. Taomnomani o'qib, Shaytonvachchanning yana ko'zi tinib, boshi aylandi. U shu tobda butun dunyoni yeb tashlashga tayyor edi.

– Nima bo'lsa, barini obkelavering, – buyurdi u.

Shaytonvachcha yaqin o'rtada bunaqa bo'kib ovqat yemagan edi. Bechora ofitsiant yigit ovqat tashib charchadi. Bu o'tirgan odammi yo ajdarhomi, deb qarab-qarab qo'yardi. Ovqatdan keyin Shaytonvachcha bir samovar choyni ham ko'rdim demadi. Endi hisob-kitob qilib, shu yerdagi yigitlardan boshpana so'rayman, deb turganda, birdan kafeda to's-to'polon boshlanib ketdi. Formali-formasiz mirshablar kelib, xo'randalardan kafeni tezda bo'shatib qo'yishlarini so'rashdi. Tezda chiroqlar o'chirilib, eshiklar so'rg'ichlanib, «Antisanitariya, kafe uch-to'rt kunga yopiladi» degan yozuv osildi.

– Birortasi ovqatdan zaharlangan bo'lsa kerak-da, – dedi xo'randalardan biri.

– Худо урди-кетди, кимсан «Такво» ошхонасида-я, бўлмаган гап...

Шайтонвачча эйтибор қилса, ёшроқ битта киши бир нималар деб келганлар атрофида ерпатак бўлиб юрибди. Келганларнинг бўлса парвойи фалак. «Бугун кулоғимиз кар, эртага идорага боринг, ўша ерда гаплашамиз», – деб тўнғиллаб қўйишарди. Шайтонвачча билдики, ўша ерпатак бўлиб юрган одам кафенинг эгаси. Шунинг учун оёқларига йиқилиб, «Қулингиз бўлай», дейишгача боряпти. Бу Шайтонваччага ёқмади. «Такво» кафесининг эгаси ҳам шунақа пасткаш бўладими? Нимага бунчалик кўрқади?

Унга яқин борди-да, билагидан ушлаб:

– Бу ёққа юринг, ака, – деб четга тортди.

У келганларнинг одами бўлса керак, деб ўйлаб, Шайтонвачча бошлаган томонга юрақолди. Шошмай бир ўриндиққа бориб ўтиришди. Кафенинг эгаси: «Нима деркин, тезроқ гапирақолса-чи», – деб Шайтонваччанинг оғзини пойлади. Шайтонвачча унинг тиззасини хотиржам бўлинг, дегандек босиб қўйди-да:

– Бунақа шошиб қолманг-да, кадрдон, қўяверинг, улар расмиятчилик ишларини қилиб олишсин, кейин бафуржа гаплашамиз, – деди. Бу гап кафе эгасига ёқиб тушди. Енгил нафас олди. «Ҳа, бунақа одамлар ўртакашларини ҳам ўзлари билан олиб юришади», – деган ўй кўнглидан кечди. Бу ўртада Шайтонвачча айтган акахонлар ҳаммаёқни сўрғичлаб, устига-устак кафенинг тўрт тарафига тўртта кўриқчи ҳам қўйиб, жўनावоришди.

– Э, – деди кафе эгаси капалаги учиб, – кўриқчи қўйганларингиз нимаси? Шартингизни айта қолинг, ука, етса молим, етмаса жоним, – деб у Шайтонваччага қаради.

– Мана бу пулни олиб қўйсангиз, – деб Шайтонвачча унга бир сиқим пул узатди.

– А, бу қанақа пул? – ҳайрон бўлди кафе эгаси.

– Ошпазларингиз зўр экан, таомларингизга гап

– Xudo urdi-ketdi, kimsan «Taqvo» oshxonasida-ya, bo‘lmagan gap...

Shaytonvachcha e’tibor qilsa, yoshroq bitta kishi bir nimalar deb kelganlar atrofida yerpatak bo‘lib yuribdi. Kelganlarning bo‘lsa parvoyi falak. «Bugun qulog‘imiz kar, ertaga idoraga boring, o‘sha yerda gaplashamiz», – deb to‘ng‘illab qo‘yishardi. Shaytonvachcha bildiki, o‘sha yerpatak bo‘lib yurgan odam kafening egasi. Shuning uchun oyoqlariga yiqilib, «Qulingiz bo‘lay», deyishgacha boryapti. Bu Shaytonvachchaga yoqmadidi. «Taqvo» kafesining egasi ham shunaqa pastkash bo‘ladimi? Nimaga bunchalik qo‘rqadi?

Unga yaqin bordi-da, bilagidan ushlab:

– Bu yoqqa yuring, aka, – deb chetga tortdi.

U kelganlarning odami bo‘lsa kerak, deb o‘ylab, Shaytonvachcha boshlagan tomonga yuraqoldi. Shoshmay bir o‘rindiqa borib o‘tirishdi. Kafening egasi: «Nima derkin, tezroq gapiraqolsa-chi», – deb Shaytonvachchaning og‘zini poyladi. Shaytonvachcha uning tizzasini xotirjam bo‘ling, degandek bosib qo‘yida:

– Bunaqa shoshib qolmang-da, qadrdon, qo‘yavering, ular rasmiyatchilik ishlarini qilib olishsin, keyin bafurja gaplashamiz, – dedi. Bu gap kafe egasiga yoqib tushdi. Yengil nafas oldi. «Ha, bunaqa odamlar o‘rtakashlarini ham o‘zlari bilan olib yurishadi», – degan o‘y ko‘nglidan kechdi. Bu o‘rtada Shaytonvachcha aytgan akaxonlar hammayoqni so‘rg‘ichlab, ustiga-ustak kafening to‘rt tarafiga to‘rtta qo‘riqchi ham qo‘yib, jo‘navorishdi.

– E, – dedi kafe egasi kapalagi uchib, – qo‘riqchi qo‘yganlaringiz nimasi? Shartingizni ayta qoling, uka, yetsa molim, yetmasa jonim, – deb u Shaytonvachchaga qaradi.

– Mana bu pulni olib qo‘ysangiz, – deb Shaytonvachcha unga bir siqim pul uzatdi.

– A, bu qanaqa pul? – hayron bo‘ldi kafe egasi.

йўқ, маза қилдим. Энди ҳақини тўлайман, деб турсам, манови тўс-тўполон бошланиб, йигитларингиз нимагадир куённи сурворишди. Ҳақингизни олинг, деб сизни бу ёққа бошлаганим. Ҳаромдан парҳезим бор, ака.

– Э, сен уларнинг одамимасмисан ҳали? – сенсираб юборди кафе эгаси жаҳл билан.

– Бугун қишлоқдан келиб турибман, уларни танитайман, ака. Лекин бунчалик сиқилманг, бу дунёда битмайдиган ишнинг ўзи йўқ. Ундан кейин унақаларнинг олдида жуда паст кетманг. Қанча паст кетсангиз, шунча тепангизга чиқиб олишади, айби бор экан, деб. Аҳволингизни кўриб, юрагим ачишиб кетди. Шунга атайлаб сизни четга тортганим. Ошхонангизнинг номи «Тақво» экан, бунақа жойдан қинғирлик чиқишига ишонмайман. Энди мен борай, ҳали бу катта шаҳардан бошпана ҳам қидиришим керак.

Шайтонвачча орқасидаги сафар халтасини бир силкитиб олиб, кета бошлади. Нотаниш бир одамнинг бу гап-сўзлари кафе эгасини ўйлантириб қўйди. Кафеда қанча хўранда бор эди. Бари пайтдан фойдаланиб қочворишди. Бу хўранда ростданам тақводор экан. Гап-сўзлари маънили. У Шайтонвачча берган кафтидаги пулга бир қаради-да:

– Тўхта, ҳов ука, – деди.

Шайтонвачча эшитса ҳам жўртага эшитмаганга олиб йўлида кетаверди.

– Ука дейман, ҳов...

Шайтонвачча орқасига қараб, чироқ ёруғига чикди-да, «Мени чақиряпсизми?» – дегандек ишора қилди.

– Борадиган жойинг бўлмаса, бизникида қола қол, демокчийдим.

Шайтонвачча бу гапдан бағоят хурсанд бўлганини билдириб қўйиш учун истикболига чопа қолди.

– Раҳмат, ака, бемаҳалда бир мусофирнинг мушқулини осон қилдингизми, сизнинг мушқулингизни Худойимнинг ўзи осон қилсин, омин...

– Oshpazlaringiz zo‘r ekan, taomlaringizga gap yo‘q, maza qildim. Endi haqini to‘layman, deb tursam, manovi to‘s-to‘polon boshlanib, yigitlaringiz nimaga-dir quyonna survorishdi. Haqingizni oling, deb sizni bu yoqqa boshlaganim. Haromdan parhezim bor, aka.

– E, sen ularning odamimasmisan hali? – sensirab yubordi kafe egasi jahl bilan.

– Bugun qishloqdan kelib turibman, ularni tanimayman, aka. Lekin bunchalik siqilmang, bu dunyoda bitmaydigan ishning o‘zi yo‘q. Undan keyin unaqalarning oldida juda past ketmang. Qancha past ketsangiz, shuncha tepangizga chiqib olishadi, aybi bor ekan, deb. Ahvolingizni ko‘rib, yuragim achishib ketdi. Shunga ataylab sizni chetga tortganim. Oshxonangizning nomi «Taqvo» ekan, bunaqa joydan qing‘irlik chiqishiga ishonmayman. Endi men boray, hali bu katta shahardan boshpana ham qidirishim kerak.

Shaytonvachcha orqasidagi safar xaltasini bir silkitib olib, keta boshladi. Notanish bir odamning bu gap-so‘zlari kafe egasini o‘ylantirib qo‘ydi. Kafeda qancha xo‘randa bor edi. Bari paytdan foydalanib, qochvorishdi. Bu xo‘randa rostdanam taqvodor ekan. Gap-so‘zlari ma’nili. U Shaytonvachcha bergan kaftidagi pulga bir qaradi-da:

– To‘xta, hov uka, – dedi.

Shaytonvachcha eshitsu ham jo‘rtaga eshitmaganga olib yo‘lida ketaverdi.

– Uka deyman, hov...

Shaytonvachcha orqasiga qarab, chiroq yorug‘iga chiqdi-da, «Meni chaqiryapsizmi?» – degandek ishora qildi.

– Boradigan joying bo‘lmasa, biznikida qola qol, demoqchidim.

Shaytonvachcha bu gapdan bag‘oyat xursand bo‘lganini bildirib qo‘yish uchun istiqboliga chop qoldi.

– Rahmat, aka, bemahalda bir musofirning mushkulini oson qildingizmi, sizning mushkulingizni Xudo-

Дуо ҳам жуда ўрнига тушди. Буни ўхшатмасдан учратмас, десалар керак.

## ҚАЕРЛИКСАН, УКА?

*(ёки Шайтонваччанинг ишлари яна юриша бошлагани)*

Кафе эгаси эшик деразаларигача сўрғичланиб, бир эмас, тўртта қоровул қўйилган кафега армон билан каради-да, чуқур уҳ тортди. Наҳотки бу пултопар кафесини охирги марта кўриб турган бўлса? Наҳотки қўлидан чиқиб кетса? Қоровуллар уни баттар бетоқат қиларди. Шарбат тайёрлайдиган эшикни очиб олсаёқ бўлди эди. Ҳамма ишқаллик, ҳамма касофат ўша ерда. Ҳойнаҳой, булар ўша ердаги ишдан хабар топишган. Бўлмаса, бунчалик ваҳима билан келишмасди. Ҳа, чақув бўлган. Ким чаққанини ҳам билмайдимас, билади... Наҳотки бу қоровуллардан бирортасини қўлга олиб бўлмаса? Ахир, буларда ҳам бола-чақа, нафс деган нарса бор-ку.

У қоровуллардан бирига яқинлашмоқчи бўлди.

– Яқинлашма, отаман, – деди у қоровул тезда қурол ўқталиб.

– Оббо, одам боласининг пашшачалик ҳам қадри қолмади-да бу дунёда, мана, турибман, отсанг ота-қол.

– Вазифамиз шунақа, яхшиликча кетинг бу ердан.

– Ака, – деди Шайтонвачча яна йигитни четга тортиб, – ниятингизни билиб турибман. Булар битта ёки иккита бўлганда ҳам бошқа гап эди. Кўриб турибсиз, тўртта. Мураса қилиб бўлмайди ҳозир булар билан. Қўйинг, бекорга йигит сўзингизни ўлдирманг, фойдаси йўқ. Лекин боя айтдим-ку, бу дунёда битмайдиган ишнинг ўзи йўқ, деб. Юринг, кетайлик, уйга бориб яхшилаб ўйлаб кўрамиз. Таниш-билишларингизга қўнғироқ қиламиз. Тун узун, эртаметангача бирор чораси топилар. Кейин сизга тегишмади-ку, шундан билаверингки, бу ерда



yimning o‘zi oson qilsin, omin...

Duo ham juda o‘rniga tushdi. Buni o‘xshatmasdan uchratmas, desalar kerak.

## QAYERLIKSAN, UKA?

*(yoki Shaytonvachchaning ishlari yana yurisha boshlagani)*

Kafe egasi eshik derazalarigacha so‘rg‘ichlanib, bir emas, to‘rtta qorovul qo‘yilgan kafega armon bilan qaradi-da, chuqur uh tortdi. Nahotki bu pul topar kafesini oxirgi marta ko‘rib turgan bo‘lsa? Nahotki qo‘lidan chiqib ketsa? Qorovullar uni battar betoqat qilardi. Sharbat tayyorlaydigan eshikni ochib olsayoq bo‘ldi edi. Hamma ishkallik, hamma kasofat o‘sha yerda. Hoynahoy, bular o‘sha yerdagi ishdan xabar topishgan. Bo‘lmasa, bunchalik vahima bilan kelishmasdi. Ha, chaquv bo‘lgan. Kim chaqqanini ham bilmaydimas, biladi... Nahotki bu qorovullardan birortasini qo‘lga olib bo‘lmasa? Axir, bularda ham bola-chaqa, nafs degan narsa bor-ku.

U qorovullardan biriga yaqinlashmoqchi bo‘ldi.

– Yaqinlashma, otaman, – dedi u qorovul tezda qurol o‘qtalib.

– Obbo, odam bolasining pashshachalik ham qadri qolmadi-da bu dunyoda, mana, turibman, otsang otaqol.

– Vazifamiz shunaqa, yaxshilikcha keting bu yerdan.

– Aka, – dedi Shaytonvachcha yana yigitni chetga tortib, – niyatingizni bilib turibman. Bular bitta yoki ikkita bo‘lganda ham boshqa gap edi. Ko‘rib turib-siz, to‘rtta. Murosa qilib bo‘lmaydi hozir bular bilan. Qo‘ying, bekorga yigit so‘zingizni o‘ldirmang, foydasi yo‘q. Lekin boya aytdim-ku, bu dunyoda bitmaydigan ishning o‘zi yo‘q, deb. Yuring, ketaylik, uyga borib yaxshilab o‘ylab ko‘ramiz. Tanish-bilishlaringizga qo‘ng‘iroq qilamiz. Tun uzun, ertametangacha biror

жиддий гап йўқ. Уч-тўрт кун сарсон қилишади-ю, оладиганини олиб, кейин ишлайверинг, дейишади.

Кафе эгаси Шайтонваччага бошдан оёқ разм солиб, ханг-манг бўлиб қолди. Наҳотки калласи шу болачалик ишламаса?! Наҳотки мол-дунё ташвиши уни шунчалар анқов қилиб қўйди?!

– Тўғри айтасан, ука, ўтир машинага, кетдик, – деди-да, орқасидан болахонадор қилиб сўкинди. Шундоқ сўкиндики, нақ таҳоратли одам эшитса, таҳорати кетарди.

Шайтонвачча алламбало, лўмбиллама машинада мазза қилиб борар экан, Шара-барачи билан учрашган вақтларини эслади. Ўшанда тақдир уни эшак аравада Хўжақишлоққа олиб борган ва кўз кўриб, кулоқ эшитмаган хангомаларни бошидан кечирган эди. Энди тақдир деганлари уни бу лўмбиллама машинада қаёқларга олиб кетяпти? Олдинда уни нималар кутяпти? Ҳарқалай, Шара-барачи содда, тўпори, меҳрибон бир одам эди. Ҳар қанча лақиллатса бўларди. Буниси унақамас, бозор кўрган, бизнес одами. Нима бўлганда ҳам унинг ишончига кириб олиши керак.

– Мусофирман дединг, қаерликсан, ука? – кутилмаганда сўраб қолди у.

– Хўжақишлоқдан.

Шайтонвачча шошиб қолган пайтларида тўғриси айтиб юборар ва бу унинг бошига кўпгина кўргиликлар олиб келарди.

– Хўжақишлоқнинг қаерда?

– Дўмбира қишлоқнинг ёнида.

– Дўмбира қишлоқнинг қаерда?

– Қаерда бўларди, Хўжақишлоқнинг ёнида-да, ака.

Кафе эгаси бу жавобдан кулиб қўйди-ю, бошқа савол бермади. Ҳалол одамлар ўзи қишлоқдан чиқади. Бу болага ҳам ақл-фаросатдан Худо берибди. Тўпори бўлса ҳам бир-икки оғиз гап-сўзи билан кимсан, бизнес бўрисининг ҳам кўзини очиб қўйди.

– Унда танишиб қўяйлик, отинг нима?

– Отим Кавсар, қишлоқдаги ўртоқларим нукул

chorasi topilar. Keyin sizga tegishmadi-ku, shundan bilaveringki, bu yerda jiddiy gap yo‘q. Uch-to‘rt kun sarson qilishadi-yu, oladiganini olib, keyin ishlayvering, deyishadi.

Kafe egasi Shaytonvachchaga boshdan oyoq razm solib, hang-mang bo‘lib qoldi. Nahotki kallasi shu bolachalik ishlamas?! Nahotki mol-dunyo tashvishi uni shunchalar anqov qilib qo‘ydi?!

– To‘g‘ri aytasan, uka, o‘tir mashinaga, ketdik, – dedi-da, orqasidan bolaxonador qilib so‘kindi. Shundoq so‘kindiki, naq tahoratli odam eshitsu, tahorati ketardi.

Shaytonvachcha allambalo, lo‘mbillama mashinada mazza qilib borar ekan, Shara-barachi bilan uchrashgan vaqtlarini esladi. O‘shanda taqdir uni eshak aravada Xo‘jaqishloqqa olib borgan va ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan hangomalarni boshidan kechirgan edi. Endi taqdir deganlari uni bu lo‘mbillama mashinada qayoqlarga olib ketyapti? Oldinda uni nimalar kutyapti? Harqalay, Shara-barachi sodda, to‘pori, mehribon bir odam edi. Har qancha laqillatsa bo‘lardi. Bunisi unaqamas, bozor ko‘rgan, biznes odami. Nima bo‘lganda ham uning ishonchiga kirib olishi kerak.

– Musofirman deding, qayerliksan, uka? – kutilmaganida so‘rab qoldi u.

– Xo‘jaqishloqdan.

Shaytonvachcha shoshib qolgan paytlarida to‘g‘risini aytib yuborar va bu uning boshiga ko‘pgina ko‘rgiliklar olib kelardi.

– Xo‘jaqishlog‘ing qayerda?

– Do‘mbira qishloqning yonida.

– Do‘mbira qishlog‘ing qayerda?

– Qayerda bo‘lardi, Xo‘jaqishloqning yonida-da, aka.

Kafe egasi bu javobdan kulib qo‘ydi-yu, boshqa savol bermadi. Halol odamlar o‘zi qishloqdan chiqadi. Bu bolaga ham aql-farosatdan Xudo beribdi. To‘pori bo‘lsa ham bir-ikki og‘iz gap-so‘zi bilan kimsan, biznes bo‘risining ham ko‘zini ochib qo‘ydi.

Овсар деб чақиришади, – деб кулди Шайтонвачча. Бу сафар отим Шайтон дейишдан ўзини тийди. Бояги киз тушмагур бижирлаб, уни сеҳрлаб қўйди-да, шунга тўғриси айтиб юборақолди. Шайтонлигига барибир у киз ишонмади.

– Овсар дейишади, дегин? – деб кулди йигит.

– Кулинг, ака, кулинг. Енгил тортасиз. Одатда, одам боласи фалокат юз берган жойдан кутурган итдан қочгандек қочиши керак. Бўлмаса, фалокат деганлари уни ҳаш-паш дегунча ўз гирдобига тортиб кетади. Сиз бўлса ўша савил қолгур тўртта деворни деб жонингизни хатарга қўйиб, қаёқдагиларга ялиниб юрибсиз. Худо кўрсатмасин, миршаб отиб қўйса нима бўлади? Отгани учун у мукофот олади. Кетганда сизнинг ёш жонингиз кетади. Бошингиз омон бўлса, ҳали унақа кафелардан нечтасини қурасиз-у...

– Э, отангга балли, Кавсаржон. Ростини айтайми, ука, сени менга Худонинг ўзи етказди. Кафени «Тақво» деб номлаганим Худога ёқди, шекилли. Ичимга чироқ ёқвординг, ука. У ёғини сўрасанг, қора кунимга деб уч қаватли қаср қуриб қўйганман. Ҳозир кўрасан. Ўшанинг пули билан мана мен деган аждарҳосининг ҳам оғзига уриб ташлайман. Шундай қилиб, Хўжақишлоқданман, дегин?

– Ҳа, ака, Хўжақишлоқданман.

– Бу дейман, жа гап-сўзларинг пухтагина, устозинг ким?

Шайтонваччанинг кўз олдига тепкилаб-тепкилаб катта қилган онаси ва «Думи тугуклар» мадрасасидаги устозлари келди:

– Айтсам оғзингиздан гуллаб қўймайсизми, ака? – деди у секингина.

Кафе эгаси ҳайрон бўлиб Шайтонваччага қаради. Ўзича билағонлик қилиб:

– Устозинг ваҳобийми? – деб сўради.

– Ҳа, й-ў-ў-қ...

– Ҳизбими, бор-у шунақаси?

– Э, унданам баттари.

– Ваҳ, унданам баттари борми? Айт, ука, би-

– Unda tanishib qo‘yaylik, oting nima?

– Otim Kavsar, qishloqdagi o‘rtoqlarim nuqul Ovsar deb chaqirishadi, – deb kuldi Shaytonvachcha. Bu safar otim Shatyon deyishdan o‘zini tiydi. Boyagi qiz tushmagur bijirlab, uni sehrlab qo‘ydi-da, shunga to‘g‘risini aytib yuboraqoldi. Shaytonligiga baribir u qiz ishonmadi.

– Ovsar deyishadi, degin? – deb kuldi yigit.

– Kuling, aka, kuling. Yengil tortasiz. Odatda, odam bolasi falokat yuz bergan joydan quturgan itdan qochgandek qochishi kerak. Bo‘lmasa, falokat deganlari uni hash-pash deguncha o‘z girdobiga tortib ketadi. Siz bo‘lsa o‘sha savil qolgur to‘rtta devorni deb joningizni xatarga qo‘yib, qayoqdagilarga yalinib yuribsiz. Xudo ko‘rsatmasin, mirshab otib qo‘ysa nima bo‘ladi? Otgani uchun u mukofot oladi. Ketganda sizning yosh joningiz ketadi. Boshingiz omon bo‘lsa, hali unaqa kafelardan nechtasini qurasiz-u...

– E, otangga balli, Kavsarjon. Rostini aytaymi, uka, seni menga Xudoning o‘zi yetkazdi. Kafeni «Taqvo» deb nomlaganim Xudoga yoqdi, shekilli. Ichimga chiroq yoqvording, uka. U yog‘ini so‘rasang, qora kunimga deb uch qavatli qasr qurib qo‘yganman. Hozir ko‘rasan. O‘shaning puli bilan mana men degan ajdarhosining ham og‘ziga urib tashlayman. Shunday qilib, Xo‘jaqishloqdanman, degin?

– Ha, aka, Xo‘jaqishloqdanman.

– Bu deyman, ja gap-so‘zlaring puxtagina, ustozing kim?

Shaytonvachchaning ko‘z oldiga tepkilab-tepkilab katta qilgan onasi va «Dumi tuguklar» madrasasidagi ustozlari keldi:

– Aytsam og‘zingizdan gullab qo‘ymaysizmi, aka? – dedi u sekingina.

Kafe egasi hayron bo‘lib Shaytonvachchaga qaradi. O‘zicha bilag‘onlik qilib:

– Ustozing vahobiymi? – deb so‘radi.

– Ha, y-o‘-o‘-q...

– Hizbimi, bor-u shunaqasi?

либ қўйганимиз яхши-да, яна адашиб-падашиб юрмайлик.

– Устозим шайтон бўлади, ака, ҳ-а-а-а, шай-т-о-о-о-н... – тўғриси айтиб қўя қолди Шайтонвачча.

Йигит ўзини тутолмай, орқага ташлаб, ха-холаб кулиб юборди. Сал бўлмаса рул қўлидан чиқиб, бир фалокат юз берай деди. Йигит мириқиб-мириқиб роса кулди. Кейин Шайтонваччага қараб:

– Кўриниб турибди, ҳазилниям тешиб қўяркансан, ука, қанийди шайтондан дарс олган сендақалар кўпроқ бўлса, оғзинг қани, деса, қулоғини кўрсатадиганлар кўпайиб кетган ҳозир.

– Қўйинг-е, шаҳарлик ёшлар олдида биз ким бўлибмиз, ака?

– Э, битта шаҳарлик менми?.. – ғижиниб қўйди кафе эгаси. – Уни-буни қўй, шаҳарга нимага тушган эдинг ўзи?

– Нимага бўларди, сабаби тирикчилик.

– Худодан сўраб тур, ишларим яхши бўлиб кетса, ўзимга ёрдамчи қилиб оламан.

## ЎЗИНГ КИМСАН, УКА?

*(ёки Шайтонваччани 108-канал яна шарманда қилгани)*

Улар ҳашаматли саройнинг учинчи қаватида аччиққина қаҳва ичиб ўтиришарди. Уйнинг кун ботиш тарафида чироқлари жимирлаб гавжум маҳалла кўзга ташланар, кун чиқиш тарафда эса каттакон шаҳар ўзининг хилма-хил реклама чироқлари билан одамнинг кўзини оларди.

– Уйингиз зўр жойда экан, – деди Шайтонваччанинг ҳаваси келиб.

– Ҳа-а-а, – деб хўрсинди уй эгаси, – нимасини айтасан, ука, буни қуришнинг ўзи бўлганми? Топганимни чаплаганман. Анавилар бу сафар менга жуда қаттиқ ёпишишди. Тагимга ким сув қуйганини

– E, undanam battari.

– Vah, undanam battari bormi? Ayt, uka, bilib qo‘y-ganimiz yaxshi-da, yana adashib-padashib yurmaylik.

– Ustozim shayton bo‘ladi, aka, h-a-a-a, shay-t-o-o-o-n... – to‘g‘risini aytib qo‘ya qoldi Shaytonvachcha.

Yigit o‘zini tutolmay, orqaga tashlab, xa-xolab kulib yubordi. Sal bo‘lmasa rul qo‘lidan chiqib, bir falokat yuz beray dedi. Yigit miriqib-miriqib rosa kuldi. Keyin Shaytonvachchaga qarab:

– Ko‘rinib turibdi, hazilniyam teshib qo‘yarkansan, uka, qaniydi shaytondan dars olgan sendaqalar ko‘proq bo‘lsa, og‘zing qani, desa, qulog‘ini ko‘rsatadiganlar ko‘payib ketgan hozir.

– Qo‘ying-e, shaharlik yoshlar oldida biz kim bo‘libmiz, aka?

– E, bitta shaharlik menmi?.. – g‘ijinib qo‘ydi kafe egasi. – Uni-buni qo‘y, shaharga nimaga tushgan eding o‘zi?

– Nimaga bo‘lardi, sababi tirikchilik.

– Xudodan so‘rab tur, ishlarim yaxshi bo‘lib ketsa, o‘zimga yordamchi qilib olaman.

## O‘ZING KIMSAN, UKA?

*(yoki Shaytonvachchani 108-kanal yana sharmanda qilgani)*

Ular hashamatli saroyning uchinchi qavatida ach-chiqqina qahva ichib o‘tirishardi. Uyning kun botish tarafida chiroqlari jimirlab gavjum mahalla ko‘zga tashlanar, kun chiqish tarafda esa kattakon shahar o‘zining xilma-xil reklama chiroqlari bilan odamning ko‘zini olardi.

– Uyingiz zo‘r joyda ekan, – dedi Shaytonvachchaning havasi kelib.

– Ha-a-a, – deb xo‘rsindi uy egasi, – nimasini ayta-san, uka, buni qurishning o‘zi bo‘lganmi? Topganimni chaplaganman. Anavilar bu safar menga juda qattiq

хам биламан. Улардан қутулиб кетиш учун ҳовлини сотишни ўйласам, юрагим оқага тортиб кетяпти.

– Айбингиз шунчаликми, ака, қўйинг-е...

– Э, ука, билмайин босдим тиканни, деган экан бир куйган одам. Кафени ҳалигача рўйхатдан ўтказмаганидим, билдингми?

– Йўғ-е, «Тақво»ни-я? – ҳайрон бўлди Шайтонвачча. – Бундан чиқди солиқ ҳам тўламагансиз? Газам, сувам, електрам текин?..

– Ҳа, шайтон мени йўлдан урган, барини зиёфат билан ёпиб келганман.

– Ол-а, кафенинг «Тақво»лиги қаерда қолади унда, ака?

– Ишларим шундоғам яхши кетаётувди. Бир куни официант олдимга келиб, иккита хўранда овқат буюртириб, нимагадир туз тотмай ўтирибди, деб қолди. Сўрамадингми, десам. Сўрадим, ароқ обке, дейишяпти, деди. Хуллас, уларнинг айтганини қилмадим. «Тақво» кафесида ароқ нима қилади, дедим.

– Тўғри қилгансиз, ўрганиб қолишса ёмон-да.

– Хуллас, ҳалигилар жаҳл билан кафедан чиқиб кетишди. Кейин билсам, улар катта одамлар экан. Шу, чойнакда секингина бехит қилганимда, бу кўргиликлар йўқ эди. Ҳойнаҳой бу ўшаларнинг иши.

– Энди, ака, уяммас, буяммас, ҳамма гап кафени «Тақво» деб қўйиб, тақвога амал қилмаганингиз-да. «Тақво» бир ниқоб бўлган экан-да, а, лаббай?

Ўртага жимлик чўқди.

– Кечирасиз, – деди Шайтонвачча ўзини ҳафсаласи пир бўлгандек кўрсатиб, – хуфтон вақти ўтиб кетяпти, ўқиволамизми?

– Ана, қўшни хонага кириб ўқийвер, мен намоз ўқимаيمان.

– Қибла қайси томонда, ака?

– Мен қаердан билай.

Шайтонваччанинг кейинги гаплари аканинг дилини баттар хуфтон қилган эди.

Хўп одамига учрадимми, деди Шайтонвачча



yopishishdi. Tagimga kim suv quyganini ham bilaman. Ulardan qutulib ketish uchun hovlini sotishni o‘ylasam, yuragim oqaga tortib ketyapti.

– Aybingiz shunchalikmi, aka, qo‘ying-e...

– E, uka, bilmayin bosdim tikanni, degan ekan bir kuygan odam. Kafeni haligacha ro‘yxatdan o‘tkazmaganidim, bildingmi?

– Yo‘g‘-e, «Taqvo»ni-ya? – hayron bo‘ldi Shaytonvachcha. – Bundan chiqdi soliq ham to‘lamagansiz? Gazam, suvam, elektram tekin?..

– Ha, shayton meni yo‘ldan urgan, barini ziyofat bilan yopib kelganman.

– Ol-a, kafening «Taqvo»ligi qayerda qoladi unda, aka?

– Ishlarim shundog‘am yaxshi ketayotuvdi. Bir kuni ofitsiant oldimga kelib, ikkita xo‘randa ovqat buyurtirib, nimagadir tuz totmay o‘tiribdi, deb qoldi. So‘ramadingmi, desam. So‘radim, aroq obke, de-yishyapti, dedi. Xullas, ularning aytganini qilmadim. «Taqvo» kafesida aroq nima qiladi, dedim.

– To‘g‘ri qilgansiz, o‘rganib qolishsa yomon-da.

– Xullas, haligilar jahl bilan kafedan chiqib ketishdi. Keyin bilsam, ular katta odamlar ekan. Shu, choynakda sekingina bexit qilganimda, bu ko‘rgiliklar yo‘q edi. Hoynahoy bu o‘shalarning ishi.

– Endi, aka, uyammas, buyammas, hamma gap kafeni «Taqvo» deb qo‘yib, taqvoga amal qilmaganingizda. «Taqvo» bir niqob bo‘lgan ekan-da, a, labbay?

O‘rtaga jimlik cho‘kdi.

– Kechirasiz, – dedi Shaytonvachcha o‘zini hafsalasi pir bo‘lgandek ko‘rsatib, – xufton vaqti o‘tib ketyapti, o‘qivolamizmi?

– Ana, qo‘shni xonaga kirib o‘qiyver, men namoz o‘qimayman.

– Qibla qaysi tomonda, aka?

– Men qayerdan bilay.

Shaytonvachchanning keyingi gaplari akaning dilini battar xufton qilgan edi.

ичида. Бизнесмен кампирни бунинг олдида мусулмон деса бўлади. Баҳонада намоз ўқимаслигини ҳам билиб олди. Тавба, «Такво» деган сўз унинг бу калласига қандай келиб қолган экан?

Уй эгаси Шайтонваччага зарҳалли хонани кўрсатиб, холи қолди. Ҳалидан бери калласида бир режа айланарди. У ҳам бўлса кафени ёқиб юбориш. Бунинг учун шу қишлоқи боладан фойдаланиш керак. Пиёнисталарга айтса ҳам бўлади-ю, улар ишқал чиқариши мумкин. Иш битгандан кейин бу болани гумдон қилиб юборса ҳам бўлаверади. У билан бирга юрганини биров кўргани ҳам йўқ. Ўз оёғи билан келди, у дунёга ҳам ўз оёғи билан кетади. У шу тўхтамага келиб сал хотиржам бўлди. Телевизорни ёқди. Каналдан каналга ўтиб, 108-каналда тўхтади. У олди-қочди, шов-шувли кўрсатувларни яхши кўрарди. Шайтонвачча ичкарида туриб бошловчи қизнинг овозини дарров таниди. Нималар дер экан, деб эшик тагидан узоқ кетмади. Бошловчи Хўжақишлоқда Шайтонвачча билан боғлиқ бугун бўлиб ўтган воқеаларни эзмаланиб ҳикоя қила бошлади. Ўзга сайёралик, деб Шайтонваччанинг таржимаи ҳолини, белгиларини, ҳатто исми шарифи Кавсар, Овсарлигигача бирмабир айтди. Унинг хавфли жинойтчи эканлигини, боши учун бир миллион доллар тикилганини эълон қилди. Шайтонвачча эшик тирқишидан кўриб турибди, уй эгаси бу гапларни эшитиб ҳайратдан ўрнидан туриб кетди. Шайтонвачча кириб кетган хонага қараб-қараб қўйди. Шу ёққа қараб юрди ҳам. Шайтонвачча гўё намоз ўқиган бўлиб, тиловат қила бошлади. У қироатни оҳанги билан жа маромига етказиб кўярди. Уй эгаси ичкарига бостириб кира олмади. Аммо жойига қайтиб бориб, телевизорни ўчириб қўйди. Шайтонвачча тиловат қиларди-ю, ичида ўзини ўзи болаҳонадор қилиб сўкарди. Тили ҳамиша бошига етади унинг. Нима қиларди Овсар, Кавсар-у Хўжақишлоқни гапириб. Эҳ, шу 108-канал дегани бошига битган бало бўлди-да. Бир кунмас бир

Xo‘p odamiga uchradimmi, dedi Shaytonvachcha ichida. Biznesmen kampirni buning oldida musulmon desa bo‘ladi. Bahonada namoz o‘qimasligini ham bilib oldi. Tavba, «Taqvo» degan so‘z uning bu kallasiga qanday kelib qolgan ekan?

Uy egasi Shaytonvachchaga zarhalli xonani ko‘rsatib, xoli qoldi. Halidan beri kallasida bir reja ay-lanardi. U ham bo‘lsa kafeni yoqib yuborish. Buning uchun shu qishloqi boladan foydalanish kerak. Piyonistalarga aytsa ham bo‘ladi-yu, ular ishkal chiqarishi mumkin. Ish bitgandan keyin bu bolani gumdon qilib yuborsa ham bo‘laveradi. U bilan birga yurganini birov ko‘rgani ham yo‘q. O‘z oyog‘i bilan keldi, u dun-yoga ham o‘z oyog‘i bilan ketadi. U shu to‘xtamga kelib sal xotirjam bo‘ldi. Televizorni yoqdi. Kanaldan kanalga o‘tib, 108-kanalda to‘xtadi. U oldi-qochdi, shovshuvli ko‘rsatuvlarni yaxshi ko‘rardi. Shaytonvachcha ichkarida turib boshlovchi qizning ovozi darrov tanidi. Nimalar der ekan, deb eshik tagidan uzoq ketmadi. Boshlovchi Xo‘jaqishloqda Shaytonvachcha bilan bog‘liq bugun bo‘lib o‘tgan voqealarni ezma-lanib hikoya qila boshladi. O‘zga sayyoralik, deb Shaytonvachchani tarjimayi holini, belgilarini, hat-to ismi sharifi Kavsar, Ovsarligigacha birma-bir ayt-di. Uning xavfli jinoyatchi ekanligini, boshi uchun bir million dollar tikilganini e‘lon qildi. Shaytonvachcha eshik tirqishidan ko‘rib turibdi, uy egasi bu gaplarni eshitib hayratdan o‘rnidan turib ketdi. Shaytonvachcha kirib ketgan xonaga qarab-qarab qo‘ydi. Shu yoqqa qarab yurdi ham. Shaytonvachcha go‘yo namoz o‘qigan bo‘lib, tilovat qila boshladi. U qiroatni ohangi bilan ja maromiga yetkazib qo‘yardi. Uy egasi ichkariga bos-tirib kira olmadi. Ammo joyiga qaytib borib, televi-zorni o‘chirib qo‘ydi. Shaytonvachcha tilovat qilardi-yu, ichida o‘zini o‘zi bolaxonador qilib so‘kardi. Tili hamisha boshiga yetadi uning. Nima qilardi Ovsar, Kavsar-u Xo‘jaqishloqni gapirib. Eh, shu 108-kanal de-gani boshiga bitgan balo bo‘ldi-da. Bir kunmas bir kun

кун Ажинашамолга айтиб шу кизни жинлар оламига бадарға қилиб юборади. Ўшанда овози абадий ўчади. Миллион доллар дарагини эшитган уй эгаси энди нима қиларкин? Ҳовлини сотаман деб турганда пул ўз оёғи билан уйига кириб келади-ку, жим турармиди? Бундан бу ёғига Шайтонвачча хушёр бўлиши керак. Ўзини ҳеч нарса билмагандек тутати. Кўрпага қараб оёқ узатади. Олишса – олишади, солишса – солишади. Кафе эгасини бир ёқлик қилиб, туя кўрдингми – йўқ қилади. Шайтонваччани бу ерда ҳеч ким танимади. Ҳатто у билан юрганини биров кўргани ҳам йўқ.

Шайтонвачча ичкаридан тавозе билан салом бериб чиқиб келди. Уй эгаси: «Ва алайкум», деди-ю ер тагидан Шайтонваччага қараб қўйди. Шайтонвачча сездди, у телевизордаги эълондан кейин ҳали ўзига келаолмай ўтирибди.

– Хўш, ака, бироз мизғиб оламизми, эртага ишларингиз кўп, – деди Шайтонвачча зўраки эснаб.

Уй эгаси энди Шайтонваччага очикдан-очик бошдан-оёқ қаради-да:

– Қаерликман дединг, ука? – деди.

– Хўжақишлоқлик, – зўрма-зўраки кулди Шайтонвачча. – Отим Кавсар, Овсар ҳам дейишади. Қоши-кўзим қора, сочим малла, жинни болани ўлдириб, ўшанинг тусига кириб олганман, ўта хавфли жиноятчиман, бошимга бир миллион доллар тикишган, қалай?..

– Э, ҳазиллашма, ука, қўрқиб кетяпман.

Чиндан ҳам унинг кўзлари ола-кула бўлиб кетди энди.

– Кўрқманг, оёқ-қўлимни боғланг-да, ҳозироқ 108-каналга кўнғироқ қилинг, ғизиллаб етиб келишади. Қарабсизки, миллион долларлик бўлиб турибсиз-да. Лекин мукофотни арра қиламиз. Ўшанда ҳам агарда беришса.

Кутилмаганда Шайтонвачча шу гапларни айтишга қарор қилди. Ҳа, қартани очиб ўйнади. Қани, уй эгаси нима қиларкин?

Ajinashamolga aytib shu qizni jinlar olamiga badarg'a qilib yuboradi. O'shanda ovozi abadiy o'chadi. Million dollar daragini eshitgan uy egasi endi nima qilarkin? Hovlini sotaman deb turganda pul o'z oyog'i bilan uyiga kirib keladi-ku, jim turarmidi? Bundan bu yog'iga Shaytonvachcha hushyor bo'lishi kerak. O'zini hech narsa bilmagandek tutadi. Ko'rpaga qarab oyoq uzatadi. Olishsa – olishadi, solishsa – solishadi. Kafe egasini bir yoqlik qilib, tuya ko'rdingmi – yo'q qiladi. Shaytonvachchani bu yerda hech kim tanimaydi. Hatto u bilan yurganini birov ko'rgani ham yo'q.

Shaytonvachcha ichkaridan tavoze bilan salom berib chiqib keldi. Uy egasi: «Va alaykum», dedi-yu yer tagidan Shaytonvachchaga qarab qo'ydi. Shaytonvachcha sezdi, u televizordagi e'londan keyin hali o'ziga kela olmay o'tiribdi.

– Xo'sh, aka, biroz mizg'ib olamizmi, ertaga ishlarigiz ko'p, – dedi Shaytonvachcha zo'raki esnab.

Uy egasi endi Shaytonvachchaga ochiqdan ochiq boshdan oyoq qaradi-da:

– Qayerlikman deding, uka? – dedi.

– Xo'jaqishloqlik, – zo'rma-zo'raki kuldi Shaytonvachcha. – Otim Kavsar, Ovsar ham deyishadi. Qoshi-ko'zim qora, sochim malla, jinni bolani o'ldirib, o'shaning tusiga kirib olganman, o'ta xavfli jinoyatchiman, boshimga bir million dollar tikishgan, qalay?..

– E, hazillashma, uka, qo'rqib ketyapman.

Chindan ham uning ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi endi.

– Qo'rqmang, oyoq-qo'limni bog'lang-da, hoziroq 108-kanalga qo'ng'iroq qiling, g'izillab yetib kelishadi. Qarabsizki, million dollarlik bo'lib turibsiz-da. Lekin mukofotni arra qilamiz. O'shanda ham agarda berishsa.

Kutilmaganda Shaytonvachcha shu gaplarni aytishga qaror qildi. Ha, qartani ochib o'ynadi. Qani, uy egasi nima qilarkin?

Уй эгаси ўйланиб турди-да, Шайтонваччанинг гапларига ишонмагандек, деди:

– Бошқа сайёралик бўлсанг, пулни нима қиласан, ё биззи пуллар сизларда ўтадимми?

Шайтонвачча қаҳ-қаҳ отиб кулиб юборди:

– Ҳа, ўлманг, бу дунёда сизга ўхшаган калласи бутунлар ҳам бор экан. Буларнинг бари 108-каналнинг топиб олган «шов-шув» ўйинлари. Мен атайлаб сочимни жингалак қилдириб, бошқа сайёралик бўлиб олганман. Уларга мени топширинг-чи, миллион доллар беришармикан?

Эълонни эшитиши билан уй эгасининг феъли айниган эди. Шунга телевизорни ҳам шартта ўчириб қўйган эди. Лекин Шайтонваччанинг гаплари уни иккилантириб, ниятидан қайтарди. Қишлоқини ёллаб, кафени ёқиб юбориш режасини ишга соладиган бўлди.

## ИККИ ТОМОНЛАМА ШАРТНОМА

*(ёки Шайтонваччанинг қандай қилиб «Тақво»  
кафесини асраб қолгани)*

– Менга қара, ука, – деди уй эгаси Шайтонваччага тикилиб, – ибодатли йигит экансан, менга ёқдинг. Ростингни айт, пул ишлагинг келяптими?

– Секин айтасизми, гапираверинг, ибодат ўз йўлига. Одам ўлдиришмасми, ишқилиб.

Уй эгаси ўрнидан туриб, қайдандир қоғоз-қалам топиб келди.

– Мана, қара, – деди у қоғозга расм чизиб, – бу «Тақво» кафеси. Мана бу дарахт орқали сен осонгина томга чиқиб олишинг мумкин. Энди томнинг мана бу еридан бир эмас, учта дудбурон чиққан. Ичкаридаги ҳавони янгилаб туради. Шулар орқали уч шиша бензинни ичкарига куясан-да, орқасидан гургурт чакворасан, вассалом. Оғзингга сикқанича пул бераман. Туя кўрдингми – йўқ. Хўжақишлоғингга қайтиб кетаверасан.

Uy egasi o‘ylanib turdi-da, Shaytonvachchanning gaplariga ishonmagandek, dedi:

– Boshqa sayyoralik bo‘lsang, pulni nima qilasan, yo bizzini pullar sizlarda o‘tadimi?

Shaytonvachcha qah-qah otib kulib yubordi:

– Ha, o‘lmang, bu dunyoda sizga o‘xshagan kallasi butunlar ham bor ekan. Bularning bari 108-kanalning topib olgan «shov-shuv» o‘yinlari. Men ataylab sochimni jingalak qildirib, boshqa sayyoralik bo‘lib olganman. Ularga meni topshiring-chi, million dollar berisharmikan?

E‘lonni eshitishi bilan uy egasining fe‘li aynigan edi. Shunga televizorni ham shartta o‘chirib qo‘ygan edi. Lekin Shaytonvachchanning gaplari uni ikkilantirib, niyatidan qaytardi. Qishloqini yollab, kafeni yoqib yuborish rejasini ishga soladigan bo‘ldi.

## IKKI TOMONLAMA SHARTNOMA

*(yoki Shaytonvachchanning qanday qilib «Taqvo» kafesini asrab qolgani)*

– Menga qara, uka, – dedi uy egasi Shaytonvachchaga tikilib, – ibodatli yigit ekansan, menga yoqding. Rostingni ayt, pul ishlaging kelyaptimi?

– Sekin aytasizmi, gapiravering, ibodat o‘z yo‘liga. Odam o‘ldirishmasmi, ishqilib.

Uy egasi o‘rnidan turib, qaydandir qog‘oz-qalam topib keldi.

– Mana qara, – dedi u qog‘ozga rasm chizib, – bu «Taqvo» kafesi. Mana bu daraxt orqali sen osongina tomga chiqib olishing mumkin. Endi tomning mana bu yeridan bir emas, uchta dudburon chiqqan. Ichkaridagi havoni yangilab turadi. Shular orqali uch shisha benzinni ichkariga quyasan-da, orqasidan gugurt chaqvorasan, vassalom. Og‘zingga siqqanicha pul beraman. Tuya ko‘rdingmi – yo‘q. Xo‘jaqishlog‘ingga qaytib ketaverasan.

"TAQVO" KAFESI





SENDAN ZURRIYOT KUTYAPMAN, XONIM



– Э, шундоқ кафени ёкиб юбормоқчимисиз, уволку, ака?

– Ишинг бўлмасин, бўл, бир қарорга кел, вақт кетяпти.

– Бу ишни қилишдан олдин у ерда нима борлигини билишим керак. Балки одам-подам бордир. Бировни қасддан ўлдириш гуноҳи азим, ака.

– Тўғриси айтсам, ука, ўша ерда шарбат қуядиган цехим бор. Цехда биз қўлбола ароқ қуямиз. Комиссия босиб, бугунги молни тарқата олмай қолдик. Мен ўшандангина хавотирдаман. Шаҳарнинг ярмини ясама ароқ билан камина таъминларди. «Тақво»дан ким ҳам шубҳа қиларди, дейсан. Лекин барибир ис олишганга ўхшайди. Уларга ким етказганини ҳам биламан. Ҳозирча дардим ичимда.

– Бўлди, ака, – деб қарс урди Шайтонвачча ҳайратини яшира олмай. Қойил, «Тақво» деб тақво остида Одам болалари нима ишлар қилишмайди-я. – Ростини айтдингизми, ишондим, ака. Мен нимага бунчалик куйиб-пишяптилар десам, ишқаллик бу ёқда экан-да. Бўлмаса бу иш юзасидан шартнома тузамиз, ака.

– Шартнома? Эсинг жойидами, бунақа ишларда шартнома тузилмайди, шундоқ келишиб қўя қолинади. Оладиганингни оласан, вассалом...

– Менга сизнинг пулингиз керак эмас, ҳовлингиз ёкиб қолди. Икки йилга ижарага бериб турсангиз бўлди. Буни хоҳлаган нотариусдан тасдиқлатса ҳам бўлади. Фақат бу ишни ҳозироқ қиласиз. Ҳужжат қўлимга тегиши билан ишга киришаман.

– Э, бунақа ишлар менга чўт бўптими, бер ҳужжатингни.

– Э, қишлоқи бечорада ҳужжат нима қилади, ака.

– Кимнинг номига ҳужжатлаштирамиз унда.

– Фарқи йўқ, бирорта ўлиб кетган қариндошингизнинг номига бўлса ҳам бўлаверади. Ўша одамнинг исми, отасининг исми билан яшайвераман.

– Қизиқ гапларни гапирасан, ука, паспорт керакку.

– E, shunday kafeni yoqib yubormoqchimisiz, uvolku, aka?

– Ishing bo‘lmasin, bo‘l, bir qarorga kel, vaqt ket-yapti.

– Bu ishni qilishdan oldin u yerda nima borligini bilishim kerak. Balki odam-podam bordir. Birovni qasddan o‘ldirish gunohi azim, aka.

– To‘g‘risini aytsam, uka, o‘sha yerda sharbat quyadigan sexim bor. Sexda biz qo‘lbola aroq quyamiz. Komissiya bosib, bugungi molni tarqata olmay qoldik. Men o‘shandagina xavotirdaman. Shaharning yarmini yasama aroq bilan kamina ta‘minlardi. «Taqvo»dan kim ham shubha qilardi, deysan. Lekin baribir is olishganga o‘xshaydi. Ularga kim yetkazganini ham bilaman. Hozircha dardim ichimda.

– Bo‘ldi, aka, – deb qars urdi Shaytonvachcha hayratini yashira olmay. Qoyil, «Taqvo» deb taqvo ostida Odam bolalari nima ishlar qilishmaydi-ya. – Rostini aytdingizmi, ishondim, aka. Men nimaga bunchalik kuyib-pishyaptilar desam, ishkallik bu yoqda ekan-da. Bo‘lmasa bu ish yuzasidan shartnoma tuzamiz, aka.

– Shartnoma? Esing joyidami, bunaqa ishlarda shartnoma tuzilmaydi, shundoq kelishib qo‘ya qolinadi. Oladiganingni olasan, vassalom...

– Menga sizning pulingiz kerak emas, hovlingiz yoqib qoldi. Ikki yilga ijaraga berib tursangiz bo‘ldi. Buni xohlagan notariusdan tasdiqlatsa ham bo‘ladi. Faqat bu ishni hoziroq qilasiz. Hujjat qo‘limga tegishi bilan ishga kirishaman.

– E, bunaqa ishlar menga cho‘t bo‘ptimi, ber hujjatingni.

– E, qishloqi bechorada hujjat nima qiladi, aka.

– Kimning nomiga hujjatlashtiramiz unda.

– Farqi yo‘q, birorta o‘lib ketgan qarindoshingizning nomiga bo‘lsa ham bo‘laveradi. O‘sha odamning ismi, otasining ismi bilan yashayveraman.

– Qiziq gaplarni gapirasan, uka, pasport kerak-ku.

– Менга ваъда қилган пулингизни берсангиз, паспортниям ўзлари топишади. Мен сиздан пул сўрамаяпман-ку. Сиз кичкинагина цехингиз билан шахарнинг ярмини ароқ билан таъминлаганингизда, бунақа ишлар нотариусчиларга чўт бўптими?

– Жа кўр гапириб юбординг, ука, тайёр бўлиб тур. Кечаси-ю кундузи ишлайдиган битта нотариусни биламан. Ўшанинг кўлидан кўп нарса келади, кетдим.

– Ҳа, ўлманг, қоронғининг иши қоронғида битгани яхши, омадингизни берсин. Келишингизни ухلامасдан кутиб ўтираман.

## ОЛТИН МЕДАЛЛИ ЖИН

*(ёки Шайтонвачча дўсти Ажинашмолни олтин медал билан тақдирлагани)*

Шайтонвачча учун кафенинг кулини кўкка созуриш ҳеч гап эмас эди. Аммо у кулини кўкка созуришдан кўра сақлаб қолишни ўйларди. Айниқса, ароқ қуйиш цехини. Шайтонваччанинг назарида бу кафе гуллаб-яшнаши керак. Бунинг учун ҳамма кафелар каби рўйхатдан ўтиши, солиқни вақтида тўлаши, электр, газ ва сувни қонуний қилиб қўйиши керак. Токи биров мушугини «пишт» дея олмасин. Бу жой одамларни тақвога киритадиган эмас, тақводан чиқарадиган жой бўлиши мумкин. Бунақа тескари ишлар «Думи тугуклар» мадрасасидаги устозларининг етти ухлаб, тушига ҳам кирмаган. Албатта, у бу ишларни Ажинашамолга ишониб режалаштирди. Шайтонвачча ана шундай катта мақсадлар билан кун чиқар томондаги дераза кўзини очди-да, Ажинашамолнинг коддини айтиб чақирди. Агарда Ажинашамол иложини қила олмаса, ноилож кафени ёқиб юборади. У Ажинашамолни кутиб, хавотирга туша бошлади. Шу пайт яланғоч дарахт шохлари силкиниб кетди. Ичкарига ёпирилиб совуқ ҳаво кирди. Хайрият, келяпти. Шайтонвачча ўзини сал ичкари олиб турди. Ажинашамолнинг феълени

– Menga va'da qilgan pulingizni bersangiz, pasportniyam o'zlari topishadi. Men sizdan pul so'ramayapman-ku. Siz kichkinagina sexingiz bilan shaharning yarmini aroq bilan ta'minlaganingizda, bunaqa ishlar notariuschilarga cho't bo'ptimi?

– Ja ko'p gapirib yubording, uka, tayyor bo'lib tur. Kechasi-yu kunduzi ishlaydigan bitta notariusni bilaman. O'shaning qo'lidan ko'p narsa keladi, ketdim.

– Ha, o'lmang, qorong'ining ishi qorong'ida bitgani yaxshi, omadingizni bersin. Kelishingizni uxlamasdan kutib o'tiraman.

## OLTIN MEDALLI JIN

*(yoki Shaytonvachcha do'sti Ajinashmolni oltin medal bilan taqdirlagani)*

Shaytonvachcha uchun kafening kulini ko'kka sovrish hech gap emas edi. Ammo u kulini ko'kka sovrishdan ko'ra saqlab qolishni o'ylardi. Ayniqsa, aroq quyish sexini. Shaytonvachchanning nazarida bu kafe gullab-yashnashi kerak. Buning uchun hamma kafelar kabi ro'yxatdan o'tishi, soliqni vaqtida to'lashi, elektr, gaz va suvni qonuniy qilib qo'yishi kerak. Toki birov mushugini «pisht» deya olmasin. Bu joy odamlarni taqvoga kiritadigan emas, taqvodan chiqaradigan joy bo'lishi mumkin. Bunaqa teskari ishlar «Dumi tuguklar» madrasasidagi ustozlarining yetti uxlab, tushiga ham kirmagan. Albatta, u bu ishlarni Ajinashamolga ishonib rejalashtirdi. Shaytonvachcha ana shunday katta maqsadlar bilan kun chiqar tomondagi deraza ko'zini ochdi-da, Ajinashamolning kodini aytib chaqirdi. Agarda Ajinashamol ilojini qila olmasa, noiloj kafeni yoqib yuboradi. U Ajinashamolni kutib, xavotirga tusha boshladi. Shu payt yalang'och daraxt shoxlari silkinib ketdi. Ichkariga yopirilib sovuq havo kirdi. Xayriyat, kelyapti. Shaytonvachcha o'zini sal ichkariga olib tur-

билади. Унга кўзи тушиши билан: «Хизматингизга мунтазирман, хошам», – деб бутун шаҳарни бошига кўтариши мумкин. Ажинашамол пайдо бўлди-ю, Шайтонваччани қидириб аста ичкарига мўралади. Унга кўзи тушиши билан Шайтонвачча «жим» дегандек кўрсаткич бармоғини лабига босди. Шунда ҳам: «Хизматингизга мунтазирман, хошам», – деб секингина хириллади Ажинашамол. Шайтонвачча шартта сафар халтасига кўлини тикди-да, олтин медаллардан бирини олиб, Ажинашамолнинг бўйнига осиб кўйди. Бундай тортиқни кутмаган Ажинашамолнинг ўрадек оғзи икки ёққа кетиб, кўзлари ирғиб чиқди.

– Бу менгами, хошам?

– Сенга бўлмайдим кимга бўларди, арзимабсанми, – деди Шайтонвачча калласига келиб қолган бу ишдан хурсанд бўлиб. Ажинашамолнинг кўзларидан дўлдек-дўлдек севинч ёшлари тўкилди. Зўрға: «Кулингизман», – дея олди, холос.

– Энди бу олий мукофотни Одам болаларига ўхшаб дўстларинг билан «ювсанг» керак, – деб кулди Шайтонвачча.

– Сиз нима десангиз – шу, хошам...

– Бу ёғини ҳам ўйлаб кўйганман, – деди Шайтонвачча ва кўлидаги чизма-чизикни унга кўсатди. – Мана бу мени ташлаб кетган жойингдаги «Такво» кафеси, мана булар кафенинг дудбуронлари. Шу ерда сенга кўлбола ароклар қадоқлатиб кўйдим. Уларни дудбурон орқали олиб чиқиб кетишинг керак. Қара, биттаси ҳам қолиб кетмасин. Оборгинда, дўстларинг билан ҳақимга дуо қилиб, ичинглар. Фақат тўс-тўполонсиз бўлсин, арокни оламан деб томни кўчирворма тағин. Бир эмас тўртта қоровул кўриқляпти-я у жойни. Бари бехит бўлсин. Удда-лайсанми, ишқилиб?

– Гап йўқ, хошам, энди мен олтин медалли жинман, ахир.

– Яхши, борақол, олтин медалли жин.

– Қулингизман, хошам.

di. Ajinashamolning fe'lini biladi. Unga ko'zi tushishi bilan: «Xizmatingizga muntazirman, xojam», – deb butun shaharni boshiga ko'tarishi mumkin. Ajinashamol paydo bo'ldi-yu, Shaytonvachchani qidirib asta ichkari mo'raladi. Unga ko'zi tushishi bilan Shaytonvachcha «jim» degandek ko'rsatkich barmog'ini labiga bosdi. Shunda ham: «Xizmatingizga muntazirman, xojam», – deb sekingina xirilladi Ajinashamol. Shaytonvachcha shartta safar xaltasiga qo'lini tiqdi-da, oltin medallardan birini olib, Ajinashamolning bo'yniga osib qo'ydi. Bunday tortiqni kutmagan Ajinashamolning o'radek og'zi ikki yoqqa ketib, ko'zlari irg'ib chiqdi.

– Bu mengami, xojam?

– Senga bo'lmay kimga bo'lardi, arzimabsanmi, – dedi Shaytonvachcha kallasiga kelib qolgan bu ishdan xursand bo'lib. Ajinashamolning ko'zlaridan do'ldek-do'ldek sevinch yoshlari to'kildi. Zo'rg'a: «Qulingizman», – deya oldi, xolos.

– Endi bu oliy mukofotni Odam bolalariga o'xshab do'stlaring bilan «yuvsang» kerak, – deb kuldi Shaytonvachcha.

– Siz nima desangiz – shu, xojam...

– Bu yog'ini ham o'ylab qo'yganman, – dedi Shaytonvachcha va qo'lidagi chizma-chiziqni unga ko'satdi. – Mana bu meni tashlab ketgan joyingdagi «Taqvo» kafesi, mana bular kafening dudburonlari. Shu yerda senga qo'lbola aroqlar qadoqlatib qo'ydim. Ularni dudburon orqali olib chiqib ketishing kerak. Qara, bittasi ham qolib ketmasin. Oborginda, do'stlaring bilan haqimga duo qilib, ichinglar. Faqat to's-to'polonsiz bo'lsin, aroqni olaman deb tomni ko'chirvorma tag'in. Bir emas to'rtta qorovul qo'riqlayapti-ya u joyni. Bari bexit bo'lsin. Uddalaysanmi, ishqilib?

– Gap yo'q, xojam, endi men oltin medalli jinman, axir.

– Yaxshi, boraqol, oltin medalli jin.

– Qulingizman, xojam.

Шайтонвачча бу ишни ҳам уддалади. Лекин бу билан арининг уясига чўп тикиб қўйганини билмас эди.

## ЯНГИ ИСМ-ШАРИФЛАР...

*(ёки Шайтонваччанинг Қозимир Қозоқов бўлиб қолганлари)*

Шайтонвачча юмшоққина диванда шайтон уйкусини олиб ётган эди, шоша-пиша уй эгаси келиб, суюнчилади:

– Омадинг бор экан, ука, ҳаммаси хамирдан қил суғургандек бўлди-қолди. Аммо-лекин пул зўр нарсада. Пулинг бўлса, чангалда шўрва, деганлари шу-да. Ҳеч жаҳонда чангалда шўрва пишармиди? Лекин пул бўлса пишади. Мана, менам пишириб келдим. Ўзларига янги исм-шарифлар муборак бўлсин, ўрток Қозимир Қозоқов!

– Қозимир... Қозимир... – деб Шайтонвачча ўз исмидан ҳикмат қидира бошлади.

– Ўлган боланинг исми-шарифи Казимир Казаков экан, ука, комьютерга киритиб «К» харфларини «Қ»га, «а» харфларини «о»га алмаштирган эдик, Қозимир Қозоқов бўлди-қолди. Қалай, зўр-а?

Шайтонвачча янги фуқаролик ҳужжатини кўлига олиб, у ёқ-бу ёғига қаради. Ана холос, бир думалаб, ҳужжатли ҳам бўлиб олди. Энди у ҳам ҳамма қатори кўча-кўйда бемалол юра олади.

– Зўр исм топибсиз, – деди Шайтонвачча уй эгасидан хурсанд бўлиб, – Қозимир дегани қозиларнинг энг каттаси – бош прокурор дегани.

– Ана кўрдингми, энди бу ҳужжатнинг битта камчилиги бор. Сурат етишмаяпти. Эртага сочингни аслига қайтариб расмга тушсанг, ҳаммаси жойида бўлади. Мана бу сен айтган шартнома, уни шаҳарда далолатнома дейишади. «Уй-жойимни икки йил муддатга биродарим Қозимир Қозоқовга ижарага бердим», деб қўл қўйдим. Саволлар борми, ука?



Shaytonvachcha bu ishni ham uddaladi. Lekin bu bilan arining uyasiga cho‘p tiqib qo‘yganini bilmas edi.

## YANGI ISM-SHARIFLAR...

*(yoki Shaytonvachchaning Qozimir Qozoqov bo‘lib qolganlari)*

Shaytonvachcha yumshoqqina divanda shayton uyqusini olib yotgan edi, shosha-pisha uy egasi kelib, suyunchiladi:

– Omading bor ekan, uka, hammasi xamirdan qil sug‘urgandek bo‘ldi-qoldi. Ammo-lekin pul zo‘r narsada. Puling bo‘lsa, changalda sho‘rva, deganlari shu-da. Hech jahonda changalda sho‘rva pisharmidi? Lekin pul bo‘lsa pishadi. Mana, menam pishirib keldim. O‘zlariga yangi ism-shariflar muborak bo‘lsin, o‘rtoq Qozimir Qozoqov!

– Qozimir... Qozimir... – deb Shaytonvachcha o‘z ismidan hikmat qidira boshladi.

– O‘lgan bolaning ismi-sharifi Kazimir Kazakov ekan, uka, kompyuterga kiritib «K» harflarini «Q»ga, «a» harflarini «o»ga almashtirgan edik, Qozimir Qozoqov bo‘ldi-qoldi. Qalay, zo‘r-a?

Shaytonvachcha yangi fuqarolik hujjatini qo‘liga olib, u yoq-bu yog‘iga qaradi. Ana xolos, bir dumalab, hujjatli ham bo‘lib oldi. Endi u ham hamma qatori ko‘cha-ko‘yda bemalol yura oladi.

– Zo‘r ism topibsiz, – dedi Shaytonvachcha uy egasidan xursand bo‘lib, – Qozimir degani qozilarning eng kattasi – bosh prokuror degani.

– Ana ko‘rdingmi, endi bu hujjatning bitta kamchiligi bor. Surat yetishmayapti. Ertaga sochingni asliga qaytarib rasmga tushsang, hammasi joyida bo‘ladi. Mana bu sen aytgan shartnoma, uni shaharda dalolatnoma deyishadi. «Uy-joyimni ikki yil muddatga birodarim Qozimir Qozoqovga ijaraga berdim», deb qo‘l qo‘ydim. Savollar bormi, uka?

Шайтонвачча саволлар йўқ дегандек бош чайкади. Шайтон уйқусига тўймаган эди. Шунга чуқур эснади.

– Энди эснама, Қозимир укам, бўл, отни қамчила. Ҳадемай тонг отиб қолади-я...

– Менга қаранг, – деди Шайтонвачча уйқули кўзлари билан, – ўша жойингиз неча пул туради?

– Э, нимага сўраяпсан? Ҳозир шу гапнинг вақtimi?

– Айтаверинг-чи?

– Ол, ана бир миллион доллар, жуда хадавой жойда у, нимагайди?

– Уволда шунча пулни ёқвориш. Шунча бойликни қараб туриб кулини кўкка совориш, эссизгина...

– Бошқа иложим йўқ-да, ука, ўзимнинг ҳам юрагим туздек ачияпти. Шундай қилмасам боримдан ҳам ажралиб қоламан. Ёнса жойи қолади-ку, бир амаллаб яна тиклаб оларман. Бўлақол, Қозимир ука, ишга кириш. Ҳазилакам пул кетгани йўқ қўлингдаги хужжатларга.

– Қўлни ташланг, кафени бир миллион дедингизми?

– Дедим?!

– Ярим миллионини каминага берасиз, ҳамма нарса жой-жойида қолади. Ҳатто кафени ёпиб кетган акахонлар икки букилиб, сиздан кечирим ҳам сўрашади. Қалай, бу таклифим сизга маъқулми?

Шайтонваччанинг нафси ҳар доимгидек ҳакалак отди. Одам болалари битта ўқ билан иккита қуённи урганда, у битта ўқ билан учта қуённи урса нима бўпти?!

– Ақлинг жойидами, ука, кимингга ишоняпсан?– уй эгасининг сабр-косаси тўлди.

– Ахир, мен сизга устозим кимлигини айтдим-ку, дарров эсингиздан чиқардингизми? Сехр-жоду, фокус-мокус деган гаплардан яхшигина хабарим бор, ака.

У уй эгасига Ажинашамол ҳақида гарира олмас эди. Унда сири фош бўлиб қоларди. Шунга сехр-жодудан гап очиб, ароқларингизни сехр-жоду билан

Shaytonvachcha savollar yo‘q degandek bosh chayqadi. Shayton uyqusiga to‘ymagan edi. Shunga chuqur esnadi.

– Endi esnama, Qozimir ukam, bo‘l, otni qamchila. Hademay tong otib qoladi-ya...

– Menga qarang, – dedi Shaytonvachcha uyquli ko‘zlari bilan, – o‘sha joyingiz necha pul turadi?

– E, nimaga so‘rayapsan? Hozir shu gapning vaqtimmi?

– Aytavering-chi?

– Ol, ana bir millon dollar, juda xadavoy joyda u, nimagaydi?

– Uvolda shuncha pulni yoqvorish. Shuncha boyligni qarab turib kulini ko‘kka sovurish, essizgina...

– Boshqa ilojim yo‘q-da, uka, o‘zimning ham yuragim tuzdek achiyapti. Shunday qilmasam borimdan ham ajralib qolaman. Yonsa joyi qoladi-ku, bir amallab yana tiklab olarman. Bo‘laqol, Qozimir uka, ishga kirish. Hazilakam pul ketgani yo‘q qo‘lingdagi hujjatlar-ga.

– Qo‘lni tashlang, kafeni bir million dedingizmi?

– Dedim?!

– Yarim millionini kaminaga berasiz, hamma narsa joy-joyida qoladi. Hatto kafeni yopib ketgan akaxonlar ikki bukilib, sizdan kechirim ham so‘rashadi. Qalay, bu taklifim sizga ma‘qulmi?

Shaytonvachchanning nafi har doimgidek hakalak otdi. Odam bolalari bitta o‘q bilan ikkita quyonni urganda, u bitta o‘q bilan uchta quyonni ursa nima bo‘pti?!

– Aqling joyidami, uka, kimingga ishonyapsan?– uy egasining sabr kosasi to‘ldi.

– Axir, men sizga ustozim kimligini aytdim-ku, darrov esingizdan chiqardingizmi? Sehr-jodu, fokus-mokus degan gaplardan yaxshigina xabarim bor, aka.

U uy egasiga Ajinashamol haqida gapira olmas edi. Unda siri fosh bo‘lib qolardi. Shunga sehr-jodudan

кўзга кўринмайдиган қилиб қўйдим, демоқчи бўлди. Икки ўт ўртасида қолган уй эгаси сеҳр-жоду ҳақида машҳур сеҳргарлар гарирса ишонган бўларди-ю, лекин бу қишлоқига ишона олмасди. Уни ҳали ҳам тирикчилик дардида юрган мишиқилардан деб ўйларди. Шунинг учун қони миясига уриб кетди.

– Вой онангни сен ит қишлоқини, устимдан куляпсанми ҳали? – деб у жон ҳолатда Шайтонваччага калла қўйиб қолди. – Мана сенга сеҳр-жоду, фокус-мокус...

Уй эгаси Шайтонваччанинг енг нозик жойига, бир вақтлар Райимберди пиёниста калла қўйган жойга калла қўйган эди. Шайтонвачча шилқ этиб ёнбошга кулади. Эс-хушини йўқотди. Уй эгаси нақадар шошди-я. Ўз бошига ўзи бало орттирди-я. У кимга калла қўйганини билса эди...

– Ҳе, ўргилдим сендақа сеҳргардан, битта калла қўйишлик ҳолинг бор экан-ку, яна осмондан келади-я.

Шайтонвачча бир нималар демоқчи бўларди. Лекин боши гир-гир айланарди-ю, тили калимага келмасди. Уй эгаси унинг гапига ишониб ярим кечада шаҳарнинг тўрт томонига зир югурди-я. Жарақ-жарақ пулларни сарфлади-я. Уни қул қилиб сотиб юборганда ҳам қилган харажатларининг ўндан бирини ҳам қоплай олмайди. Яхшиси, буни ўлдириб, гўштини қийма-қийма қилиб, хуморидан чиқади. Шаҳарликнинг устидан кулиш қанақа бўлишини кўриб қўйсин, бу қишлоқи. У камарини ечиб, беҳуш ётган Шайтонваччанинг қўлини орқасига қилиб боғлади. Кейин чойшаб билан оёғини боғлади. Шайтонвачча ётган жойида Ажинашамолни ёрдамга чақирмоқчи бўлди. Кодни эслай олмади. Яна хотираси панд берди. «А-а-а», деб бақирган эди, оғзига сочиқ тикилди. Кейин уй эгаси Шайтонваччани судраб ваннахонага олиб кирди. Бир қоп гўштдек гурсиллатиб ваннага ташлади. Шайтонвачча кўзларини ўйнатиб, имо-ишоралар билан бир нималар демоқчи бўлди. Уй эгасининг баттар жазавасти тутди.

gap ochib, aroqlaringizni sehr-jodu bilan ko'zga ko'rinmaydigan qilib qo'ydim, demoqchi bo'ldi. Ikki o't o'rtasida qolgan uy egasi sehr-jodu haqida mashhur sehrgarlar gapirsa ishongan bo'lardi-yu, lekin bu qishloqiga ishona olmasdi. Uni hali ham tirikchilik dardida yurgan mishiqilardan deb o'ylardi. Shuning uchun qoni miyasiga urib ketdi.

– Voy onangni sen it qishloqini, ustimdan kulyapsanmi hali? – deb u jon holatda Shaytonvachchaga kalla qo'yib qoldi. – Mana senga sehr-jodu, fokus-mokus...

Uy egasi Shaytonvachchanning eng nozik joyiga, bir vaqtlar Rayimberdi piyonista kalla qo'ygan joyga kalla qo'ygan edi. Shaytonvachcha shilq etib yonboshga quladi. Es-hushini yo'qotdi. Uy egasi naqadar shoshdi-ya. O'z boshiga o'zi balo orttirdi-ya. U kimga kalla qo'yganini bilsa edi...

– He, o'rgildim sendaqa sehrgardan, bitta kalla qo'yishlik holing bor ekan-ku, yana osmondan keladi-ya.

Shaytonvachcha bir nimalar demoqchi bo'lardi. Lekin boshi gir-gir aylanardi-yu, tili kalimaga kelmasdi. Uy egasi uning gapiga ishonib yarim kechada shaharning to'rt tomoniga zir yugurdi-ya. Jaraq-jaraq pullarni sarfladi-ya. Uni qul qilib sotib yuborganda ham qilgan xarajatlarining o'ndan birini ham qoplay olmaydi. Yaxshisi, buni o'ldirib, go'shtini qiyma-qiyma qilib, xumoridan chiqadi. Shaharlikning ustidan kulish qanaqa bo'lishini ko'rib qo'ysin bu qishloqi. U kamarini yechib, behush yotgan Shaytonvachchanning qo'lini orqasiga qilib bog'ladi. Keyin choyshab bilan oyog'ini bog'ladi. Shaytonvachcha yotgan joyida Ajinashamolni yordamga chaqirmoqchi bo'ldi. Kodni eslay olmadi. Yana xotirasi pand berdi. «A-a-a», deb baqirgan edi, og'ziga sochiq tiqildi. Keyin uy egasi Shaytonvachchani sudrab vannaxonaga olib kirdi. Bir qop go'shtdek gursillatib vannaga tashladi. Shaytonvachcha ko'zlarini o'ynatib, imo-ishoralar bilan bir nimalar demoqchi bo'ldi. Uy egasining battar jazavasi tutdi. Mol achchi-

Мол аччиғи – жон аччиғи деганлари шу-да. Устидан душни очиб юборди. Бу билан у Шайтонваччага ёмонлик қиламан деб яхшилик қилиб кўйганини билмай қолди. Шайтонвачча муздек сувдан сесканиб, мутлақо ўзига келди. Сув ёмғири айнан зарба еган жойига тушар, Шайтонваччага хуш ёқар, бирам роҳат қилардики. Ана, Ажинашамолнинг кодини ҳам аниқ-тиниқ эслади. Аммо қани имкон? Оғзига латта тикилган. Уй эгаси душни очиш билан чекланиб қолмади. Томирини кесиб кўйса, қони оқиб, оқем бўлиб ўлади. Бемалол гўштини майдалаб, сув халтада итларга ташлаши мумкин. У соқол оладиган асбобдан ўтқир пўлат тиғни чиқара бошлади. Оҳ, қандай ёмон бу тиғ! Салда суюкча боради. Буни кўриб Шайтонвачча шайтонлаб қолди. У уй эгасининг ниятини англаб етган эди. Шу пайт нариги хонада нимадир тарақлаб кетди. Уй эгаси чўчиб ўша томонга юрди. Боя Шайтонвачча Ажинашамолни чақирганида деразани маҳкамлаш ёдидан чиққан экан. Уни шамол очиб юборган эди. Ичкарига муздек ҳаво оқиб кирар, дераза пардалари ваҳимали ҳилпирарди. Уй эгаси хайрон. Дераза кўзи қандай қилиб очилиб кетиши мумкин? Ахир, бу акфа ромлари-ку. У хавотир билан аста ташқарига қаради. Ҳовлида биров юргандек бўлди. Ким бўлиши мумкин? Шошганидан машинани кўчада қолдириб, дарвозани ёпмай кирган экан. Узоқдан ўт ўчириш машинасининг овози эшитилди. Шундагина у асосий иш қишлоқини ўлдириш эмас, балки кафени ёндириш эканини тушуниб етди. Энди бирорта пиёнистани ишга солиб бўлса ҳам бу режани амалга ошириши керак. Бошқа иложи йўқ. У кўлидаги тиғни бир чеккага отиб, пастга тушиб кетди.

## ТОМДАГИ ҚОРОВУЛ

*(ёки ишнинг юришмагандан юришмагани)*

У машинасини кафега қараб ҳайдади. Бирорта пиёнистани топгунча аҳволни олдиндан аниқлаб олмоқчи бўлди. Машинани анча берида қолдириб,

g‘i – jon achchig‘i deganlari shu-da. Ustidan dushni ochib yubordi. Bu bilan u Shaytonvachchaga yomonlik qilaman deb yaxshilik qilib qo‘yganini bilmay qoldi. Shaytonvachcha muzdek suvdan seskanib, mutlaqo o‘ziga keldi. Suv yomg‘iri aynan zarba yegan joyiga tushar, Shaytonvachchaga xush yoqar, biram rohat qilardiki. Ana, Ajinashamolning kodini ham aniq-tiniq esladi. Ammo qani imkon? Og‘ziga latta tiqilgan. Uy egasi dushni ochish bilan cheklanib qolmadi. Tomirini kesib qo‘ysa, qoni oqib, oqyem bo‘lib o‘ladi. Bemalol go‘shtini maydalab, suv xaltada itlarga tashlashi mumkin. U soqol oladigan asbobdan o‘tkir po‘lat tig‘ni chiqara boshladi. Oh, qanday yomon bu tig‘! Salda suyak-kacha boradi. Buni ko‘rib Shaytonvachcha shaytonlab qoldi. U uy egasining niyatini anglab yetgan edi. Shu payt narigi xonada nimadir taraqlab ketdi. Uy egasi cho‘chib o‘sha tomonga yurdi. Boya Shaytonvachcha Ajinashamolni chaqirganida derazani mahkamlash yodidan chiqqan ekan. Uni shamol ochib yuborgan edi. Ichkariga muzdek havo oqib kirar, deraza pardalari vahimali hilpirardi. Uy egasi hayron. Deraza ko‘zi qanday qilib ochilib ketishi mumkin? Axir, bu akfa romlari-ku. U xavotir bilan asta tashqariga qaradi. Hovlida birov yurgandek bo‘ldi. Kim bo‘lishi mumkin? Shoshganidan mashinani ko‘chada qoldirib, darvozani yopmay kirgan ekan. Uzoqdan o‘t o‘chirish mashinasining ovozi eshiltildi. Shundagina u asosiy ish qishloqini o‘ldirish emas, balki kafeni yondirish ekanini tushunib yetdi. Endi birorta piyonistani ishga solib bo‘lsa ham bu rejani amalga oshirishi kerak. Boshqa iloji yo‘q. U qo‘lidagi tig‘ni bir chekkaga otib, pastga tushib ketdi.

## **TOMDAGI QOROVUL**

*(yoki ishning yurishmagandan yurishmagani)*

U mashinasini kafega qarab haydadi. Birorta piyonistani topguncha ahvolni oldindan aniqlab olmoqchi bo‘ldi. Mashinani ancha berida qoldirib, chirog‘i

чироғи ўчган уйдек қорайиб турган кафе томон юрди. Бу жой кечаси ҳам қандоқ чароғон бўлиб турарди-я. Энди худди ўғри ургандек бўлиб қопти. Ишқилиб, соқчилар пинакка кетган бўлсин-да. Томга чиқишнинг ҳам ўзи бўлмайди ҳали. У ўзининг кадрдон гўшасига биринчи марта ўғридек пишиб борди. Кимдир томда у ёқдан бу ёққа юрарди. Пастдаги шериги бўлса унга гап қотарди:

– Нима бўпти?

– Ҳеч нима.

– Ахир, нимадир увиллаб, нимадир гувиллади-ку, кўрққанингдан шайтонлаб қолай дединг-ку.

– Уйқусирагандирман-да, томда кўринган нарса мўрконлар экан. Шулар шамолда хуштак чалган бўлса керак.

– Ола-а-а... хуштакмиш-а, овози карнайни эслатди-ку.

– Ишқилиб, билмайман.

– Майли, томга чиқишга чиқдинг, энди ўша ердан қараб ўтир. Биз озгина мизғиб олайлик. Жуда бўлмай кетяпти. Тонг ҳам ёришиб қолди.

– Бу ер изғирин, совуқ, – жаҳли чиқди тепадагининг.

– Унда ўтирма, юриб тур, совқотмайсан.

– Хўп деяқол, – деб бошқалари ҳам ялинган бўлишди.

– Биздаям қолиб кетмас.

– Бекордан бекорга-я, аҳмоғинг йўқ, – деб тепадагиси унамади.

– Яримта билан битта ош биздан бўлади, хўп деяқол.

Ҳаммалари кинначи хотиндек эснаб, уни кўндирмоқчи бўлишди.

– Тўрт кишига яримта нима бўлади, қурумсоқлар, – бўш келмади тепадаги.

– Шуям йўғиди-ку, очкўз.

Бу гапларни эшитиб кафе эгаси жим тура олмади. Унга жон битди. Ҳаммада ҳам нафс деган нарса борда. Одам бўлади-ю, нафси бўлмайдами? Темирни



o'chgan uydek qorayib turgan kafe tomon yurdi. Bu joy kechasi ham qandoq charog'on bo'lib turardi-ya. Endi xuddi o'g'ri urgandek bo'lib qopti. Ishqilib, soqchilar pinakka ketgan bo'lsin-da. Tomga chiqishning ham o'zi bo'lmaydi hali. U o'zining qadrdon go'shasiga birinchi marta o'g'ridek pisib bordi. Kimdir tomda u yoqdan bu yoqqa yurardi. Pastdagi sherigi bo'lsa unga gap qotardi:

– Nima bo'пти?

– Hech nima.

– Axir, nimadir uvullab, nimadir guvilladi-ku, qo'r-qaningdan shaytonlab qolay deding-ku.

– Uyqisragandirman-da, tomda ko'ringan narsa mo'rkonlar ekan. Shular shamolda hushtak chalgan bo'lsa kerak.

– Ola-a-a... hushtakmish-a, ovozi karnayni eslatdi-ku.

– Ishqilib, bilmayman.

– Mayli, tomga chiqishga chiqding, endi o'sha yerdan qarab o'tir. Biz ozgina mizg'ib olaylik. Juda bo'lmay ketyapti. Tong ham yorishib qoldi.

– Bu yer izg'irin, sovuq, – jahli chiqdi tepadagining.

– Unda o'tirma, yurib tur, sovqotmaysan.

– Xo'p deyaqol, – deb boshqalari ham yalingan bo'lishdi.

– Bizdayam qolib ketmas.

– Bekordan bekorga-ya, ahmog'ing yo'q, – deb tepadagisi unamadi.

– Yarimta bilan bitta osh bizdan bo'ladi, xo'p deyaqol.

Hammalari kinnachi xotindek esnab, uni ko'ndirmoqchi bo'lishdi.

– To'rt kishiga yarimta nima bo'ladi, qurumsoqlar, – bo'sh kelmadi tepadagi.

– Shuyam yo'g'idi-ku, ochko'z.

Bu gaplarni eshitib kafe egasi jim tura olmadi. Unga jon bitdi. Hammada ham nafs degan narsa bor-da. Odam bo'ladi-yu, nafi bo'lmaydimi? Temirni qizig'ida

кизиғида босиш керак, ха. У йўталиб, дарахт панасидан чиқиб келди.

– Тўхта, кимсан, отаман...

– Э, ака айланайлар, ким бўлардим, шўринг кургур шу кафенинг эгасиман. Сизлар бир чимдим уйкуга зорсизлар, мен бўлсам ухлолмай сарсонман. Сиздек акалардан мингта зиёфат ўргилиб кетсин-э. Келинглр, келишайлик. Ҳар бирингизга «кўки»дан мингдан бераман.

У шу «кўки»ни бекор айтди. Баъзан поранинг каттаси ҳам одамни шубҳага солиб кўяди-да.

– Э, сен баттол ҳалиям шу ерда юрибсанми ивирсиб, – бақириб берди қоровулларнинг каттаси.

– Қаёққа кетаман, жоним шу ерда бўлса, раҳминглр келсин. Бола-чақам бор. Мингтадан «кўки»ни кам десанглр, яна кўшаман.

– Жа ставкаси баланд-ку, бомба кўмганми дейман, – деди қоровуллардан бири.

– Ҳа, й-ў-ў-ў-қ... наркотик бўлса керак, – деди бошқаси.

– Ҳазиллашманглр, акалар, кафенинг номига бунақа гаплр ярашмайди. «Такво» деб кўйибмиз-а. Хўп десанглр, «кўки»дан ташқари бола-чақаларингни то тирик эканман, боқаман, – деб аврай-аврай қоровулларга яқинлашиб кела бошлади у.

– Ўша ерда тўхта, бўлмаса пешанангдан отаман, – деди томдагиси қурол ўқталиб.

– Отинг, ака, бу кунимдан ўлганим яхши. Ҳа, қонимга ташна бўлиб кетдим...

Тепадагиси шериклари «кўки»ни олиб, у қурук қолгандек бирдан чурилдоғини чалиб юборди. Унга ноилож пастдаги учтаси ҳам кўшилди. Ҳамма ёк ваҳима бўлиб кетди. Ҳозиргина ўлимига рози бўлиб турган жанобга сичқоннинг ини минг танга бўлиб кетди. Энди машинага ўтириб қочвораман деганда тун посбонлари уни ушлаб олишди. Қилмиш – қидирмиш деганлари шу-да. Бўлмаса, Шайтонвачча айтди-я унга ҳадеб ерпатак бўлаверманг, номингизга

bosish kerak, ha. U yo‘talib, daraxt panasidan chiqib keldi.

– To‘xta, kimsan, otaman...

– E, aka aylanaylar, kim bo‘lardim, sho‘ring qurgur shu kafening egasiman. Sizlar bir chimdim uyquga zor-sizlar, men bo‘lsam uxlolmay sarsonman. Sizdek akalardan mingta ziyofat o‘rgilib ketsin-e. Kelinglar, keli-shaylik. Har biringizga «ko‘ki»dan mingdan beraman.

U shu «ko‘ki»ni bekor aytdi. Ba‘zan poraning kattasi ham odamni shubhaga solib qo‘yadi-da.

– E, sen battol haliyam shu yerda yuribsanmi ivirsib, – baqirib berdi qorovullarning kattasi.

– Qayoqqa ketaman, jonim shu yerda bo‘lsa, rahminglar kelsin. Bola-chaqam bor. Mingtadan «ko‘ki»ni kam desanglar, yana qo‘shaman.

– Ja stavkasi baland-ku, bomba ko‘mganmi deyman, – dedi qorovullardan biri.

– Ha, y-o‘-o‘-o‘-q... narkotik bo‘lsa kerak, – dedi boshqasi.

– Hazillashmanglar, akalar, kafening nomiga bunaqa gaplar yarashmaydi. «Taqvo» deb qo‘yibmiz-a. Xo‘p desanglar, «ko‘ki»dan tashqari bola-chaqalaringni to tirik ekanman, boqaman, – deb avray-avray qorovullarga yaqinlashib kela boshladi u.

– O‘sha yerda to‘xta, bo‘lmasa peshanangdan otaman, – dedi tomdagisi qurol o‘qtalib.

– Oting, aka, bu kunimdan o‘lganim yaxshi. Ha, qonimga tashna bo‘lib ketdim...

Tepadagisi sheriklari «ko‘ki»ni olib, u quruq qol-gandek birdan churildog‘ini chalib yubordi. Unga noi-loj pastdagi uchtasi ham qo‘shildi. Hamma yoq vahima bo‘lib ketdi. Hozirgina o‘limiga rozi bo‘lib turgan janobga sichqonning ini ming tanga bo‘lib ketdi. Endi mashinaga o‘tirib qochvoraman deganda tun posbonlari uni ushlab olishdi. Qilmish – qidirmish deganlari shuda. Bo‘lmasa, Shaytonvachcha aytdi-ya, unga hadeb

яраша иш тутинг, фалокат юз берган жойдан иложи борича қочинг, деб.

## КЕТВОРГАН БИР ЙИГИТ

*(ёки Шайтонваччанинг шаҳар бўйлаб саргузаштлари)*

«Такво» кафесининг эгаси хушёрхонада ёта турсин. Энди бу ёғини Шайтонваччадан эшитинг. Шайтонвачча ваннада сувга бўкиб узоқ ётмади. Муздек сувдан ўзига келгач, унинг вужудида одамнинг кучидан ташқари шайтоннинг ҳам кучи борлигини эслаб қолди. Ажали етмаса шу экан-да. Бир чиранган эди, чойшаб-у камарлар қирқинчи ипдек чарс-чурс узилди-кетди. У шалоббо бўлган искирт кийимларини ечиб, ётоқхонага ўтди. Кириб кийим шкафининг эшигини очиб юборди. Воҳ, шкаф кийим-кечакдан нақ ёрилай дерди. Ғаладонда тахи бузилмаган ички кийимлар. Булар ҳам қора кунга аталган захира бўлса керак. Захирага битта хотин ҳам олиб қўймаган экан-да, бу эси паст, нокас.

Шайтонвачча қандай қилиб кийинишни яхши биларди. Онаси билан яшаган пайтларида жоҳасининг бўйинбоғларни хиллаб тақишларидан, қолаверса, бизнесмен кампирнинг кийинишларидан андоза олган эди. Ўзига ярашиғлик кийимларни топиб, ясаниб олгунча кун ботиш тарафдаги маҳалла хўрозлари иккинчи марта қичқириб бўлишди. Маҳалладаги қўйлар бири олиб, бири қўйиб маърашга тушди. Офтоб чиқди. Шайтонвачча олтин медалларни кийими ичидан тақиб, киндигидан пастга тушириб қўйди. Эҳтиёт бўлгани яхши-да бу мусофир шаҳарда. Уни олдинда яна нималар кутяпти, қаердан билади? Ўлиб кетишига бир баҳя қолдику. Кампирнинг ўлимлиги-ю, ўзининг жамғармасини белига жойлади. Бойлик белда турса қувват бўлади, дейишади Одам болалари. Кўчага чиқиши билан олдига такси келиб тўхтади.

yerpatak bo'lavermang, nomingizga yarasha ish tuting, falokat yuz bergan joydan iloji boricha qoching, deb.

## KETVORGAN BIR YIGIT

*(yoki Shaytonvachchaning shahar bo'ylab sarguzashtlari)*

«Taqvo» kafesining egasi hushyorxonada yota tursin. Endi bu yog'ini Shaytonvachchadan eshiting. Shaytonvachcha vannada suvga bo'kib uzoq yotmadi. Muzdek suvdan o'ziga kelgach, uning vujudida odamning kuchidan tashqari shaytonning ham kuchi borligini eslab qoldi. Ajali yetmasa shu ekan-da. Bir chirangan edi, choyshab-u kamarlar qirqinchi ipdek chars-churs uzildi-ketdi. U shalobbo bo'lgan isqirt kiyimlarini yechib, yotoqxonaga o'tdi. Kirib kiyim shkafining eshigini ochib yubordi. Voh, shkaf kiyim-kechakdan naq yorilay derdi. G'aladonda taxi buzilmagan ichki kiyimlar. Bular ham qora kunga atalgan zaxira bo'lsa kerak. Zaxiraga bitta xotin ham olib qo'ymagan ekan-da, bu esi past, nokas.

Shaytonvachcha qanday qilib kiyinishni yaxshi bilardi. Onasi bilan yashagan paytlarida xojasining bo'yinbog'larni xillab taqishlaridan, qolaversa, biznesmen kampirning kiyinishlaridan andoza olgan edi. O'ziga yarashig'lik kiyimlarni topib, yasanib olguncha kun botish tarafdagi mahalla xo'rozlari ikkinchi marta qichqirib bo'lishdi. Mahalladagi qo'ylar biri olib, biri qo'yib ma'rashga tushdi. Oftob chiqdi. Shaytonvachcha oltin medallarni kiyimi ichidan taqib, kindigidan pastga tushirib qo'ydi. Ehtiyot bo'lgani yaxshi-da bu musofir shaharda. Uni oldinda yana nimalar kutyapti, qayerdan biladi? O'lib ketishiga bir bahya qoldi-ku. Kampirning o'limligi-yu, o'zining jamg'armasini beliga joyladi. Boylik belda tursa quvvat bo'ladi, deyishadi Odam bolalari. Ko'chaga chiqishi bilan oldiga taksi kelib to'xtadi.

Ҳайдовчи мижозининг ҳурмати учун машинадан тушиб, сўрашгани қўл чўзар экан:

– Ассалому алайкум, кунлари хайрли бўлсин, ака, каёққа обориб қўяй? – деди.

Шайтонвачча кўринишдан эътиборни тортадиган даражада эди. Оқ кўйлак, қизил бўйинбоғ, йўл-йўл қора кастюм-шим, ялтироқ чарм туфли.

– Сартарошхонанинг энг зўрига ҳайданг, – деди у қўл қовуштириб турган таксичига. Қорни ҳам таталаб турган эди-ю, лекин нафсига бир урди. Олдин шубҳалардан холи бўлиб олиши керак.

– Бош устига, – деди ҳайдовчи ва машинани ўт олдирди.

– Кечирасиз, ака, – деди ҳайдовчи йўлдан кўзини узмай, – сартарошнинг қанақасига олиб борай – эркагигами ё момақаймоғигами?

Шайтонваччанинг қулоғи тагида нимагадир кечаги маҳмадона қизнинг жарангдор овози янграб кетди. Енгилгина энтикиб қўйди. Қизиқ, унга нималар бўляпти ўзи? Шайтонвачча ўспиринликни орқада қолдириб, йигитлик эшигини тақиллатаётганидан беҳабар эди.

– Ўшанақасига ҳайданг, – деди хуш ёқиб.

– Қанақасига?

– Қанақасига бўларди, момақаймоғига-да.

– Бор шунақаси, ўшанинг навбати бўлса, мазза қиласиз.

Таксичи гапиряпти-ю, оғзидан тутун чиқиб кетай деяпти. Манзилга етиб келгач, таксичи айланиб ўтиб эшикни очди:

– Келдик, ака. Мен нима қилай, жавоб берасизми ё кутайми?

– Кутасиз-да, – деди Шайтонвачча сал тепадан келиб.

– Яхши, кутаман, ака, фақат шу ергача бўлган қира ҳақини тўлаб қўйсангиз. Ишонмаяпти деманг-у, бу ёғи шаҳарчилик, шу десангиз, мижозлар ҳар хилда, қатикни ҳам пуфлаб ичадиган бўлиб қолганмиз.

– Тўғри қиласиз, – деди Шайтонвачча уни маъ-

Haydovchi mijozining hurmati uchun mashinadan tushib, so‘rashgani qo‘l cho‘zar ekan:

– Assalomu alaykum, kunlari xayrli bo‘lsin, aka, qayoqqa oborib qo‘yay? – dedi.

Shaytonvachcha ko‘rinishdan e‘tiborni tortadigan darajada edi. Oq ko‘ylak, qizil bo‘yinbog‘, yo‘l-yo‘l qora kastum-shim, yaltiroq charm tufli.

– Sartaroshxonaning eng zo‘riga haydang, – dedi u qo‘l qovushtirib turgan taksichiga. Qorni ham tatalab turgan edi-yu, lekin nafsiga bir urdi. Oldin shubhalar-dan xoli bo‘lib olishi kerak.

– Bosh ustiga, – dedi haydovchi va mashinani o‘t oldirdi.

– Kechirasiz, aka, – dedi haydovchi yo‘ldan ko‘zini uzmay, – sartaroshning qanaqasiga olib boray – erkagi-gami yo momaqaymog‘igami?

Shaytonvachchanning qulog‘i tagida nimagadir kechagi mahmadona qizning jarangdor ovozi yangrab ketdi. Yengilgina entikib qo‘ydi. Qiziq, unga nimalar bo‘lyapti o‘zi? Shaytonvachcha o‘spirinlikni orqada qoldirib, yigitlik eshigini taqillatayotganidan bexabar edi.

– O‘shanaqasiga haydang, – dedi xush yoqib.

– Qanaqasiga?

– Qanaqasiga bo‘lardi, momaqaymog‘iga-da.

– Bor shunaqasi, o‘shaning navbati bo‘lsa, mazza qilasiz.

Taksichi gapiryapti-yu, og‘zidan tutun chiqib ketay deyapti. Manzilga yetib kelgach, taksichi aylanib o‘tib eshikni ochdi:

– Keldik, aka. Men nima qilay, javob berasizmi yo kutaymi?

– Kutasiz-da, – dedi Shaytonvachcha sal tepadan ke-lib.

– Yaxshi, kutaman, aka, faqat shu yergacha bo‘lgan kira haqini to‘lab qo‘ysangiz. Ishonmayapti demang-u, bu yog‘i shaharchilik, shu desangiz, mijozlar har xil-da, qatiqni ham puflab ichadigan bo‘lib qolganmiz.

– To‘g‘ri qilasiz, – dedi Shaytonvachcha uni ma’-

куллаб пул узатар экан. – Бу одам болаларига икки дунёда ҳам ишониб бўлмайди.

У ҳозирги аҳволидан рози бўлгани билан ҳали юрагидаги алами тарқамаган эди. Нима қилиб бўлса ҳам кафе эгасига рўпара келиб, аламидан чиқишни ўйларди. У хаёл билан сартарошхонага кириб борди.

– Ке, болам, – деди қоши ипдек, бўйи шипдек тарашага ўхшаган бир хотин кўлидаги оқ сочиқни хавода «қарс» эттириб стол суюнчиғига ёзар экан. – Ишқилиб, пулинг урғочими?

Момақаймоқни хаёл қилиб кирган Шайтонвачча полиз кўриқчисига ўхшаган бу нухани кўриб, бақа бўлиб қолди.

– Бўл, ўтир, бошингдаги шапкани еч, кастюмниям. Кўркма, совқотмайсан. Совқотсанг, ўзим иситиб қўяман, ҳа жонингдан сени.

Шайтонвачча таксичини ичида бўралаб сўкдида, ноилож ўриндиққа чўкди. Сартарош хотиннинг савағичдек узун-узун бармоқлари онасини эслатиб юборди. Ҳа, яна аллақарларидир бизнесмен кампирга ҳам ўхшаб кетарди.

– Нима қилай? – деди сартарош хотин кўзгудан унга чақчайиб. Вой бў-ў-ў... бунча совуқ бу хотин. Ит ғажиган суякка ўхшайди-я. Шайтонвачча иложи борича унга қарамасликка ҳаракат қилиб кўзини чирт юмиб олди.

– Сочимни қорага бўяб қўйинг, – деди Шайтонвачча.

Сартарош хотин кутилмаганда Шайтонваччанинг бошига шапати туширди-да:

– Нима бало, эсларингни еб қўйганмисанлар, сен олифта посонлар, кеча қора сочни малла қилиш билан кунни кеч қилдим. Бугунги куним маллани қора қилиш билан ўтадим дейман. Соч бўяшни хотинларга чиқарган, ҳезим ўлгурлар.

– Телевизор кўриш керак, эна, – деди Шайтонвачча сартарош хотиннинг жиғига тегиб. – 108-канални кўриш керак, ўшанда нимагалигини билволардингиз.



qullab pul uzatar ekan. – Bu odam bolalariga ikki dunyoda ham ishonib bo‘lmaydi.

U hozirgi ahvolidan rozi bo‘lgani bilan hali yuragidagi alami tarqamagan edi. Nima qilib bo‘lsa ham kafe egasiga ro‘para kelib, alamidani chiqishni o‘ylardi. U xayol bilan sartaroshxonaga kirib bordi.

– Ke, bolam, – dedi qoshi ipdek, bo‘yi shipdek tarashaga o‘xshagan bir xotin qo‘lidagi oq sochiqni havoda «qars» ettirib ustol suyanchig‘iga yozar ekan. – Ishqilib, puling urg‘ochimi?

Momaqaymoqni xayol qilib kirgan Shaytonvachcha poliz qo‘riqchisiga o‘xshagan bu nusxani ko‘rib, baqa bo‘lib qoldi.

– Bo‘l, o‘tir, boshingdagi shapkani yech, kastumniyam. Qo‘rqma, sovqotmaysan. Sovqotsang, o‘zim isitib qo‘yaman, ha joningdan seni.

Shaytonvachcha taksichini ichida bo‘ralab so‘kdi-da, noiloj o‘rindiqqa cho‘kdi. Sartarosh xotinning savag‘ichdek uzun-uzun barmoqlari onasini eslatib yubordi. Ha, yana allaqayerlaridir biznesmen kampirga ham o‘xshab ketardi.

– Nima qilay? – dedi sartarosh xotin ko‘zgudan unga chaqchayib. Voy bo‘-o‘-o‘... buncha sovuq bu xotin. It g‘ajigan suyakka o‘xshaydi-ya. Shaytonvachcha iloji boricha unga qaramaslikka harakat qilib ko‘zini chirt yumib oldi.

– Sochimni qoraga bo‘yab qo‘ying, – dedi Shaytonvachcha.

Sartarosh xotin kutilmaganda Shaytonvachchani boshiga shapati tushirdi-da:

– Nima balo, eslaringni yeb qo‘yganmisanlar, sen olifta posonlar, kecha qora sochni malla qilish bilan kunni kech qildim. Bugungi kunim mallani qora qilish bilan o‘tadimi deyman. Soch bo‘yashni xotinlarga chiqargan, hezim o‘lgurlar.

– Televizor ko‘rish kerak, ena, – dedi Shaytonvachcha sartarosh xotinning jig‘iga tegib. – 108-kanalni ko‘rish kerak, o‘shanda nimagaligini bilvolaridingiz.

Хулласи калом Шайтонвачча сочини тусдек қилиб қорага бўйтиб олди. Ҳали миллион доллар илинжида қора сочини маллага бўяб, бошқа сайёраликман деб нечтаси қамалиб ҳам кетса ажаб эмас. Ахир, икки кишининг ўлимига, яна кампиршонинг ўлимлигига кимдир жавоб бериши керак-ку. Шу 108-каналдагиларнинг бир қайнови ичида-да. Малла деб сочигача таъриф бериши шартми? Ўзга сайёралик деганлари ҳам аҳмоқ эмас-ку... Малла сочни қора ёки оқ қилиб олиш қийин эмас-ку бугунги кунда...

Шайтонвачча кўчага чиқса, таксичи турибди ҳақ деб. Шайтонваччага ҳавасланиб қараб ҳам қўйди.

– Қалай, ака, – деди унга эшикни очиб, – маза қилдиларми?

– Жуда.

– Кетворган-а, момақаймоқ.

– Кечқурунги овқатга таклиф қилдим. Шоферим келиб олиб кетади, деб деразадан сизни кўрсатиб қўйдим.

– Э, дарровда-я? Биз бўлса битта кулиб қўйишига зормиз-а, қойил-э.

– Мен тушдан кейин чет элга учиб кетаман, момақаймоқ ўзларига қолади.

– Раҳмат, ака, ўзи бугун ўнг ёним билан турган эканман-да. Э, кечирасиз, ҳозир қаёққа борамиз?

– Бирорта суратхонага.

– Бажонидил.

Шайтонвачча бамайлихотир хужжат учун суратга ҳам тушиб олди.

– Энди қаёққа ҳайдай, – деди таксичи кўзлари мўлтираб. Бунақа у ёққа олиб бор, бу ёққа олиб бор дейдиган мижозлар ҳар доим ҳам учрайвермайди-да.

– Ўзингиз яхши кўрган бирорта кафега ҳайданг, – деди Шайтонвачча.

– «Такво»га обораими, маза қиласиз-да ўзиям?

– Кеча бўлганман у ерда, бошқасига олиб боринг.

Шайтонвачча нонуштани ҳам бамайлихотир қилиб, ижарага олган уйига қайтганида кун пешин-

Xullasi kalom Shaytonvachcha sochini tusdek qilib qoraga bo'yatib oldi. Hali million dollar ilinjida qora sochini mallaga bo'yab, boshqa sayyoralikman deb nechtasi qamalib ham ketsa ajab emas. Axir, ikki kishining o'limiga, yana kampirshoning o'limligiga kimdir javob berishi kerak-ku. Shu 108-kanaldagilarning bir qaynovi ichida-da. Malla deb sochigacha ta'rif berishi shartmi? O'zga sayyoralik deganlari ham ahmoq emas-ku... Malla sochni qora yoki oq qilib olish qiyin emas-ku bugungi kunda...

Shaytonvachcha ko'chaga chiqsa, taksichi turibdi haq deb. Shaytonvachchaga havaslanib qarab ham qo'ydi.

– Qalay, aka, – dedi unga eshikni ochib, – maza qildilarmi?

– Juda.

– Ketvorgan-a, momaqaymoq.

– Kechqurungi ovqatga taklif qildim. Shoferim kelib olib ketadi, deb derazadan sizni ko'rsatib qo'ydim.

– E, darrovda-ya? Biz bo'lsa bitta kulib qo'yishiga zormiz-a, qoyil-e.

– Men tushdan keyin chet elga uchib ketaman, momaqaymoq o'zlariga qoladi.

– Rahmat, aka, o'zi bugun o'ng yonim bilan turgan ekanman-da. E, kechirasiz, hozir qayoqqa boramiz?

– Birorta suratxonaga.

– Bajonidil.

Shaytonvachcha bamaylixotir hujjat uchun suratga ham tushib oldi.

– Endi qayoqqa hayday, – dedi taksichi ko'zlari mo'ltirab. Bunaqa u yoqqa olib bor, bu yoqqa olib bor deydiyan mijozlar har doim ham uchrayvermaydi-da.

– O'zingiz yaxshi ko'rgan birorta kafega haydang, – dedi Shaytonvachcha.

– «Taqvo»ga oboraymi, maza qilasiz-da o'ziam?

– Kecha bo'lganman u yerda, boshqasiga olib boring.

Shaytonvachcha nonushtani ham bamaylixotir qilib,

га яқинлашиб қолган эди. Ҳовлида «Тақво» кафе-сининг эгаси уни кўриб олдинига танимади, кейин Шайтонваччанинг устидаги ўзининг кийим-бошларини кўриб:

– Кулингиз бўлай, ука, – деб Шайтонваччанинг оёғига йиқилди.

– Нима дедингиз? – деди Шайтонвачча бирдан юрагидаги алами тарқаб.

– Кулингиз бўлай, деяпман, Қозимир ука, кулингиз...

– Яна бир қайтаринг! Бунақа гаплар ҳозирги замонда кулоққа ғалатирок эшитиларкан.

– Ўла-ўлгунча кулингизман, деяпман, ука, ҳа, мени кечиринг. Бир қошиқ қонимдан кечинг.

– Ҳа-а-а... – деб қаншарини қашлади Шайтонвачча. Ўз тилингдан илиндингми, номард. Бу ёғига ўзингдан кўр. Одамшайтонга битта калла қўйиш қанчага тушишини энди биласан. – Биласизми, – деди у рўпарасида ёш боладек қўл қовуштириб турган одамга қараб, – бу дунёда аслида ҳамма бир-бирига кул. Масалан, аҳмоқ – ақлига, кучсиз – кучлига, камбағал – бойга кул... Қани энди ҳамма ҳам сизга ўхшаб куллигини мардларча тан олса. Тан олмайди-да.

– Мен тан олдим, Қозимир ука, бир эмас, минг марта тан олдим, – деб орада гўё ҳеч нарса бўлмагандек ялтоқланди «Тақво» кафе-сининг эгаси. – Сиз менинг ҳаётимни, обрў ва шаън-шавкатимни сақлаб қолдингиз. Мен сизни билмаган эканман. Айтганингиздек аяхонлар кечирим сўрашди, қаранг...

– Аввал боши сақловчи Аллоҳ, биз бор-йўғи сабабчимиз.

Улар ҳовли ўртасидаги жимжимадор шийпон тагига бориб чўкишди. Шайтонвачча бошидан шапкасини намоишкорона олиб қўйди.

– И-я, сочниям бир яхши қилиб обсиз-ку, Қозимир ука, аммо-лекин боплабсиз. Кастюм-шимлар ҳам жа кетибди-да, қуйиб қўйгандек. Ўзингизга атаб тиккандек.

ijaraga olgan uyiga qaytganida kun peshinga yaqinlashib qolgan edi. Hovlida «Taqvo» kafesining egasi uni ko‘rib oldiniga tanimadi, keyin Shaytonvachchaning ustidagi o‘zining kiyim-boshlarini ko‘rib:

– Qulingiz bo‘lay, uka, – deb Shaytonvachchaning oyog‘iga yiqildi.

– Nima dedingiz? – dedi Shaytonvachcha birdan yuragidagi alami tarqab.

– Qulingiz bo‘lay, deyaqman, Qozimir uka, qulingiz...

– Yana bir qaytaring! Bunaqa gaplar hozirgi zamon-da quloqqa g‘alatiroq eshitalarkan.

– O‘la-o‘lguncha qulingizman, deyaqman, uka, ha, meni kechiring. Bir qoshiq qonimdan keching.

– Ha-a-a... – deb qansharini qashladi Shaytonvachcha. O‘z tilingdan ilindingmi, nomard. Bu yog‘iga o‘zingdan ko‘r. Odamshaytonga bitta kalla qo‘yish qanchaga tushishini endi bilasan. – Bilasizmi, – dedi u ro‘parasida yosh boladek qo‘l qovushtirib turgan odamga qarab, – bu dunyoda aslida hamma bir-biriga qul. Masalan, ahmoq – aqliga, kuchsiz – kuchliga, kambag‘al – boyga qul... Qani endi hamma ham sizga o‘xshab qulligini mardlarcha tan olsa. Tan olmaydi-da.

– Men tan oldim, Qozimir uka, bir emas, ming marta tan oldim, – deb orada go‘yo hech narsa bo‘lmagandek yaltoqlandi «Taqvo» kafesining egasi. – Siz mening hayotimni, obro‘ va sha‘n-shavkatimni saqlab qoldingiz. Men sizni bilmagan ekanman. Aytganingizdek akaxonlar kechirim so‘rashdi, qarang...

– Avval boshi saqlovchi Alloh, biz bor-yo‘g‘i sababchimiz.

Ular hovli o‘rtasidagi jimjimador shiypon tagiga borib cho‘kishdi. Shaytonvachcha boshidan shapkasini namoyishkorona olib qo‘ydi.

– I-ya, sochniyam bir yaxshi qilib obsiz-ku, Qozimir uka, ammo-lekin boplabsiz. Kastum-shimlar ham ja ketibdi-da, quyib qo‘ygandek. O‘zingizga atab tikkandek.

– Ҳа энди, бошқа иложи қолмагач, гардеробингизга ўғирликка тушдик-да, – тишининг орасидан гапирди Шайтонвачча.

– Мени кечиринг, ука, итлик қилдим, шайтон йўлдан урди, жинни бўлиб қолаёздим-да ўзиям, – деб кўзига ёш олди у. – Сиз бўлса барибир мени ўйлабсиз, раҳм-шафқат қилибсиз. Барака топинг. Ҳақиқий эркакнинг иши бу. Текширувчилар шарбат кадоқлаш цехи эшигини очишаётганида ишонсангиз танамда жоним қолмади, Қозимир ука. Қани энди жоним чиқиб кета қолса-ю, бу дунё ташвишларидан кутула қолсам. Очишгандан кейин нима бўлди денг? Уларни кўйинг-у, ўзим бақа бўлиб қопман. Нукул жинни одамга ўхшаб ҳиринг-ҳиринг куламан, денг. На бир шиша ароқ, на бир ясама акциз марка топиша олди, денг. Ҳамма ёқ топ-тоза. Чинни-чироқ. Олдинига бошқа жойга кириб қолдикмикан, деб ўзим ҳам ишонмадим. Кейин сизнинг фокус-мокусингизни эслаб, теримга сиғмай қолдим. Эҳ, қилган ишимга шунчалар пушаймонманки... Юзингизга қандай карайман деб ич-этимни еб кўйдим ўзимам. Текширувчилар ҳам бир-бирларига қараб қолишди. Кимдир уларга мени сотган-да. Айтувдим-ку кимлигини биламан, деб. Анови ароқ сўраганлармас, амакиваччам сотган. Ҳа, бу ўшанинг иши. Биз илгаритдан бир-биримиз билан ит-мушукмиз. У стриптиз кафесини очганда унга қасдма-қасдликка мен «Тақво» кафесини очганман. Тушунганлар уни ёмонотлик қилиб, мени роса мақташган. Шунга у мени кўролмай юарди, ахийри сотган. Қўлга тушиб қолсам, ўн беш йилга камалишимни ҳам билган. Сизнинг марҳаматингиз билан қамалмадим-у, аммо ўн беш йилга қаридим. Шошмай турсин у шарманда стириптизчи... Онасини учқўрғондан кўрсатаман хали.

– Уни-буни кўйинг, текширувчилар сиздан кечирим сўрашдими-йўқми?

– Айтдим-ку, Қозимир ука, сўрашди, деб. Шундоқ сўрашдики... Қандоқ ишлаган бўлсангиз, шундоқ

– Ha endi, boshqa iloji qolmagach, garderobingizga o‘g‘irlikka tushdik-da, – tishining orasidan gapirdi Shaytonvachcha.

– Meni kechiring, uka, itlik qildim, shayton yo‘ldan urdi, jinni bo‘lib qolayozdim-da o‘ziyam, – deb ko‘ziga yosh oldi u. – Siz bo‘lsa baribir meni o‘ylabsiz, rahmshafqat qilibsiz. Baraka toping. Haqiqiy erkakning ishi bu. Tekshiruvchilar sharbat qadoqlash sexi eshigini ochishayotganida ishonsangiz tanamda jonim qolmadi, Qozimir uka. Qani endi jonim chiqib keta qolsa-yu, bu dunyo tashvishlaridan qutula qolsam. Ochishgandan keyin nima bo‘ldi deng? Ularni qo‘ying-u, o‘zim baqa bo‘lib qopman. Nuqul jinni odamga o‘xshab hiringhiring kulaman, deng. Na bir shisha aroq, na bir yasama aksis marka topisha oldi, deng. Hamma yoq top-toza. Chinni-chiroq. Oldiniga boshqa joyga kirib qoldikmi-kan, deb o‘zim ham ishonmadim. Keyin sizning fokusmokusingizni eslab, terimga sig‘may qoldim. Eh, qilgan ishimga shunchalar pushaymonmanki... Yuzingizga qanday qarayman deb ich-etimni yeb qo‘ydim o‘zimam. Tekshiruvchilar ham bir-birlariga qarab qolishdi. Kimdir ularga meni sotgan-da. Aytuvdim-ku kimligini bilaman, deb. Anovi aroq so‘raganlarmas, amaki-vachcham sotgan. Ha, bu o‘shaning ishi. Biz ilgaritdan bir-birimiz bilan it-mushukmiz. U striptiz kafesini ochganda unga qasdma-qasdlikka men «Taqvo» kafesini ochganman. Tushunganlar uni yomonotliq qilib, meni rosa maqtashgan. Shunga u meni ko‘rolmay yurardi, axiyri sotgan. Qo‘lga tushib qolsam, o‘n besh yilga qamalishimni ham bilgan. Sizning marhamatingiz bilan qamalmadim-u, ammo o‘n besh yilga qaridim. Shoshmay tursin u sharmanda striptizchi... Onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman hali.

– Uni-buni qo‘ying, tekshiruvchilar sizdan kechirim so‘rashdimi-yo‘qmi?

– Aytдим-ku, Qozimir uka, so‘rashdi, deb. Shundoq so‘rashdiki... Qandoq ishlagan bo‘lsangiz, shundoq ish-

ишлайверинг, дейишди. Эшитиб, бу гапга ишонгим келмайди, Қозимир ука, ишонгим. Ахир, хаёлимда ҳамма нарса кўлдан кетиб бўлган эди-да. Қани энди холироқ жой бўлса-ю, маза қилиб йиғлаб-йиғлаб хумордан чиқсанг. Яшаш бирам яхшики...

Шайтонвачча бахтиёрлигидан энтикиб-энтикиб, чуқур-чуқур хўрсиниб ўтирган уй эгасига атайлаб тепароқдан қаради-да:

– Сиз энди бундан бу ёғига гапларингизни сал ўйлаброқ гапирсангиз бўлармиди? – деди.

– Албатта, Қозимир ука, албатта, – хушёр тортди у. – Ҳар замон, бир замонда қовун тушириб турадиган одатим йўқ эмас, бор, мени маъзур тутасиз. Аяманг, айбимни айтиб турунг, йўлга солинг. Нима бўлганда ҳам сиз устоз кўргансиз. Яна устозингиз канақангики...

– Тўғри тан олдингиз, ҳозиргина кулингизман, деб туриб, тезда куллигингизни эсдан чиқарганингизга ҳайрон бўлиб турибман. Билмасангиз билиб кўйинг, кул деганнинг молиям, жониям хожасиники бўлади. Аслида мен сизнинг терингизни шилиб, сомон тикмоқчи бўлиб турувдим. Кулингизман, деганингиздан кейин бу ниятимдан қайтдим. Кулнинг терисиям ўзимга тан деб. Кулмисиз, куллигингизда турунг, бўлмаса борни йўқ, йўқни бор қилиш мен учун чўт эмас...

– Й-ў-ў-ў, й-ў-ў-ў, – деб Шайтонваччанинг оёғига қайта йиқилди у. – Менга ҳеч нарса керакмас, ука, ҳеч нарса. Шундоғам жаҳаннамнинг оғзига бориб қайтдим. Аммо-лекин гапнинг индаллосини айтайми, Қозимир ука, илмингизга қойилман. Бу илм билан бутун дунёни эгалласа бўлади, ҳа!

Бу гап Шайтонваччани бироз талтайтирди. Мақтов кимга ҳам ёқмайди дейсиз. Ҳатто шайтонга ҳам ёқади. Қолаверса, у Одамшайтон-ку. Талтайиб, ўриндиққа шундай ястандики, эман дарахтидан ясалган ором курси нақ қарсиллаб кетди. Уй эгаси бир чўчиб тушди. Шайтонвачча кўйнига кўл солиб, суратини олди-да, столга ташлади.



layvering, deyishdi. Eshitib, bu gapga ishongim kelmaydi, Qozimir uka, ishongim. Axir, xayolimda hamma narsa qo‘ldan ketib bo‘lgan edi-da. Qani endi xoli-roq joy bo‘lsa-yu, maza qilib yig‘lab-yig‘lab xumordan chiqsang. Yashash biram yaxshiki...

Shaytonvachcha baxtiyorligidan entikib-entikib, chuqur-chuqur xo‘rsinib o‘tirgan uy egasiga ataylab teparoqdan qaradi-da:

– Siz endi bundan bu yog‘iga gaplaringizni sal o‘ylabroq gapirsangiz bo‘larmidi? – dedi.

– Albatta, Qozimir uka, albatta, – hushyor tortdi u. – Har zamon, bir zamonda qovun tushirib turadigan odatim yo‘q emas, bor, meni ma‘zur tutasiz. Ayamang, aybimni aytib turing, yo‘lga soling. Nima bo‘lganda ham siz ustoz ko‘rgansiz. Yana ustozingiz qanaqangiki...

– To‘g‘ri tan oldingiz, hozirgina qulingizman, deb turib, tezda qulligingizni esdan chiqarganingizga hayron bo‘lib turibman. Bilmasangiz bilib qo‘ying, qul deganning moliyam, joniyam xojasiniki bo‘ladi. Aslida men sizning teringizni shilib, somon tiqmoqchi bo‘lib turuvdim. Qulingizman, deganingizdan keyin bu niyatimdan qaytdim. Qulning terisiyam o‘zimga tan deb. Qulmisiz, qulligingizda turing, bo‘lmasa borni yo‘q, yo‘qni bor qilish men uchun cho‘t emas...

– Y-o‘-o‘-o‘, y-o‘-o‘-o‘, – deb Shaytonvachchaning oyog‘iga qayta yiqildi u. – Menga hech narsa kerakmas, uka, hech narsa. Shundog‘am jahannamning og‘ziga borib qaytdim. Ammo-lekin gapning indallosini aytaymi, Qozimir uka, ilmingizga qoyilman. Bu ilm bilan butun dunyoni egallasa bo‘ladi, ha!

Bu gap Shaytonvachchani biroz taltaytirdi. Maqtovimga ham yoqmaydi deysiz. Hatto shaytonga ham yoqadi. Qolaversa, u Odamshayton-ku. Taltayib, o‘rindiqla shunday yastandiki, eman daraxtidan yasalgan orom kursi naq qarsillab ketdi. Uy egasi bir cho‘chib tushdi. Shaytonvachcha qo‘yniga qo‘l solib, suratini oldi-da, stolga tashladi.

– Сиз энди, – деди у рўпарасида бош эгиб турган кулига қараб, – кечаги ишнинг чаласини битиринг. Қозимир Қозоқовнинг фуқаролик хужжатини охирига етказинг. Мен озгина шайтон уйқусини олволай. Кейин гаплашиб оладиган ишлар бор.

– Хўп бўлади, Қозимир ука...

## ОДАМЛАР, ХУШЁР БЎЛИНГЛАР!

*(ёки 108-каналнинг яна шов-шув кўтарганлари)*

Шайтонвачча шайтон уйқусини ола олмади. Хонада телевизор ёқиғлик қолган экан. Зинадан кўтарилаётгандаёқ сездики, 108-канал навбатдаги ваҳимали хабарни тарқатяпти. Бундан чиқди уй эгаси шу канални кўриб ўтирган экан-да. Машина келиб тўхташи билан халоскорини кутиб олгани пастга югурган. Қизиқ, у бу канални илгаритдан кўрармикан ё Шайтонвачча ҳақидаги кечаги маълумотлардан кейин қизиқиб қолдими? Ахир, бошловчи қиз сўзма-сўз унинг суратини шундоқ чиздики, шубҳага зиғирчаям ўрин қолдирмади. Бунинг устига Шайтонвачча ўз оғзидан Хўжақишлоқдан эканлигини, Кавсар, Овсар дейишларигача айтиб берди. Тўғри, Шайтонвачча ўзга сайёраликка ўхшайман, деб қора сочини малла қилиб олганини ҳам айтди. Аммо уй эгаси бунга қанчалик ишонди, қанчалик ишонмади, бу ёғи қоронғи. Ҳарҳолда бу одам пул одами, пул одами Шайтонвачча ўйлаганчалик аҳмоқ бўлмайди. «Тақво» деган битта сўзни ниқоб қилиб, орқасидан шунча ишларни қилиб ташлабдими, демак, шайтонга дарс берадиган хилидан. У осонликча бировга кул бўлиб қоладиганлардан эмас. Қизиқ устида кулингизман, деб шунчаки оғзидан чиқиб кетди. Бекорга: «Илмингизга қойилман, бу илм билан бутун дунёни олса бўлади», – демади. Бунинг устига 108-канал Шайтонваччани тутиб берганга миллион доллар таклиф қиляпти. Пул дегани ёмон нарса. Пулнинг иси мана мен деган одамни ҳам тинч

– Siz endi, – dedi u ro‘parasida bosh egib turgan quliga qarab, – kechagi ishning chalasini bitiring. Qozimir Qozoqovning fuqarolik hujjatini oxiriga yetkazing. Men ozgina shayton uyqusini olvolay. Keyin gaplashib oladigan ishlar bor.

– Xo‘p bo‘ladi, Qozimir uka...

## **ODAMLAR, HUSHYOR BO‘LINGLAR!**

*(yoki 108-kanalning yana shov-shuv ko‘targanlari)*

Shaytonvachcha shayton uyqusini ola olmadi. Xonada televizor yoqig‘lik qolgan ekan. Zinadan ko‘tarilayotgandayoq sezdi, 108-kanal navbatdagi vahimali xabarni tarqatyapti. Bundan chiqdi uy egasi shu kanalni ko‘rib o‘tirgan ekan-da. Mashina kelib to‘xtashi bilan xaloskorini kutib olgani pastga yugurgan. Qiziq, u bu kanalni ilgaritdan ko‘rarmikan yo Shaytonvachcha haqidagi kechagi ma‘lumotlardan keyin qiziqib qoldimi? Axir, boshlovchi qiz so‘zma-so‘z uning suratini shundoq chizdiki, shubhaga zig‘irchayam o‘rin qoldirmadi. Buning ustiga Shaytonvachcha o‘z og‘zidan Xo‘jaqishloqdan ekanligini, Kavsar, Ovsar deyishlarigacha aytib berdi. To‘g‘ri, Shaytonvachcha o‘zga sayyoralikka o‘xshayman, deb qora sochini malla qilib olganini ham aytdi. Ammo uy egasi bunga qanchalik ishonadi, qanchalik ishonmadi, bu yog‘i qorong‘i. Harholda bu odam pul odami, pul odami Shaytonvachcha o‘ylaganchalik ahmoq bo‘lmaydi. «Taqvo» degan bitta so‘zni niqob qilib, orqasidan shuncha ishlarni qilib tashlabdimi, demak, shaytonga dars beradigan xilidan. U osonlikcha birovga qul bo‘lib qoladiganlardan emas. Qiziq ustida qulingizman, deb shunchaki og‘zidan chiqib ketdi. Bekorga: «Ilmingizga qoyilman, bu ilm bilan butun dunyoni olsa bo‘ladi», – demadi. Buning ustiga 108-kanal Shaytonvachchani tutib berganga million dollar taklif qilyapti. Pul dega-

кўймайди. Ҳа, Шайтонвачча уй эгасидан хушёр бўлиши керак. У ҳар қалай қишлоқдаги Ҳожи ота ёки бизнесмен кампир эмас.

Шайтонвачча хонага кириб, олифта кийимларини ечиб, жомакорини кийгунча кўрсатув тугаб қолди. Сочини «малчишка» қилиб олган бошловчи қиз нималар деди экан, эшитолмай ҳам қолди. Эснаб, даҳанини қашлади. Куриб кеткур бўйинбоғга ўргана олмаяпти. На илож, ўрганиш керак. Билган одамга бўйинбоғ ҳам бир ниқоб. Шаҳарлик қилиб кўрсатади.

Шайтонвачча энди диванга чўзиламан деб турганида телевизор экранда яна таниш бошловчи қиз пайдо бўлди.

– Дикқат, эфирда яна 108-канал! Яна дейишимизга сабаб аслида бизнинг эфир вақтимиз тугаган эди. Аммо садоқатли мухлисларимиз ҳозироқ кўнғироқ қилиб, кўрсатувни қайта намойиш қилишимизни талаб қилишди. Шунинг учун бироз ўзгартиришлар билан кўрсатувимизни эътиборингизга қайта ҳавола қиламиз.

Шайтонваччанинг уйқуси ўчди. Дарров қайта кўрсатишни сўрашибдим, демак, бир гап бор. Ҳойнаҳой, ҳақиқий ўзга сайёраликни қўлга туширишганга ўхшайди. Экранда Шайтонвачча учун таниш жой манзаралари кўрина бошлади. Ана «Так-во» кафеси. Эшигига ўрисчалаб «Санитарний день» деб ёзиб қўйишибди. Манзара аста гулзорга кўчди. Албатта, бу жойни айна пайтда гулзор деб бўлмасди. Гуллар ўз умрини яшаб бўлган, ер чиройлик қилиб шудгорланган эди. Фаввора вазифасини ўтовчи мрамар устун кесилган дарахтдек ўртада қакқайиб турарди. Гулзорни чиройли қилиб турган нарса бу гир айлана қўйилган ўриндиқлар. Улар сариқ ва яшил рангларга бўялган, қараган кўзга чиройли кўринади. Шунга айтишса керак-да ҳар бир фасл оламни ўзича безайди деб. Шу пайт экранда иккита йигит билан иккита қиз пайдо бўлди. Улар гўё майдонча томон суҳбатлашиб келишарди. Бошловчи қиз қўлида микрофон билан уларни қарши олди.

ni yomon narsa. Pulning isi mana men degan odamni ham tinch qo'ymaydi. Ha, Shaytonvachcha uy egasidan hushyor bo'lishi kerak. U har qalay qishloqdagi Hoji ota yoki biznesmen kampir emas.

Shaytonvachcha xonaga kirib, olifta kiyimlarini yechib, jomakorini kiyguncha ko'rsatuv tugab qoldi. Sochini «malchishka» qilib olgan boshlovchi qiz nimalar dedi ekan, eshitolmay ham qoldi. Esnab, dahanini qashladi. Qurib ketkur bo'yinbog'ga o'rgana olmayapti. Na iloj, o'rganish kerak. Bilgan odamga bo'yinbog' ham bir niqob. Shaharlik qilib ko'rsatadi.

Shaytonvachcha endi divanga cho'zilaman deb turganida televizor ekranida yana tanish boshlovchi qiz paydo bo'ldi.

– Diqqat, efirda yana 108-kanal! Yana deyishimizga sabab aslida bizning efir vaqtimiz tugagan edi. Ammo sadoqatli muxlislarimiz hoziroq qo'ng'iroq qilib, ko'rsatuvni qayta namoyish qilishimizni talab qilishdi. Shuning uchun biroz o'zgartirishlar bilan ko'rsatuvimizni e'tiboringizga qayta havola qilamiz.

Shaytonvachchanning uyqusi o'chdi. Darrov qayta ko'rsatishni so'rashibdimi, demak, bir gap bor. Hoynahoy, haqiqiy o'zga sayyoralikni qo'lga tushirishganga o'xshaydi. Ekranida Shaytonvachcha uchun tanish joy manzaralari ko'rina boshladi. Ana «Taqvo» kafesi. Eshigiga o'rischalab «Sanitarniy den» deb yozib qo'yishibdi. Manzara asta gulzorga ko'chdi. Albatta, bu joyni ayni paytda gulzor deb bo'lmasdi. Gullar o'z umrini yashab bo'lgan, yer chiroylik qilib shudgorlangan edi. Favvora vazifasini o'tovchi marmar ustun kesilgan daraxtdek o'rtada qaqqayib turardi. Gulzorni chiroyli qilib turgan narsa bu gir aylana qo'yilgan o'rindiqlar. Ular sariq va yashil ranglarga bo'yalgan, qaragan ko'zga chiroyli ko'rinadi. Shunga aytishsa kerak-da har bir fasl olamni o'zicha bezaydi deb. Shu payt ekranida ikkita yigit bilan ikkita qiz paydo bo'ldi. Ular go'yo maydoncha tomon suhbatlashib kelishardi. Boshlovchi qiz qo'lida mikrafon bilan ularni qarshi oldi.

– Ассалому алайкум, эфирда 108-канал! Хабарингиз бор, бизнинг каналимиз кўпдан бери ўзга сайёраликлар билан алоқа ўрнатиб, бир қатор тадқиқотлар олиб бормоқда. Шундай қилиб, «қаҳрамонимиз» Хўжақишлоқдан қочиб, кўлга тушмас қасоскорга айланиб қолганидан ҳам хабардорсиз. У бир телба бола ва шаҳарнинг машхур жарроҳи, хўжақишлоқлик отахон ва бизнинг энг иқтидорли тасвирчимизнинг ўлимида айбланади. Тасвирчимиз Хўжақишлоқдаги тўс-тўполонда кирўрага тушиб кетиб, кеча шифохонанинг жонлантириш бўлимида жон берди. Хуллас, у хавфли жиноятчини тутишга ёрдам берганлар учун бир миллион доллар мукофот белгиланганидан ҳам хабардорсиз. Шундай қилиб, азиз телетомошабинлар, кеча кечқурун ўзга сайёралик келгиндининг дараги чиқди. Биз ҳозир воқеа содир бўлган жойдамиз. Бизнинг 108-каналга кечаги кўрсатувдан кейин ҳозир сиз кўриб турган ёшлар кўнғироқ қилиб, ғаройиб воқеадан хабардор қилган эдилар. – Илтимос, ўзингизни таништиринг, – деб бошловчи микрофонни йигити билан ёнма-ён турган қизга тутди.

– Вой, кўрқаман, – деди қиз микрофондан ўзини олиб қочиб. – Кейин ўша келгинди мени қидириб қолсинми?

Шайтонвачча кўнғироқдек овоздан тезда таниди. Бу кечаги маҳмадона қиз. Қоронғида юз-кўзига эътибор қилмаган экан. Киракаш йигит айтгандек бориб турган момақаймоқ. Одам болалари ҳамма чиройли қизларни момақаймоқ десалар керак-да.

– Сиз-чи, сизам кўрқасизми? – қизнинг ёнида турган йигитдан сўради бошловчи қиз.

– Тавба, – деди йигит хайрон бўлиб, – бизни бу ерга нимага чақирдингиз ўзи? – тўнғиллади йигит.

– Кўрдингизми, ёшларимиз жуда хушёр. Ўзларини таништирмай тўғри қилишади. Ўзга сайёралик келгиндимиз ҳам ўта хушёр, исмини сўрасангиз гоҳ Кавсарман дейди, гоҳ Овсарман дейди. Ҳатто Шайтон Шайтоновичман ҳам деб кўяди. Хўш, кадрли ёшлар,

– Assalomu alaykum, efirda 108-kanal! Xabaringiz bor, bizning kanalimiz ko‘pdan beri o‘zga sayyoraliklar bilan aloqa o‘rnatib, bir qator tadqiqotlar olib bormoqda. Shunday qilib, «qahramonimiz» Xo‘jaqishloqdan qochib, qo‘lga tushmas qasoskorga aylanib qolganidan ham xabardorsiz. U bir telba bola va shaharning mashhur jarrohi, xo‘jaqishloqlik otaxon va bizning eng iqtidorli tasvirchimizning o‘limida ayblanadi. Tasvirchimiz Xo‘jaqishloqdagi to‘s-to‘polonda kiro‘raga tushib ketib, kecha shifoxonaning jonlantirish bo‘limida jon berdi. Xullas, u xavfli jinoyatchini tutishda yordam berganlar uchun bir million dollar mukofot belgilanganidan ham xabardorsiz. Shunday qilib, aziz teletomoshabinlar, kecha kechqurun o‘zga sayyoralik kelgindining daragi chiqdi. Biz hozir voqea sodir bo‘lgan joydamiz. Bizning 108-kanalga kechagi ko‘rsatuvdan keyin hozir siz ko‘rib turgan yoshlar qo‘ng‘iroq qilib, g‘aroyib voqeadan xabardor qilgan edilar. – Iltimos, o‘zingizni tanishtiring, – deb boshlovchi mikrafonni yigiti bilan yonma-yon turgan qizga tutdi.

– Voy, qo‘rqaman, – dedi qiz mikrafondan o‘zini olib qochib. – Keyin o‘sha kelgindi meni qidirib qolsinmi?

Shaytonvachcha qo‘ng‘iroqdek ovozdan tezda taniydi. Bu kechagi mahmadona qiz. Qorong‘ida yuz-ko‘ziga e’tibor qilmagan ekan. Kirakash yigit aytgandek borib turgan momaqaymoq. Odam bolalari hamma chiroyli qizlarni momaqaymoq desalar kerak-da.

– Siz-chi, sizam qo‘rqasizmi, – qizning yonida turgan yigitdan so‘radi boshlovchi.

– Tavba, – dedi yigit hayron bo‘lib, – bizni bu yerga nimaga chaqirdingiz o‘zi? – to‘ng‘illadi yigit.

– Ko‘rdingizmi, yoshlarimiz juda hushyor. O‘zlarini tanishtirmay to‘g‘ri qilishadi. O‘zga sayyoralik kelgindimiz ham o‘ta hushyor, ismini so‘rasangiz goh Kavsarman deydi, goh Ovsarman deydi. Hatto Shayton Shaytonovichman ham deb qo‘yadi. Xo‘sh, qadrlı yosh-

кеча шом билан хуфтон орасида бу ерда нималар содир бўлди? Шуни телетомошабинларимизга ипидан игнасигача сўзлаб беринг.

– Ҳо-о-о, – деб қақажон қиз лабини буриб, – эълон қилинган мукофот пулининг чеки қани?

– Олдин сизлардан интервью оллолайлик, кейин, хўпми?

– Ҳа, йўқ, оражон, биз кўрган оламшумул воқеага биласизми бошқа каналлар қанча тўлайди?

«Бопланглар, азаматлар, – деди Шайтонвачча кайфияти кўтарилиб. – 108-канални бир кафангадо қилинглр. Мени ўзга сайёраликка чиқариб, ҳам-манинг қулоғига лағмон осиб, бойиб ётибди».

– Айтмадимми, ёшларимиз хушёр деб, – дея кулди бошловчи қиз. – Мана, – деди у чек ёзилган қоғозни кўрсатиб, – бизда ҳамма иш режали, ўртоқ ёшлар. Сизлар бизнинг келажагимизсиз, келажакни эса алдаб бўлмайди. Алдасак, ўзимизни алдаган бўламиз, тўғрими?

– Ҳар биримизга шунчаданми, – чиройи очилиб кетди қақажоннинг.

– Нималар деяпсиз, – очикдан-очик жаҳли чиқиб кетди бошловчи қизнинг. – Тўрталангиз бўлишиб оласизлар.

– Алдагани бола яхши экан-да, келажакнинг нархи шунчалар пастми, бўлмайди, кетдик, Расулжон ака, – деб қақажон йигитини кўлтиқлаб қаёққадир бошлаб қолди.

Шайтонвачча зўр театр томоша қилаётгандек маза қилиб кулар, қани энди шу ёшларнинг олдида бўлиб қолса-ю, битта-битта пешанасидан чўлпиллатиб ўпиб олса. Суюнчи бериш мана бунақа бўлади, деб намоёйишкорона кўлларига «кўки»дан тутқазса. Ахир, Шайтонваччадан бу канал неча марталаб интервью олиб, суратга тушириб, бир тийин ҳам бермаган эди-да. Аслида бериши керак экан. Бечора Шайтонваччани текин даромад манбаига айлантириб, роса лақиллатибди-ку. Ёшлар Шайтонваччанинг кўзини анча очиб кўйди. Тўғри қилишади, бу дунё-



lar, kecha shom bilan xufton orasida bu yerda nimalar sodir bo'ldi? Shuni teletomoshabinlarimizga ipidan ignasigacha so'zlab bering.

– Ho-o-o, – deb qaqajon qiz labini burib, – e'lon qilingan mukofot pulining cheki qani?

– Oldin sizlardan intervyu olvolaylik, keyin, xo'p-mi?

– Ha, yo'q, opajon, biz ko'rgan olamshumul voqea-ga bilasizmi boshqa kanallar qancha to'laydi?

«Boplanglar, azamatlar, – dedi Shaytonvachcha kayfiyati ko'tarilib. – 108-kanalni bir kafangado qilinglar. Meni o'zga sayyoralikka chiqarib, hammaning qulog'iga lag'mon osib, boyib yotibdi».

– Aytmadimmi, yoshlarimiz hushyor deb, – deya kuldi boshlovchi qiz. – Mana, – dedi u chek yozilgan qog'ozni ko'rsatib, – bizda hamma ish rejali, o'rtoq yoshlar. Sizlar bizning kelajagimizsiz, kelajakni esa aldab bo'lmaydi. Aldasak, o'zimizni aldagan bo'lamiz, to'g'rimi?

– Har birimizga shunchadanmi, – chiroyi ochilib ketdi qaqajonning.

– Nimalar deyapsiz, – ochiqdan ochiq jahli chiqib ketdi boshlovchi qizning. – To'rtalangiz bo'lishib olasizlar.

– Aldagani bola yaxshi ekan-da, kelajakning narxi shunchalar pastmi, bo'lmaydi, ketdik, Rasuljon aka, – deb qaqajon yigitini qo'ltiqlab qayoqqadir boshlab qoldi.

Shaytonvachcha zo'r teatr tomosha qilayotgandek maza qilib kular, qani endi shu yoshlarning oldida bo'lib qolsa-yu, bitta-bitta peshanasidan cho'lpillatib o'pib olsa. Suyunchi berish mana bunaqa bo'ladi, deb namoyishkorona qo'llariga «ko'ki»dan tutqazsa. Axir, Shaytonvachchadan bu kanal necha martalab intervyu olib, suratga tushirib, bir tiyin ham bermagan edi-da. Aslida berishi kerak ekan. Bechora Shaytonvachchani tekin daromad manbayiga aylantirib, rosa laqillatibdi-ku. Yoshlar Shaytonvachchani ko'zini ancha ochib

нинг ишлари сиздан угина, биздан бугина бўлгач, бировга ҳақини бериб қўймаслик керак. Ҳа, «малчишка» қилиб олган сочингдан ўргилдим сени. Шайтонвачча энди бу ёғи нима бўлар экан, деб телевизордан кўз узмас эди.

– Бўпти, – деди бошловчи қиз эфирда эканини ҳам унутиб зарда билан, – сизлар айтганча бўлақолсин, ҳар бирингизга шунчадан, энди бўлдимиз? Мана, – деб қизга қўшимча чек қоғозини тутқазди.

– Ана энди гап гапга қовушади, опа айланай, – деди маҳмадона бижилдоқ. – Микрафонни бу ёққа беринг. Ассалому алайкум, ҳурматли 108-канал мухлислари! Нима бўлган экан, деб ичларингиз пишиб ўтирибсизларми, марҳамат, эшитингизлар. Кеча биз Расулжон акам билан тўйимиз ҳақида гаплашиб олгани шу майдонга чиқувдик. Бу ёнимда турган Салима менинг ўртоғим. Омонжон ака билан яқинда тўйлари бўлган. Улар бизга ҳамроҳ бўлиб чиқишган эди. Биз манови скамейкада, – деб юриб бориб бир скамейкани кўрсатмоқчи эди, у ерда бир пиёниста ўтирган экан. – Тур-е, туркинг курсин, – деб уришиб берди. Пиёнистанинг кўзи камерага тушиб, тура қочди. – Ҳа, худди шу скамейкада ўтирган эдик. Омонжон ака билан Салима ҳов наригисида ўтиришувди. Мана бу скамейкада, – деб қарама-қарши томондаги скамейкага ишора қилди қиз, – иккита пиёниста виноми-ей, ишқилиб, бир нималар ичиб, гап сотишарди. Бир маҳал «гуп» этган овоз эшитилиб қолди. Ҳатто оёғимизнинг тағи зириллаб ҳам кетди, а, Расулжон ака?! – Расулжон акаси «Ҳа», дегандек бош қимирлатиб қўйди. – Худди биров томдан ташлагандек бўлди-да ўзиям. Кўриб турибсиз, бу ерда на том, на дарахт бор. Сайхонлик. Алдасам, ўлай агар, ҳурматли телетомошабинлар. Лекин не кўз билан кўрайликки, – деб қизнинг кўзлари хайратдан катта-катта очилиб, шундоғам чўзинчоқ юзлари баттар чўзилиб кетди, – рўпарамизда шипдек бўлиб бир одам турибди. Кўрққанимдан Расулжон акамнинг қўйинларига кириб кетибман, тўғрими, Расулжон

qo‘ydi. To‘g‘ri qilishadi, bu dunyoning ishlari sizdan ugina, bizdan bugina bo‘lgach, birovga haqini berib qo‘ymaslik kerak. Ha, «malchishka» qilib olgan sochingga o‘rgildim seni. Shaytonvachcha endi bu yog‘i nima bo‘lar ekan deb televizordan ko‘z uzmas edi.

– Bo‘pti, – dedi boshlovchi qiz efirda ekanini ham unutib zarda bilan, – sizlar aytgancha bo‘laqolsin, har biringizga shunchadan, endi bo‘ldimi? Mana, – deb qizga qo‘shimcha chek qog‘ozini tutqazdi.

– Ana endi gap gapga qovushadi, opa aylanay, – dedi mahmadona bijildoq. – Mikrafonni bu yoqqa bering. Assalomu alaykum, hurmatli 108-kanal muxlislari! Nima bo‘lgan ekan, deb ichlaringiz pishib o‘tiribsizlarmi, marhamat, eshitingizlar. Kecha biz Rasuljon akam bilan to‘yimiz haqida gaplashib olgani shu maydonga chiquvdik. Bu yonimda turgan Salima mening o‘rtog‘im. Omonjon aka bilan yaqinda to‘ylari bo‘lgan. Ular bizga hamroh bo‘lib chiqishgan edi. Biz manovi skameykada, – deb yurib borib bir skameykani ko‘rsatmoqchi edi, u yerda bir piyonista o‘tirgan ekan. – Tur-e, turqing qursin, – deb urishib berdi. Piyonistaning ko‘zi kameraga tushib, tura qochdi. – Ha, xuddi shu skameykada o‘tirgan edik. Omonjon aka bilan Salima hov narigisida o‘tirishuvdi. Mana bu skameykada, – deb qarama-qarshi tomondagi skameykaga ishora qildi qiz, – ikkita piyonista vinomi-yey, ishqilib, bir nimalar ichib, gap sotishardi. Bir mahal «gup» etgan ovoz eshilib qoldi. Hatto oyog‘imizning tagi zirillab ham ketdi, a, Rasuljon aka?! – Rasuljon akasi «Ha», degandek bosh qimirlatib qo‘ydi. – Xuddi birov tomdan tashlagandek bo‘ldi-da o‘ziam. Ko‘rib turibsiz, bu yerda na tom, na daraxt bor. Sayxonlik. Aldasam, o‘lay agar, hurmatli teletomoshabinlar. Lekin ne ko‘z bilan ko‘raylikki, – deb qizning ko‘zlari hayratdan katta-katta ochilib, shundog‘am cho‘zinchoq yuzlari battar cho‘zilib ketdi, – ro‘paramizda shipdek bo‘lib bir odam turibdi. Qo‘rqqanimdan Rasuljon akamning qo‘yinlariga kirib

BATTAR BO'LLARING...



DO'ZAXNING KUCHINI QARA...



ака? – Расулжон акаси яна бош қимирлатиб, «Ҳа», деб тасдиқлади. – Олдинига у махлуқ довираб, хайкалдек қотиб турди-турди... – Қиз бир нима нашъа қилгандек қаҳ-қаҳ отиб кулиб юборди. – Шу десангиз, ҳурматли томошабинлар, пиёнисталар кизиқ халқ бўлар экан-да. Уларга виноми, ишқилиб, шунга ўхшаган нарса бўлса, бўлди экан. Бошқа нарса билан иши йўқ экан. Бўлмаса ҳалиги одам шундоқ ёнларига тушди-я. Тепаларида шипдек бўлиб турса ҳам сезишмади, денг. Ўзлари билан ўзлари овора. Осмондан тушган одам чайқала-чайқала пиёнисталарнинг ёнига ўтириб қолди. Шундагина пиёнисталар унга эътибор қилишди. Ўзимизнинг одам деб ўйлаб тезда унга шиша тутишди. У шишани олибоқ оғзига олиб борди. Аммо шу заҳоти пуркаб ташлади. Ўқчиб, йўталди. Шундагина мен унинг ҳамма қатори одамлигига ишондим. Пиёнисталар унинг қўлидаги шишани тортиб олиб, баклашка тутқазилди. Уни охиригача сибириб ичди. Буниси сув бўлса керак-да. Шунда пиёнисталарга қойил қолдим. Биздан кўра улар меҳрибонрок бўлишаркан... Бир маҳал қарасак пиёнисталар унинг у ёқ-буёғини тинтишяпти. Ҳай-ҳайлаб ҳайдаб солдик. Яқин бориб қарасак, биб-бинойи Расулжон акамга ўхшаган суксурдек йигит, тўғрими, Расулжон ака? – Расулжон акаси бу сафар тескари қаради. – Қаёқдан келиб қолдингиз? – деб сўрадим ундан одамлигига ишонч ҳосил қилгач. У бўлса: «У ёқдан», – деб осмонни кўрсатди. – Вой-й-й-й, самалётдан тушиб қолдингизми, дедим. «Ажинашамол учириб кетувди», – деб бинойидек гапирди. Ажинашамолнинг тарнадами, дедим. У: «Ҳа, шунақа деса ҳам бўлади», – деб бош қимирлатди. Қаёқларга келиб қолганингизни биласизми, деб сўрадим. «Ўзим шаҳарга отланиб турувдим», – деди. Ана холос, текиндан текин кевобсиз-да, – дедим. Шунда Расулжон акам кўп гапириб юбординг-да, деб мени рашк қилдилар. Одамгарчилик қилиш керак, деб Расулжон акамдан озгина хафа бўлдим. Танишайлик,

ketibman, to‘g‘rimi, Rasuljon aka? – Rasuljon akasi yana bosh qimirlatib, «Ha», deb tasdiqladi. – Oldiniga u maxluq dovdirab, haykaldek qotib turdi-turdi... – Qiz bir nima nasha qilgandek qah-qah otib kulib yubordi. – Shu desangiz, hurmatli tomoshabinlar, piyonistalar qiziq xalq bo‘lar ekan-da. Ularga vinomi, ishqilib, shunga o‘xshagan narsa bo‘lsa, bo‘ldi ekan. Boshqa narsa bilan ishi yo‘q ekan. Bo‘lmasa haligi odam shundoq yonlariga tushdi-ya. Tepalarida shipdek bo‘lib tursa ham sezishmadi, deng. O‘zlari bilan o‘zlari ovora. Osmondan tushgan odam chayqala-chayqala piyonistalarning yoniga o‘tirib qoldi. Shundagina piyonistalar unga e‘tibor qilishdi. O‘zimizning odam deb o‘ylab tezda unga shisha tutishdi. U shishani oliboq og‘ziga olib bordi. Ammo shu zahoti purkab tashladi. O‘qchib, yo‘taldi. Shundagina men uning hamma qatori odamligiga ishonдим. Piyonistalar uning qo‘lidagi shishani tortib olib, baklashka tutqazishdi. Uni oxirigacha simirib ichdi. Bunisi suv bo‘lsa kerak-da. Shunda piyonistalarga qoyil qoldim. Bizdan ko‘ra ular mehribonroq bo‘lisharkan... Bir mahal qarasak piyonistalar uning u yoq-buyog‘ini tintishyapti. Hay-haylab haydab soldik. Yaqin borib qarasak, bib-binoyi Rasuljon akamga o‘xshagan suqsurdek yigit, to‘g‘rimi, Rasuljon aka? – Rasuljon akasi bu safar teskari qaradi. – Qayoqdan kelib qoldingiz? – deb so‘radim undan odamligiga ishonch hosil qilgach. U bo‘lsa: «U yoqdan», – deb osmonni ko‘rsatdi. – Voy-y-y-y, samalyotdan tushib qoldingizmi, dedim. «Ajinashamol uchrib ketuvdi», – deb binoyidek gapirdi. Ajinashamolingiz tarnadami, dedim. U: «Ha, shunaqa desa ham bo‘ladi», – deb bosh qimirlatdi. Qayoqlarga kelib qolganingizni bilasizmi, deb so‘radim. «O‘zim shaharga otlanib turuvdim», – dedi. Ana xolos, tekidan tekin kevobsiz-da, – dedim. Shunda Rasuljon akam ko‘p gapirib yubording-da, deb meni rashk qildilar. Odamgarchilik qilish kerak, deb Rasuljon akamdan ozgina xafa bo‘ldim. Tanishaylik,

кимсиз, десам, «Шайтонман», – деди. Ҳаммамиз кулиб юбордик. Унда танишиб кўяйлик, Шайтон ака, деб кўл чўздим. «Шайтон Шайтонович», – деб кўлимни олди. Кўли бирам муздек экан, ях дейсиз. Сесканиб кетдим. Расулжон акамнинг кўллари олов, ушлаган жойини ёндиради-а? – деб Расулжон акасига қаради қиз. Йигит хушҳол жилмайди. – Вой, совқотиб кетибсиз-ку, дедим кўлимни тортиб олиб. «Уёқ совуқ-да», – деб Шайтон ака яна юқорига ишора қилди. Ҳамма жойингиз соппа-соғми, ҳеч ерингиз лат емадими, дедим. У ўрнидан туриб, бир-икки сакраб соппа-соғлигини билдирди. Шу пайт Шайтон Шайтоновичнинг кўзи «Тақво» кафесига тушди-ю, йўқотган нарчасини топиб олгандек хайр-маъзурни ҳам насия қилиб, ошхонага кириб кетди. Ҳа, яна бир гап, мен бизни ҳам кафега таклиф қилмайсизми, десам, «Шайтонлар бировни овқатига шерик қилмайди», – деди. Биз яна кулдик. Уйга бориб телевизорни ёқиб, 108-канални очсам, манови опам, – деб бошловчи қизга ишора қилди, – бўйи унча, эни бунча, қоши унақа, сочи бунақа, уни Ажинашамол кўтариб юради, деб гапириб турибдилар-да. Кейин миллион долларлик мукофот пули ҳақида ҳам гапирдилар. Ҳозирги олган пулимизнинг қанчалигини айтсам, куласиз, сочимизни икки марта жингалак қилишга ҳам етмайди. Миллион доллармиш... Алдоқчи, қурумсоқ канал экан бу...

– Ўша одамнинг сочига эътибор қилдингизми? – сўзини бўлди бошловчи қиз хушламайгина.

– Қаранг-а, бошига карамапман. Сиз қаровдингизми, Расулжон ака? – Йигит «йўқ» дегандек кескин бош чайқади ва «Боши курсин», – деб қўйди.

Бошловчи қиз чаққонлик билан маҳмадонанинг кўлидан микрофони тортиб олди-да, деди:

– Азиз телетомошабинлар, мана, бўлиб ўтган воқеага ўзингиз гувоҳ бўлдингиз, қизчанинг гапларини анави иккита пиёнистани ҳисобга олмаганда, учта дўсти тасдиқлаб турибди. Шаҳар катта. Хушёр бўлайлик. У келгиндининг кўлига кишан урайлик-да,



kimsiz, desam, «Shaytonman», – dedi. Hammamiz kulib yubordik. Unda tanishib qo‘yaylik, Shayton aka, deb qo‘l cho‘zdim. «Shayton Shaytonovich», – deb qo‘limni oldi. Qo‘li biram muzdek ekan, yax deysiz. Seskanib ketdim. Rasuljon akamning qo‘llari olov, ushlagan joyini yondiradi-a? – deb Rasuljon akasiga qaradi qiz. Yigit xushhol jilmaydi. – Voy, sovqotib ketibsizku, dedim qo‘limni tortib olib. «Uyoq sovuq-da», – deb Shayton aka yana yuqoriga ishora qildi. Hamma joyingiz soppa-sog‘mi, hech yeringiz lat yemadimi, dedim. U o‘rinidan turib, bir-ikki sakrab soppa-sog‘ligini bildirdi. Shu payt Shayton Shaytonovichning ko‘zi «Taqvo» kafesiga tushdi-yu, yo‘qotgan narsasini topib olgandek xayr-ma‘zurni ham nasiya qilib, oshxonaga kirib ketdi. Ha, yana bir gap, men bizni ham kafega taklif qilmaysizmi, desam, «Shaytonlar birovni ovqatiga sherik qilmaydi», – dedi. Biz yana kuldik. Uyga borib televizorni yoqib, 108-kanalni ochsam, manovi opam, – deb boshlovchi qizga ishora qildi, – bo‘yi uncha, eni buncha, qoshi unqa, sochi bunaqa, uni Ajinashamol ko‘tarib yuradi, deb gapirib turibdilar-da. Keyin million dollarlik mukofot puli haqida ham gapirdilar. Hozirgi olgan pulimizning qanchaligini aytsam, kulasiz, sochimizni ikki marta jingalak qilishga ham yetmaydi. Million dollarmish... Aldoqchi, qurumsoq kanal ekan bu...

– O‘sha odamning sochiga e‘tibor qildingizmi? – so‘zini bo‘ldi boshlovchi qiz xushlamaygina.

– Qarang-a, boshiga qaramapman. Siz qarovdingizmi, Rasuljon aka? – Yigit «yo‘q» degandek keskin bosh chayqadi va «Boshi qursin», – deb qo‘ydi.

Boshlovchi qiz chaqqonlik bilan mahmadonaning qo‘lidan mikrafonni tortib oldi-da, dedi:

– Aziz teletomoshabinlar, mana, bo‘lib o‘tgan voqega o‘zingiz guvoh bo‘ldingiz, qizchaning gaplarini anovi ikkita piyonistani hisobga olmaganda, uchta do‘sti tasdiqlab turibdi. Shahar katta. Hushyor bo‘laylik. U kelgindining qo‘liga kishan uraylik-da, hammamiz

хаммамиз тинчийлик. 108-каналда қолинг, кейинги чиқишларимизни кутинг.

## КЎЗИНГНИ ОЧ, ОДАМШАЙТОН

*(ёки Шайтонваччанинг ўзини ўзи тергаб олиши)*

Ушбу кўрсатув тугагач, бир нозанин кўшиқчи чиқиб, чиройли клип билан кўшиқ бошлади:

*Дарёларнинг ул юзида уйларингиз-о-о-о...*

*Оқаришиб кўринади бўйларингиз-о-о-о...*

*Дарё тошқин, сувлар тўлқин, ўтолмайман-о-о-о...*

*Отим ориқ, манзилимга етолмайман-о-о-о...*

Бу кўшиқ Шайтонваччанинг жон жойига тегиб кетди. 108-каналдаги воқеалардан бир хурсанд, бир маҳзун кайфиятга тушиб ўтирган эди. Анави маҳмадона қиз телебошловчини яхшигина тузлади. Суюнчига берган пули сочимни икки марта жингалак қилишга ҳам етмайди, деб шармандасини чиқарди. Ҳаммаси ойдек равшан. Томошабинларни ўзига ром қилиб, каналининг нархини ошириш билан овора. Бўлмаса ҳар қандай жиноятчининг танобини тортиб кўядиган шундай хизмат идоралари борки, уларнинг маҳорати олдида мана мен деган шайтонлар ҳам ип эшолмай қолади. Хуллас, кундан-кунга Шайтонваччанинг ашаддий душманига айланиб бораётган 108-каналнинг попуғи бугун анча пасайди. Бундан кейин тўғридан-тўғри кўрсатувларни ўйлашиброқ қилади. Лекин бу бижилдоқ қиз айна пайтда Шайтонваччани ҳам яхшигина шарманда қилди. Албатта, шарманда бўлишида қизнинг айби йўқ. Ўзи айбдор. Нимага ростини гапириб ўтирибди унга? Ахир, Шайтонваччанинг ҳам Одам болаларига ўхшаб мақтангиси келди-да. Янаям тўғрироғи, қизнинг кўнғирокдек овозини қайта-қайта эшитгиси келди. Булбул гулзорда нимага бийрон-бийрон сайрайди? Гулни яхши кўрибми? Бекорчи гап. Гулни бошига урадими? Ўз жуфтини соғинади. Ўшани

tinchiylik. 108-kanalda qoling, keyingi chiqishlarimizni kuting.

## KO‘ZINGNI OCH, ODAMSHAYTON

*(yoki Shaytonvachchaning o‘zini o‘zi tergab olishi)*

Ushbu ko‘rsatuv tugagach, bir nozanin qo‘shiqchi chiqib, chiroyli klip bilan qo‘shiq boshladi:

*Daryolarning ul yuzida uylaringiz-o-o-o...*

*Oqarishib ko‘rinadi bo‘ylaringiz-o-o-o...*

*Daryo toshqin, suvlar to‘lqin, o‘tolmayman-o-o-o...*

*Otim oriq, manzilimga yetolmayman-o-o-o...*

Bu qo‘shiq Shaytonvachchaning jon joyiga tegib ketdi. 108-kanaldagi voqealardan bir xursand, bir mahzun kayfiyatga tushib o‘tirgan edi. Anavi mahmadona qiz teleboshlovchini yaxshigina tuzladi. Suyunchiga bergan puli sochimni ikki marta jingalak qilishga ham yetmaydi, deb sharmandasini chiqardi. Hammasi oydek ravshan. Tomoshabinlarni o‘ziga rom qilib, kanalining narxini oshirish bilan ovora. Bo‘lmasa har qanday jinoyatchining tanobini tortib qo‘yadigan shunday xizmat idoralari borki, ularning mahorati oldida mana men degan shaytonlar ham ip esholmay qoladi. Xullas, kundan kunga Shaytonvachchaning ashaddiy dushmaniga aylanib borayotgan 108-kanalning po-pugi bugun ancha pasaydi. Bundan keyin to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatuvlarni o‘ylashibroq qiladi. Lekin bu bijldoq qiz ayni paytda Shaytonvachchani ham yaxshigina sharmanda qildi. Albatta, sharmanda bo‘lishida qizning aybi yo‘q. O‘zi aybdor. Nimaga rostini gapirib o‘tiribdi unga? Axir, Shaytonvachchaning ham Odam bolalariga o‘xshab maqtangisi keldi-da. Yanayam to‘g‘rirog‘i, qizning qo‘ng‘iroqdek ovozi qayta-qayta eshitgisi keldi. Bulbul gulzorda nimaga biyron-biyron sayraydi? Gulni yaxshi ko‘ribmi? Bekorchi gap. Gulni

чакиради. Бедана ҳам: «Мен бу ердман, мен бу ердман», – деб «битбилдиклайди». Аммо ўзининг қаердалигини билдириб қўйиб, овчининг тўрига тушади. Шундай қилиб, Шайтонвачча ҳам бижилдоқ қизнинг қўнғироқдек овозига учиб, ўзини тузоққа тутиб бериб ўтирибди. Буни Одам болалари ҳаддидан ошиш дейишади. Шайтонвачча ўйлаб қараса, жудаям талтайиб кетибди. Онаси ёнида бўлганда борми, яхшилаб ақлини киритиб қўйган бўларди. Бир ҳисобга кимдир савалаб тургани ҳам яхши экан бу дунёда. «Думи тугуклар» мадрасасидаги устозлари думи билан қулоғини кесиб, ундан осонгина қутулишди. Одамлар орасида-чи? Шайтонвачча қовун туширса, Ажинашамол тарсаки тушириб, бир яхши йўлга солиб турган эди. Уни ҳам тутатқисини олиб, ўзига қул қилиб олди. Шайтонвачча бундоқ ўйлаб қараса, ўзини хон, кўланкасини майдон қилиб олибди. Бу яхшими? Йўқ, ёмон, ёмонгина эмас, ҳатто кўрқинчли, ҳалокатли ҳам. Бунинг устига уй эгаси ҳам қулингизман, деб турибди. Унинг бу гаплари қанчалик рост? Шундоғ одам ўзини ҳам, бойлигини ҳам Шайтонваччага икки қўллаб бериб кўярмиди? Буклама пичоқдек икки букилиб, «Қулингизман», – дейди-ю, қулай келиб қолганда санчилишдан тоймайди. Эй нодон! Эй каллаварам! Бундоқ миянгни ишлатсанг-чи?! Бу ер сенга Хўжақишлоқ эмас. Бу ерни шаҳар деб қўйибдилар. Бу ердагиларнинг ҳар иккитадан биттаси шайтонга дарс беради. Битта бижилдоқ қизнинг ўзи кимсан 108-канал деганларининг пўстагини қоқиб ташлади-ку. Кўзингни оч, Шайтон пақир!

## ШОШИЛИНЧ ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

Шохдор раиснинг кайфияти бугун анча кўтаринки. Унинг қўнглини кўтариб юборган наса 108-каналнинг воқеа содир бўлган жойдан олиб борган репортажи бўлди. Демак, унинг Одамшайтони тирик. Ер бетиде

boshiga uradimi? O‘z juftini sog‘inadi. O‘shani chaqiradi. Bedana ham: «Men bu yerdaman, men bu yerdaman», – deb «bitbildiqlaydi». Ammo o‘zining qayerdaligini bildirib qo‘yib, ovchining to‘riga tushadi. Shunday qilib, Shaytonvachcha ham bijildoq qizning qo‘ng‘iroqdek ovozigaga uchib, o‘zini tuzoqqa tutib berib o‘tiribdi. Buni Odam bolalari haddidan oshish deydishadi. Shaytonvachcha o‘ylab qarasa, judayam taltayib ketibdi. Onasi yonida bo‘lganda bormi, yaxshilab aqlini kiritib qo‘ygan bo‘lardi. Bir hisobga kimdir savalab turgani ham yaxshi ekan bu dunyoda. «Dumi tuguklar» madrasasidagi ustozlari dumi bilan qulog‘ini kesib, undan osongina qutulishdi. Odamlar orasida-chi? Shaytonvachcha qovun tushirsa, Ajinashamol tarsaki tushirib, bir yaxshi yo‘lga solib turgan edi. Uni ham tutatqisini olib, o‘ziga qul qilib oldi. Shaytonvachcha bundoq o‘ylab qarasa, o‘zini xon, ko‘lankasini maydon qilib olibdi. Bu yaxshimi? Yo‘q, yomon, yomongina emas, hatto qo‘rqinchli, halokatli ham. Buning ustiga uy egasi ham qulingizman, deb turibdi. Uning bu gaplari qanchalik rost? Shundog‘ odam o‘zini ham, boyligini ham Shaytonvachchaga ikki qo‘llab berib qo‘yarmidi? Buklama pichoqdek ikki bukilib, «Qulingizman», – deydi-yu, qulay kelib qolganda sanchilishdan toymaydi. Ey nodon! Ey kallavaram! Bundoq miyangni ishlatsang-chi?! Bu yer senga Xo‘jaqishloq emas. Bu yerni shahar deb qo‘yibdilar. Bu yerdagilarning har ikkitadan bittasi shaytonga dars beradi. Bitta bijildoq qizning o‘zi kim-san 108-kanal deganlarining po‘stagini qoqib tashladiku. Ko‘zingni och, Shayton paqir!

## SHOSHILINCH HAY‘AT YIG‘ILISHI

Shoxdor raisning kayfiyati bugun ancha ko‘tarinki. Uning ko‘nglini ko‘tarib yuborgan nasa 108-kanalning voqea sodir bo‘lgan joydan olib borgan reportaji bo‘ldi. Demak, uning Odamshaytoni tirik. Yer betida sog‘-

соғ-саломат юрибди. Ҳозирча унинг на фойдаси, на зарари тегяпти. Бир қараса одамлар тарафига ўтиб кетади, бир қараса шайтонлар тарафида. Аслида бунинг ажабланадиган жойи ҳам йўқ. Шундай ҳам бўлиши керак-да. Ахир, у Одамшайтон-ку! Фақат раиснинг жаҳлини чиқарган нарса Одамшайтоннинг ўлик ёки тириклигини 108-каналдан эшитгани бўлди. Ўзининг ғийбатчи, айғоқчи, миш-мишчи каналлари нимага 108-каналга ўхшаб ишламайди? 108-канал ёлғондакамига бир миллион доллар ваъда қилганда у ростакамига икки миллион ваъда қилди-ку. Ҳа, атрофидагиларнинг ҳаммаси товукқа ўхшаб семириб кетишди. Товук семирса, тухум туғмайди. Буларнинг битта-битталаб патини юлиш керак. Анови минғир-минғир Ахборотчининг думини ечиб, кўчага ҳайдайман.

– Хўш, – деди раис ўтирганларга кўз қирини ташлаб, – нима гаплар?

– Ўртоқ раис, – деди Шарманга шуъбасининг бошлиғи ўрнидан туриб, – топшириғингиз аъло даражада бажарилди. Шаҳардаги тўртта стрип-тизимизга бир эмас, тўрттадан ҳурилиқони ишга олдик. Галма-галдан ўйин кўрсатиб ётишибди. Тухум ёмонмас.

– Яхши, – деди раис томоқ кириб, – анави масала нима бўлди?

– Э, хавотир олманг, бу сафаргилари намойишни тўғридан-тўғри ўшандан бошламоқчи бўлишди. Биз унамадик. Олдин араб қизларига ўхшаб ўраниб чиқасизлар. Кейин кўзларингизни олма-кесак қилиб, кўзўйин қиласизлар. Илондек тўлғана бошлайсизлар. Шунда бирданига бошингиздаги рўмол гўё учиб тушгандек бўлади. Кейин либоснинг пастки томони. Ана ундан кейин белдан пастини ўйната бошлайсизлар, деб кўрсатмалар бердик. Хуллас, у масалагача анча-мунча иш бор, жаноби олийлари.

– Баракалла, каллани ишлатса бўларкан-ку.

– Қуллук, ҳазратим.

– Хўш, яна нима янгиликлар?

salomat yuribdi. Hozircha uning na foydasi, na zarari tegyapti. Bir qarasa odamlar tarafiga o'tib ketadi, bir qarasa shaytonlar tarafida. Aslida buning ajablana-digan joyi ham yo'q. Shunday ham bo'lishi kerak-da. Axir, u Odamshayton-ku! Faqat raisning jahlini chi-qargan narsa Odamshaytonning o'lik yoki tirikligi-ni 108-kanaldan eshitgani bo'ldi. O'zining g'iybatchi, ayg'oqchi, mish-mishchi kanallari nimaga 108-kanalga o'xshab ishlamaydi? 108-kanal yolg'ondakamiga bir million dollar va'da qilganda u rostakamiga ikki mil-lion va'da qildi-ku. Ha, atrofidagilarning hammasi to-vuqqa o'xshab semirib ketishdi. Tovuq semirsa, tuxum tug'maydi. Bularning bitta-bittalab patini yulish kerak. Anovi ming'ir-ming'ir Axborotchining dumini yechib, ko'chaga haydayman.

– Xo'sh, – dedi rais o'tirganlarga ko'z qirini tash-lab, – nima gaplar?

– O'rtoq rais, – dedi Sharmanga shu'basining boshlig'i o'rnidan turib, – topshirig'ingiz a'lo daraja-da bajarildi. Shahardagi to'rtta striptizimizga bir emas, to'rttadan huriliqoni ishga oldik. Galma-galdan o'yin ko'rsatib yotishibdi. Tushum yomonmas.

– Yaxshi, – dedi rais tomoq qirib, – anavi masala nima bo'ldi?

– E, xavotir olmang, bu safargilari namoyishni to'g'ridan to'g'ri o'shandan boshlamoqchi bo'lishdi. Biz unamadik. Oldin arab qizlariga o'xshab o'ranib chiqasizlar. Keyin ko'zlaringizni olma-kesak qilib, ko'zo'yin qilasizlar. Ilondek to'lg'ana boshlaysizlar. Shunda birdaniga boshingizdagi ro'mol go'yo uchib tushgandek bo'ladi. Keyin libosning pastki to-moni. Ana undan keyin beldan pastini o'ynata boshlay-sizlar, deb ko'rsatmalar berdik. Xullas, u masalagacha ancha-muncha ish bor, janobi oliylari.

– Barakalla, kallani ishlatsa bo'larkan-ku.

– Qulluq, hazratim.

– Xo'sh, yana nima yangiliklar?

– Одамшайтон ҳақида, – деб чайналди Ахборотчи.  
– 108-каналнинг ахборотига бирон янгилик қўша оласизми? – деди раис тишининг орасидан гапириб.

– Канал ахборотини тўла тасдиқлаймиз, чунки Одамшайтон келиши билан «Тақво» ошхонаси ёпилди. Одамшайтон тартиб идоралари билан тил бириктирганга ўхшайди. Ҳойнаҳой, у бизлардан кесилиб кетган кулоғи билан думининг аламини олмоқчи. Шаҳарга бекорга қайтмаган. Энди у кучга тўлган ўсмир йигит.

– Нима бўлганда ҳам «Тақво»нинг ёпилгани чатоқ бўпти. Ҳарҳолда озми-кўпми ўша ердан ҳам насиба келиб турган эди. – Шохдор раис бу кўнгилсизликда ўзининг ҳам айби борлигини ҳис қилиб юмшади ва ичидан эзилди. Ахир, Одамшайтон унинг ихтиросида. Қуриб кеткур бу ихтироси уни бир кун хурсанд қилса, икки кун дилини хуфтон қилади. Бир кун кулдирса, икки кун, албатта, йиғлатади.

– Ҳазратим, – деди шуъба аъзоларидан бири, – пашшадан фил ясамайлик. «Тақво» ёпилган бўлса сатқай сар, бу ёқда Шарманка ишлаб кетди-ку. Шарманка ҳам ўзларининг ихтиролари.

«Шундай, ҳазрат, шундай», – деб ўтирганлар ўринларидан бир туриб, ўтиришди.

– Ҳамма гап шундаки, – деди раис алам билан, – мен сизларнинг буюк ихтирочингизга айланиб қолдим. Қачон қараса менинг каллам билан ишлайсизлар. Менинг қўлим билан олов ушлайсизлар. Менинг оёғим билан юрасизлар. Иш юришса хўп-хўп, юришмаса ихтирочи айбдор, шундайми? Чучварани хом санабсизлар. Бунақаси кетмайди. Ҳаммангиз семириб кетдингиз. Қақағлайсиз-у, тухумдан дарак йўқ. Тавба, «Тақво» ёпилибди. Нимага ёпилибди? Ким ёпибди? Қани жавоб? Хуллас, Ахборотчининг думи ечилиб, кўчага ҳайдалсин, менга бунақа тўтиқушнинг кераги йўқ. Ҳар қанча ахборот керак бўлса, интернет сайтларидан олавераман. Камига 108-канал бор.

Ўтирганлар бир тўлғаниб олишди. Ахборотчининг



– Odamshayton haqida, – deb chaynaldi Axborotchi.  
– 108-kanalning axborotiga biron yangilik qo‘sha olasizmi? – dedi rais tishining orasidan gapirib.

– Kanal axborotini to‘la tasdiqlaymiz, chunki Odamshayton kelishi bilan «Taqvo» oshxonasi yopildi. Odamshayton tartib idoralari bilan til biriktirganga o‘xshaydi. Hoynahoy, u bizlardan kesilib ketgan qulog‘i bilan dumining alamini olmoqchi. Shaharga bekorga qaytmagan. Endi u kuchga to‘lgan o‘smir yigit.

– Nima bo‘lganda ham «Taqvo»ning yopilgani cha-toq bo‘pti. Harholda ozmi-ko‘pmi o‘sha yerdan ham na-siba kelib turgan edi. – Shoxdor rais bu ko‘ngilsizlikda o‘zining ham aybi borligini his qilib yumshadi va ichi-dan ezildi. Axir, Odamshayton uning ixtiro-si-da. Qurib ketkur bu ixtiro-si uni bir kun xursand qilsa, ikki kun dilini xufton qiladi. Bir kun kuldirsa, ikki kun, albatta, yig‘latadi.

– Hazratim, – dedi shu‘ba a‘zolaridan biri, – pash-shadan fil yasamaylik. «Taqvo» yopilgan bo‘lsa satqa-yi sar, bu yoqda Sharmanka ishlab ketdi-ku. Sharmanka ham o‘zlarining ixtirolari.

«Shunday, hazrat, shunday», – deb o‘tirganlar o‘rin-laridan bir turib, o‘tirishdi.

– Hamma gap shundaki, – dedi rais alam bilan, – men sizlarning buyuk ixtirochingizga aylanib qoldim. Qachon qarasa mening kalam bilan ishlaysizlar. Mening qo‘lim bilan olov ushlaysizlar. Mening oyog‘im bilan yurasizlar. Ish yurishsa xo‘p-xo‘p, yurishmasa ix-tirochi aybdor, shundaymi? Chuchvarani xom sanabsiz-lar. Bunaqasi ketmaydi. Hammangiz semirib ketdingiz. Qaqag‘laysiz-u, tuxumdan darak yo‘q. Tavba, «Taqvo» yopilibdi. Nimaga yopilibdi? Kim yopibdi? Qani javob? Xullas, Axborotchining dumi yechilib, ko‘chaga hay-dalsin, menga bunaqa to‘tiqushning keragi yo‘q. Har qancha axborot kerak bo‘lsa, internet saytlaridan olave-raman. Kamiga 108-kanal bor.

O‘tirganlar bir to‘lg‘anib olishdi. Axborotchining

чинқиртириб думи ечилди ва кўчага улоқтирилди. Энди у охиратгача думи билан кўчаларни чангитиб супуриб юради...

– Шу билан мажлис тугагани йўқ, – деди раис босиқлик билан, – мен сизларнинг ҳам патингизни юламан. Жамғармаларингизнинг тенг ярмини умумжамғармага ағдарасизлар. – Бу ҳукмдан ўтирганларнинг калласи икки калла пастга тушиб кетди. Хонанинг у ер-бу еридан аламли хўрсиниқлар эшитилди. Раиси тушмагур шу билан ҳам тинчимоди: – Эртадан бошлаб ҳар бирингиз олдимга битта янги лойиха билан кирасиз. Лойихаси маъқул бўлганлар билан ишлаймиз. Маъқул бўлмаганларнинг думи ечилади. Саволлар борми?

– Бир қошиқ қонимдан кечсалар, – гапиришга журъат этди шуъба аъзоларидан бири.

– Кечдим...

– Ҳазратимиз янги лойиха ҳақида гапирдилар, модомики сармоямизнинг тенг ярми жамғармага ўтиб кетса, лойихаларни нима ҳисобига амалга оширамиз?

– Бу ёғи сизнинг муаммонгиз. Тўқ ит овга ярамайди, дейишади Одам болалари. Бу гапга мен ҳам қўшиламан.

Бошқа гап-сўзларга ўрин қолмади. Мажлис тугади. Бу гал ҳайъат аъзолари у деб, бу деб Одамшайтонга тош отаолмадилар. Лекин унинг шаҳарга, шундоққина бурунларининг тагига келиб қолганини билдилар. Одамшайтоннинг чекка қишлоқларда улоқиб юргани улар учун яхши эди. «Сенларнинг миллионтанг битта Одамшайтоннинг ишини қила олмайсанлар», – деган дашномларни эшитсалар ҳам майли эди. Лекин уларда бир таскин бор эди: «Бу ерни шаҳар деб қўйибдилар, Одам болалари орасида шундайлари борки, бир эмас, ўнта Одамшайтонни ҳам бир чўқишда қочиради».

chingirtirib dumi yechildi va ko‘chaga uloqtirildi. Endi u oxiratgacha dumi bilan ko‘chalarni changitib supurib yuradi...

– Shu bilan majlis tugagani yo‘q, – dedi rais bo-siqlik bilan, – men sizlarning ham patingizni yulaman. Jamg‘armalaringizning teng yarmini umumjamg‘ar-maga ag‘darasizlar. – Bu hukmdan o‘tirganlarning kallasi ikki kalla pastga tushib ketdi. Xonaning u yer-bu yeridan alamli xo‘rsiniqlar eshitildi. Raisi tush-magur shu bilan ham tinchimadi: – Ertadan boshlab har biringiz oldimga bitta yangi loyiha bilan kirasiz. Loyihasi ma‘qul bo‘lganlar bilan ishlaymiz. Ma‘qul bo‘lmaganlarning dumi yechiladi. Savollar bormi?

– Bir qoshiq qonimdan kechsalar, – gapirishga jur‘at etdi shu‘ba a‘zolaridan biri.

– Kechdim...

– Hazratimiz yangi loyiha haqida gapirdilar, modomi-ki sarmoyamizning teng yarmi jamg‘armaga o‘tib ketsa, loyihalarni nima hisobiga amalga oshiramiz?

– Bu yog‘i sizning muammongiz. To‘q it ovga ya-ramaydi, deyishadi Odam bolalari. Bu gapga men ham qo‘shilaman.

Boshqa gap-so‘zlarga o‘rin qolmadi. Majlis tugadi. Bu gal hay‘at a‘zolari u deb, bu deb Odamshaytonga tosh otaolmadilar. Lekin uning shaharga, shundoq-qina burunlarining tagiga kelib qolganini bildilar. Odamshaytonning chekka qishloqlarda uloqib yurga-ni ular uchun yaxshi edi. «Senlarning milliontang bit-ta Odamshaytonning ishini qila olmaysanlar», – degan dashnomlarni eshitsalar ham mayli edi. Lekin ularda bir taskin bor edi: «Bu yerni shahar deb qo‘yibdilar, Odam bolalari orasida shundaylari borki, bir emas, o‘nta Odamshaytonni ham bir cho‘qishda qochiradi».

## ҲИСОБЛИ ДЎСТ

(ёки Шайтонваччанинг ўйлаб қўйган баъзи режаларидан воз кечиши)

Шайтонвачча ҳамон хаёл сурарди. Ажинашамол ёрдамида арокларни гум қилган «фокус-мокус»га шунчалар ҳаволаниб кетиши керакми? Одам болалари учун бу, албатта, кўз кўриб, кулоқ эшитмаган воқеа. Бор нарса бирданига ўз-ўзидан йўқ бўлиб қолса, бу – бориб турган мўъжиза-да. Бунинг устига эшиклар сўрғичланган. Кафенинг тўрт тарафига бир эмас, тўртта қуролли миршаб қўйилган. Шунинг учун ҳам «Тақво»нинг эгаси капалаги учиб, қулингизман, деб юборди-да. Ҳа, дунёнинг ишларини қаранг. Бир зумда ўринлари алмашиб қолди-я. Кечагина сенсираб, калла қўйиб, ўлдирмоқчи бўлган одам, бугун қулингизман, ҳамма нарсам сизники, деб турса?! Йўқ, бунга ишониб бўлмайди. Яхшиси, Шайтонвачча ўрин алмашишдан воз кечади. «Инсон дегани тезда эсдан чиқаради дегани», – деб таълим берарди «Думи тугуклар» мадрасасидаги устозлари. Уй эгаси ҳам шуларнинг биттаси-да. Бошига тушган қора кунни унутади-ю, ўша кундан бошлаб Шайтонваччага гўр казийди.

Шайтонвачча уй эгасини учинчи қаватда эмас, ховлида кутиб олди. Уй эгаси уни кўриши билан ялтоқланди:

– Шу десангиз, Қозимир укам, исмингиз яна иккита ҳарфга ўзгарди, Қозимирза бўлди. Олдингиси чала туғилган болага ўхшаб одамнинг тилига тушмаётган эди. Қозимирзо! Қалай, зўр бўптими?

– Бирпасда каминани бош прокурорлик амалидан туширибсиз-да, – мириқиб кулди Шайтонвачча. Аслида олдинги исми унинг ўзига ҳам ёқмай турган эди.

– Қанақа амал ҳақида гапиряпсиз, Қозимирза ука, қош қўяман деб кўз чиқариб қўймадимми, ишқилиб?

## HISOBLI DO‘ST

*(yoki Shaytonvachchaning o‘ylab qo‘ygan ba‘zi  
rejalaridan voz kechishi)*

Shaytonvachcha hamon xayol surardi. Ajinashamol yordamida aroqlarni gum qilgan «fokus-mokus»ga shunchalar havolanib ketishi kerakmi? Odam bolalari uchun bu, albatta, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqea. Bor narsa birdaniga o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib qol-sa, bu – borib turgan mo‘jiza-da. Buning ustiga eshik-lar so‘rg‘ichlangan. Kafening to‘rt tarafga bir emas, to‘rtta qurolli mirshab qo‘yilgan. Shuning uchun ham «Taqvo»ning egasi kapalagi uchib, qulingizman deb yubordi-da. Ha, dunyoning ishlarini qarang. Bir zumda o‘rinlari almashib qoldi-ya. Kechagina sensirab, kalla qo‘yib, o‘ldirmoqchi bo‘lgan odam, bugun qulingizman, hamma narsam sizniki, deb tursa?! Yo‘q, bunga ishonib bo‘lmaydi. Yaxshisi, Shaytonvachcha o‘rin almashish-dan voz kechadi. «Inson degani tezda esdan chiqaradi degani», – deb ta’lim berardi «Dumi tuguklar» madra-sasidagi ustozlari. Uy egasi ham shularning bittasi-da. Boshiga tushgan qora kunni unutadi-yu, o‘sha kundan boshlab Shaytonvachchaga go‘r qaziydi.

Shaytonvachcha uy egasini uchinchi qavatda emas, hovlida kutib oldi. Uy egasi uni ko‘rishi bilan yaltoq-landi:

– Shu desangiz, Qozimir ukam, ismingiz yana ik-kita harfga o‘zgardi, Qozimirza bo‘ldi. Oldingisi chala tug‘ilgan bolaga o‘xshab odamning tiliga tushmayotgan edi. Qozimirzo! Qalay, zo‘r bo‘ptimi?

– Birpasda kaminani bosh prokurorlik amali-dan tushiribsiz-da, – miriqib kuldi Shaytonvachcha. Aslida oldingi ismi uning o‘ziga ham yoqmay turgan edi.

– Qanaqa amal haqida gapiryapsiz, Qozimirza uka, qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarib qo‘ymadimmi, ishqilib?

Шайтонвачча тушундики, бу одам фақат тижоратни биледи. Қочирим, учирма, аския деган нарса-ларни тушунмайди. У билан қозоқнинг тўққиз пули-дек қилиб гаплашиш керак.

– Қозимир дегани қозиларнинг каттаси дегани эди, Қозимирза ўша катта қозининг мирзоси – секретари дегани бўлади, тушунтира олдимми, ака?

– Ие, бу ёғи чатоқ бўлибти-ку, укажон, – деб Шайтонваччага ёш боладек жавдираб қаради у.

– Ташвиш қилманг, пақир киши панада бўлгани яхши. Кечирасиз-у, ака, – деди Шайтонвачча бояги қарорига амал қилиб, – орада шунча ишлар бўлиб, кадрдонлашиб кетдигу, мен ҳалигача сизнинг исм-шарифингизни билмайман.

– Узр, Қозимирза ука, узр. Бундоқ бафуржа гаплашишга ҳам вақт бўлмади-да ўзи. Камина камтар кулингиз Дадамирза Отамирза ўғли бўламан.

– Э, ўлманг, ўзлари ҳам мирлардан эканлар-да.

– Шундоқ, ука, шундоқ...

– Қани, бошланг бўлмаса юқорига.

– Ўзларидан бўлсин, – мулозамат қилди Дадамирза.

– Э, уй эгаси турганда-я?

– Нима деяпсиз, ука, бизда гап битта бўлади. Уй энди бундан буёғига сизники, ўзлари бошласинлар.

Шайтонвачча кулиб Дадамирзага мулозамат қилди:

– У гаплар шунчаки ҳазил эди, Дадамирза ака. Кул, кулдор деган гаплар сиз билан бизга ярашмайди. Унақа замонлар ўтиб кетган. Биз делавой одамлармиз. Сиз билан уй-жойни ўртага қўйиб қимор ўйнаганимиз йўқ-ку, тўғрими?

– Эҳ, укажоним-а, – деб севинганидан олдинга тушиб йўл бошлаб Дадамирза, – ахир, ўзингиз айтдингиз-ку аҳмоқ ақликнинг кули деб... Ўлай агар, сиз жуда ақлисиз-да...

– Ҳа, й-ў-ў-ў, – деди Шайтонвачча кулиб, – сиз менинг сеҳр ва жодуларимга кўпам ишонаверманг, сеҳр-жоду билан узоққа бориб бўлмайди. Худо

Shaytonvachcha tushundiki, bu odam faqat tijoratni biladi. Qochirim, uchirma, askiya degan narsalarni tushunmaydi. U bilan qozoqning to‘qqiz pulidek qilib gaplashish kerak.

– Qozimir degani qozilarning kattasi degani edi, Qozimirza o‘sha katta qozining mirzosi – sekretari degani bo‘ladi, tushuntira oldimmi, aka?

– Iye, bu yog‘i chatoq bo‘libti-ku, ukajon, – deb Shaytonvachchaga yosh boladek javdirab qaradi u.

– Tashvish qilmang, paqir kishi panada bo‘lgani yaxshi. Kechirasiz-u, aka, – dedi Shaytonvachcha boyagi qaroriga amal qilib, – orada shuncha ishlar bo‘lib, qadrdonlashib ketdigu, men haligacha sizning ismsharifingizni bilmayman.

– UZR, Qozimirza uka, uzr. Bundoq bafurja gaplashishga ham vaqt bo‘lmadi-da o‘zi. Kamina kamtar qulingiz Dadamirza Otamirza o‘g‘li bo‘laman.

– E, o‘lmang, o‘zlari ham mirlardan ekanlar-da.

– Shundoq, uka, shundoq...

– Qani, boshlang bo‘lmasa yuqoriga.

– O‘zlaridan bo‘lsin, – mulozamat qildi Dadamirza.

– E, uy egasi turganda-ya?

– Nima deyapsiz, uka, bizda gap bitta bo‘ladi. Uy endi bundan buyog‘iga sizniki, o‘zlari boshlasinlar.

Shaytonvachcha kulib Dadamirzaga mulozamat qildi:

– U gaplar shunchaki hazil edi, Dadamirza aka. Qul, quldor degan gaplar siz bilan bizga yarashmaydi. Unaqa zamonlar o‘tib ketgan. Biz delavoy odamlarmiz. Siz bilan uy-joyini o‘rtaga qo‘yib qimor o‘ynaganimiz yo‘q-ku, to‘g‘rimi?

– Eh, ukajonim-a, – deb sevinganidan oldinga tushib yo‘l boshlab Dadamirza, – axir, o‘zingiz aytdingiz-ku ahmoq aqllikning quli deb... O‘lay agar, siz juda aqlisiz-da...

– Ha, y-o‘-o‘-o‘, – dedi Shaytonvachcha kulib, – siz mening sehr va jodularimga ko‘pam ishonavermang, sehr-jodu bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Xudo xohlasa

хоҳласа ҳали мен сиздан кўп нарсаларни ўрганаман. Ёшингиз улуғ, биздан анча-мунча кўйлакни кўп йиртиб қўйгансиз, тўғримми, ака?

Бу гаплардан Дадамирза эшилгандан эшилиб кетди. Бироз ўзидан кетиб, талтайди ҳам.

– Илмимни жоним, таним билан ўргатаман сизга, ука, – деди Дадамирза қаддини ғоз тутиб. – Бу дунёда пулдан пул туғдиришда менинг олдимга тушадигани йўқ. Лекин барибир сизнинг олдингизга ҳеч ким туша олмайди. Буни мен кечаёқ сезганман. Шунинг учунам уйимга бошлаб келгандим-да. Бу йигитда бир фазилат бор деб. Ҳамманг калласи битта бўлса, сизники иккита. Ақлингиз ўзингиздан анча олдин юради, ука айланай.

Шайтонвачча эйтибор қилса, Дадамирза тобора талтайиб, ўтлаб кетяпти. Бироздан кейин сен кимсан, дейишдан ҳам тоймайдиган. Шунинг учун бу ёғини ҳам пухталаб қўймоқчи бўлди:

– Энди, Дадамирза ака, ҳисобли дўст айрилмас, деганлар. Уйингизни икки йилга менга бепул ижарага бердингиз. Бу иш нотариус орқали қонуний бўлди. Кўнглим тинч.

– Ҳа, кечирасиз, Қозимирза ука, шу ишни биз нима учун қилган эдик? Сал хаёлимдан фаромуш бўлибди.

«Эсдан чиқариш бошланди, – деди Шайтонвачча ичида. – Билиб туриб аравани олиб қочяпти. Шошмай тур сен эсаракни шундай қилайки, кўчангни тополмай қолгин».

– Мен сизнинг ароқ заводингизга қўшиб «Тақво»ни ёқиб юборишим керак эди.

– Э-э-э... – деб кўзларини катта-катта очди Дадамирза, – заводмас, цех денг, шундай қилиб цех ёнмади, кафе ҳам бус-бутун қолди-ку, ука.

– Ҳа, ўлманг, ўртамиздаги жанжал шундан чикдида, ака. Мен арағингизни йўқотиб бераман, «Тақво» ҳам омон қолади, лекин кафенинг ярим пулини менга ўтказасиз, дедим, шекилли?

– Ўлай агар, эсимда йўқ, – Шайтонваччага



hali men sizdan ko‘p narsalarni o‘rganaman. Yoshingiz ulug‘, bizdan ancha-muncha ko‘ylakni ko‘p yirtib qo‘ygansiz, to‘g‘rimi, aka?

Bu gaplardan Dadamirza eshilgandan eshilib ketdi. Biroz o‘zidan ketib, taltaydi ham.

– Ilmimni jonim, tanim bilan o‘rgataman sizga, uka, – dedi Dadamirza qaddini g‘oz tutib. – Bu dunyoda puldan pul tug‘dirishda mening oldimga tushadigani yo‘q. Lekin baribir sizning oldingizga hech kim tusha olmaydi. Buni men kechayoq sezganman. Shuning uchunam uyimga boshlab kelgandim-da. Bu yigitda bir fazilat bor deb. Hammanng kallasi bitta bo‘lsa, sizniki ikkita. Aqlingiz o‘zingizdan ancha oldin yuradi, uka aylanay.

Shaytonvachcha e‘tibor qilsa, Dadamirza tobora taltayib, o‘tlab ketyapti. Birozdan keyin sen kimsan, deyishdan ham toymaydigan. Shuning uchun bu yog‘ini ham puxtalab qo‘ymoqchi bo‘ldi:

– Endi, Dadamirza aka, hisobli do‘st ayrilmas, deganlar. Uyingizni ikki yilga menga bepul ijaraga berdingiz. Bu ish notarius orqali qonuniy bo‘ldi. Ko‘nglim tinch.

– Ha, kechirasiz, Qozimirza uka, shu ishni biz nima uchun qilgan edik? Sal xayolimdan faromush bo‘libdi.

«Esdan chiqarish boshlandi, – dedi Shaytonvachcha ichida. – Bilib turib aravani olib qochyapti. Shoshmay tur sen esarakni shunday qilayki, ko‘changni topolmay qolgin».

– Men sizning aroq zavodingizga qo‘shib «Taqvo»ni yoqib yuborishim kerak edi.

– E-e-e... – deb ko‘zlarini katta-katta ochdi Dadamirza, – zavodmas, sex deng, shunday qilib sex yonmadi, kafe ham bus-butun qoldi-ku, uka.

– Ha, o‘lmang, o‘rtamizdagi janjal shundan chiqdida, aka. Men arag‘ingizni yo‘qotib beraman, «Taqvo» ham omon qoladi, lekin kafening yarim pulini menga o‘tkazasiz, dedim, shekilli?

– O‘lay agar, esimda yo‘q, – Shaytonvachchaga

кўзларини лўқ қилди Дадамирза. Кейин Шайтонваччадан баланд кела бошлади. – Назаримда сиз билан бизнинг орамиз очик. Кечаси билан изгиб, хужжатлар қилиб, шундоқ шоҳона уй-жойимни икки йилга текиндан-текинга топшириб қўйдим. Бирорта чет элликка берсам, биласизми ойига қанча «кўки»дан оламан? Минг доллардан. Кейин бу хужжатлар қанчага тушганини биласизми, ўртоқ Қозимирзо Қозоқович? Инсоф қилингда, ахир. Мен пулни ердан супуриб олмаяпман. Битта сеҳр ва жоду билан шунча нарсага эга бўлиб олдингиз, шуқр қилингда сиз ҳам, ука!

Дадамирза бир вақтлар аптекачи хотиннинг бошини айлантирб, қандоқ чув тушириб кетган бўлса, Шайтонваччанинг ҳам калласини шундоқ айлантириб ташлади. Лекин яхшиямки Шайтонваччанинг калласи биттамас, Дадамирзанинг ўзи айтганидек иккита. Биттаси айланса, иккинчиси айланмай, тинган сувдек туради.

– Мен сиздан кўп нарса сўрамаяпман. Ёнмай қолган кафенинг ярим пулини сўраяпман, холос.

– Дарвоқе, 108-канални кўргандирсиз-а, ука. Мен танишимникида кўрдим, – деб Дадамирза муғам-бируна қараб қўйди.

– Кўрқитиш йўлига ўтманг, Дадамирза ака. Эр-какмисиз, эркаклигингизча қолинг. Менинг 108-каналдаги гапларга зиғирча ҳам алоқам йўқ. Анави ёш қизчага ачиниб кетдим. Миш-мишлар рост бўлса, ўзга сайёралик интервью берган ўша қизни тинч қўймайди. Ўлардек аҳмоқ, маҳмадона қиз экан, гулдек умрини соч бўёққа алмашиб ўтирибди.

Дадамирза Шайтонваччанинг сеҳр ва жодуси ҳақида бошқача ўйлай бошлаган эди. Аммо унинг бу бошқача ўйлашлари ўз бошига бало бўлиб ёғилишини билмасди.

– Хўш, бир тийин ҳам бермайман, десам кўлингиздан нима келади? – сурбетликка ўтди Дадамирза.

– Мен учун кафенгизнинг кулини кўкка совуриш

ko‘zlarini lo‘q qildi Dadamirza. Keyin Shaytonvachchadan baland kela boshladi. – Nazarimda siz bilan bizning oramiz ochiq. Kechasi bilan izg‘ib, hujjatlar qilib, shundoq shohona uy-joyimni ikki yilga tekidan tekinga topshirib qo‘ydim. Birorta chet ellikka bersam, bilasizmi oyiga qancha «ko‘ki»dan olaman? Ming dollardan. Keyin bu hujjatlar qanchaga tushganini bilasizmi, o‘rtoq Qozimirzo Qozoqovich? Insof qilingda, axir. Men pulni yerdan supurib olmayapman. Bitta sehr va jodu bilan shuncha narsaga ega bo‘lib oldingiz, shukr qilingda siz ham, uka!

Dadamirza bir vaqtlar aptekachi xotinning boshini aylantirib, qandoq chuv tushirib ketgan bo‘lsa, Shaytonvachchanning ham kallasini shundoq aylantirib tashladi. Lekin yaxshiyamki Shaytonvachchanning kalasi bittamas, Dadamirzaning o‘zi aytganidek ikkita. Bittasi aylansa, ikkinchisi aylanmay, tingan suvdek turadi.

– Men sizdan ko‘p narsa so‘ramayapman. Yonmay qolgan kafening yarim pulini so‘rayapman, xolos.

– Darvoqe, 108-kanalni ko‘rgandirsiz-a, uka. Men tanishimnikida ko‘rdim, – deb Dadamirza mug‘ambirona qarab qo‘ydi.

– Qo‘rqitish yo‘liga o‘tmang, Dadamirza aka. Erkakmisiz, erkakligingizcha qoling. Mening 108-kanaldagi gaplarga zig‘ircha ham aloqam yo‘q. Anavi yosh qizchaga achinib ketdim. Mish-mishlar rost bo‘lsa, o‘zga sayyoralik intervyu bergan o‘sha qizni tinch qo‘ymaydi. O‘lardek ahmoq, mahmadona qiz ekan, guldek umrini soch bo‘yoqqa almashib o‘tiribdi.

Dadamirza Shaytonvachchanning sehr va jodusi haqida boshqacha o‘ylay boshlagan edi. Ammo uning bu boshqacha o‘ylashlari o‘z boshiga balo bo‘lib yog‘ilishini bilmasdi.

– Xo‘sh, bir tiyin ham bermayman, desam qo‘lingizdan nima keladi? – surbetlikka o‘tdi Dadamirza.

– Men uchun kafengizning kulini ko‘kka sovrurish

шес секундлик иш, ака, ана ундан кейин орамиз очик бўлади. – Шайтонвачча шундай деб олтин медалли содиқ кули – Ажинашамолнинг кодини эслаб кўйди. – Шу ерда ўтириб кафенинг алангасини томоша қилгингиз келяптими, ака айланай?

«Шес секунд»ни эшитгандан кейин Дадамирза шошиб қолди. Чунки Шайтонвачча бу сўзни иккиланмасдан, дадил айтди-да. Ўзига ишонадики, шундай деяпти. Дадамирза ўйлана-ўйлана ахийри таслим бўлди. Титраб-қакшаб сўради:

– Қанча беришим керак, ука?

– Ўша гап – гап, ярим миллион, «кўки»дан... Мен савдолашишни ёмон кўраман.

Дадамирзанинг ўйлаб юрган гумонлари ғимирлаб қолди. Ўзга сайёраликка пул нимага керак? «Кўки» унинг сайёрасида барибир ўтмайди-ку. Ҳойнаҳой бу нусха ошхонани босган анави одамлар билан бирга бўлса керак. Дадамирзани соғиш учун қилинган режа бу. Дадамирза чидаб туrolмади:

– Хафа бўлманг-ку, ука, сизнинг кимлигингизни аллақачоноқ билиб бўлганман. Қилаётган ишларингиз Худога ҳам, бандасига ҳам хуш келмайди, яхшимас.

– Бизнинг қишлоқда ҳам, – деди Шайтонвачча, – битта Дадамирза дегани бор эди. Ичиб олса, нима деяётганини тукқан онаси ҳам тушунмасди. Сиз ичмагансиз-ку, бундоқ тушунтириброқ гапиринг, нима демоқчисиз?

– Ўзингизни гўлликка солманг, сиз мафиянинг одамисиз, одамларингиз билан кафени босиб, бир эмас, тўртта миршабни тўрт томонга кўйиб, кечаси эшикни очиб, ароқларни гумдон қилиб, мендан ярим миллион «кўки»ни талаб қилияпсиз, топдимми?

Шайтонвачча Дадамирзанинг бу гапларидан бақа бўлиб қолди. Ҳозир Шайтонваччанинг иккала калласи ҳам ғувиллаб ишлай бошлади. Шайтонлар учун энг катта мукофот Одам болаларининг юрагида кечадиган тахмину гумонлар. Кимки тахмин ва гумонлар билан яшай бошласа, унинг атрофида шайтон парвона бўлиб қолади. Гумонни рост,

shes sekundlik ish, aka, ana undan keyin oramiz ochiq bo‘ladi. – Shaytonvachcha shunday deb oltin medalli sodiq quli – Ajinashamolning kodini eslab qo‘ydi. – Shu yerda o‘tirib kafening alangasini tomosha qilgingiz kelyaptimi, aka aylanay?

«Shes sekund»ni eshitgandan keyin Dadamirza shoshib qoldi. Chunki Shaytonvachcha bu so‘zni ikkilanmasdan, dadil aytdi-da. O‘ziga ishonadiki, shunday deyapti. Dadamirza o‘ylana-o‘ylana axiyri taslim bo‘ldi. Titrab-qaqshab so‘radi:

– Qancha berishim kerak, uka?

– O‘sha gap – gap, yarim million, «ko‘ki»dan... Men savdolashishni yomon ko‘raman.

Dadamirzaning o‘ylab yurgan gumonlari g‘imirlab qoldi. O‘zga sayyoralikka pul nimaga kerak? «Ko‘ki» uning sayyorasida baribir o‘tmaydi-ku. Hoynahoy bu nusxa oshxonani bosgan anavi odamlar bilan birga bo‘lsa kerak. Dadamirzani sog‘ish uchun qilingan reja bu. Dadamirza chidab turolmadi:

– Xafa bo‘lmang-ku, uka, sizning kimligingizni allaqachonq bilib bo‘lganman. Qilayotgan ishlaringiz Xudoga ham, bandasiga ham xush kelmaydi, yaxshimas.

– Bizning qishloqda ham, – dedi Shaytonvachcha, – bitta Dadamirza degani bor edi. Ichib olsa, nima deyayotganini tuqqan onasi ham tushunmasdi. Siz ichmagansiz-ku, bundoq tushuntiribroq gapiring, nima demoqchisiz?

– O‘zingizni go‘llikka solmang, siz mafiyaning odamisiz, odamlaringiz bilan kafeni bosib, bir emas, to‘rtta mirshabni to‘rt tomonga qo‘yib, kechasi eshikni ochib, aroqlarni gumdon qilib, mendan yarim million «ko‘ki»ni talab qilyapsiz, topdimmi?

Shaytonvachcha Dadamirzaning bu gaplaridan baqa bo‘lib qoldi. Hozir Shaytonvachchaning ikkala kalasi ham g‘uvillab ishlay boshladi. Shaytonlar uchun eng katta mukofot Odam bolalarining yuragida kechadigan taxmin-u gumonlar. Kimki taxmin va gumon-

тахминни кўзига нақд қилиб кўрсатади. Шундай экан, Шайтонвачча Дадамирзанинг бу тахмину гумонларидан нимага фойдаланиб қолмаслиги керак? Шайтонваччанинг юраги гурс-гурс уриб кетди. Лекин билдирмади. Дадамирза шундай дейиш билан ўзини ўзи боши берк кўчага олиб кириб қўйди. Шайтонваччага келгинди сайёралик бўлганидан кўра мафиянинг одами бўлгани минг марта яхши-ку!

– Қойилман, – деди Шайтонвачча Дадамирзага ёлғондакам тан бергандек, – хаммасининг тагига етибсиз-да?

– Бизам девор бўлмаса кўчани кўрамиз, а, лаббай.

– Девор бўлмаса кўчани кўрадиган кўзга чўп тушмасин. Хўш, Дадамирза ака, ярим миллион «кўки» қачон менинг ҳисоб рақамимга ўтади? Бу масалага нуқта қўймагунча бошқа масалага ўтиш йўқ. Энди мени ҳам тушунинг, у ёқдаги акахонларим шоширишяпти, – деб Дадамирзанинг ўзи топиб берган калтак билан бошига ургандек бўлди Шайтонвачча.

Гумонлари «рост» чиқиб қолган Дадамирзанинг нафаси ичига тушиб кетди.

– Сал ўзимга келиб олай, ука, йўқ демаяпман-ку, – деди.

– Ё уч кун денг, ё тўрт кун, энг ёмон кўрганим даргумонлик. Менинг акахонларим тайинли гапни ёқтиришади.

– Тўрт кун, – деди Дадамирза шошмай.

– Йўқ, шартни мен қўяман, уч кун.

– Бўпти.

– Қўлни ташланг.

– Мана.

Улар қўл ташлашди. Ким мағлуб-у ким ғолиб шундоқ юз-кўзларидан сезилиб турарди.

– Яшанг, ҳисобли дўст айрилмас, – деди Шайтонвачча миннатдочлик билдириб, – қўйнидан тўкилса қўнжига дейдилар буни. Ҳали биз сиз билан шундай ишлар қиламизки, пулингиз урғочи биядек

lar bilan yashay boshlasa, uning atrofida shayton parvona bo‘lib qoladi. Gumonni rost, taxminni ko‘ziga naqd qilib ko‘rsatadi. Shunday ekan, Shaytonvachcha Dadamirzaning bu taxmin-u gumonlaridan nimaga foydalanib qolmasligi kerak? Shaytonvachchanning yuragi gurs-gurs urib ketdi. Lekin bildirmadi. Dadamirza shunday deyish bilan o‘zini o‘zi boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘ydi. Shaytonvachchaga kelgindi sayyoralik bo‘lganidan ko‘ra mafiyaning odami bo‘lgani ming marta yaxshi-ku!

– Qoyilman, – dedi Shaytonvachcha Dadamirzaga yolg‘ondakam tan bergandek, – hammasining tagiga yetibsiz-da?

– Bizam devor bo‘lmasa ko‘chani ko‘ramiz, a, labbay.

– Devor bo‘lmasa ko‘chani ko‘radigan ko‘zga cho‘p tushmasin. Xo‘sh, Dadamirza aka, yarim million «ko‘ki» qachon mening hisob raqamimga o‘tadi? Bu masalaga nuqta qo‘ymaguncha boshqa masalaga o‘tish yo‘q. Endi meni ham tushuning, u yoqdagi akaxonlarim shoshirishyapti, – deb Dadamirzaning o‘zi topib bergan kaltak bilan boshiga urgandek bo‘ldi Shaytonvachcha.

Gumonlari «rost» chiqib qolgan Dadamirzaning nafari ichiga tushib ketdi.

– Sal o‘zimga kelib olay, uka, yo‘q demayapman-ku, – dedi.

– Yo uch kun deng, yo to‘rt kun, eng yomon ko‘rganim dargumonlik. Mening akaxonlarim tayinli gapni yoqtirishadi.

– To‘rt kun, – dedi Dadamirza shoshmay.

– Yo‘q, shartni men qo‘yaman, uch kun.

– Bo‘pti.

– Qo‘lni tashlang.

– Mana.

Ular qo‘l tashlashdi. Kim mag‘lub-u, kim g‘olib shundoq yuz-ko‘zlaridan sezilib turardi.

– Yashang, hisobli do‘st ayrilmas, – dedi Shaytonvachcha minnatdochlik bildirib, – qo‘ynidan to‘kilsa

туғиб-туғиб беради, – деб Дадамирзанинг кўлтиғига сув пуркаб кўйди.

Дадамирза Шайтонваччага бошдан-оёқ қаради. Нима ишлар қилишмоқчи ўзи бу? Уйини икки йилга текинга бериб кўйди, бу ёқда ярим миллион «кўки» нақд бўлиб турибди. Бир айлантирганни чир айлантирар деб... Дадамирзанинг пешанаси бир тиришди-ю, ўзига келди. Ўйлаб қараса, бу дунёда бировнинг этагини тутмай яшаб бўлмас экан.

– Айтганингиз келсин, Қозимирза ука, энди ўзингизнинг асл исми шарфингизни айтарсиз, орамизда яширадиган гап қолмади, шекилли...

– Тс-с-с-с... – Шайтонвачча кўрсаткич бармоғини оғзига кўндаланг қилди, – у ёғига ўтманг, деворнинг ҳам кулоғи бор-а, икки ўртада ўзингизга жабр бўлади, – деб гапини тугатди. Унинг кайфияти чоғ эди... Энди у Одамшайтон ҳам, бошқа сайёралик ҳам эмас, бир думалаб, мафиёз бўлиб қолди...

## КЕНГАШЛИ ТЎЙ ТАРҚАМАС

*(ёки Шайтонвачча маслаҳат беради)*

Дадамирза «Такво» кафесида бир кунгина тозалик куни эълон қилиб, эртасига ишни бошлаб юбормоқчи бўлди. Бу ҳақда Шайтонваччага маслаҳат солмади. Унга муте бўлиб қолишни хоҳламади. Қозимирзанинг Дадамирза билан неча пуллик иши бор. Кафе ўзиники бўлса. Эртагаёқ кафени ишга тушириб юборади. Шайтонвачча буни сезди. Сезди-ю, сезмасликка олиб, шунчаки фикр берган бўлди:

– Сал шошяпсиз-да, Дадамирза ака, – деди у, – ҳеч бўлмаса уч кун қатарон куни қилинг. «Сантитарний день» бўлганига хўрандалар сал бўлса ҳам ишонишсин. Бўлмаса бир гап бўпти-ю, пул бериб, тўғрилабди, деб ўйлашлари мумкин. Бу таквога тўғри келмайди. Ҳа, хўрандаларда шубҳа уйғотиб қўясиз.

«Оббо, – деди Дадамирза капалаги учиб. – Одам-



qo‘njiga deydilar buni. Hali biz siz bilan shunday ishlar qilamizki, pulingiz urg‘ochi biyadek tug‘ib-tug‘ib beradi, – deb Dadamirzaning qo‘ltig‘iga suv purkab qo‘ydi.

Dadamirza Shaytonvachchaga boshdan oyoq qaradi. Nima ishlar qilishmoqchi o‘zi bu? Uyini ikki yilga tekinga berib qo‘ydi, bu yoqda yarim million «ko‘ki» naqd bo‘lib turibdi. Bir aylantirganni chir aylantirar deb... Dadamirzaning peshanasi bir tirishdi-yu, o‘ziga keldi. O‘ylab qarasa, bu dunyoda birovning etagini tutmay yashab bo‘lmas ekan.

– Aytganingiz kelsin, Qozimirza uka, endi o‘zingizning asl ismi sharfingizni aytarsiz, oramizda yashiradigan gap qolmadi, shekilli...

– Ts-s-s-s... – Shaytonvachcha ko‘rsatkich barmog‘ini og‘ziga ko‘ndalang qildi, – u yog‘iga o‘tmang, devorning ham qulog‘i bor-a, ikki o‘rtada o‘zingizga jabr bo‘ladi, – deb gapini tugatdi. Uning kayfiyati chog‘edi... Endi u Odamshayton ham, boshqa sayyoralik ham emas, bir dumalab, mafioz bo‘lib qoldi...

## KENGASHLI TO‘Y TARQAMAS

*(yoki Shaytonvachcha maslahat beradi)*

Dadamirza «Taqvo» kafesida bir kungina tozalik kuni e‘lon qilib, ertasiga ishni boshlab yubormoqchi bo‘ldi. Bu haqda Shaytonvachchaga maslahat solmadi. Unga mute bo‘lib qolishni xohlamadi. Qozimirzaning Dadamirza bilan necha pullik ishi bor. Kafe o‘ziniki bo‘lsa. Ertagayoq kafeni ishga tushirib yuboradi. Shaytonvachcha buni sezdi. Sezdi-yu, sezmaslikka olib, shunchaki fikr bergan bo‘ldi:

– Sal shoshyapsiz-da, Dadamirza aka, – dedi u, – hech bo‘lmasa uch kun qataron kuni qiling. «Santitarniy den» bo‘lganiga xo‘randalar sal bo‘lsa ham ishonishsin. Bo‘lmasa bir gap bo‘pti-yu, pul berib, to‘g‘rilabdi, deb o‘ylashlari mumkin. Bu taqvoga to‘g‘ri kelmaydi. Ha, xo‘randalarda shubha uyg‘otib qo‘yasiz.

нинг ичидагини ҳам билиб туради-я бу шайтондан дарс олган».

– Шундайку-я, лекин хўрандаларимни йўқотиб кўяманми, деб кўркяпманда, Қозимирза ука, – деб айбини тан олиб, ерга қаради Дадамирза.

– Кўркманг, одамлар қайтага «Тақво»нинг таомларини соғинишади. Уч кунлик йўқотишни бир кундаёқ чиқариб оласиз.

– Аммо-лекин сизам девор бўлмаса кўчани кўрасиз, ука, – деб Шайтонваччанинг мулоҳазаларига тан берди Дадамирза.

– Сизам чаканамассиз, «Тақво» кафесининг ичида ароқ заводининг бўлиши ҳатто менинг устозим Шайтоннинг ҳам етти ухлаб тушига кирмаган.

– Айтдим-ку, сизга ҳеч бўлмаса цех деб айтинг, деб...

– Шаҳарнинг ярмини ароқ билан таъминлайсиз-у, завод бўлмай цех бўладими? – кулди Шайтонвачча.

– Ҳа, энди, овқатларимизнинг мазаси ўша савилнинг устида-да, ука, ҳозир битта овқатнинг устидан бойиб бўлади дейсизми, – ўзини оқлаган бўлди Дадамирза.

– Энди гап бундай, – деди Шайтонвачча, – сизга яна бир дўстона маслаҳат: уч куннинг ичида «Тақво»ни рўйхатдан ўтказасиз. Иссиқ сув, совуқ сув, газ – барига ҳисоблагичлар қўйдирасиз. «Тақво» кафесими, номига яраша бўлсин.

– Э, нималар деяпсиз, – деб Дадамирзанинг кўзлари қинидан чиқай деди, – ахир, кадрдонларингиз шу пайтгача қандоқ ишлаган бўлсангиз, шундоқ ишлайверинг, дейишди-ку?!

– Бу ноқонуний ишлайверинг деганимас-да, Дадамирза ака, айтганни қилинг. Ҳа, кенгашли тўй тарқамас, деганлар, – дея тизгинни кўлга олди Шайтонвачча.

– Бунақада кўчамни тополмай қоламан-ку, Қозимирза ука. «Тақво» банкрот бўлади, эшитяпсизми, банкрот. Менинг ҳам дўстдан кўп душманларим бор. Уларнинг олдида шарманда-ю шармисор бўламан.

«Obbo, – dedi Dadamirza kapalagi uchib. – Odamning ichidagini ham bilib turadi-ya bu shaytondan dars olgan».

– Shundayku-ya, lekin xo‘randalarimni yo‘qotib qo‘yamanmi, deb qo‘rqyapmanda, Qozimirza uka, – deb aybini tan olib, yerga qaradi Dadamirza.

– Qo‘rqmang, odamlar qaytaga «Taqvo»ning taomlarini sog‘inishadi. Uch kunlik yo‘qotishni bir kunda yoq chiqarib olasiz.

– Ammo-lekin sizam devor bo‘lmasa ko‘chani ko‘rasiz, uka, – deb Shaytonvachchaning mulohazalariga tan berdi Dadamirza.

– Sizam chakanamassiz, «Taqvo» kafesining ichida aroq zavodining bo‘lishi hatto mening ustozim Shaytonning ham yetti uxlab tushiga kirmagan.

– Aytdim-ku, sizga hech bo‘lmasa sex deb ayting, deb...

– Shaharning yarmini aroq bilan ta‘minlaysiz-u, zavod bo‘lmay sex bo‘ladimi? – kuldi Shaytonvachcha.

– Ha, endi, ovqatlarimizning mazasi o‘sha savilning ustida-da, uka, hozir bitta ovqatning ustidan boyib bo‘ladi deysizmi, – o‘zini oqlagan bo‘ldi Dadamirza.

– Endi gap bunday, – dedi Shaytonvachcha, – sizga yana bir do‘stona maslahat: uch kunning ichida «Taqvo»ni ro‘yxatdan o‘tkazasiz. Issiq suv, sovuq suv, gaz – bariga hisoblagichlar qo‘ydirasiz. «Taqvo» kafesimi, nomiga yarasha bo‘lsin.

– E, nimalar deyapsiz, – deb Dadamirzaning ko‘zlari qinidan chiqay dedi, – axir, qadrdonlaringiz shu paytgacha qandoq ishlagan bo‘lsangiz, shundoq ishlayvering, deyishdi-ku?!

– Bu noqonuniy ishlayvering deganimas-da, Dadamirza aka, aytganni qiling. Ha, kengashli to‘y tarqamas, deganlar, – deya tizginni qo‘lga oldi Shaytonvachcha.

– Bunaqada ko‘chamni topolmay qolaman-ku, Qozimirza uka. «Taqvo» bankrot bo‘ladi, eshityapsizmi, bankrot. Mening ham do‘stdan ko‘p dushmanlarim bor. Ularning oldida sharmanda-yu sharmisor bo‘laman.

– Албатта, битта қора қозонга қараб қолсангиз банкрот бўласиз. Лекин биз сизни банкрот бўлгунингизча қараб турмаймиз. Ёрдам берамиз, сармоя киритамиз. Бирга ишлаймиз.

– Нималар деяпсиз, ёрдам берасиз, сармоя киритасиз, бирга ишлайсиз? Ишонгим келмаяпти.

– Ишонаверинг, бизда алдам-қалдамлик бўлмайди, фақат айтганни қилсангиз бўлди.

Дадамирза ўйланиб қолди ва бироздан кейин чайналиб деди:

– Бундай қараганда сиз мени тўғри йўлга бошляпсиз, ука, лекин тўғри йўл билан бизнес қилиб бўлмайди-да, менга ишонинг.

– Жуда бўлади-да, бунинг учун астойдил тавба қилиш керак, вассалом.

– Тавба дейсизми?

– Ҳа-да.

– Шу билан бўлдимми?

– Ҳа-да.

– Э, бир тавбадан минг тавба қилдим бўлмаса, ука, – деди Дадамирза Шайтонваччага бош эгиб, – тавбамни қабул қилинг.

– Э, менгамас-э, Худога тавба қилинг.

Дадамирзанинг мияси баттар чалкашди. Нима бўлганда ҳам шайтондан дарс олган бу валломатнинг айтганини қилишга мажбур.

– Э, Худоё худованда, тавба қилдим, ишларимни ўзинг ўнгла. Менинг пулларимга кўз олайтирганларнинг кўзларини ўйиб олмасанг рози эмасман.

Шайтонвачча бу гапни эшитиб, эшитмаганга олди.

– Тавба-тазарру қилиб бўлдингизми, энди намоз ўқийсиз...

– Намоз ўқийсиз? – довдираб қолди Дадамирза.

– Ахир, кафенинг номи «Тақво»ми? «Тақво»нинг эгаси намоз ўқимаса, унинг тақволигига ким ишонади?

– Шу пайтгачан ишониб келишди-ку.

– Albatta, bitta qora qozonga qarab qolsangiz bankrot bo‘lasiz. Lekin biz sizni bankrot bo‘lguningizcha qarab turmaymiz. Yordam beramiz, sarmoya kiritamiz. Birga ishlaymiz.

– Nimalar deyapsiz, yordam berasiz, sarmoya kiritasiz, birga ishlaysiz? Ishongim kelmayapti.

– Ishonavering, bizda aldamlilik bo‘lmaydi, faqat aytganni qilsangiz bo‘ldi.

Dadamirza o‘ylanib qoldi va birozdan keyin chaynolib dedi:

– Bunday qaraganda siz meni to‘g‘ri yo‘lga boshlayapsiz, uka, lekin to‘g‘ri yo‘l bilan biznes qilib bo‘lmaydi-da, menga ishonang.

– Juda bo‘ladi-da, buning uchun astoydil tavba qilish kerak, vassalom.

– Tavba deysizmi?

– Ha-da.

– Shu bilan bo‘ldimi?

– Ha-da.

– E, bir tavbadan ming tavba qildim bo‘lmasa, uka, – dedi Dadamirza Shaytonvachchaga bosh egib, – tavbamni qabul qiling.

– E, mengamas-e, Xudoga tavba qiling.

Dadamirzaning miyasi battar chalkashdi. Nima bo‘lganda ham shaytondan dars olgan bu vallomatning aytganini qilishga majbur.

– E, Xudoyo xudovanda, tavba qildim, ishlarimni o‘zing o‘ngla. Mening pullarimga ko‘z olaytirganlarning ko‘zlarini o‘yib olmasang rozi emasman.

Shaytonvachcha bu gapni eshitib, eshitmaganga oldi.

– Tavba-tazarru qilib bo‘ldingizmi, endi namoz o‘qiysiz...

– Namoz o‘qiysiz? – dovdirab qoldi Dadamirza.

– Axir, kafening nomi «Taqvo»mi? «Taqvo»ning egasi namoz o‘qimasa, uning taqvoligiga kim ishonadi?

– Shu paytgachan ishonib kelishdi-ku.

– Бундан бу ёғига ишонишмайди. Мана менда шубҳа уйғотяпсиз-ку. Шунга ўхшаганда. Билиб кўйинг, банкротлик ана шунақа шубҳалардан бошланади.

– Э, ундан кўра «Тақво» деган номни бошқасига алмаштириб кўяқоламан, ука, мени қийнаманг-э. Намозга укувима, ҳушимам йўқ. Айтдим-ку сизга «Тақво»ни нима учун ўйлаб топганимни.

– Э, биров сизга масжидга имом бўлинг деяптими, бунча намоздан кўрқасиз. Шунчаки одамлар кўзига думалаб-сумалаб юрсангиз бўлди-да, Дадамирза ака. Бунақалар ҳаётда тиқилиб ётибди.

– Бўпти, ука, мени кўндирдингиз, шунчаки хўжа кўрсинга бўлса, майли.

Дадамирза тушмагур ўз гумонлари билан тилидан илиниб, Шайтонваччанинг домига шундай тушиб қолдики, энди чиқиб бўпти. Шайтонвачча бир думалаб Дадамирзанинг аҳмоқона гумонлари билан шубҳалардан холи бўлиб, мафиянинг одамига айланди-қолди. Иш бунақасига кетишини у сираям ўйламаган эди. Бобокалони Азозил Аллоҳнинг лаънатига учраганидан кейин «Бандаларнинг орасидан ўзимга тегишли бўлган насибани, албатта, оламан», – деб қасам ичган эди. Шайтонвачча ҳам шундай қилдики, Дадамирза энди топганини ўз кўли билан унга олиб келиб беради. Олиб келиб берганини ўзи ҳам билмай қолади. «Думи тугуклар» мадрасасидаги шохдор раис Одам болаларини турли-туман нознеъматлар билан, баланд-паст шоҳона қасрлар билан, ялтир-юлтир либослар билан васваса қилиб, йўлдан ураверасизлар, деган эди. Раис ҳақ, Одам болалари шу учта нарсасиз – овқатсиз, бошпанасиз, кийим-кечаксиз яшай олмайди. Раис жаноблари шайтонлар орасида доноларнинг доноси эди-ю, лекин миллион биринчи талаба – Шайтонваччанинг қадрига етмади-да, кўр бўлгур.

– Bundan bu yog‘iga ishonishmaydi. Mana menda shubha uyg‘otyapsiz-ku. Shunga o‘xshaganda. Bilib qo‘ying, bankrotlik ana shunaqa shubhalardan boshlanadi.

– E, undan ko‘ra «Taqvo» degan nomni boshqasiga almashtirib qo‘yaqolaman, uka, meni qiynamang-e. Namozga uquvimam, hushimam yo‘q. Aytdim-ku sizga «Taqvo»ni nima uchun o‘ylab topganimni.

– E, birov sizga masjidga imom bo‘ling deyaptimi, buncha namozdan qo‘rqasiz. Shunchaki odamlar ko‘ziga dumalab-sumalab yursangiz bo‘ldi-da, Dadamirza aka. Bunaqalar hayotda tiqilib yotibdi.

– Bo‘pti, uka, meni ko‘ndirdingiz, shunchaki xo‘ja ko‘rsinga bo‘lsa, mayli.

Dadamirza tushmagur o‘z gumonlari bilan tilidan ilinib, Shaytonvachchaning domiga shunday tushib qoldiki, endi chiqib bo‘pti. Shaytonvachcha bir dumalab Dadamirzaning ahmoqona gumonlari bilan shubhalardan xoli bo‘lib, mafiyaning odamiga aylandi-qoldi. Ish bunaqasiga ketishini u sirayam o‘ylamagan edi. Bobokaloni Azozil Allohning la‘natiga uchraganidan keyin «Bandalarning orasidan o‘zimga tegishli bo‘lgan nasibani, albatta, olaman», – deb qasam ichgan edi. Shaytonvachcha ham shunday qildiki, Dadamirza endi topganini o‘z qo‘li bilan unga olib kelib beradi. Olib kelib berganini o‘zi ham bilmay qoladi. «Dumi tuguklar» madrasasidagi shoxdor rais Odam bolalarini turli-tuman noz-ne‘matlar bilan, baland-past shohona qasrlar bilan, yaltir-yultir liboslar bilan vasvasa qilib, yo‘ldan uraverasizlar, degan edi. Rais haq, Odam bolalari shu uchta narsasiz – ovqatsiz, boshpanasiz, kiyim-kechaksiz yashay olmaydi. Rais janoblari shaytonlar orasida donolarning donosi edi-yu, lekin million birinchi talaba – Shaytonvachchaning qadriga yetmadi-da, ko‘r bo‘lgur.

## ШОШИЛИНЧ ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

*(ёки Шайтонваччага ўлим ҳукмини ўқимоқчи бўлганлари)*

Фавқулудда йиғилиш чақирилди. Ҳайъат аъзолари саросимада. Ҳисобларидаги сармояларининг тенг ярми шохдор раиснинг чўнтагига тушиб кетди. Бир ёқда раис талаб қилган лойиҳалар чала. Сармоянинг ярмидан ажраб қолгандан кейин калла ишлайдими? Раис ҳайъат аъзоларини яна нимага йиғди экан? Ҳамма ҳайрон. Раис безовта. Раис жанобларини сираям бунақа аҳволда кўришмаган. Бундоқ эътибор қилишса, жинлар шуъбасининг аҳволи чатоққа ўхшайди. Шуъба бошлиғи бир айб иш қилиб кўйгандек ер чизиб ўтирибди. Калласи бошқаларниқидан бир калла пастга тушиб кетган. Ажабо, бу шуъба шунчаки номигагина тузиб кўйилган эди. Унинг вакили ҳам йиғилишларда борми-йўқдек бўлиб ўтирарди. Шайтонлар азалдан жинларга паст назар билан қараб келишади. Тангри таоло бизларни оловдан яратган бўлса, жинларни тутундан яратган, деб менсишмайди. Улардан чақимчилик, айғоқчилик, Одам болаларига зиён-захмат етказишдек майда-чуйда ишларда фойдаланишади. Ажабо, бу жинлар оламида нима ҳам бўлиши мумкин? Ана, раиснинг ҳам кўзлари жинлар шуъбасининг бошлиғига қадалиб қолди.

– Гапир, қора мўнди?! – деб унга ўшқирди.

Раиснинг бошқаларга қараганда унга беписандлик қилиши шуъба бошлиғига ёқмади. Раисга тик қаради. Кўзлари чўғдек ёнди:

– Мухтарам ҳайъат аъзолари, жаноб раис, – деб дадил-дадил гапира бошлади у. – Мен сизларнинг олдингизда гуноҳкорман. Бир вақтлар Одамшайтоннинг баҳридан ўтайлик, деганингизда, йўқ, деб уни ҳимоя қилганимда калтабинлик қилган эканман. Эссизгина... У ўшандаёқ асфаласофилинга ташланиши керак экан. Агарда шундай бўлганда, бугунгидек кўргиликлар бўлмасди.



## SHOSHILINCH HAY'AT YIG'ILISHI

*(yoki Shaytonvachchaga o'lim hukmini o'qimoqchi bo'lganlari)*

Favqulodda yig'ilish chaqirildi. Hay'at a'zolari saro-simada. Hisoblaridagi sarmoyalarining teng yarmi shox-dor raisning cho'ntagiga tushib ketdi. Bir yoqda rais ta-lab qilgan loyihalar chala. Sarmoyaning yarmidan ajrab qolgandan keyin kalla ishlaydimi? Rais hay'at a'zolarini yana nimaga yig'di ekan? Hamma hayron. Rais bezovta. Rais janoblarini sirayam bunaqa ahvolda ko'rishmagan. Bundoq e'tibor qilishsa, jinlar shu'basining ahvoli chatoqqa o'xshaydi. Shu'ba boshlig'i bir ayb ish qilib qo'ygandek yer chizib o'tiribdi. Kallasi boshqalarniki-dan bir kalla pastga tushib ketgan. Ajabo, bu shu'ba shunchaki nomigagina tuzib qo'yilgan edi. Uning va-kili ham yig'ilishlarda bormi-yo'qdek bo'lib o'tirardi. Shaytonlar azaldan jinlarga past nazar bilan qarab ke-lishadi. Tangri taolo bizlarni olovdan yaratgan bo'lsa, jinlarni tutundan yaratgan, deb mensishmaydi. Ulardan chaqimchilik, ayg'oqchilik, Odam bolalariga ziyon-zahmat yetkazishdek mayda-chuyda ishlarda foydala-nishadi. Ajabo, bu jinlar olamida nima ham bo'lishi mumkin? Ana raisning ham ko'zlari jinlar shu'basining boshlig'iga qadalib qoldi.

– Gapir, qora mo'ndi?! – deb unga o'shqirdi.

Raisning boshqalarga qaraganda unga bepisandlik qilishi shu'ba boshlig'iga yoqmadi. Raisga tik qaradi. Ko'zlari cho'g'dek yondi:

– Muhtaram hay'at a'zolari, janob rais, – deb dadil-dadil gapira boshladi u. – Men sizlarning oldingizda gunohkorman. Bir vaqtlar Odamshaytonning bahri-dan o'taylik, deganingizda, yo'q, deb uni himoya qil-ganimda kaltabinlik qilgan ekanman. Essizgina... U o'shandayoq asfalasofilinga tashlanishi kerak ekan. Agarda shunday bo'lganda, bugungidek ko'rgiliklar bo'lmasdi.

Бу билан жинлар шуъбасининг бошлиғи раисга караб: «Қаердан ҳам яратдингиз бу дардисар Одамшайтонни», – деб писанда қилгандек бўлди. Бир хисобда у шундай деб тўғри қияпти. Ўзи факирларнинг тили шунақа ботирроқ бўлади. Йўқотадиган нарсаси йўқ-да.

– Қанақа кўргиликлар хақида гапиряпсан, тундундан тарқаган?

– Жинлар ғалаён кўтаришди. Энди улар сизга хизмат қилишмасмиш.

– Вой қора куялар-э, кимга хизмат қилишармиш унда?

– Одамшайтонга.

– Воҳ... Одамшайтонга? – Раиснинг кўзлари орқага кетди. – Сабаб?

– Сабаби жудаям оддий. Одамшайтон Ажинашамолнинг хизматларини муносиб баҳолаб, олтин медал билан тақдирлади. Дунё дунё бўлгандан бери бунақаси бўлмаган. Яна у ойимсупурги бир жойда жим турса экан. Қачон қараса ўша ялтироқ матоҳини осилтириб кун бўйи дала-ю даштларда изғиб юради. Кўз-кўз қилиб жинларнинг кўзини ўйнатади. Бу ҳам етмагандек мукофотни ювишганига нима дейсиз? Яна Одамшайтон унга бир дунё ароқ совға қипти, ғалаён ўша ичкиликдан кейин бошланди.

– Ахир, ароқ шайтоннинг сийдиги-ку, ўқимаганлар, билмасмидиларинг, – ўшқирди раис.

– Сиз шунақа дейсиз-у, ғалаённи бостирай деб борганимда менга ҳам озроқ ҳидлатишувди, яшириб нима қиламан, менга ҳам ёқди-да, хазратим.

Ўтирганлар унинг дадил-дадил гапиришидан билдиларки, ҳали ҳам кайфи тарқамаган.

– Демак, ғалаённинг сабабчиси Одамшайтон, шундайми? – ҳафсаласи пир бўлиб сўради раис.

– Худди ўша гўрсўхтангиз.

Раис бошқа вақт бўлганда бу тутунваччани битта «пуф» дейиш билан тўрт томонга тўзғитиб юборган бўларди. Нима қилсинки рост гапиряпти, калтакнинг бир учи ўзига келиб тегяпти. Жамғармалари

Bu bilan jinlar shu'basining boshlig'i raisga qarab: «Qayerdan ham yaratdingiz bu dardisar Odamshaytonni», – deb pisanda qilgandek bo'ldi. Bir hisobda u shunday deb to'g'ri qilyapti. O'zi faqirlarning tili shunaqa botirroq bo'ladi. Yo'qotadigan narsasi yo'q-da.

– Qanaqa ko'rgiliklar haqida gapiryapsan, tutundan tarqagan?

– Jinlar g'alayon ko'tarishdi. Endi ular sizga xizmat qilishmasmish.

– Voy qora kuyalar-e, kimga xizmat qilisharmish unda?

– Odamshaytonga.

– Voh... Odamshaytonga? – Raisning ko'zlari orqaga ketdi. – Sabab?

– Sababi judayam oddiy. Odamshayton Ajinashamolning xizmatlarini munosib baholab, oltin medal bilan taqdirladi. Dunyo dunyo bo'lgandan beri bunaqasi bo'lmagan. Yana u oyimsupurgi bir joyda jim tursa ekan. Qachon qarasa o'sha yaltiroq matohini osiltirib kun bo'yi dala-yu dashtlarda izg'ib yuradi. Ko'z-ko'z qilib jinlarning ko'zini o'ynatadi. Bu ham yetmagandek mukofotni yuvishganiga nima deysiz? Yana Odamshayton unga bir dunyo aroq sovg'a qipti, g'alayon o'sha ichkilikdan keyin boshlandi.

– Axir, aroq shaytonning siydigi-ku, o'qimaganlar, bilmasmidilaring, – o'shqirdi rais.

– Siz shunaqa deysiz-u, g'alayonni bostiray deb borganimda menga ham ozroq hidlatishuvdi, yashirib nima qilaman, menga ham yoqdi-da, hazratim.

O'tirganlar uning dadil-dadil gapirishidan bildilarki, hali ham kayfi tarqamagan.

– Demak, g'alayonning sababchisi Odamshayton, shundaymi? – hafsalasi pir bo'lib so'radi rais.

– Xuddi o'sha go'rso'xtangiz.

Rais boshqa vaqt bo'lganda bu tutunvachchani bitta «puf» deyish bilan to'rt tomonga to'zg'itib yuborgan bo'lardi. Nima qilsinki rost gapiryapti, kal-

раиснинг чўнтагига тушиб кетганидан бери кенгаш аъзоларининг ҳам тили чиқа бошлади. Ахир, бақани босса «вақ» этади-да.

– Одамшайтон чегарадан чиқиб кетди. Кўнглига нима келса шуни қилиб ётибди, унинг боридан йўғи яхши, – деди улардан бири.

– Унинг нияти аллақачоноқ бузилган, – деди бошқаси шеригини кўллаб-қувватлаб. – Бугун жинларни ўзига оғдирибдими, энди навбат биз шайтонларга келади... Ҳа, Одамшайтон думи билан қулоғи кесилиб, шайтонлар олаmidан қувилгани учун бизга қарши очикдан-очик уруш эълон қилган.

Шундай қилиб ҳайъат аъзолари бу гал очикдан-очик раисга қарши гапиришди. Раис ён беришга мажбур бўлди:

– Одамшайтонни қандай қилиб йўқ қиламиз? – бирдан мақсадга ўтди раис.

– Заҳарлаймиз.

– Автоҳалокатга учратамиз.

– Энг осон йўли 108-каналга тутиб бериш. Одамшайтонми, жазосини одамчасига олиши керак. Ахир, у энди одам-да.

Бу гаплардан раиснинг юрагида санчиқ турди. У ҳамма нарсани билиб, тушуниб турарди. Одамшайтон пайдо бўлди-ю, шайтонлар оламининг тинчи бузилди. Одамшайтон минглаб шайтонлар қила олмаган ишларни қилиб, улардан устунлигини кўрсатиб қўйди. Шайтонлар харитасидаги энг хавфли жой – бир ўзи Хўжақишлоқнинг кулини кўкка совурди. Бошқаларга қараганда Шайтонвачча ҳали гўдак. Ҳайъат аъзоларига қолса уни гумдон қилишса-ю, илгаригидек бир кун ундоқ, бир кун мундоқ яшаб юраверишса. Йўқ, Одамшайтон яшаши керак. Гарчанд душман бўлиб қолган бўлса ҳам. Қайтага шайтонлар олами хушёрликни йўқотмайди. Хотиржамлик ҳалокатга олиб боради. Раис ўзини кўлга олди:

– Нимагадир бугун каллаларингнинг ярми ишлаб, ярми ишламай турибди, – деди у тишлари орасидан

takning bir uchi o'ziga kelib tegyapti. Jamg'armalari raisning cho'ntagiga tushib ketganidan beri kengash a'zolarining ham tili chiqa boshladi. Axir, baqani bossa «vaq» etadi-da.

– Odamshayton chegaradan chiqib ketdi. Ko'ngliga nima kelsa shuni qilib yotibdi, uning boridan yo'g'i yaxshi, – dedi ulardan biri.

– Uning niyati allaqachanoq buzilgan, – dedi boshqasi sherigini qo'llab-quvvatlab. – Bugun jinlarni o'ziga og'diribdimi, endi navbat biz shaytonlarga keladi... Ha, Odamshayton dumi bilan qulog'i kesilib, shaytonlar olamidan quvilgani uchun bizga qarshi ochiqdan ochiq urush e'lon qilgan.

Shunday qilib hay'at a'zolari bu gal ochiqdan ochiq raisga qarshi gapirishdi. Rais yon berishga majbur bo'ldi:

– Odamshaytonni qanday qilib yo'q qilamiz? – birdan maqsadga o'tdi rais.

– Zaharlaymiz.

– Avtohalokatga uchratamiz.

– Eng oson yo'li 108-kanalga tutib berish. Odamshaytonmi, jazosini odamchasiga olishi kerak. Axir, u endi odam-da.

Bu gaplardan raisning yuragida sanchiq turdi. U hamma narsani bilib, tushunib turardi. Odamshayton paydo bo'ldi-yu, shaytonlar olamining tinchi buzildi. Odamshayton minglab shaytonlar qila olmagan ishlarni qilib, ulardan ustunligini ko'rsatib qo'ydi. Shaytonlar xaritasidagi eng xavfli joy – bir o'zi Xo'jaqishloqning kulini ko'kka sovurdi. Boshqalarga qaraganda Shaytonvachcha hali go'dak. Hay'at a'zolariga qolsa uni gumdon qilishsa-yu, ilgarigidek bir kun undoq, bir kun mundoq yashab yuraverishsa. Yo'q, Odamshayton yashashi kerak. Garchand dushman bo'lib qolgan bo'lsa ham. Qaytaga shaytonlar olami hushyorlikni yo'qotmaydi. Xotirjamlik halokatga olib boradi. Rais o'zini qo'lga oldi:

– Nimagadir bugun kallalaringning yarmi ishlab,

гапириб. – Бойлик ўлсин-а, бойлик. Ярми қўлдан кетиб қолди-да, а? Қолган ярмини ҳам олиб кўйсам, каллаларингнинг қовоқдан фарқи қолмас экан-да?

Ўтирганлар бир тўлғаниб, ўринларидан туриб, кечиринг, дегандек раисга қуллуқ қилишди.

– Қани, ўйлаб кўринглар-чи, – деди раис, – Одамшайтондан бундан ортиқ яна нима кутиш мумкин?! Ахир, у шайтонмас, одам-ку. Одам болалари ўшанақа ялтир-юлтир нарсаларга ўч бўлишади. Айтинг-чи, у Ажинашамолни бошқа яна нима билан мукофотлаши мумкин? Мукофотни ювиш ҳам Одам болаларига хос. Хўш, сизлар нима қияпсизлар, унга қарши бирор тайинли режаларинг борми? Йўқ. Ниятларинг фақат йўқотиш. Уни ҳам танг аҳволга солиб кўядиган бирон нима ўйлаб топинглар. Ана ўшанда бизда ҳам ўсиш, тараққиёт бўлади. Йўқ қилишдан осони йўқ. Қаранглар, Одамшайтон нималарни ўйлаб топяпти. Ўзим ҳам шошиб қоляпман баъзан.

Шохдор раис ўз сўзларини ана шундай юқори пардаларда тамомлади ва Одамшайтонни ёғилиши керак бўлган бало-қазодан асраб қолди. Раис барибир унинг томирида оқаётган шайтон қонига ишонарди.

## **ХУШ КЕЛИБСИЗ, КЕЛГИНДИЛАР!**

*(ёки 108-каналнинг шарманда-ю шармисор бўлиши)*

Ўзга сайёраликнинг шаҳри азимда пайдо бўлиши одамларни унчалик ташвишга солмади. Чунки одамлар келгиндилар тегмаганга тегмайди, деган кўникмага ўрганиб қолишган эди. Аммо 108-канал кун сайин ваҳима кўтарар, келгиндига қарши астойдил уруш очган эди. Томошабинларнинг баъзилари ишонар, баъзилари реклама учун шундай қияпти, деб ўйларди. Дарҳақиқат, шов-шувли бу антиқа каналга кўпчилик ўз рекламасини жойлашга ҳаракат қиларди.

Сочини «малчишка» қилиб олган телебошловчи қиз бугун яна томошабинлар эътиборини «Такво»

yarmi ishlamay turibdi, – dedi u tishlari orasidan gapirib. – Boylik o‘lsin-a, boylik. Yarmi qo‘ldan ketib qoldi-da, a? Qolgan yarmini ham olib qo‘ysam, kallalariningning qovoqdan farqi qolmas ekan-da?

O‘tirganlar bir to‘lg‘anib, o‘rinlaridan turib, kechiring, degandek raisga qulluq qilishdi.

– Qani, o‘ylab ko‘ringlar-chi, – dedi rais, – Odamshaytondan bundan ortiq yana nima kutish mumkin?! Axir, u shaytonmas, odam-ku. Odam bolalari o‘shanaqa yaltir-yultir narsalarga o‘ch bo‘lishadi. Ayting-chi, u Ajinashamolni boshqa yana nima bilan mukofotlashi mumkin? Mukofotni yuvish ham odam bolalariga xos. Xo‘sh, sizlar nima qilyapsizlar unga qarshi, biror tayinli rejalarining bormi? Yo‘q. Niyatlaring faqat yo‘qotish. Uni ham tang ahvolga solib qo‘yadigan biron nima o‘ylab topinglar. Ana o‘shanda bizda ham o‘shish, taraqqiyot bo‘ladi. Yo‘q qilishdan osoni yo‘q. Qaranglar, Odamshayton nimalarni o‘ylab topyapti. O‘zim ham shoshib qolyapman ba‘zan.

Shoxdor rais o‘z so‘zlarini ana shunday yuqori paralarda tamomladi va Odamshaytonni yog‘ilishi kerak bo‘lgan balo-qazodan asrab qoldi. Rais baribir uning tomirida oqayotgan shayton qoniga ishonardi.

## **XUSH KELIBSIZ, KELGINDILAR!**

*(yoki 108-kanalning sharmanda-yu sharmisor bo‘lishi)*

O‘zga sayyoralikning shahri azimda paydo bo‘lishi odamlarni unchalik tashvishga solmadi. Chunki odamlar kelgindilar tegmaganga tegmaydi, degan ko‘nikmaga o‘rganib qolishgan edi. Ammo 108-kanal kun sayin vahima ko‘tarar, kelgindiga qarshi astoydil urush ochgan edi. Tomoshabinlarning ba‘zilari ishonar, ba‘zilari reklama uchun shunday qilyapti, deb o‘ylardi. Darhaqiqat, shov-shuvli bu antiqa kanalga ko‘pchilik o‘z reklamasi-ni joylashga harakat qilardi.

Sochini «malchishka» qilib olgan teleboshlovchi qiz

кафеси майдонидаги гулзорга қаратган. Яна тўғридан-тўғри кўрсатув олиб борарди. Телебошловчи қизнинг айтишича, ўзга сайёралик қўл телефони орқали кўнғироқ қилиб, тўғридан-тўғри кўрсатув ташкил қилишни ўзи сўраб олганмиш. Ўзга сайёралик ҳамма нарсанинг очиқ-ойдин бўлишини хоҳлаётганмиш. Мушук-сичқон ўйнаш жонига тегибти.

Бошловчи қиз қўлига микрофонни ушлаганича майдончада у ёқдан бу ёққа юрар, ўзга сайёраликлар ҳақида билганларини ким нечанчи марта такрорларди. Гап орасида тўрт томонга аланглаб, учрашишга ваъда берган келгиндини қидирарди. Экранда ҳар замон-ҳар замонда ўриндиқларда ўзини куз офтобига солиб ўтирган чол ва кампирлар кўриниб қолар, учрашувга чиққан қиз-йигитлардек вақтлари чоғ ўтиришарди. У ёқдан бу ёққа юриб вақт ўтказаетган бошловчи қизга эътибор ҳам беришмас, ўзлари билан ўзлари овора эди. Агарда бошловчи қиз шу чол ва кампирларни шунчаки гапга солиб кўрганда ҳам бу кўрсатувининг ғирт бемаънилигини тушуниб етган, дастгоҳларини йиғиштириб, жўнаб қолган бўларди.

Воқеани телеэкран орқали эмас, тўғридан-тўғри кўришни хоҳловчилар дақиқа сайин майдон атрофида кўпайиб борарди. Дадамирза кафени ишга тушириб юборган, кўрсатув баҳонасида «Такво»нинг реклама бўлиб қолишидан хурсанд эди. У илгариги куйди-пишди Дадамирзага ўхшамасди. Гулзорга қараган хонасида ташқарини хотиржам томоша қилиб ўтирар, қўлида қимматбаҳо тасбеҳ бор эди. Уни шунчаки эрмакка ўгириб ўтирарди. Бу имиджни унга Шайтонвачча ўргатган. Ҳар замон-ҳар замонда қўлида тасбеҳ билан хўрандалар орасида ҳам пайдо бўлиб қолади. Унинг ичкарида ўтиравериб юраги тошди. «Такво» атрофида шунча одам йиғилса-ю, унинг ялпайиб ўтириши дурустмас. У ичкаридан чиққанида бошловчи қиз шундоқ кўз қирини ташладигина, холос. У тўпланиб турган одамларга яқинлашиши билан шартта унга ўгирилиб, микрофон



bugun yana tomoshabinlar e'tiborini «Taqvo» kafesi maydonidagi gulzorga qaratgan. Yana to'g'ridan to'g'ri ko'rsatuv olib borardi. Teleboshlovchi qizning ayti-shicha, o'zga sayyoralik qo'l telefoni orqali qo'ng'iroq qilib, to'g'ridan to'g'ri ko'rsatuv tashkil qilishni o'zi so'rab olganmish. O'zga sayyoralik hamma narsaning ochiq-oydin bo'lishini xohlayotganmish. Mushuk-sichqon o'ynash joniga tegibti.

Boshlovchi qiz qo'liga mikrafonni ushlaganicha maydonchada u yoqdan bu yoqqa yurar, o'zga sayyora-liklar haqida bilganlarini kim nechanchi marta takror-lardi. Gap orasida to'rt tomonga alanglab, uchrashishga va'da bergan kelgindini qidirardi. Ekrandan har zamon-har zamonda o'rindiqlarda o'zini kuz oftobiga solib o'tirgan chol va kampirlar ko'rinib qolar, uchrashuvga chiqqan qiz-yigitlardek vaqtlari chog' o'tirishardi. U yoqdan bu yoqqa yurib vaqt o'tkazayotgan boshlovchi qizga e'tibor ham berishmas, o'zlari bilan o'zlari ovo-ra edi. Agarda boshlovchi qiz shu chol va kampirlarni shunchaki gapga solib ko'rganda ham bu ko'rsatuvining g'irt bema'niligini tushunib yetgan, dastgohlarini yig'ishtirib, jo'nab qolgan bo'lardi.

Voqeani teleekran orqali emas, to'g'ridan to'g'ri ko'rishni xohlovchilar daqiqa sayin maydon atrofida ko'payib borardi. Dadamirza kafeni ishga tushirib yu-borgan, ko'rsatuv bahonasida «Taqvo»ning reklama bo'lib qolishidan xursand edi. U ilgari kuydi-pishdi Dadamirzaga o'xshamasdi. Gulzorga qaragan xona-sida tashqarini xotirjam tomosha qilib o'tirar, qo'lida qimmatbaho tasbeh bor edi. Uni shunchaki ermak-ka o'girib o'tirardi. Bu imidjni unga Shaytonvachcha o'rgatgan. Har zamon-har zamonda qo'lida tasbeh bi-lan xo'randalar orasida ham paydo bo'lib qoladi. Uning ichkarida o'tiraverib yuragi toshdi. «Taqvo» atrofida shuncha odam yig'ilsa-yu, uning yalpayib o'tirishi du-rustmas. U ichkaridan chiqqanida boshlovchi qiz shun-doq ko'z qirini tashladigina, xolos. U to'planib turgan odamlarga yaqinlashishi bilan shartta unga o'girilib,

тутди. Буни кутмаган Дадамирза чўчиб, ўзини орқага олмоқчи бўлди. Аммо орқадаги одамлар кадрга тушиш баҳонасида уни қимирлатмай қўйишди. Қиз уни тезда саволга тутди:

– Ҳозир сўзни «Тақво» кафесининг, кечирасиз, кими бўласиз?

– Директори-да, – илжайди Дадамирза, – биласиз-ку, оппоқ қиз...

– Кечирасиз, акажон, биламиз, сизнинг кафенгиз рекламага мухтож эмас, «Тақво» деган номнинг ўзи реклама. Сиз бизга ўзга сайёралик ҳақида билганларингизни гапириб берсангиз? У сизнинг ошхонангизга кирган, овқатларингиздан еган, шундайми?

– Шундай.

– Кўриниши қанақайди?

– Шу, телевизорда ўзингиз айтгандек қора қош, қора кўз, малла соч, найнов...

Одамлар кулиб юборишди.

– Ана кўрдингизми, – деди бошловчи қиз ингичка қошларини чимириб, – 108-канал ҳеч қачон ёлғон гапирмайди. «Тақво» кафесининг бошлиғи ҳам буни тасдиқлаб турибдилар. Кечирасиз, кейин нима бўлди? – Дадамирзадан сўради қиз.

– Нима нима бўлди?

– Ўзга сайёралик овқатлангани киргандан кейин нима бўлди, деб сўраяпман.

– «Тақво» кафеси зўр экан, ҳеч қайси сайёрада бунақа ширин таомларни емаганман, деди.

– Ҳа, яшанг, айнан шу гапларни сизга айтдим, ўз қулоғингиз билан эшитдингизми?

– Бўлмасам-чи... Кейин битта умас, «Тақво»га кирган ўзимиззи сайёраликлар ҳам шунақа дейди.

– Сиз биздан ниманидир яширяпсиз?– айёрона кулди қиз.

– Ўлай агар яширсам, мен ёлғон гапиришдан тақво қиламан, – деди Дадамирза.

– Ахир, ўзга сайёралик келган куни кафенгиз ёпилиб қолди-ку, нимага ундай бўлди?

Dadamirzaga mikrafon tutdi. Buni kutmagan Dadamirza cho‘chib, o‘zini orqaga olmoqchi bo‘ldi. Ammo orqadagi odamlar kadruga tushish bahonasida uni qimirlatmay qo‘yishdi. Qiz uni tezda savolga tutdi:

– Hozir so‘zni «Taqvo» kafesining, kechirasiz, kimi bo‘lasiz?

– Direktiri-da, – iljaydi Dadamirza, – bilasiz-ku, oppoq qiz...

– Kechirasiz, akajon, bilamiz, sizning kafengiz reklamaga muhtoj emas, «Taqvo» degan nomning o‘zi reklama. Siz bizga o‘zga sayyoralik haqida bilganlaringizni gapirib bersangiz? U sizning oshxonangizga kirgan, ovqatlaringizdan yegan, shundaymi?

– Shunday.

– Ko‘rinishi qanaqaydi?

– Shu, televizorda o‘zingiz aytgandek qora qosh, qora ko‘z, malla soch, naynov...

Odamlar kulib yuborishdi.

– Ana ko‘rdingizmi, – dedi boshlovchi qiz ingichka qoshlarini chimirib, – 108-kanal hech qachon yolg‘on gapirmaydi. «Taqvo» kafesining boshlig‘i ham buni tasdiqlab turibdilar. Kechirasiz, keyin nima bo‘ldi? – Dadamirzadan so‘radi qiz.

– Nima nima bo‘ldi?

– O‘zga sayyoralik ovqatlangani kirgandan keyin nima bo‘ldi, deb so‘rayapman.

– «Taqvo» kafesi zo‘r ekan, hech qaysi sayyorada bunaqa shirin taomlarni yemaganman, dedi.

– Ha, yashang, aynan shu gaplarni sizga aytdimi, o‘z qulog‘ingiz bilan eshitdingizmi?

– Bo‘lmasam-chi... Keyin bitta umas, «Taqvo»ga kirgan o‘zimizni sayyoraliklar ham shunaqa deydi.

– Siz bizdan nimanidir yashiryapsiz?– ayyorona kuldi qiz.

– O‘lay agar yashirsam, men yolg‘on gapirishdan taqvo qilaman, – dedi Dadamirza.

– Axir, o‘zga sayyoralik kelgan kuni kafengiz yopilib qoldi-ku, nimaga unday bo‘ldi?

– Ҳа-а-а-а... уни айтяпсизми? Бизнинг «Тақво» кафемизни кўролмайдиганлар кўп-да шаҳарда. Чақув бўлган экан. Текширишди. Ҳаммаси жойида экан. Ахир, бизнинг «Тақво» кафемизда шубҳали нима ҳам бўлиши мумкин, айланай.

– Бу ишнинг ўзга сайёраликка алоқаси йўқ деб ўйлайсиз, шундайми?

– Мутлақо.

Шу пайт Шайтонваччага ўхшаган биттаси келиб, гапнинг белига тепди:

– Бу одам ғирт фирибгар, – деди у Дадамирзани кўрсатиб, – тақво қиламан деяпти-ю, ёлғонни ямламай ютяпти. Мен унинг «Тақво» кафесидан овқатланмаганман. Умуман, биз ўзга сайёраликлар ерликларнинг таомини емаймиз. Билсангиз, сизларнинг овқатингиздан тақво қиламиз. Мабода нафсимиз бузуклик қилиб еб қўйсақ борми, ерда бир умр қолиб кетишимизга тўғри келади. Ҳа, шунақа, еб қўйиб, қолиб кетганлар тиқилиб ётибди сайёрангизда.

– Ие, менга кўнғироқ қилган сиз бўлманг яна, – деди бошловчи қиз.

– Ўзимман.

– Ҳеч нарса емасанглар очқаб қолмайсизларми? – сўради турганлардан биттаси.

– Нимага очқамасаканмиз, биздаям нафс бор.

– Унда нима еб-ичасизлар?

– Сизларда бир ажойиб элексир кашф этилган, ўша бизга кифоя қилади, – деб ўзга сайёралик элексирни қўйнидан чиқариб кўз-кўз қилди. – Биз шу элексирдан жуда катта партиясини буюртма қилганмиз, тайёр бўлиши билан уни олиб, сайёрамизга учиб кетамиз.

Турганлар ҳаяжондан «у-у-у» деб юборишди. Элексирнинг номини эслаб қолишга, фирманинг номини ёзиб олишга шошилишди. Дадамирза рўпарасида худди Қозимирза тургандек бақа бўлиб қолди. Олдинига аниқ ўша деб ўйлади.

– Кечирасиз, – деди бошловчи қиз, – ўзингизни ўзингиз ошкор қилишингиздан мақсад нима?

– Ha-a-a-a... uni aytyapsizmi? Bizning «Taqvo» kafemizni ko‘rolmaydiganlar ko‘p-da shaharda. Chaquv bo‘lgan ekan. Tekshirishdi. Hammasi joyida ekan. Axir, bizning «Taqvo» kafemizda shubhali nima ham bo‘lishi mumkin, aylanay.

– Bu ishning o‘zga sayyoralikka aloqasi yo‘q deb o‘ylaysiz, shundaymi?

– Mutlaqo.

Shu payt Shaytonvachchaga o‘xshagan bittasi kelib, gapning beliga tepdi:

– Bu odam g‘irt firibgar, – dedi u Dadamirzani ko‘rsatib, – taqvo qilaman deyapti-yu, yolg‘onni yamlamay yutyapti. Men uning «Taqvo» kafesidan ovqatlanmaganman. Umuman, biz o‘zga sayyoraliklar yerliklarning taomini yemaymiz. Bilsangiz, sizlarning ovqatingizdan taqvo qilamiz. Maboda nafsimiz buzuqlik qilib yeb qo‘ysak bormi, yerda bir umr qolib ketishimizga to‘g‘ri keladi. Ha, shunaqa, yeb qo‘yib, qolib ketganlar tiqilib yotibdi sayyorangizda.

– Iye, menga qo‘ng‘iroq qilgan siz bo‘lmang yana, – dedi boshlovchi qiz.

– O‘zimman.

– Hech narsa yemasanglar ochqab qolmaysizlarmi? – so‘radi turganlardan bittasi.

– Nimaga ochqamasakanmiz, bizdayam nafs bor.

– Unda nima yeb-ichasizlar?

– Sizlarda bir ajoyib eleksir kashf etilgan, o‘sha bizga kifoya qiladi, – deb o‘zga sayyoralik eleksirni qo‘ynidan chiqarib ko‘z-ko‘z qildi. – Biz shu eleksirdan juda katta partiyasini buyurtma qilganmiz, tayyor bo‘lishi bilan uni olib, sayyoramizga uchib ketamiz.

Turganlar hayajondan «u-u-u» deb yuborishdi. Eleksirning nomini eslab qolishga, firmaning nomini yozib olishga shoshilishdi. Dadamirza ro‘parasida xuddi Qozimirza turgandek baqa bo‘lib qoldi. Oldiniga aniq o‘sha deb o‘yladi.

– Kechirasiz, – dedi boshlovchi qiz, – o‘zingizni o‘zingiz oshkor qilishingizdan maqsad nima?

– Элексир, – дея у яна кўйнидан уни олиб намо-йиш қилди. – Айтяпман-ку, катта партияда олиб кетишимиз керак, деб. Унга катта пул керак. Ахир, сиз менинг бошим учун бир миллион доллар тиккансиз, – деди у қизга қараб. – Кейин телефонда гаплашганимизда хавфсизлигимни ҳам таъминлашга ваъда бердингиз. Энди мана кўпчиликнинг олдида ваъдангизнинг устидан чиқинг. Бир миллион демаяпман, майли, арра қиламиз – ярим миллиони ҳам менга етади. Ортиқча пулни бошимга ураманми? Бизда бу пулларингиз барибир ўтмайди. Чекни ёзиб беринг, менинг ҳам ишим битсин, сизлар ҳам тинчинглар. Шов-шувлар ҳам тугасин, ҳаёт ўз йўлига қайтсин.

Дадамирза диққат қилиб қараса, бу йигитнинг Қозимирзага ўхшамаган жиҳатлари ҳам бор экан. Сочи малла. Қозимирза маллани, аксинча, қорайтириб олди. Ё яна тезда малла қилиб олдимикан-а? Йўқ, йўқ, кўзи ҳам ўхшамайроқ турибди. Қозимирзанинг кўзлари ўқдек. Одамга қараса тешворай дейди. Буники бежо, киссавурнинг кўзига ўхшайди. Дадамирза ишонч ҳосил қилиш учун Қозимирзанинг кўлига қўнғироқ қилди. «Ҳа, Дадамирза ака, тинчликми?» – деган жавоб бўлди у ёқдан. «Тушликка нима хоҳлайдилар?» – деди нима дейишини билмай Дадамирза. «Жўнатаверинг бир четдан, қозонингиз битта эмас-ку, тешиб чиқмайди». «Тиқилиб ўл, – деб ичида ғижиниб кўйди Дадамирза. – Негаям қўнғироқ қилдим-а?»

– Келгинди эканлигингизни нима билан исботлайсиз? – сўради бошловчи қиз иккиланиб.

– Олдин менга чекни тутқазинг, исботи кейин бўлади...

Дадамирза ўзини шунча одамлар олдида фирибгар деб ҳақорат қилган келгиндидан қандоқ қилиб ўч олишни билмай турган эди. Агарда у Қозимирзага ўхшаган нусхалардан бўлса, ҳозироқ уни синаб кўриши мумкин.

– Исботи деяпсизми, мен исботини биламан, –

– Eleksir, – deya u yana qo‘ynidan uni olib namoyish qildi. – Aytyapman-ku, katta partiyada olib ketishimiz kerak, deb. Unga katta pul kerak. Axir, siz mening boshim uchun bir million dollar tikkansiz, – dedi u qizga qarab. Keyin telefonda gaplashganimizda xavfsizligimni ham ta‘minlashga va‘da berdingiz. Endi mana ko‘pchilikning oldida va‘dangizning ustidan chiqing. Bir million demayapman, mayli, arra qilamiz – yarim millioni ham menga yetadi. Ortiqcha pulni boshimga uramanmi? Bizda bu pullaringiz baribir o‘tmaydi. Chekni yozib bering, mening ham ishim bitsin, sizlar ham tinchinglar. Shov-shuvlar ham tugasin, hayot o‘z yo‘liga qaytsin.

Dadamirza diqqat qilib qarasa, bu yigitning Qozimirzaga o‘xshamagan jihatlari ham bor ekan. Sochi malla. Qozimirza mallani, aksincha, qoraytirib oldi. Yo yana tezda malla qilib oldimikan-a? Yo‘q, yo‘q, ko‘zi ham o‘xshamayroq turibdi. Qozimirzaning ko‘zlari o‘qdek. Odamga qarasa teshvoray deydi. Buniki bejo, kissavurning ko‘ziga o‘xshaydi. Dadamirza ishonch hosil qilish uchun Qozimirzaning qo‘liga qo‘ng‘iroq qildi. «Ha, Dadamirza aka, tinchlikmi?» – degan javob bo‘ldi u yoqdan. «Tushlikka nima xohlaydilar?» – dedi nima deyishini bilmay Dadamirza. «Jo‘natavering bir chetdan, qozoningiz bitta emas-ku, teshib chiqmaydi». «Tiqilib o‘l, – deb ichida g‘ijinib qo‘ydi Dadamirza. – Negayam qo‘ng‘iroq qildim-a?»

– Kelgindi ekanligingizni nima bilan isbotlaysiz? – so‘radi boshlovchi qiz ikkilanib.

– Oldin menga chekni tutqazing, isboti keyin bo‘ladi...

Dadamirza o‘zini shuncha odamlar oldida firibgar deb haqorat qilgan kelgindidan qandoq qilib o‘ch olishni bilmay turgan edi. Agarda u Qozimirzaga o‘xshagan nusxalardan bo‘lsa, hoziroq uni sinab ko‘rishi mumkin.

– Isboti deyapsizmi, men isbotini bilaman, – dedi Dadamirza shoshib va o‘rtaga chiqdi. Keyin kelgindiga

деди Дадамирза шошиб ва ўртага чикди. Кейин келгиндига қараб: – Кўзингизни юмиб, кўлингизни жуфтлаб олдинга чўзинг, – деди. «Келгинди» нима қилар экан, деб унинг айтганларини қилди. Дадамирза бўйнидаги галстугини шартта ечди-да, бир зумда ўзи томон чўзилган кўлларни чирмаб, маҳкам боғлаб ташлади. – Ана энди фокус-мокусингизни ишга солиб, кўлингизни бўшатиб олинг-чи, – деди.

– Ие, бу нима қилганингиз, ечинг кўлимни, шуми ҳали бошқа сайёраликларга ҳурмат-еҳтиром?! – деб ер тепинди йигит.

– Ҳа, кўлини ечворинг, ука, яна юртига бориб бизни ёмонотлиқ қилиб юрмасин, – деди кимдир орага тушиб.

– Ташвиш қилманглар, – деди Дадамирза турганларга қараб, – буларнинг сеҳр-жодуси жуда кучли бўлади, ўзи ечолмаса, шериги келиб ечади.

Шу пайт тўпланганлар бир қалқиб тушди.

– Ана шериги, ана шериги, – деб оломон гувиллади.

Дарҳақиқат, даврада қора кўз, қора қош, малла соч яна битта худди шунақаси пайдо бўлди. Улар Ҳасан-Ҳусанга ўхшашарди. Дадамирза баттар бақа бўлиб қолди. Ахир, уйда биттаси ўтирибди. Бу ерда иккитаси. Кўркқанидан Дадамирза ўзини одамлар орасига олди.

– Э, булар кўпайиб кетибди-ку, – деди кимдир ташвишланиб.

Шериги жимгина келиб, шеригининг кўлини ечди. Кейин унга дағдаға қилди:

– Сенга неча марта айтаман, галварс, менинг қиёфамга кирмагин деб, қачон ақлинг киради, эси паст ...

– Ахир, элексир... – деб минғирлади шериги.

– Ҳе, элексир жонингни олсин сени. Эликсирлаб ўл. Ҳайрон бўлманглар, – деди у томошатабларга қараб, – бунинг тижорати элексирдан. Сайёрамизга боргин, нақ онангни учқўрғондан кўрсатаман, йўқол кўзимдан.



qarab: – Ko‘zingizni yumib, qo‘lingizni juftlab oldinga cho‘zing, – dedi. «Kelgindi» nima qilar ekan, deb uning aytganlarini qildi. Dadamirza bo‘ynidagi galstugini shartta yechdi-da, bir zumda o‘zi tomon cho‘zilgan qo‘llarni chirmab, mahkam bog‘lab tashladi. – Ana endi fokus-mokusingizni ishga solib, qo‘lingizni bo‘shatib oling-chi, – dedi.

– Iye, bu nima qilganingiz, yeching qo‘limni, shumi hali boshqa sayyoraliklarga hurmat-ehtirom?! – deb yer tepindi yigit.

– Ha, qo‘lini yechvoring, uka, yana yurtiga borib bizni yomonotliq qilib yurmasin, – dedi kimdir oraga tushib.

– Tashvish qilmanglar, – dedi Dadamirza turganlarga qarab, – bularning sehr-jodusi juda kuchli bo‘ladi, o‘zi yecholmasa, sherigi kelib yechadi.

Shu payt to‘planganlar bir qalqib tushdi.

– Ana sherigi, ana sherigi, – deb olomon guvilladi.

Darhaqiqat, davrada qora ko‘z, qora qosh, mal-la soch yana bitta xuddi shunaqasi paydo bo‘ldi. Ular Hasan-Husanga o‘xshashardi. Dadamirza battar baqa bo‘lib qoldi. Axir, uyida bittasi o‘tiribdi. Bu yerda ik-kitasi. Qo‘rqqanidan Dadamirza o‘zini odamlar orasiga oldi.

– E, bular ko‘payib ketibdi-ku, – dedi kimdir tashvishlanib.

Sherigi jimgina kelib, sherigining qo‘lini yechdi. Keyin unga dag‘dag‘a qildi:

– Senga necha marta aytaman, galvars, mening qi-yofamga kirmagin deb, qachon aqling kiradi, esi past...

– Axir, eleksir... – deb ming‘irladi sherigi.

– He, eleksir joningni olsin seni. Elikisirlab o‘l. Hayron bo‘lmanglar, – dedi u tomoshatalablarga qarab, – buning tijorati eleksirdan. Sayyoramizga bor-gin, naq onangni uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman, yo‘qol ko‘zimdan.

Yangi paydo bo‘lgan nusxa o‘zini yo‘qotib, dovdi-

Янги пайдо бўлган нусха ўзини йўқотиб, довдираб қолган телебошловчи қизнинг олдига келди-да, хотиржамлик билан унинг қўлидан микрофонни олди. У ҳам сеҳрлангандек бир аҳволда микрофонни бера қолди.

– Халойиқ, – деди у, – мен сиз ерликларга жудаям ачинаман. Сизлар жудаям оққўнгил, жудаям меҳри дарёсизлар. Коинот катта, биз ўн саккиз минг олам бўйлаб кезиб юрамиз, аммо сиздақа соддаси йўқ. Биз келгиндилар орасида ҳам товламачилар йўқ эмас, бор. Сал бўлмаса анави шеригимиз 108-каналнинг ярим миллион пулинини туя қилай деди. Қаранглар, менинг қиёфамга кириб, худди ўзим бўлиб қўяқолибди-я, аблаҳ. Бунақа кўзбўямачиларни сайёрамизга боргач, жазолаймиз ҳали. 108-канал орқали тўхтамай бериб борилаётган келгинди аслида мен бўламан. Каминани учта одамнинг ўлимида айблашяпти. Бу тухмат. Анови пиёниста дўхтирингиз ичкиликдан бўкиб ўлган. Ичкиликдан ўлди дегандан кўра бировга тўнкаб қўя қолиш осон-да. Анави хўжақишлоқлик чолни бўлса ўзининг кампири захарлаб ўлдирди. Телеканал операторига келсак, тўс-тўполонни суратга тушираман, деб ўз оёғи билан кир ўрага тушиб кетди. Яна каминани бировнинг ўлимлигини ўмаришда айблашяпти. Бу ҳам ғирт тухмат. Мен берсам бераманки, олмайман. Тўғри, мен бундан бир неча кун мукаддам осмон-у фалакдан худди шу ерга келиб тушдим. Севишганлар билан учрашганим ҳам, «Тақво» кафесидан овқатланганим ҳам рост. Кеч бўлиб қолган эди. Борар жойим йўқ эди. Маҳаллага кириб бир ғариб кулбанинг эшигини тақиллатдим. Анчадан кейин бир чол эшикни очди. Арзимни эшитиб, тезда бошпана берди, барака топкур. Қаранг, чол билан кампир қаттиқроқ шамол турса қулаб тушадиган бир вайронада яшашар экан. Вой, уларнинг аҳволини кўрсангиз. Чол худонинг зорини қиларкан: «Кампир, сендан олдин мен ўлай, биламан, эпли хотинсан, ўлигим кўчада қолиб кетмайди», – деб. Кампири йиғлар экан: «Сиздан

rab qolgan teleboshlovchi qizning oldiga keldi-da, xotirjamlik bilan uning qo‘lidan mikrafonni oldi. U ham sehrlangandek bir ahvolda mikrafonni bera qoldi.

– Xaloyiq, – dedi u, – men siz yerliklarga judayam achinaman. Sizlar judayam oqko‘ngil, judayam mehri daryosizlar. Koinot katta, biz o‘n sakkiz ming olam bo‘ylab kezib yuramiz, ammo sizdaqa soddasi yo‘q. Biz kelgindilar orasida ham tovlamachilar yo‘q emas, bor. Sal bo‘lmasa anavi sherigimiz 108-kanalning yarim million pulinini tuya qilay dedi. Qaranglar, mening qiyofamga kirib, xuddi o‘zim bo‘lib qo‘yaqolibdi-ya, ablah. Bunaqa ko‘zbo‘yamachilarni sayyoramizga borgach, jazolaymiz hali. 108-kanal orqali to‘xtamay berib borilayotgan kelgindi aslida men bo‘laman. Kaminani uchta odamning o‘limida ayblashyapti. Bu tuhmat. Anovi piyonista do‘xtiringiz ichkilikdan bo‘kib o‘lgan. Ichkilikdan o‘ldi degandan ko‘ra birovga to‘nkab qo‘ya qolish oson-da. Anavi xo‘jaqishloqlik cholni bo‘lsa o‘zining kampiri zaharlab o‘ldirdi. Telekanal operatoriga kelsak, to‘s-to‘polonni suratga tushiraman, deb o‘z oyog‘i bilan kir o‘raga tushib ketdi. Yana kaminani birovning o‘limligini o‘marishda ayblashyapti. Bu ham g‘irt tuhmat. Men bersam beramanki, olmayman. To‘g‘ri, men bundan bir necha kun muqaddam osmon-u falakdan xuddi shu yerga kelib tushdim. Sevishganlar bilan uchrashganim ham, «Taqvo» kafesidan ovqatlan-ganim ham rost. Kech bo‘lib qolgan edi. Borar joyim yo‘q edi. Mahallaga kirib bir g‘arib kulbaning eshigini taqillatdim. Anchadan keyin bir chol eshikni ochdi. Arzimni eshitib, tezda boshpana berdi, baraka topkur. Qarang, chol bilan kampir qattiqroq shamol tursa qulab tushadigan bir vayronada yashashar ekan. Voy, ularning ahvolini ko‘rsangiz. Chol xudoning zorini qilar-kan: «Kampir, sendan oldin men o‘lay, bilaman, epli xotinsan, o‘ligim ko‘chada qolib ketmaydi», – deb. Kampiri yig‘lar ekan: «Sizdan oldin men o‘lay, chol, xotin kishining o‘ligi ham dahmaza bo‘ladi, sovun tar-

олдин мен ўлай, чол, хотин кишининг ўлиги ҳам даҳмаза бўлади, совун тарқат, чит йирт дегандек, жўраларингиз кўп, кўмишга қарашворади», – деб. Улар қандай ташвиш билан яшадини эшитдингизми? Сиз билан биз-чи? Мен шу отахон билан онахон учун мана бу ҳисоб рақамини очдим, – деб у тахтачага ёзилган ҳисоб рақамини тўрт томонга намоёиш қилди. Биламан, кўрсатув тўғридан-тўғри эфирга узатиляпти. Сармоядор, Худони таниган кўли очиқ одамлар орангизда кўп. Ҳозироқ уларга меҳр-оқибат кўратишга шошилишларига ишонаман. Келинг, бу борада бир-биримиз билан мусобақа ўйнайлик. Энди, ўзимга келсам, – деб бошловчи қизга қаради у, – менинг бошимга тикилган бир миллион доллар ростми-ёлғонми, унисини билмайман-у, лекин мен ўзимни ўзим тутиб бердим, энди ўша пул қанча бўлса шундайлигича чол ва кампирнинг ҳисоб рақамига ўтказишларини хоҳлайман. Мен ўша пулсиз ҳам сайёрамга етиб оламан.

– Кечирасиз, меҳмон, – деди Дадамирза бирдан дадиллашиб, – гапни жа қийиб ташларкансиз. Ҳойнаҳой, филологияни тугатганга ўхшайсиз, сизнинг ҳам далил-исботингиз борми?

– Бор, – деди ва ҳалидан бери атрофларида бўлаётган воқеалардан беҳабар қаймоқлашиб ўтирган чол ва кампирнинг олдига бориб, уларнинг юз-кўзларидан чўлпиллатиб ўпди. Шайтон йиғиси қилди. Чол ва кампир ҳам уни бағрига босиб, боламлашди. Қадрдонлардек бир-бирларини ялаб-юлқашди.

– Гапларимни ҳеч бўлмаса «тўғри, тўғри», деб қўйинглар, анавилар ишонишмаяпти, – деб уларнинг кулоқларига бақирди ва оғизларига микрофон тутди. Улар бараварига:

–Тўғри, тўғри, – дейишди ва бошларини кўтариб, атрофларида тўпланиб турган оломонни кўриб қўрқиб кетишди. Шоша-пиша бир-бирини етаклаб жўнаб қолишди.

– Ў-ў-ў-ў... буниси ростдан ҳам ҳақиқийси экан, – деб шов-шув кўтаришди одамлар. Баъзилар чол-

qat, chit yirt degandek, jo‘ralaringiz ko‘p, ko‘mishga qarashvoradi», – deb. Ular qanday tashvish bilan yashashini eshitdingizmi? Siz bilan biz-chi? Men shu otaxon bilan onaxon uchun mana bu hisob raqamini ochdim, – deb u taxtachaga yozilgan hisob raqamini to‘rt tomonga namoyish qildi. Bilaman, ko‘rsatuv to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilyapti. Sarmoyador, Xudoni tanigan qo‘li ochiq odamlar orangizda ko‘p. Hoziroq ularga mehr-oqibat ko‘ratishga shoshilishlariga ishonaman. Keling, bu borada bir-birimiz bilan musobaqa o‘ynaylik. Endi, o‘zimga kelsam, – deb boshlovchi qizga qaradi u, – mening boshimga tikilgan bir million dollar rostmi-yolg‘onmi, unisini bilmayman-u, lekin men o‘zimni o‘zim tutib berdim, endi o‘sha pul qancha bo‘lsa shundayligicha chol va kampirning hisob raqamiga o‘tkazishlarini xohlayman. Men o‘sha pulsiz ham sayyoramga yetib olaman.

– Kechirasiz, mehmon, – dedi Dadamirza birdan dadillashib, – gapni ja qiyib tashlarkansiz. Hoynahoy, filologiyani tugatganga o‘xshaysiz, sizning ham dalil-isbotingiz bormi?

– Bor, – dedi va halidan beri atroflarida bo‘layotgan voqealardan bexabar qaymoqlashib o‘tirgan chol va kampirning oldiga borib, ularning yuz-ko‘zlaridan cho‘lpillatib o‘pdi. Shayton yig‘isi qildi. Chol va kampir ham uni bag‘riga bosib, bolamlashdi. Qadrdonlardek bir-birlarini yalab-yulqashdi.

– Gaplarimni hech bo‘lmasa «to‘g‘ri, to‘g‘ri», deb qo‘yinglar, anavilar ishonishmayapti, – deb ularning quloqlariga baqirdi va og‘izlariga mikrafon tutdi. Ular baravariga:

–To‘g‘ri, to‘g‘ri, – deyishdi va boshlarini ko‘tarib, atroflarida to‘planib turgan olomni ko‘rib qo‘rqib ketishdi. Shosha-pisha bir-birini yetaklab jo‘nab qolishdi.

– O‘-o‘-o‘-o‘... bunisi rostdan ham haqiqiysi ekan, – deb shov-shuv ko‘tarishdi odamlar. Ba‘zilar chol-

кампирининг ҳисоб рақамини қайта-қайта сўраб, ёзиб ола бошлашди.

– Кечирасиз, – деди бошловчи қиз, – сайёрангиз хақида баъзи нарсаларни сўраб олсак бўладими?

– Нимага бўлмас экан, бўлади, сўрайверинг.

– Сизларда чол ва кампирларни шунчалар ҳурмат қилишадими?

– О, нималар деяпсиз, хоним, бизда чол-кампириларнинг ўзи йўқ. Мен шу ерга келиб кўрдим буришган, тиришган башараларни. Суриштирсам, уларни чол ва кампир дейишар экан.

– Гапингизни тушунтириброк гапиринг?

– Биздагиларнинг ёши ўттиз уч ёшдан ошмайди. Шу ёшга кирдиларми, Худога шукур қилиб тўғри жаннатга кириб кетишаверади. О-о-о-о... Жаннат боғлари, Жаннат боғлари... Жаннатдадир абадий ёшлик, абадий хурлик... – жўшиб кетди ўзга сайёралик.

– Тўғри гапиряпти, – деди маҳалла имоми одамлар орасидан ҳайқириб, – қиёмат кунда Аллоҳ барчамизни ўттиз уч ёшда тирилтиради, мен буни ўқиганман.

Турганлар ҳайратдан яна бир бор тўлғаниб олишди...

Тўғридан-тўғри кўрсатув шу ерда поёнига етди. Телебошловчи қиз нима деб, нима қўйишини ҳам билмай, гунг-соқов бўлиб туриб қолди. Ахийри чайналиб, бир нималар деди:

– 108-каналимизнинг азиз мухлислари, гувоҳингиз бўлган ҳозирги воқеаларга бирон нарса деб шарҳ айтишга ожизман. Ростини айтсам, ўзимнинг ҳам бошим қотиб қолди. Ўзга сайёралик келгиндиларнинг бунчалик кўпайиб кетганидан беҳабар эканман. Хуллас, бу масала мен ўйлагандан ҳам жиддийлашибди. Бу ҳақда бошқа сайёраликлар билан шуғулланаётган мутахассисларимизнинг бир тўхтамага келиб, фикр билдиришларини кутиб қоламиз. Лекин ўзимизнинг фирибгарлар етмагандек уларники ҳам келиб қўшилиши дард устига чипқон бўлибти. Одамлар, хушёр бўлинглар. Аммо чол ва

kampirning hisob raqamini qayta-qayta so‘rab, yozib  
ola boshlashdi.

– Kechirasiz, – dedi boshlovchi qiz, – sayyorangiz  
haqida ba’zi narsalarni so‘rab olsak bo‘ladimi?

– Nimaga bo‘lmas ekan, bo‘ladi, so‘rayvering.

– Sizlarda chol va kampirlarni shunchalar hurmat  
qilishadimi?

– O, nimalar deyapsiz, xonim, bizda chol-kam-  
pirlarning o‘zi yo‘q. Men shu yerga kelib ko‘rdim bu-  
rishgan, tirishgan basharalarni. Surishtirsam, ularni chol  
va kampir deyishar ekan.

– Gapingizni tushuntiribroq gapiring?

– Bizdagilarning yoshi o‘ttiz uch yoshdan oshmay-  
di. Shu yoshga kirdilarmi, Xudoga shukur qilib to‘g‘ri  
Jannatga kirib ketishaveradi. O-o-o-o... Jannat bog‘lari,  
Jannat bog‘lari... Jannatdadir abadiy yoshlik, abadiy  
hurlik... – jo‘shib ketdi o‘zga sayyoralik.

– To‘g‘ri gapiryapti, – dedi mahalla imomi odamlar  
orasidan hayqirib, – qiyomat kunida Alloh barchamizni  
o‘ttiz uch yoshda tiriltiradi, men buni o‘qiganman.

Turganlar hayratdan yana bir bor to‘lg‘anib olishdi...

To‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatuv shu yerda poyoniga yet-  
di. Teleboshlovchi qiz nima deb, nima qo‘yishini ham  
bilmay, gung-soqov bo‘lib turib qoldi. Axiyri chayna-  
lib, bir nimalar dedi:

– 108-kanalimizning aziz muxlislari, guvohingiz  
bo‘lgan hozirgi voqealarga biron narsa deb sharh ay-  
tishga ojizman. Rostini aytsam, o‘zimning ham boshim  
qotib qoldi. O‘zga sayyoralik kelgindilarning buncha-  
lik ko‘payib ketganidan bexabar ekanman. Xullas, bu  
masala men o‘ylagandan ham jiddiylashibdi. Bu haq-  
da boshqa sayyoraliklar bilan shug‘ullanayotgan mu-  
taxassislarimizning bir to‘xtamga kelib, fikr bildirish-  
larini kutib qolamiz. Lekin o‘zimizning firibgarlar yet-  
magandek ularniki ham kelib qo‘shilishi dard ustiga  
chipqon bo‘libti. Odamlar, hushyor bo‘linglar. Ammo

кампирининг ҳисоб рақамига баҳоли-қудрат пул ўтказишга ваъда бераман. Биз билан қолинг, кейинги чиқишларимизни кутинг...

## ИБРАТ ДАРСЛАРИ

*(ёки Шайтонваччанинг Одам болаларига тан берганлари)*

Одам болалари ҳаётида ҳамиша шундай бўлган. Дунёда содир этиладиган ката-ю кичик воқеа ва ходисалар уларни у ёки бу даражада ўйлашга мажбур қилади. Ҳатто йўл устида пайдо бўлиб қолган оддий тош ҳам. Иймонли одам уни бир чеккага олиб қўяди. Аммо эртасига тош яна ўша жойда пайдо бўлиб қолади. Бу сафар жаҳли чиқади. Билмайдик, бу тош болаларнинг ўйинчоғи. Улар копток ўйнаганда тошдан дарвоза ўрнида фойдаланишади ва қолдириб кетаверишади. Утган-кетганга халақит қилишини ўйлашмайди.

Шайтонвачча Дадамирза кўнғироқ қилганда 108-канални томоша қилиб ўтирган эди. Дадамирзанинг шунчаки текшириб кўриш учун кўнғироқ қилаётганини ҳам билди. Шайтонвачча Одамшайтонга айлангандан бери нуқул кўзга ташланмасликка ҳаракат қилади. Аммо 108-канал ўша йўлда ётган тошдек одамлар кўзига уни олиб чиқиб кўрсатаверади. Бу билан гўё одамларга ғамхўрлик қилаётгандек, ўзга сайёралик ҳақида ваҳима кўтаргани кўтарган. Ўзга сайёралик деганлари бу ёруғ дунёда борми, йўқми, Худо билади. Балки бордир. Лекин Шайтонваччанинг ўзга сайёраликка нима алоқаси бор? Бояги йигитлар ҳам ўзга сайёраликмас. Ҳойнаҳой, 108-каналнинг ўргатилган тўтиқушлари бўлса керак. Балки бу ўйинларни бечора бошловчи кизнинг ўзи ҳам билмас. Бояги фирибгарларни кўриб, Шайтонвачча зўрға ўзини тутиб турди. Сал бўлмаса йўлга тушиб, гулзордаги воқеанинг қаҳрамони мен бўламан, кулоққа лағмон османглар, дейишига оз



chol va kampirning hisob raqamiga baholi-qudrat pul o'tkazishga va'da beraman. Biz bilan qoling, keyingi chiqishlarimizni kuting...

## IBRAT DARSLARI

*(yoki Shaytonvachchaning Odam bolalariga tan berganlari)*

Odam bolalari hayotida hamisha shunday bo'lgan. Dunyoda sodir etiladigan kata-yu kichik voqea va hodisalar ularni u yoki bu darajada o'ylashga majbur qiladi. Hatto yo'l ustida paydo bo'lib qolgan oddiy tosh ham. Iymonli odam uni bir chekkaga olib qo'yadi. Ammo ertasiga tosh yana o'sha joyda paydo bo'lib qoladi. Bu safar jahli chiqadi. Bilmaydiki, bu tosh bolalarning o'yinchog'i. Ular koptok o'ynaganda toshdan darvoza o'rnida foydalanishadi va qoldirib ketaverishadi. O'tgan-ketganga xalaqit qilishini o'ylashmaydi.

Shaytonvachcha Dadamirza qo'ng'iroq qilganda 108-kanalni tomosha qilib o'tirgan edi. Dadamirzaning shunchaki tekshirib ko'rish uchun qo'ng'iroq qilayotganini ham bildi. Shaytonvachcha Odamshaytonga aylangandan beri nuqul ko'zga tashlanmaslikka harakat qiladi. Ammo 108-kanal o'sha yo'lda yotgan toshdek odamlar ko'ziga uni olib chiqib ko'rsataveradi. Bu bilan go'yo odamlarga g'amxo'rlik qilayotgandek, o'zga sayyoralik haqida vahima ko'targani ko'targan. O'zga sayyoralik deganlari bu yorug' dunyoda bormi, yo'qmi, Xudo biladi. Balki bordir. Lekin Shaytonvachchaning o'zga sayyoralikka nima aloqasi bor? Boyagi yigitlar ham o'zga sayyoralikmas. Hoynahoy, 108-kanalning o'rgatilgan to'tiqushlari bo'lsa kerak. Balki bu o'yinlarni bechora boshlovchi qizning o'zi ham bilmas. Boyagi firibgarlarni ko'rib, Shaytonvachcha zo'rg'a o'zini tutib turdi. Sal bo'lmasa yo'lga tushib, gulzordagi voqeaning qahramoni men bo'laman, quloqqa

қолди. Унинг номидан тўқилаётган ёлғон-яшиқларга чидай олмади-да. Ажинашамолни чақириб, ҳаммасини тиркиратмоқчи бўлди. Нимага, ахир, бу Одам болалари ҳадеб қоронғига қараб тош отаверади. Ахир, уларнинг биттаси элексирни боплаб реклама қилиб олди-ку. Шу билан элексиarning нархи осмон-у фалакка чиқиб кетди ҳисоб. Униси бўлса чол ва кампирни баҳона қилиб ўз ҳисоб рақамига пул ёғдириб олди.

Шайтонвачча ўйлаб қараса, Одам болалари олдида унинг найранглари ҳеч гап эмас экан. Қўлидан ҳали ҳеч нарса келмас экан. Шу пайтгача нимага эришган бўлса, барига Ажинашамолнинг ёрдамида эришибди. «Думи тугуклар» мадрасасида мана мен деган шайтонлар Одам болаларининг олдида тушиб юради, думбул-тентаклари итнинг орқа оёғига ўхшаб орқасида юради, дейишарди. Тан олиши керак: у итнинг орқа оёғи. Одамларнинг олдида тушишига ҳали кўп қовун пишиғи бор. У Ажинашамол айтган гапларга қатъий амал қилиши керак: «Гапирса ёлғон гапириши керак, ваъда берса сўзида турмаслиги керак, омонатга хиёнат қилиши керак, вассалом!» 108-каналнинг шу кунги кўрсатуви Шайтонвачча учун бамисоли бир дарс бўлди. Ўзича хаёл суриб ўтириб кўпгина режалар тузди. Режаларки... ваҳ... ваҳ... Одамлар олами эмас, ҳатто шайтонлар олами эшитса ҳам ларзага келиб, шайтонлаб қолишади.

## ДАДАМИРЗА – ТАҚВОДОР

*(ёки Шайтонваччага йўқ жойдан янги муаммонинг пайдо бўлгани)*

Дадамирза Шайтонваччанинг айтганини қилиб масжидга борди-ю, бирдан мола босган шудгордек майин тортиб қолди. У учун гўё бошқа бир дунёнинг эшиклари очилган, шунгами, Қозимирза укасига бошқачароқ қарайдиган бўлиб қолган эди.

– Илгари хўп боши берк кўчаларда адашиб юр-

lagʻmon osmanglar, deyishiga oz qoldi. Uning nomidan toʻqilayotgan yolgʻon-yashiqlarga chiday olmadi. Ajinashamolni chaqirib, hammasini tirqiratmoqchi boʻldi. Nimaga axir bu Odam bolalari hadeb qorongʻiga qarab tosh otaveradi. Axir, ularning bittasi eleksirni boplab reklama qilib oldi-ku. Shu bilan eleksirning narxi osmon-u falakka chiqib ketdi hisob. Unisi boʻlsa chol va kampirni bahona qilib oʻz hisob raqamiga pul yogʻdirib oldi.

Shaytonvachcha oʻylab qarasa, Odam bolalari oldida uning nayranglari hech gap emas ekan. Qoʻlidan hali hech narsa kelmas ekan. Shu paytgacha nimaga erishgan boʻlsa, bariga Ajinashamolning yordamida erishibdi. «Dumi tuguklar» madrasasida mana men degan shaytonlar Odam bolalarining oldiga tushib yuradi, dumbul-tentaklari itning orqa oyogʻiga oʻxshab orqasida yuradi, deyishardi. Tan olishi kerak: u itning orqa oyogʻi. Odamlarning oldiga tushishiga hali koʻp qovun pishigʻi bor. U Ajinashamol aytgan gaplarga qatʻiy amal qilishi kerak: «Gapirsa yolgʻon gapirishi kerak, vaʼda bersa soʻzida turmasligi kerak, omonatga xiyonat qilishi kerak, vassalom!» 108-kanalning shu kungi koʻrsatuvi Shaytonvachcha uchun bamisoli bir dars boʻldi. Oʻzicha xayol surib, oʻtirib koʻpgina rejalar tuzdi. Rejalarki... vah... vah... Odamlar olami emas, hatto shaytonlar olami eshitsa ham larzaga kelib, shaytonlab qolishadi.

## DADAMIRZA – TAQVODOR

*(yoki Shaytonvachchaga yoʻq joydan yangi muammo-  
ning paydo boʻlgani)*

Dadamirza Shaytonvachchaning aytganini qilib masjidga bordi-yu, birdan mola bosgan shudgordek mayin tortib qoldi. U uchun goʻyo boshqa bir dunyoning eshiklari ochilgan, shungami, Qozimirza ukasiga boshqacharoq qaraydigan boʻlib qolgan edi.

ган эканман-да, Қозимирза ука, – деди у бир куни астойдил афсус ва надоматлар чекиб. – Қаранг, ҳалол ишласа ҳам Худо берар экан-у, мен бўлсам електрдан уриб, сувдан уриб, солиқ тўламай, бунинг устига анави ароқ исқотини ишлаб чиқариб, ўз ризқимни ўзим қий-и-и-и-б юрган эканман-а. Худога шукр, кўзимни очиб қўйдингиз. Аммо-лекин 108-каналнинг тунов кунги кўрсатуви «Тақво»миз учун зўр реклама бўлди-да!

– Ана шу-да, – деди Шайтонвачча Дадамирзани сал босиб қўймоқчи бўлиб, – муваффақиятни Худо-данмас, рекламадан кўряпсиз. У рекламаси учун ўзларидан қуртдек қилиб санаб олди-ку, яширмай қўяқолинг. Уша кунги кўрсатувдан битта мақсад шу эди. У ёқда элекфир фирмасининг ҳам тинкасини қуритишди. Ахир, энди бу фирма ўз молини Америка ёки Японияга эмас, кимсан – ўзга сайёрага экспорт қилади-я. Ҳе, ўйнаб қўйдим бунақа лўттивозликка. Кўзингизни очинг, кўп лақма бўлманг, Дадамирза ака.

– Э, буларни сиз қаердан биласиз, Қозимирза ука?

– Бизда ахборот яхши ишлайди, ака.

– Бошқаларни билмадим-у, аммо мен берганимга розиман, ука, ўша кўрсатувдан кейин хўрандаларнинг кети узилмай қолди. Ошпазларнинг қўли-қўлига тегмайди, денг. Официантлар югур-югур қилиб чарчаб қоляпти. Сизга ёқмаса ҳам ўша каналнинг киши билмас ҳомийси бўлиб олдим, ха.

Шайтонваччанинг пешанаси тиришди. Бу одамга нима бўлди ўзи? Масжидга қатнай бошлади-ю, мутлақо ўзгариб қолди. Масжиднинг имоми зўрга ўхшайди, шу кулфи дилини очвордиёв.

– Мен бир иш қиляпман, Қозимирза ука, эшитсангиз хурсанд бўласиз, – деди Дадамирза суюнчилаб. – Шу десангиз, ҳар ўнта хўранданинг бит-тасидан ҳақ олмаяпман. Дехқонлар ҳам ҳосилнинг ҳар ўн килосидан бир кило ушр берар экан-ку, бизам ўшанга ўхшатмоқчимиз, қалай, маъқулми?

– Устозларимиз айтишарди, – деди Шайтонвачча

– Ilgari xo‘p boshi berk ko‘chalarda adashib yurgan ekanman-da, Qozimirza uka, – dedi u bir kuni astoydil afsus va nadomatlar chekib. – Qarang, halol ishlasa ham Xudo berar ekan-u, men bo‘lsam elektrdan urib, suvdan urib, soliq to‘lamay, buning ustiga anavi aroq isqotini ishlab chiqarib, o‘z rizqimni o‘zim qiy-i-i-i-b yurgan ekanman-a. Xudoga shukr, ko‘zimni ochib qo‘ydingiz. Ammo-lekin 108-kanalning tunov kungi ko‘rsatuvi «Taqvo»miz uchun zo‘r reklama bo‘ldi-da!

– Ana shu-da, – dedi Shaytonvachcha Dadamirzani sal bosib qo‘ymoqchi bo‘lib, – muvaffaqiyatni Xudodanmas, reklamadan ko‘ryapsiz. U reklamasi uchun o‘zlaridan qurtdek qilib sanab oldi-ku, yashirmay qo‘yaqoling. O‘sha kungi ko‘rsatuvdan bitta maqsad shu edi. U yoqda eleksir firmasining ham tinkasini quritishdi. Axir, endi bu firma o‘z molini Amerika yoki Yaponiyaga emas, kimsan – o‘zga sayyoraga eksport qiladi-ya. He, o‘ynab qo‘ydim bunaqa lo‘ttivozlikka. Ko‘zingizni oching, ko‘p laqma bo‘lmang, Dadamirza aka.

– E, bularni siz qayerdan bilasiz, Qozimirza uka?

– Bizda axborot yaxshi ishlaydi, aka.

– Boshqalarni bilmadim-u, ammo men berganimga roziman, uka, o‘sha ko‘rsatuvdan keyin xo‘randalarning keti uzulmay qoldi. Oshpazlarning qo‘li-qo‘liga tegmaydi, deng. Ofitsiantlar yugur-yugur qilib charchab qolyapti. Sizga yoqmasa ham o‘sha kanalning kishi bilmas homiysi bo‘lib oldim, ha.

Shaytonvachchanning peshanasi tirishdi. Bu odamga nima bo‘ldi o‘zi? Masjidga qatnay boshladi-yu, mutlaqo o‘zgarib qoldi. Masjidning imomi zo‘rga o‘xshaydi, shu qulfi dilini ochvordiyov.

– Men bir ish qilyapman, Qozimirza uka, eshit-sangiz xursand bo‘lasiz, – dedi Dadamirza suyunchilab. – Shu desangiz, har o‘nta xo‘randaning bittasidan haq olmayapman. Dehqonlar ham hosilning har o‘n kilosidan bir kilo ushr berar ekan-ku, bizam o‘shanga o‘xshatmoqchimiz, qalay, ma’qulmi?

ғижиниб, – қозикнинг учи бўлма, ерга кирасан, кети бўлма, тўкмоқ ейсан, ўртаси бўл, узоқ яшайсан, деб. Жа қозикнинг учи бўлиб кетмаяпсизми, Дадамирза ака? Билиб қўйинг, сув ҳам қаттиқ жойда тўхтайди. Ҳали ҳомий дейсиз, ҳали ушр дейсиз-у, бизнинг улушимиз ҳақида оғиз очмайсиз. Тинчликми, ака?

– Э, нималар деяпсиз, бекники бежоғлик, ука, ҳар кунги даромаддан ўтказиб турибман, хотирингиз жам бўлсин, сизни билмасам кўр бўларман.

Бу жавобдан Шайтонвачча хотиржам тортди ва ўйлаб қўйган режаларига йўл очмоқчи бўлди:

– Сиз билан катта-катта ишлар қилишга ваъдалашган эдик, шу... катта ишлар катта-катта самоялар талаб қилади-да, Дадамирза ака.

– Э, ука, шу топганимизнинг ўзи ҳам етиб турибди-ку, нима қиламиз ўн қўлни оғизга тиқиб?

– Аллоҳ таоло бир водий савобнинг ёнига яна бир водий савоб бераман деб турса-ю, йўқ дейсизми? – тепадан келди Шайтонвачча.

– Йўғ-а, савоб ишга бўлса, жон дейман. Беш вақт намозга киргандан бери савоб ҳақида ётсам ҳам, турсам ҳам ўйлайдиган бўлиб қолганман, у ёғини сўрасангиз. Имом домламиз нуқул бойлик бу – фитна, дейдилар. Қаранг-а, шу пайтгача мен бойликни одамзотнинг жони, деб юрарканман. Энг ёмони – бойлик одамни ибодатдан чалғитар экан...

Шайтонвачча тишининг орасидан кулиб, деди:

– Имом домлага ўша айтган «фитна»дан узатиб кўрмадингизми?

– Э, у киши барака топсин, сизга ўхшаб катта олим. Одамнинг дилидагини билиб турадилар. Ийиб кетиб, қўлим чўнтагимга борганини ўзим ҳам билмай қоламан.

– Оладими, ишқилиб?

– Олганда қандоқ. «Тақво»нинг пулидан тақво қилмайман, дейди. Аммо дуони ҳам болахонадор қилиб боплайди. Эшитиб кўринг-а, нима дейди: «Бирингизга минг берсин, мен фақирни йўқлабсиз, сизни Худо йўқласин. Қўли очикнинг йўли очик

– Ustozlarimiz aytishardi, – dedi Shaytonvachcha g‘ijinib, – qoziqning uchi bo‘lma, yerga kirasan, keti bo‘lma, to‘qmoq eysan, o‘rtasi bo‘l, uzoq yashaysan, deb. Ja qoziqning uchi bo‘lib ketmayapsizmi, Dadamirza aka? Bilib qo‘ying, suv ham qattiq joyda to‘xtaydi. Hali homiy deysiz, hali ushr deysiz-u, bizning ulushimiz haqida og‘iz ochmaysiz. Tinchlikmi, aka?

– E, nimalar deyapsiz, bekniki bejog‘lik, uka, har kungi daromaddan o‘tkazib turibman, xotiringiz jam bo‘lsin, sizni bilmasam ko‘r bo‘larman.

Bu javobdan Shaytonvachcha xotirjam tortdi va o‘ylab qo‘ygan rejalariga yo‘l ochmoqchi bo‘ldi:

– Siz bilan katta-katta ishlar qilishga va‘dalashgan edik, shu... katta ishlar katta-katta sarmoyalar talab qiladi-da, Dadamirza aka.

– E, uka, shu topganimizning o‘zi ham yetib turibdi-ku, nima qilamiz o‘n qo‘lni og‘izga tiqib?

– Alloh taolo bir vodiy savobning yoniga yana bir vodiy savob beraman deb tursa-yu, yo‘q deysizmi? – tepadan keldi Shaytonvachcha.

– Yo‘g‘-a, savob ishga bo‘lsa, jon deyman. Besh vaqt namozga kirgandan beri savob haqida yotsam ham, tursam ham o‘ylaydigan bo‘lib qolganman, u yog‘ini so‘rasangiz. Imom domlamiz nuqul boylik bu – fitna, deydilar. Qarang-a, shu paytgacha men boylikni odamzotning joni, deb yurarkanman. Eng yomoni – boylik odamni ibodatdan chalg‘itar ekan...

Shaytonvachcha tishining orasidan kulib, dedi:

– Imom domlaga o‘sha aytgan «fitna»dan uzatib ko‘rmadingizmi?

– E, u kishi baraka topsin, sizga o‘xshab katta olim. Odamning dilidagini bilib turadilar. Iyib ketib, qo‘lim cho‘ntagimga borganini o‘zim ham bilmay qolaman.

– Oladimi, ishqilib?

– Olganda qandoq. «Taqvo»ning pulidan taqvo qilmayman, deydi. Ammo duoni ham bolaxonador qilib boplaydi. Eshitib ko‘ring-a, nima deydi: «Biringizga ming bersin, men faqirni yo‘qlabsiz, sizni Xudo yo‘q-

бўлади. Ҳақ таоло насибамизни бир-биримизнинг кўлимизга сочиб қўйган. Берган кўлни Худо яхши кўради» ва ҳоказо шунга ўхшаган тилаклар...

– Битта сиздан олса қанийди, маҳаллада ҳар куни битта, иккита тўй бўлади, битта, иккита ўлик чиқади, уларданам олади, сиз билмайсиз, мен уйда ўтириб ҳам билиб ўтираман.

– Шундай дейсиз-у, ука, олувчи қўл бўлмаса берувчи қўл ҳам бўлмай қолар экан-да.

– Ҳа, ўлманг, ана энди ўзингизга келдингиз. Берувчи қўл мингта-ю, олувчи қўл битта бўлсаям ёмон-да. Маҳаллада бер, деб қўлини чўзиб турган фақирлар йўқми? Имом домла менгамас, ўшаларга беринглар, деса асакаси кетадими? Қўйиб берса ўшаларданам олади. Бунақаларни ғирт дўзахи деяверинг.

– Йўғ-е, жудаям қаҳрингиз қаттиқ-да, Қозимирза ука.

– Бу менинг гапиммас, ҳазрати Райғамбаримизнинг гаплари. Илмига амал қилмаган олимлар юзи билан дўзахга улоқтирилади, деганлар

Дадамирза иқтидо қилиб намоз ўқийдиган имом домласи ҳақида ўйлаб қолди. Дарҳақиқат, домласи тушмагур пулдан ҳам, тугундан ҳам қайтмайди. Маҳалладаги бой одамлар билан бошқачасига сўрашиб кўяди. Одам ажратади. Дадамирза билан ку оғиз-бурун ўпишади. Узоқдан кўриши билан саллали боши орқага кетиб, қўллари икки ёнга ёзилади: «Марҳабо, марҳабо, қадамларига ҳасанот, акахоним...» У шундай деб Дадамирзанинг масжидга қатнаётганлигидан хурсандлигини билдиради. Дадамирза бир куни имом домлани азза-базза ошхонасига меҳмонга таклиф қилди. «Келинг, қўйинг, – деди у кулиб, – оч қорним – тинч кулоғим, деган экан машойихлар. Уйга келгандан кейин таомларнинг хиди оғиздан бурқираб, сир очилиб, нақ кеннойингиз тескари қараб олмасин тағин». Бу гапга икковлари ҳам маза қилиб кулишди. Дадамирза имом домланинг нимага шаъма қилаётганини англаб етди. Шу куниёк



lasin. Qo‘li ochiqning yo‘li ochiq bo‘ladi. Haq taolo nasibamizni bir-birimizning qo‘limizga sochib qo‘ygan. Bergan qo‘lni Xudo yaxshi ko‘radi» va hokazo shunga o‘xshagan tilaklar...

– Bitta sizdan olsa qaniydi, mahallada har kuni bit-ta, ikkita to‘y bo‘ladi, bitta, ikkita o‘lik chiqadi, ular-danam oladi, siz bilmaysiz, men uyda o‘tirib ham bilib o‘tiramani.

– Shunday deysiz-u, uka, oluvchi qo‘l bo‘lmasa be-ruvchi qo‘l ham bo‘lmay qolar ekan-da.

– Ha, o‘lmang, ana endi o‘zingizga keldingiz. Be-ruvchi qo‘l mingta-yu, oluvchi qo‘l bitta bo‘lsayam yomon-da. Mahallada ber, deb qo‘lni cho‘zib turgan faqirlar yo‘qmi? Imom domla mengamas, o‘shalarga beringlar, desa asakasi ketadimi? Qo‘yib bersa o‘sha-lardanam oladi. Bunaqalarni g‘irt do‘zaxi deyavering.

– Yo‘g‘-e, judayam qahringiz qattiq-da, Qozimirza uka.

– Bu mening gapimmas, hazrati Payg‘ambarimiz-ning gaplari. Ilmiga amal qilmagan olimlar yuzi bilan do‘zaxga uloqtiriladi, deganlar

Dadamirza iqtido qilib namoz o‘qiydigan imom domlasi haqida o‘ylab qoldi. Darhaqiqat, domla-si tushmagur puldan ham, tugundan ham qaytmaydi. Mahalladagi boy odamlar bilan boshqachasiga so‘rashib qo‘yadi. Odam ajratadi. Dadamirza bilan-ku og‘iz-burun o‘pishadi. Uzoqdan ko‘rishi bilan sallali boshi orqaga ketib, qo‘llari ikki yonga yoziladi: «Marhabo, marhabo, qadamlariga hasanot, akaxonim...» U shun-day deb Dadamirzaning masjidga qatnayotganligidan xursandligini bildiradi. Dadamirza bir kuni imom dom-lani azza-bazza oshxonasiga mehmonga taklif qildi. «Keling, qo‘ying, – dedi u kulib, – och qornim – tinch qulog‘im, degan ekan mashoyixlar. Uyga kelgandan keyin taomlarning hidi og‘izdan burqirab, sir ochilib, naq kennoyingiz teskari qarab olmasin tag‘in». Bu gapga ikkovlari ham maza qilib kulishdi. Dadamirza imom domlaning nimaga sha‘ma qilayotganini anglab

«Уйга хизмат» машинасида овқатларнинг гулидан жўнатиб юборди. Жума хутбасида Дадамирзанинг номи ҳам эҳсончилар қаторида зикр қилиниб ўтди. Шундан кейин «Уйга хизмат» машинаси ҳар куни бир марта имом домланикига шўнғиб ўтадиган бўлди. Бу гаплардан, албатта, Қозимирзанинг хабари йўқ. Лекин Қозимирза тушмагур ер тагида илон қимирласа билади. Мафияга аралашиб қолган бўлса ҳам бориб турган авлиё. Балки мафиёзлар уни авлиёлиги учун ҳам ўзлари билан олиб юришар-а?

Шайтонвачча Дадамирзанинг хомуш тортиб қолганини кўриб, сал бўлсаям имом домладан ҳафсаласи пир бўлганини пайқади. Дадамирзага ўхшаганларда тутуриқ бўлмайди ўзи. Бир нарсага киришса бор-йўғини унутиб, ўшанга боши билан шўнғийди. Кўнгли қоладиган бўлса, шу заҳоти кўл силтаб ҳам кетаверади. Аслида Дадамирзани Шайтонвачча шунчаки, номигагина ибодатга даъват қилган эди. У бўлса имом домланинг этагига ёпишди-олди. Й-ў-ў-ў-қ, бунақаси кетмайди.

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

*(ёки шайтонлар олами баттар саросимада)*

Йиғилиш янги Ахбаротчининг ташаббуси билан бошланди. У олдингисига қараганда анча куйди-пишди чиқиб қолди. Янги супурги яхши супурадида. Албатта, у ҳам шохдор раисга пахта кўйишни ўйлайди. Бусиз илож йўқ. Раис ҳам унинг гап-сўзларига беътибор эмас. Дикқат билан эшитиб ўтирибди. Гап «Такво» ошхонаси ҳақида борарди.

– Ошхонадаги аҳвол чаток, – деди Ахбаротчи хавотир билан, – Дадамирзани таниб бўлмай қолди. Ароқ ишлаб чиқаришни тўхтатди. Кутилмаганда намозхон бўлиб қолди. Шундан кейин ошхонадаги овқатларга барака кириб кетди. Бизнинг дастурхонимиздан барака кетди. Мижозлари кундан-кунга кўпайиб ётибди. Аммо бундан бизга нима

yetdi. Shu kuniyoq «Uyga xizmat» mashinasida ovqatlarning gulidan joʻnatib yubordi. Juma xutbasida Dadamirzaning nomi ham ehsonchilar qatorida zikr qilinib oʻtdi. Shundan keyin «Uyga xizmat» mashinasi har kuni bir marta imom domlanikiga shoʻngʻib oʻtadigan boʻldi. Bu gaplardan, albatta, Qozimirzaning xabari yoʻq. Lekin Qozimirza tushmagur yer tagida ilon qimirlasa biladi. Mafiyaga aralashib qolgan boʻlsa ham borib turgan avliyo. Balki mafiyozlar uni avliyoligi uchun ham oʻzlari bilan olib yurishar-a?

Shaytonvachcha Dadamirzaning xomush tortib qolganini koʻrib, sal boʻlsayam imom domladan hafsalasi pir boʻlganini payqadi. Dadamirzaga oʻxshaganlarda tuturiq boʻlmaydi oʻzi. Bir narsaga kirishsa bor-yoʻgʻini unutib, oʻshanga boshi bilan shoʻngʻiydi. Koʻngli qoladigan boʻlsa, shu zahoti qoʻl siltab ham ketaveradi. Aslida Dadamirzani Shaytonvachcha shunchaki, nomi-gagina ibodatga daʼvat qilgan edi. U boʻlsa imom domlaning etagiga yopishdi-oldi. Y-oʻ-oʻ-oʻ-q, bunaqasi ketmaydi.

## HAYʼAT YIGʻILISHI

*(yoki shaytonlar olami battar sarosimada)*

Yigʻilish yangi Axbarotchining tashabbusi bilan boshlandi. U oldingisiga qaraganda ancha kuydi-pishdi chiqib qoldi. Yangi supurgi yaxshi supuradi-da. Albatta, u ham shoxdor raisga paxta qoʻyishni oʻylaydi. Busiz iloj yoʻq. Rais ham uning gap-soʻzlariga beeʼtibor emas. Diqqat bilan eshitib oʻtiribdi. Gap «Taqvo» oshxonasi haqida borardi:

– Oshxonadagi ahvol chatoq, – dedi Axbarotchi xavotir bilan, – Dadamirzani tanib boʻlmay qoldi. Aroq ishlab chiqarishni toʻxtatdi. Kutilmaganda namozxon boʻlib qoldi. Shundan keyin oshxonadagi ovqatlarga baraka kirib ketdi. Bizning dasturxonimizdan baraka ketdi. Mijozlari kundan kunga koʻpayib yotibdi.

фойда? «Тақво»дан ақалли бир лукма ҳам насиба келмай кўйди. Дадамирзанинг кечагина биққидек бўлиб юрган шайтони бугун оч арвоҳга ўхшаб қолган. Ҳадемай Дадамирзани ташлаб қочса ҳам керак. Кимдир Дадамирзанинг ёнига кириб олиб бизга қарши ишлаётганга ўхшайди. Лекин мен уни Одамшайтон дейиш фикридан узоқман. Бу мумкин эмас. Чунки ҳазратим айтганларидек, – деб раисга куллуқ қилиб кўйди Ахборотчи, – унинг томирида ўзимизнинг қонимиз оқяпти. Назаримда, Дадамирза каттароқ бир азайимхоннинг домига тушиб қолган. Бирон-бир чорасини кўрмасак бўлмайди. «Тақво» ошхонаси қўлдан чиқиб кетмаслиги керак.

Раис жим тура олмади:

– Маҳалланинг имом домласи эмасмикан ўша азайимхон?

– Йўқ, тақсирим. У кишининг шайтони биққидек семириб, ўзидан кўпайиб юрибди.

– Лекин битта нарсани эсдан чиқариб қўймаслигимиз керак, – Ахборотчининг сўзини бўлди шуъба бошлиқларидан бири, – Одамшайтонимизнинг биздан аламзадалигини яхши биласизлар. Аламзадалик бор жойда қон-қариндошлик ҳақида гап бўлиши мумкин эмас.

Бу билан у Ахборотчининг «қон-қариндошлик» масаласидаги гапини йўққа чиқармоқчи бўлди. Аммо унинг бу гапи ўзига қимматга тушди. Гапирганига минг пушаймон бўлди.

– Шу ўзлари учун янги топшириқ бўлсин, – деди раис унга қараб. – Каллани ишлатинг, «Тақво»ни эски ҳолига қайтаринг, гап тамом, вассалом.

– Хўп бўлади, – деди-ю, бечора шуъба бошлиқининг калласи пастга тушиб кетди. Қўли югурдак ошини ер, тили югурдак бошини, деганлари шу-да.

– Исёнчи жинлар оламида нима гап?– Ахборотчига қаради раис.

– Яхши гап йўқ, ҳазратим, улар шу даражага етишдики, ҳатто шуъба бошлиқини хумга солиб, қамаб қўйишибди.

Ammo bundan bizga nima foyda? «Taqvo»dan aqalli bir luqma ham nasiba kelmay qo‘ydi. Dadamirzaning kechagina biqqidek bo‘lib yurgan shaytoni bugun och arvohga o‘xshab qolgan. Hademay Dadamirzani tashlab qochsa ham kerak. Kimdir Dadamirzaning yoniga kirib olib bizga qarshi ishlayotganga o‘xshaydi. Lekin men uni Odamshayton deyish fikridan uzoqman. Bu mumkin emas. Chunki hazratim aytganlaridek, – deb raisga qulluq qilib qo‘ydi Axborotchi, – uning tomirida o‘zimizning qonimiz oqyapti. Nazarimda, Dadamirza kattaroq bir azayimxonning domiga tushib qolgan. Biron-bir chorasini ko‘rmasak bo‘maydi. «Taqvo» oshxonasi qo‘ldan chiqib ketmasligi kerak.

Rais jim tura olmadi:

– Mahallaning imom domlasi emasmikan o‘sha azayimxon?

– Yo‘q, taqsirim. U kishining shaytoni biqqidek semirib, o‘zidan ko‘payib yuribdi.

– Lekin bitta narsani esdan chiqarib qo‘ymasligimiz kerak, – Axborotchining so‘zini bo‘ldi shu‘ba boshliklaridan biri, – Odamshaytonimizning bizdan alamzadaligini yaxshi bilasizlar. Alamzadalik bor joyda qonqarindoshlik haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Bu bilan u Axborotchining «qon-qarindoshlik» masalasidagi gapini yo‘qqa chiqarmoqchi bo‘ldi. Ammo uning bu gapi o‘ziga qimmatga tushdi. Gapirganiga ming pushaymon bo‘ldi.

– Shu o‘zlari uchun yangi topshiriq bo‘lsin, – dedi rais unga qarab. – Kallani ishlating, «Taqvo»ni eski horiga qaytaring, gap tamom, vassalom.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi-yu, bechora shu‘ba boshlig‘ining kallasi pastga tushib ketdi. Qo‘li yugurdak oshini yer, tili yugurdak boshini, deganlari shu-da.

– Isyonchi jinlar olamida nima gap?– Axborotchiga qaradi rais.

– Yaxshi gap yo‘q, hazratim, ular shu darajaga yetishdiki, hatto shu‘ba boshlig‘ini xumga solib, qamab qo‘yishibdi.

– Ажаб бўпти, баттар бўлсин, у лапашанг, қора мўнди.

– Бирон-бир жиддий чора кўрмасак бўлмайди, хазратим.

– Тўзғитиб юборинглар у тутундан тарқаганларни, – чинқириб юборди раис.

– Бунинг ҳечам иложи йўқ-да, жаноби олийлари, – деди шуъба аъзоларидан бири. – Тўзғитишга келганда Ажинашамолга тенг келадигани йўқ эди. Энди у жинларни ўзига қаратиб, подшо бўлиб олган. Ҳозирги кунда жинлар Ажинашамолга, Ажинашамол бўлса Одамшайтонга бўйсунди.

– Унда ишни Одамшайтондан бошланглар, – зардаси қайнаб кетди раиснинг.

Ўтирганлар бир қалқиб тушди. Наҳотки раис Одамшайтонга қарши иш очмоқчи? Наҳотки вазиятга тушуниб етди? Наҳотки ўз ихтиросига қарши ўзи болта уради? Бошқа иложи ҳам йўқ-да!

– Хўп бўлади, – деб ҳаммалари ўринлардан туриб, қўл қовуштирдилар. Бу ёғи нима бўларкин энди? Ҳаво булут эди, ташқарида ёмғир аралаш қор ёғишни бошлаб юборди...

## 108-КАНАЛ КЕЧИРИМ СЎРАЙДИ

*(ёки Шайтонваччанинг гумонлари тўғри бўлиб чиққани)*

Шайтонвачча 108-каналнинг навбатдаги кўрсатувини томоша қилиб ўтириб, тўсатдан қарсақ чалиб юборди. Олдинги кўрсатувдан кейин Шайтонваччанинг тарвузи қўлтиғидан тушиб, ўзини айблаб юрган эди. Ҳозир бошловчи қиз юрагига шундоқ чироқ ёқиб юбордики, назарида ниҳоят ҳақиқат юзага чиқди. Бошловчи қиз хижолат чекиб дер эди:

– Каналимизнинг азиз томошабинлари, «Тақво» кафеси гулзорида бўлиб ўтган тўғридан-тўғри кўрсатувимиз ёдингизда бўлса керак. Ҳа, ёдингиздан

– Ajab bo‘pti, battar bo‘sin, u lapashang, qora mo‘ndi.

– Biron-bir jiddiy chora ko‘rmasak bo‘lmaydi, hazratim.

– To‘zg‘itib yuboringlar u tutundan tarqaganlarni, – chinqirib yubordi rais.

– Buning hecham iloji yo‘q-da, janobi oliylari, – dedi shu‘ba a‘zolaridan biri. – To‘zg‘itishga kelganda Ajinashamolga teng keladigani yo‘q edi. Endi u jinlarni o‘ziga qaratib, podsho bo‘lib olgan. Hozirgi kunda jinlar Ajinashamolga, Ajinashamol bo‘lsa Odamshaytonga bo‘ysunadi.

– Unda ishni Odamshaytondan boshlanglar, – zardasi qaynab ketdi raisning.

O‘tirganlar bir qalqib tushdi. Nahotki rais Odamshaytonga qarshi ish ochmoqchi? Nahotki vaziyatga tushunib yetdi? Nahotki o‘z ixtirosiga qarshi o‘zi bolta uradi? Boshqa iloji ham yo‘q-da!

– Xo‘p bo‘ladi, – deb hammalari o‘rinlardan turib, qo‘l qovushtirdilar. Bu yog‘i nima bo‘larkin endi? Havo bulut edi, tashqarida yomg‘ir aralash qor yog‘ishni boshlab yubordi...

## 108-KANAL KECHIRIM SO‘RAYDI

*(yoki Shaytonvachchanning gumonlari to‘g‘ri bo‘lib chiqqani)*

Shaytonvachcha 108-kanalning navbatdagi ko‘rsatuvini tomosha qilib o‘tirib, to‘satdan qarsak chalib yubordi. Oldingi ko‘rsatuvdan keyin Shaytonvachchanning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, o‘zini ayblab yurgan edi. Hozir boshlovchi qiz yuragiga shundoq chiroq yoqib yubordiki, nazarida nihoyat haqiqat yuzaga chiqdi. Boshlovchi qiz xijolat chekib der edi:

– Kanalimizning aziz tomoshabinlari, «Taqvo» kafesi gulzorida bo‘lib o‘tgan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatuvimiz yodingizda bo‘lsa kerak. Ha, yodingizdan

чиқиши мумкин эмас! Жуда катта шов-шувга сабаб бўлган эди ўша кўрсатув. Ўшанда мен воқеани шарҳлашга ожизлигимни, мутахассисларнинг фикр ва мулоҳазаларини кутиш кераклигини айтган эдим. Маълум бўлишича, ўша куни ўзларини «Ўзга сайёралик» деб таништирган йигитчалар «Реклама – бизнес» мактабининг талабалари, ака-ука Ҳасан ва Ҳусанлар экан. Сочларини жингалак қилдириб, рол ижро этишган экан. Албатта, улар ўзлари учун зарур бўлган маълумотларни бизнинг каналимиздан олганлар. Ошкоралик қилиб баъзи маълумотларни эфирга оқибатини ўйламай бериб юборган эканмиз. Чол ва кампир воқеаси ҳам тўқима бўлиб чиқди. Ўша кунги ҳисоб рақамига ўтказилган пуллар эгаларига қайтарилди. Сизларни чалғитиб қўйганимиз учун узр сўраймиз. Аммо «Элексир» фирмаси ва «Тақво» кафеси маҳсулотлари чиндан ҳам мақтовга сазовор. Таърифига гап йўқ.

Энди Ҳасан ва Ҳусанлар тақдирига келсак. Нима ҳам дердик? Буни «Реклама – бизнес» маҳорат мактаби деб қўйибдилар. Улар шу чиқишлари учун мактабларида энг юқори балл олишибди. Қандларини урсин. Уларга даъвойимиз йўқ. Бундан буёғига хушёр бўламиз. Энди ўзга саёралик келгиндининг кўриниши, бўй-басти ҳақидаги маълумотларни, суратини эълон қилишни тўхтатамиз. Энди уни бошқача йўл билан қўлга туширамыз. Бизни кузатиб боринг ва биз билан қолинг...

«Воҳ, – деди Шайтонвачча яна чапак чалиб, – овози ҳам ўчар экан-ку бу лаънати каналнинг. Жигарга тушган қурт бўлди-ку у. Ҳе, «малчишка»! Ўғил бола бўлиб ўғил болага ўхшамайди, қиз бола бўлиб қиз болага. Бундоқ хусни тароватига қараб ҳам маза қила олмайсан. Хунаса!» Бу Шайтонваччанинг шайтоний ўйлари эди. Лекин бундоқ одамга ўхшаб ўйласа, бу каналнинг унга зараридан кўра фойдаси кўп тегаётган экан. Ахир, уни шу канал машхур қилиб юборди-ку. Шайтонваччани бошқа сайёралик



chiqishi mumkin emas! Juda katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi o'sha ko'rsatuv. O'shanda men voqeani sharhlashga ojizligimni, mutaxasislarning fikr va mulohazalarini kutish kerakligini aytgan edim. Ma'lum bo'lishicha, o'sha kuni o'zlarini «o'zga sayyoralik» deb tanishtirgan yigitchalar «Reklama – biznes» maktabining talabalari, aka-uka Hasan va Husanlar ekan. Sochlarini jingalak qildirib, rol ijro etishgan ekan. Albatta, ular o'zlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bizning kanalimizdan olganlar. Oshkoralik qilib ba'zi ma'lumotlarni efirga oqibatini o'ylamay berib yuborgan ekanmiz. Chol va kampir voqeasi ham to'qima bo'lib chiqdi. O'sha kungi hisob raqamiga o'tkazilgan pullar egalariga qaytarildi. Sizlarni chalg'itib qo'yganimiz uchun uzr so'raymiz. Ammo «Eleksir» firmasi va «Taqqo» kafesi mahsulotlari chindan ham maqtovga sazovor. Ta'rifiga gap yo'q.

Endi Hasan va Husanlar taqdiriga kelsak. Nima ham derdik? Buni «Reklama – biznes» mahorat maktabi deb qo'yibdilar. Ular shu chiqishlari uchun maktablarida eng yuqori ball olishibdi. Qandlarini ursin. Ularga da'voyimiz yo'q. Bundan bu yog'iga hushyor bo'lamiz. Endi o'zga sayyoralik kelgindining ko'rinishi, bo'y-basti haqidagi ma'lumotlarni, suratini e'lon qilishni to'xtatamiz. Xudo xohlasa, uni boshqacha yo'l bilan qo'lga tushiramiz. Bizni kuzatib boring va biz bilan qoling...

«Voh, – dedi Shaytonvachcha yana chapak chilib, – ovozi ham o'char ekan-ku bu la'nati kanalning. Jigarga tushgan qurt bo'ldi-ku u. He, «malchishka»! O'g'il bola bo'lib o'g'il bolaga o'xshamaydi, qiz bola bo'lib qiz bolaga. Bundoq husni tarovatiga qarab ham maza qila olmaysan. Xunasa!» Bu Shaytonvachchanning shaytoniy o'ylari edi. Lekin bundoq odamga o'xshab o'ylasa, bu kanalning unga zararidan ko'ra foydasi ko'p tegayotgan ekan. Axir, uni shu kanal mashhur qilib yubordi-ku. Shaytonvachchani boshqa sayyora-

деб шу таништирди-ку. Одамларни шу чалғитди-ку. Шайтонвачча ёки Одамшайтон деб таништирса нима бўларди?!

## ИМОМ ДОМЛАГА САЛОМЛАР

*(Шайтонвачча ҳам жамоа намозига чиқади)*

Дадамирзанинг ибодатга муккасидан кетиши Шайтонваччанинг режаларини остин-устин қилиб юборди. Шайтонвачча «али» деса, Дадамирза «бали» дейдиган бўлиб қолди. Баъзан Дадамирза ҳузурига келганда Шайтонвачча нима биландир алаҳсиб қолса, «Қозимирза ука, намоз вақтида фарз-а», – деб жиғига тегадиган одат чиқарди. Шайтонвачча ўз шайтоний режаларини амалга ошириш учун шаҳардаги кўпгина масжидларга кирди, бозорларда бўлди, ҳатто стриптизларгача кириб чиқди. Калласида Одам болаларини васваса қилиб, йўлдан урадиган лаклак режалар пишиб етилди. Минг афсуски, бу режаларнинг амалга ошиши Дадамирза билан боғлиқ. Ҳозирча Дадамирзадан бўлак ҳеч кимга таяна олмайди бу шаҳарда. Дадамирза ўзининг «Тақво» кафеси билан машҳури олам. Шайтовачча нима бўлганда ҳам ўз режаларини шу кафе орқали амалга оширмоқчи. Аммо Дадамирза тўнини тамомила тескари кийиб олган. Ҳамма ишқаллик ана шунда. Шайтонваччанинг иккала боши – одамийси ҳам, шайтонийси ҳам ишламай қолди. Нима қилса ҳам пичоқнинг сопини ўзидан чиқариши керак. Шайтонвачча ўйлай-ўйлай бир йўлини топгандек бўлди. Дадамирза маҳалла имом домласига пирим деб кўл берган. Икки гапнинг бирида «пирим»лаб туради. Қозимирзанинг соясига кўрпача солишлар қолиб кетди. Шу пири муршиди орқали Дадамирзани яна ўзига қаратиб олишга киришди. Бунинг учун масжидга чиқиши, жамоатга қўшилиши керак. Масжидга чиқишдан олдин ўзини яхшилаб тафтиш қилиб олди. Интернет орқали ҳофизи «Қуръон»лар

lik deb shu tanishtirdi-ku. Odamlarni shu chalg'itdi-ku. Shaytonvachcha yoki Odamshayton deb tanishtirsa nima bo'lardi?!

## IMOM DOMLAGA SALOMLAR

*(Shaytonvachcha ham jamoa namoziga chiqadi)*

Dadamirzaning ibodatga mukkasidan ketishi Shaytonvachchaning rejalarini ostin-ustin qilib yubordi. Shaytonvachcha «ali» desa, Dadamirza «bali» dey-digan bo'lib qoldi. Ba'zan Dadamirza huzuriga kel-ganda Shaytonvachcha nima bilandir alahsib qolsa, «Qozimirza uka, namoz vaqtida farz-a», – deb jig'iga tegadigan odat chiqardi. Shaytonvachcha o'z shaytoniy rejalarini amalga oshirish uchun shahardagi ko'pgina masjidlarga kirdi, bozorlarda bo'ldi, hatto striptizlar-gacha kirib chiqdi. Kallasida Odam bolalarini vasva-sa qilib, yo'ldan uradigan lak-lak rejalar pishib yetildi. Ming afsuski, bu rejalarining amalga oshishi Dadamirza bilan bog'liq. Hozircha Dadamirzadan bo'lak hech kimga tayana olmaydi bu shaharda. Dadamirza o'zining «Taqvo» kafesi bilan mashhuri olam. Shaytonvachcha nima bo'lganda ham o'z rejalarini shu kafe orqa-li amalga oshirmoqchi. Ammo Dadamirza to'nini ta-momila teskari kiyib olgan. Hamma ishkallik ana shunda. Shaytonvachchaning ikkala boshi – odamiysi ham, shaytoniysi ham ishlamay qoldi. Nima qil-sa ham pichoqning sopini o'zidan chiqarishi kerak. Shaytonvachcha o'ylay-o'ylay bir yo'lini topgandek bo'ldi. Dadamirza mahalla imom domlasiga pirim deb qo'l bergan. Ikki gapning birida «pirim»lab turadi. Qozimirzaning soyasiga ko'rpacha solishlar qolib ket-di. Shu piri murshidi orqali Dadamirzani yana o'ziga qaratib olishga kirishdi. Buning uchun masjidga chi-qish, jamoatga qo'shilishi kerak. Masjidga chiqishdan oldin o'zini yaxshilab taftish qilib oldi. Internet orqali

сайтларига кириб, зўр-зўр қироатларини эшитди. Бир эшитишдаёқ миясига ўрнашиб қоладиган қобилиятини ишга солди. Имом домла сўраб қолиши мумкин бўлган баъзи саволларга тайёрланиб олди. Кўзгуга қараб, озгина маънос, озгина виқорли, озгина истарали имиджга кирди. Ўша куни жума эди. Қўл телефонига кўнғироқ бўлиб қолди. Дадамирза экан:

– Қозимирза ука, – деди у байрамона кайфиятда, – ўзларига саййид ул-айём муборак бўлсин!

– Аллоҳ барчамизга муборак қилсин, Дадамирза ака.

– Бу жума қайси масжидга отланяптилар?

– Нимагайди?

– Шу десангиз, гап орасида пиримга ўзларини мақтаб қўйган эдим. Бир ўтмайсизми, у киши сизга муштоқлар.

– Менга барибир, унда жумани сизнинг масжидингизда ўқий қоламан, пири калон билан таништириб қўясиз, – деди Шайтонвачча иши ўнгидан келганига кувониб.

Масжидга чиқиб тоға-жиян шундоққина имом домланинг орқасидан жой олишди. Шайтонвачча тахят ул-масжид намозини ўқигач, одоб сақлаб, синиқлик билан ерга қараб ўтирди. Имом домла Дадамирзанинг ўнг тарафида ўтирган хушсурат йигитчани кўриб, Дадамирза билан кўз уриштириб олди. Дадамирза: «Мақтаган жияним шу бўлади», – дегандек бош ирғаб қўйди.

Жума намози ўқиб бўлингач, навбат қироатга келди. Шайтонвачча имом домланинг: «Ўқиб юборинг», – дейишини сезса ҳам, ўзини сезмаганга олиб, соме бўлиб ўтирди. Шу пайт Дадамирза уни шошиб туртган бўлди. Шайтонвачча бундоқ қараса, имом домла тумшуғига микрофонни тутиб турибди. Шайтонвачча гўё бу марҳаматни кутмагандек йўлига довдираган бўлди. Аммо микрофонни имом домланинг қўлидан дадил олди-да, иккиланмай қироатни бошлаб юборди. Ўзларича уни-буни баҳона қилиб дуони кутмай туриб кетаётганлар бу масжидда

hofizi «Qur'on»lar saytlariga kirib, zo'r-zo'r qiroatlarini eshitdi. Bir eshitishdayoq miyasiga o'rtnashib qoladigan qobiliyatini ishga soldi. Imom domla so'rab qolishi mumkin bo'lgan ba'zi savollarga tayyorlanib oldi. Ko'zguga qarab, ozgina ma'yus, ozgina viqorli, ozgina istarali imidjga kirdi. O'sha kuni juma edi. Qo'l telefoniga qo'ng'iroq bo'lib qoldi. Dadamirza ekan:

– Qozimirza uka, – dedi u bayramona kayfiyatda, – o'zlariga sayyid ul-ayyom muborak bo'lsin!

– Alloh barchamizga muborak qilsin, Dadamirza aka.

– Bu juma qaysi masjidga otlanyaptilar?

– Nimagaydi?

– Shu desangiz, gap orasida pirimga o'zlarini maqtab qo'ygan edim. Bir o'tmaysizmi, u kishi sizga mush-toqlar.

– Menga baribir, unda jumani sizning masjidingizda o'qiy qolaman, piri kalon bilan tanishtirib qo'yasiz, – dedi Shaytonvachcha ishi o'ngidan kelganiga quvonib.

Masjidga chiqib tog'a-jiyan shundoqqina imom domlanning orqasidan joy olishdi. Shaytonvachcha taxyatul masjid namozini o'qigach, odob saqlab, siniqlik bilan yerga qarab o'tirdi. Imom domla Dadamirzaning o'ng tarafida o'tirgan xushsurat yigitchani ko'rib, Dadamirza bilan ko'z urishtirib oldi. Dadamirza: «Maqtagan jiyanim shu bo'ladi», – degandek bosh irg'ab qo'ydi.

Juma namozi o'qib bo'lingach, navbat qiroatga keldi. Shaytonvachcha imom domlanning: «O'qib yuboring», – deyishini sezsa ham, o'zini sezmagan-ga olib, some bo'lib o'tirdi. Shu payt Dadamirza uni shoshib turtgan bo'ldi. Shaytonvachcha bundoq qarasa, imom domla tumshug'iga mikrafonni tutib turibdi. Shaytonvachcha go'yo bu marhamatni kutmagandek yo'lga dovdiragan bo'ldi. Ammo mikrafonni imom domlanning qo'lidan dadil oldi-da, ikkilanmay qiroatni boshlab yubordi. O'zlaricha uni-buni bahona qilib duoni kutmay turib ketayotganlar bu masjidda ham bor edi.

хам бор эди. Қироат уларни сеҳрлади-қўйди. Жойларидан қимирлай олмай қолишди. Намозхонлар хайрон-у лол. Овоз ҳам шунақа ёқимли бўладими?! Бунча текис, бунча чиройли, бунча таъсирли, булбули гўё-я! Баъзилар беихтиёр ўринларидан туриб, хофизни қидира бошлашди. Аллоҳнинг каломига қурбат қилганларнинг кўзларида ёш қалқиди. Аммо имом домла меҳробда ерга киргудек бўлиб ўтирарди. Ана савт-у, ана қироат! Бу йигитчанинг қироати олдида уники қовоғарининг гўнғиллашига ўхшаркан.

Дуодан кейин кўпчилик «дув» этиб меҳроб томон оқди. Булбул қорининг қўлини олиб қўйишни хошлашарди. Бу домла имомнинг баттар ғашини келтирди. Аммо сездирмади. Бунчалик бўлишини у кутмаган эди-да.

## РЕЖАЛАР САРИ БИР ҚАДАМ

*(ёки имом домланинг Шайтонваччага қўл бериши)*

Имом домла тоға-жиянга жавоб бермай, ишора билан орқасидан юришга буюрди. Ўзининг хос хонасига олиб кирди. Бир пиёла чой баҳона гурунг бошланиб кетди. Бу шунчаки гурунгдан кўра бир-бирларини чиғириқдан ўтказишга ўхшарди. Ҳа, синалмаган отнинг сиртидан ўтма, деганлар.

– Устозлари ким бўладилар, биз таниймизми? – сўраб қолди имом домла Шайтонваччадан.

– Танийсиз, – деди Шайтонвачча дадил. – Устозимиз Қуръони шаън ҳамда ҳазрати Пайғамбаримизнинг ҳадислари.

Имом домла ўзини орқага ташлаб муғамбирона кулди. Лекин жавобдан бағоят таъсирланди.

– Жаноблари юз карра ҳақлар, мусулмон учун Қуръон ва ҳадисдан зўр устоз йўқ бу дунёда.

Шайтонвачча гапининг давомини ҳам мустаҳкамлаб қўйди:

– Тоғамизнинг раҳнамолигида олдин Мисрда, кейин Бобилда ўқиб қайтдик.

Qiroat ularni sehrladi-qo‘ydi. Joylaridan qimirlay olmay qolishdi. Namozxonlar hayron-u lol. Ovoz ham shunaqa yoqimli bo‘ladimi?! Buncha tekis, buncha chiroyli, buncha ta’sirli, bulbuli go‘yo-ya! Ba’zilar beixtiyor o‘rinlaridan turib, hofizni qidira boshlashdi. Allohning kalomiga qurbat qilganlarning ko‘zlarida yosh qalqidi. Ammo imom domla mehrobda yerga kirgudek bo‘lib o‘tirardi. Ana savt-u, ana qiroat! Bu yigitchaning qiroati oldida uniki qovog‘arining g‘o‘ng‘illashiga o‘xsharkan.

Duodan keyin ko‘pchilik «duv» etib mehrob tomon oqdi. Bulbul qorining qo‘lini olib qo‘yishni xohlashardi. Bu domla imomning battar g‘ashini keltirdi. Ammo sezdi. Bunchalik bo‘lishini u kutmagan edi-da.

## REJALAR SARI BIR QADAM

*(yoki imom domlaning Shaytonvachchaga qo‘l berishi)*

Imom domla tog‘a-jiyanga javob bermay, ishora bilan orqasidan yurishga buyurdi. O‘zining xos xonasiga olib kirdi. Bir piyola choy bahona gurung boshlanib ketdi. Bu shunchaki gurungdan ko‘ra bir-birlarini chig‘iriqdan o‘tkazishga o‘xshardi. Ha, sinalmagan otning sirtidan o‘tma, deganlar.

– Ustozlari kim bo‘ladilar, biz taniymizmi? – so‘rab qoldi imom domla Shaytonvachchadan.

– Taniysiz, – dedi Shaytonvachcha dadil. – Ustozimiz Qur‘oni sha‘n hamda hazrati Payg‘ambarimizning hadislari.

Imom domla o‘zini orqaga tashlab mug‘ambirona kuldi. Lekin javobdan bag‘oyat ta’sirlandi.

– Janoblari yuz karra haqlar, musulmon uchun Qur‘on va hadisdan zo‘r ustoz yo‘q bu dunyoda.

Shaytonvachcha gapining davomini ham mustahkamlab qo‘ydi:

– Tog‘amizning rahnamoligida oldin Misrda, keyin Bobilda o‘qib qaytdik.

Шайтонвачча Миср ҳақида ҳеч нарса билмаса ҳам, Бобил ҳақида яхшигина маълумотга эга эди. «Думи тугуклар» мадрасасидаги устозларининг кўпчилиги малакасини ошириш учун Бобилга боришар, қайтиб келгач, талабаларга макр-ҳийла, сеҳр-у жодулардан дарс беришарди. Уларни ўзлаштира олмай бечора шайтонваччаларнинг калласи ёрилай дерди.

– Дарвоқе, – деди имом домла, – Бобил дедин-гизми? Бу ном менга ниманидир эслатяпти-ю, эслол-маяпман, шу...

Шайтонвачча имом домланинг билиб туриб уни синамоқчи бўлаётганини дарров тушунди.

– Ҳозир эсингизга соламан, – деди Шайтонвачча ўзини соддаларча тутиб. – Бобил Аллоҳнинг фа-ришталари Ҳорут билан Морут тушган шаҳар. Бу воқеа Сулаймон алайҳиссалом даврларида бўлган. Сулаймон алайҳиссалом ҳам, Пайғамбар ҳам ер юзи-нинг подшоси эдилар. Ҳайвонлар тилини билардилар. Жинлар билан гаплашардилар. Уларни оғир-оғир ишларни қилишга мажбур қилардилар. Одамлар иймон келтириб, мусулмон бўлиб, Сулаймон алай-хиссаломга эргашар эдилар. Аммо шундайлари ҳам бор эдики, у кишининг мўжизаларига ишонмас, шунчаки сеҳр-жоду қияпти, Сулаймон бориб турган сеҳргар, деб ғийбат қилишарди. Барча мўжизалар Аллоҳдан бўлиб, сеҳр ва жоду бандаларига хослигини улар билишмасди, билишни ҳам исташмасди...

Сухбат шу ерга келганда хонага бир киши кириб, имом домлага мурожаат қилиб қолди:

– Таксир, меҳмон шу ердаликларида бир идея туғилиб қолувди. Шунга шошиб кирганим, узр, сух-батингизни бўлдим, лекин зўр идея!

– Ҳўш?

– Боя қироат қилганларида компьютерга ёзиб олган эдим. Жуда чиройли чикди.

Шайтонвачча ичида кулиб кўйди: «Вой ўқимаган-ей, қироатни компьютердан кўчириб айтганимдан кейин компьютерга тушади-да, саводсиз».



Shaytonvachcha Misr haqida hech narsa bilmasa ham, Bobil haqida yaxshigina ma'lumotga ega edi. «Dumi tuguklar» madrasasidagi ustozlarining ko'pchiligi malakasini oshirish uchun Bobilga borishar, qaytib kelgach, talabalarga makr-hiyla, sehr-u jodular-dan dars berishardi. Ularni o'zlashtira olmay bechora shaytonvachchalarning kallasi yorilay derdi.

– Darvoqe, – dedi imom domla, – Bobil dedingizmi? Bu nom menga nimanidir eslatyapti-yu, eslolmayapman, shu...

Shaytonvachcha imom domlaning bilib turib uni sinamoqchi bo'layotganini darrov tushundi.

– Hozir esingizga solaman, – dedi Shaytonvachcha o'zini soddalarcha tutib. – Bobil Allohning farishtalari Horut bilan Morut tushgan shahar. Bu voqea Sulaymon alayhissalom davrlarida bo'lgan. Sulaymon alayhissalom ham, Payg'ambar ham yer yuzining podshosi edilar. Hayvonlar tilini bilardilar. Jinlar bilan gaplashardilar. Ularni og'ir-og'ir ishlarni qilishga majbur qilardilar. Odamlar iymon keltirib, musulmon bo'lib, Sulaymon alayhissalomga ergashar edilar. Ammo shundaylari ham bor ediki, u kishining mo'jizalariga ishonmas, shunchaki sehr-jodu qilyapti, Sulaymon borib turgan sehr-gar, deb g'iybat qilishardi. Barcha mo'jizalar Alloh-dan bo'lib, sehr va jodu bandalariga xosligini ular bilishmasdi, bilishni ham istashmasdi...

Suhbat shu yerga kelganda xonaga bir kishi kirib, imom domlaga murojaat qilib qoldi:

– Taqsir, mehmon shu yerdaliklarida bir ideya tug'ilib qoluvdi. Shunga shoshib kirganim, uzr, suhbat-ingizni bo'ldim, lekin zo'r ideya!

– Xo'sh?

– Boya qiroat qilganlarida kompyuterga yozib olgan edim. Juda chiroyli chiqdi.

Shaytonvachcha ichida kulib qo'ydi: «Voy o'qimagan-ey, qiroatni kompyuterdan ko'chirib aytganim-dan keyin kompyuterga tushadi-da, savodsiz».

– Мақсадга ўтинг, – деди имом домла сал жаҳли чиқиб.

– Намозхонлар ҳозирок дискка кўчириб беринг, канча бўлса ҳам сотиб оламиз, ҳофизнинг овози ширали экан, дейишяпти. Ҳофиз укамиз билан шартнома тузиб, бизнес қилсак, нима деркинлар?

– Узр, – деди имом домла Шайтонваччага юзланиб, – исмингиз Қозимирзамиди, ҳа, Қозимирза ука, масжидимизда овоз ёзиш студиясини очганмиз, бу кишим ўшанинг бошлиғи. Таклифига нима дейсиз?

Шайтонваччанинг шайтоний нафси бирдан ҳакалак отди. Бу ёқдан ҳам битта даромад эшиги очилиб қолди-ку. Қандоқ яхши! Нима десин? Хўп десинми? Қараса, Дадамирзанинг ҳам кўзлари ўйнаб турибди: «Хўп деяверинг».

– Касетанинг номини ҳам ўйлаб кўйдим: «Булбул қори!» Қалай, зўрми? – деди студия бошлиғи таклифи амалга ошишига кўзи етиб.

«Нафақат бизнес, шон-шуҳрат-чи, – ўзича ўйлади Шайтонвачча. – Бозор-у масжид, маҳалла-ю чойхоналарда унинг овози янграб туради». Студиянинг бошлиғи шартнома қоғозларини ҳам тахт қилиб кирган экан. Тепасида: «Мана шу ерига имзо чексалар бўлди, даромад элликка – эллик», – деб турибди. Дадамирза ҳам, имом домла ҳам унга: «Хўп деяверинг, сиздан нима, карнайчидан битта пуф», – дегандек илжайиб туришарди. Нақдина даромадни эшитгандан кейин имом домла ҳам ҳалидан бери юрагининг бир чеккасида ғимирлаётган ҳасадни нари суриб кўйди.

– Йўк, – деди Шайтонвачча бирдан ўзгариб, – унинг учун менинг қорилик лицензиям бўлиши керак.

– Э, нима деяпсиз, Қозимирза ука, Мисрда ўқиган хужжатингиз ҳар қандай лицензиядан ўтаверсин, хўп деяверинг, қўлни ташланг, – деди имом домла мол бозоридаги даллолга ўхшаб.

– Maqsadga o‘ting, – dedi imom domla sal jahli chiqib.

– Namozxonlar hoziroq diskka ko‘chirib bering, qancha bo‘lsa ham sotib olamiz, hofizning ovozi shirali ekan, deyishyapti. Hofiz ukamiz bilan shartnoma tuzib, biznes qilsak, nima derkinlar?

– Uzr, – dedi imom domla Shaytonvachchaga yuzlanib, – ismingiz Qozimirzamidi, ha, Qozimirza uka, masjidimizda ovoz yozish studiyasini ochganmiz, bu kishim o‘shaning boshlig‘i. Taklifiga nima deysiz?

Shaytonvachchanning shaytoniy nafsi birdan haka-lak otdi. Bu yoqdan ham bitta daromad eshigi ochilib qoldi-ku. Qandoq yaxshi! Nima desin? Xo‘p desinmi? Qarasa, Dadamirzaning ham ko‘zlari o‘ynab turibdi: «Xo‘p deyavering».

– Kasetaning nomini ham o‘ylab qo‘ydim: «Bulbul qori»! Qalay, zo‘rmi? – dedi studiya boshlig‘i taklifi amalga oshishiga ko‘zi yetib.

«Nafaqat biznes, shon-shuhrat-chi, – o‘zicha o‘yladi Shaytonvachcha. – Bozor-u masjid, mahalla-yu choyxonalarda uning ovozi yangrab turadi». Studiyaning boshlig‘i shartnoma qog‘ozlarini ham taxt qilib kirgan ekan. Tepasida: «Mana shu yeriga imzo cheksalar bo‘ldi, daromad ellikka – ellik», – deb turibdi. Dadamirza ham, imom domla ham unga: «Xo‘p deyavering, sizdan nima, karnaychidan bitta puf», – degandek iljayib turishardi. Naqdina daromadni eshitgandan keyin imom domla ham halidan beri yuragining bir chekkasida g‘imirlayotgan hasadni nari surib qo‘ydi.

– Yo‘q, – dedi Shaytonvachcha birdan o‘zgarib, – uning uchun mening qorilik litsenziyam bo‘lishi kerak.

– E, nima deyapsiz, Qozimirza uka, Misrda o‘qigan hujjatingiz har qanday litsenziyadan o‘taversin, xo‘p deyavering, qo‘lni tashlang, – dedi imom domla mol bozoridagi dallolga o‘xshab.

– Hamma kasofat shundaki, Bobilda hujjatimni

– Ҳамма касофат шундаки, Бобилда хужжатимни ўғирлатиб кўйганман. У ердагилар учига чиққан фирибгар. Дипломим битта фирибгарнинг чўнтагида кетган.

– Овозингизнинг ўзи лицензия-ку, қори ака, – деди студия бошлиғи бўш келмай.

– Гап лицензияда бўлса, уни шес секундда ес қиламиз, сиз шартномага қўл қўяверинг, Қозимирза ука, бир бизнинг масжид ҳам оғизга тушиб, шов-шув бўлиб кетсин, нима дедингиз, Дадамирза ака? – деди имом домла.

– Камина муридингизнинг ҳам нияти шу, пирим, – деб Шайтонваччага каради Дадамирза. – Хўп деяверинг, жиян.

– Мени кечиринглар, – деди Шайтонвачча одоб билан, – Аллоҳнинг каломи билан бизнес қилиш, бошқаларни билмадим-у, менга тўғри келмайди. Менинг каломимни арзон баҳога сотманглар, деган Аллоҳ субаноҳу Таоло.

Бу гапдан кейин ҳозиргина бор барака қилиб, Аллоҳнинг уйини бозор қилиб ўтирган валломатлар бўшанган сигирдек бўлиб қолишди.

– Бўпти, боринг, бир яхши суҳбатнинг белига тепдингиз, – деб студия бошлиғини жеркиб берди имом домла, – савдойингиз пишмади.

– Шундай қилиб, – деб гўё орада ҳеч гап бўлмагандек суҳбатни келган жойидан давом эттириб кетди Шайтонвачча, – Аллоҳ таоло синов учун Ҳорут ва Морутни Бобилга туширди. Улар қандай қилиб эр-хотиннинг орасини бузиш ва яна бошқа сеҳр ва жодуларни билишарди. Мақсад – Аллоҳ томонидан бериладиган мўжиза билан сеҳр ва жодунинг бошқа-бошқа нарса эканлигини англатиш эди. Аммо буни билгани келганларга: «Сеҳр ўргансанг, кофир бўлиб қоласан», – деб айтишарди Ҳорут билан Морут. Баъзилар кофир сўзини эшитишлари билан қўл силтаб, қайтиб кетишарди. Иймони суст, дили бошқа-ю тили бошқалари сеҳр ва жодуни тап тортмай ўрганишарди. Ўша ўрганганларнинг авлодлари ҳали-хануз суяк суриб, Бобилда яшаб келишяпти. Ер

o'g'irlatib qo'yanman. U yerdagilar uchiga chiqqan firibgar. Diplomim bitta firibgarning cho'ntagida ketgan.

– Ovozingizning o'zi litsenziya-ku, qori aka, – dedi studiya boshlig'i bo'sh kelmay.

– Gap litsenziyada bo'lsa, uni shes sekundda yes qilamiz, siz shartnomaga qo'l qo'yavering, Qozimirza uka, bir bizzi masjid ham og'izga tushib, shov-shuv bo'lib ketsin, nima dedingiz, Dadamirza aka? – dedi imom domla.

– Kamina muridingizning ham niyati shu, pirim, – deb Shaytonvachchaga qaradi Dadamirza. – Xo'p deya-vering, jiyan.

– Meni kechiringlar, – dedi Shaytonvachcha odob bilan, – Allohning kalomi bilan biznes qilish, boshqalarni bilmadim-u, menga to'g'ri kelmaydi. Mening kalomimni arzon bahoga sotmanglar, degan Alloh subanohu Taolo.

Bu gapdan keyin hozirgina bor baraka qilib, Allohning uyini bozor qilib o'tirgan vallomatlar bo'shangan sigirdek bo'lib qolishdi.

– Bo'пти, boring, bir yaxshi suhbatning beliga tepdingiz, – deb studiya boshlig'ini jerkib berdi imom domla, – savdoyingiz pishmadi.

– Shunday qilib, – deb go'yo orada hech gap bo'lmagandek suhbatni kelgan joyidan davom ettirib ketdi Shaytonvachcha, – Alloh taolo sinov uchun Horut va Morutni Bobilga tushirdi. Ular qanday qilib er-xotinning orasini buzish va yana boshqa sehr va jodularni bilishardi. Maqsad – Alloh tomonidan beriladigan mo'jiza bilan sehr va joduning boshqa-boshqa narsa ekanligini anglatish edi. Ammo buni bilgani kelganlarga: «Sehr o'rgansang, kofir bo'lib qolasan», – deb aytishardi Horut bilan Morut. Ba'zilar kofir so'zini eshitishlari bilan qo'l siltab, qaytib ketishardi. Iymoni sust, dili boshqa-yu tili boshqalari sehr va joduni tap

юзида яшаётган жин ва шайтонлар тез-тез Бобилга бориб, улардан дарс олиб, малакаларини ошириб қайтишади, – деб охирида рост гапириб юборди Шайтонвачча.

– Ўзлари ҳам Бобилга шу мақсадда ўтганмидилар, а, лаббай? – деб ҳазиллашган бўлди имом домла.

Аммо Шайтонвачча кулмади.

– Сехр ва жоду исломнинг душмани, уни қайтармоқ, унга қарши курашмоқ учун, аввало, унинг илмини билиш керак, тақсирим, ё гапим нотўғрими?

Имом домла хушёр тортди. Бу гурунгда мағлуб бўлганини тан олгандек хўрсиниб, деди:

– Тоғангиз жиянимнинг ақли ўзидан анча олдинда юради, деб бекорга мақтамаган эканлар, – деб имом домла Дадамирзага синчков қараб қўйди. – Ақл ёшда эмас, бошда деганлари шу-да. Мени қаттиқ ҳаяжонга солдингиз, тақсирим.

Шундай деб имом домла ўйланиб қолди. Демак, бу йигитча шу ёшида иссиқ-совуқ қилиш, уни қайтариш йўллари биледи. Унинг бу илмидан қандоқ бўлмасин фойдаланиб қолиш керак. Ҳа, уни қўлдан чиқармаслик зарур. Имом домла бирдан ўтирган жойидан турди-да, Шайтонваччага бош эгиб:

– Рухсатингиз билан сизга қўл берсам-да, бундан бу ёғига хизматингизда бўлсам, тақсирим, – деди қўл қовуштириб.

Шайтонвачча бу аҳволдан бақа бўлиб қолди. Аммо юзлари ёришиб кетди. Бир уринишдаёқ ниятига етганидан ҳайронлар қолди. У имом домлага жамоага бошқа чиқмаслигини, ибодатни уйида қойим қилишини айтди. – Чиқадиган бўлсам, овозимни ёзиб оладиганлар кўпаяди. Бунинг ҳечам кераги йўқ, – деди у.

– Сизни тушундим, – деди имом домла куллуқ қилиб, – зиёратингизга ўзим бориб тураман, иншаа Аллоҳ.

Бундай ноёб овоз ва илм эгасининг кўздан нари бўлиши имом домла учун айти мударо эди. Аммо

tortmay o‘rganishardi. O‘sha o‘rganganlarning avlodlari hali-hanuz suyak surib, Bobilda yashab kelishyapti. Yer yuzida yashayotgan jin va shaytonlar tez-tez Bobilga borib, ulardan dars olib, malakalarini oshirib qaytishadi, – deb oxirida rost gapirib yubordi Shaytonvachcha.

– O‘zlari ham Bobilga shu maqsadda o‘tganmidilar, a, labbay? – deb hazillashgan bo‘ldi imom domla.

Ammo Shaytonvachcha kulmadi.

– Sehr va jodu islomning dushmani, uni qaytarmoq, unga qarshi kurashmoq uchun, avvalo, uning ilmini bilish kerak, taqsirim, yo gapim noto‘g‘rimi?

Imom domla hushyor tortdi. Bu gurungda mag‘lub bo‘lganini tan olgandek xo‘rsinib, dedi:

– Tog‘angiz jiyanimning aqli o‘zidan ancha oldinda yuradi, deb bekorga maqtamagan ekanlar, – deb imom domla Dadamirzaga sinchkov qarab qo‘ydi. – Aql yoshda emas, boshda deganlari shu-da. Meni qattiq hayajonga soldingiz, taqsirim.

Shunday deb imom domla o‘ylanib qoldi. Demak, bu yigitcha shu yoshida issiq-sovuq qilish, uni qaytarish yo‘llarini biladi. Uning bu ilmidan qandoq bo‘lmasin foydalanib qolish kerak. Ha, uni qo‘ldan chiqarmaslik zarur. Imom domla birdan o‘tirgan joyidan turdi-da, Shaytonvachchaga bosh egib:

– Ruxsatingiz bilan sizga qo‘l bersam-da, bundan bu yog‘iga xizmatingizda bo‘lsam, taqsirim, – dedi qo‘l qovushtirib.

Shaytonvachcha bu ahvoldan baqa bo‘lib qoldi. Ammo yuzlari yorishib ketdi. Bir urinishdayoq niyatiga yetganidan hayronlar qoldi. U imom domlaga jamoaga boshqa chiqmasligini, ibodatni uyida qoyim qilishini aytdi. – Chiqadigan bo‘lsam, ovozimni yozib oladiganlar ko‘payadi. Buning hecham keragi yo‘q, – dedi u.

– Sizni tushundim, – dedi imom domla qulluq qilib, – ziyoratingizga o‘zim borib turaman, inshaa Alloh.

Bunday noyob ovoz va ilm egasining ko‘zdan nari bo‘lishi imom domla uchun ayni muddao edi. Ammo

кўнглида бир нима ғимирлаб кўйди-ю, мавриди эмас, бугунга шуниси етар, деб тилини тийди.

## РЕЖА РАҚАМИ БИР

*(ёки пиёнисталарни «сут»дан чиқариш)*

Дадамирзанинг тутинган жияни Қозимирзага меҳри янаям ошиб кетди. Дунёнинг ишларини қаранг. У имом домлага кўл берса-ю, имом домла Қозимирзага кўл берса. Ваҳ... У «Булбул қори» деган шон-шуҳратдан нимага воз кечганини Қозимирзадан сўрай олмади. Аммо ўрни келганда сўраб олишни ўйлаб кўйди. Сўраганда ҳам Шайтонвачча унга тўғриси айтмас эди. Ўша пайтда у биринчи марта ўзининг шайтоний нафсидан устун келди ва шартномага кўл кўймади. Ҳа, каллани ишлатди. У бир-икки кунлик шон-шуҳрат, холос. Кейин одамлар овоз ёзиш студиясинг бошлиғига ўхшаб аҳмоқ эмас. Қори-ю қурролар сон мингта. Машҳур қориларнинг оҳангини ўғирлаб, «Булбул қори» бўлиб олган валломатнинг тагига тезда сув қуйишади. Яна Шайтонвачча имом домланинг нима сабабдан кўл берганини ҳам билди. Юртчилик, қайтариқ, иссиқ-совуқ масаласида имом домлага кўп мурожаат қилиб туришади. Сеҳр ва жодуларни осма укол, ҳапдорилар билан қайтариб бўлмаслигини имом домла билади. У ҳам анойилардан эмас...

Ана шундай чуқур мулоҳазалардан кейин Шайтонвачча Дадамирзани чақириб, навбатдаги масалани кўндаланг кўйди:

– Сиз, Дадамирза ака, имом домлага кўл бергансиз-а?

– Шундай!

– Имом домланинг менга кўл берганини ҳам кўрдингиз?!

– Кўрдим.

– Демак, пирингиз каминага мурид бўлгандан ке-



ko‘nglida bir nima g‘imirlab qo‘ydi-yu, mavridi emas, bugunga shunisi yetar, deb tilini tiydi.

## REJA RAQAMI BIR

*(yoki piyonistalarni «sut»dan chiqarish)*

Dadamirzaning tutingan jiyani Qozimirzaga mehri yanayam oshib ketdi. Dunyoning ishlarini qarang. U imom domlaga qo‘l bersa-yu, imom domla Qozimirzaga qo‘l bersa. Vah... U «Bulbul qori» degan shon-shuhratdan nimaga voz kechganini Qozimirzadan so‘ray olmadi. Ammo o‘rni kelganda so‘rab olishni o‘ylab qo‘ydi. So‘raganda ham Shaytonvachcha unga to‘g‘risini aytmas edi. O‘sha paytda u birinchi marta o‘zining shaytoniy nafsidan ustun keldi va shartnoma-ga qo‘l qo‘ymadi. Ha, kallani ishlatdi. U bir-ikki kunlik shon-shuhrat, xolos. Keyin odamlar ovoz yozish studiyasing boshlig‘iga o‘xshab ahmoq emas. Qori-yu qurrolar son mingta. Mashhur qorilarning ohangini o‘g‘irlab, «Bulbul qori» bo‘lib olgan vallomatning tagiga tezda suv quyishadi. Yana Shaytonvachcha imom domlani nima sababdan qo‘l berganini ham bildi. Yurtchilik, qaytariq, issiq-sovuq masalasida imom domlaga ko‘p murojaat qilib turishadi. Sehr va jodularni osma ukol, hapdorilar bilan qaytarib bo‘lmasligini domla imom biladi. U ham anoyilardan emas...

Ana shunday chuqur mulohazalardan keyin Shaytonvachcha Dadamirzani chaqirib, navbatdagi masalani ko‘ndalang qo‘ydi:

– Siz, Dadamirza aka, imom domlaga qo‘l bergansiz-a?

– Shunday!

– Imom domlani menga qo‘l berganini ham ko‘rdingiz?!

– Ko‘rdim.

– Demak, piringiz kaminaga murid bo‘lgandan ke-

йин ўзлари ҳам каминага мурид бўладилар, шундайми?

– Шундай.

– Пирнинг айтгани – айтган, дегани – деган-а?

– Албатта, гап бўлиши мумкин эмас.

– Хў-ў-ў-ш, – деб Шайтонвачча бир муддат тараддудланиб турди-да, кейин Дадамирзага тикка қаради. Кўзларки, нақ тешворадиган. Дадамирза кўрқиб кетиб, ерга қаради. Шайтонвачча сўради:

– Яқин-яқинларгача ароқ ишлаб чиқарардингиз, шундайми?

– Ўтмишда, – деб Дадамирза ўзини оқламоқчи бўлди. – Биласиз, тавба қилганман.

– Энди шу ишни бошқатдан бошлайсиз.

– Нима?

Хонада гўё бир нима портлагандек бўлди. Дадамирзанинг кўзидан пахтаси чиқиб Шайтонваччага қаради. Худди уни умрида биринчи марта кўриб тургандек тикилди-қолди. Аъзойи-баданидан чумоли ўрмалагандек бўлди. Шу туришда Дадамирзанинг оғзи карракдек очилиб, бурни танқайиб қолган эди.

– Ҳа, Дадамирза ака, нима бўлди? – кулди Шайтонвачча унинг аҳволини кўриб.

– Э, ҳазиллашманг-да, ука, унақа ишлардан қўлни ювиб, қўлтиққа урганман-ку.

– Пир ҳеч қачон ҳазиллашмайди, – деди Шайтонвачча ўзини жиддий тутиб. – Мен минглаб одамларни сиз жирканаётган ўша искотидан қутқармоқчиман, билсангиз.

– Э, кўйинг-е, қандай қилиб, – ҳамон ўзига кела олмай сўради Дадамирза.

– Сиз Аллоҳнинг: «Шоядки, ёқтирмаган нарсангиз сиз учун яхши бўлса», – деган оятининг мағзини чакмагансиз-да. Умуман сиз мен билган нарсаларни билмайсиз, илмда нолсиз, бойликнинг орқасидан қувиб, каллангиз қовоқ бўлиб қолган, – деб Шайтонвачча Дадамирзани силтаб ташлади.

yin o‘zlari ham kaminaga murid bo‘ladilar, shundaymi?

– Shunday.

– Pirning aytgani – aytgan, degani – degan-a?

– Albatta, gap bo‘lishi mumkin emas.

– Xo‘-o‘-o‘-sh, – deb Shaytonvachcha bir muddat taraddudlanib turdi-da, keyin Dadamirzaga tikka qaradi. Ko‘zlarki, naq teshvoradigan. Dadamirza qo‘rqib ketib, yerga qaradi. Shaytonvachcha so‘radi:

– Yaqin-yaqinlargacha aroq ishlab chiqarardingiz, shundaymi?

– O‘tmishda, – deb Dadamirza o‘zini oqlamoqchi bo‘ldi. – Bilasiz, tavba qilganman.

– Endi shu ishni boshqatdan boshlaysiz.

– Nima?

Xonada go‘yo bir nima portlagandek bo‘ldi. Dadamirzaning ko‘zidan paxtasi chiqib Shaytonvachchaga qaradi. Xuddi uni umrida birinchi marta ko‘rib turgandek tikildi-qoldi. A‘zoyi-badanidan chumoli o‘rmlagandek bo‘ldi. Shu turishda Dadamirzaning og‘zi karakdek ochilib, burni tanqayib qolgan edi.

– Ha, Dadamirza aka, nima bo‘ldi? – kuldi Shaytonvachcha uning ahvolini ko‘rib.

– E, hazillashmang-da, uka, unaqa ishlardan qo‘lni yuvib, qo‘ltiqqa urganman-ku.

– Pir hech qachon hazillashmaydi, – dedi Shaytonvachcha o‘zini jiddiy tutib. – Men minglab odamlarni siz jirkanayotgan o‘sha isqotidan qutqarmoqchiman, bilsangiz.

– E, qo‘ying-e, qanday qilib, – hamon o‘ziga kela olmay so‘radi Dadamirza.

– Siz Allohning: «Shoyadki, yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo‘lsa», – degan oyatining mag‘zini chaqmagansiz-da. Umuman siz men bilgan narsalarni bilmaysiz, ilmda nolsiz, boylikning orqasidan quvib, kallangiz qovoq bo‘lib qolgan, – deb Shaytonvachcha Dadamirzani siltab tashladi.

– Бундоқ тушунтиринг-да унда, ахир, бизам ердан чиқмаганмиз, – қизариб-бўзарди Дадамирза.

– Тушунтирсам, гиёҳвандларни қандай қилиб даъволашларини биласизми? Билмайсиз!

– Худога шукр, мен у кўчаларга кирмаганман.

– Эшитинг, мен сизни у кўчага киргансиз демоқчи эмасман...

– Хўп, гапиринг, қулоғим сизда.

– Хў-ў-ў-ш... олдин касалнинг қонида қанча миқдор наркотик модда борлиги аниқланади. Кейин ўша миқдор кунига бир фоиздан камайтирилиб-камайтирилиб касалга бериб борилади. Бўлмаса у ўлиб қолади, тушуняпсизми, туршакдек қотиб қолади. Берилаётган миқдор аста-секин нолга тушгандан кейин одам асли ҳолига қайтиб, тузалиб кетади. Оналар ҳам болаларини кам-камдан эмизиб, сутдан чиқаришади-ку. Пиёниста-ю гиёҳвандларни ҳам ана шунақа аста-секинлик билан даволашади. Захарнинг кучини захар кесади-да. Аммо-лекин бунинг учун бир дунё пул керак бўлади.

– Барибир тушунмадим, Қозимирза ука, – деб бош чайқади Дадамирза.

– Буларни билиш учун жудаям кўр ақл керакмас, – кулди Шайтонвачча. – Сир бўлмаса менга айтинг-чи, ишлаб чиқарган ароғингизнинг қуввати қанча эди?

– Йигирма беш билан ўттиз атрофида, нимаиди?

– Ароқнинг номи-чи?

– «Мулойим».

– Ҳах-ҳах-ҳа-а-а... – қотиб-қотиб кулди Шайтонвачча. – Номиниям жа топган экансиз – на у ёқлик, на бу ёқлик, аросат. Бунисининг номи «Дўзах» бўлади. Қувватини 50 фоиз қиламиз!

– 50 фоиз?! «Дўзах»?!

Дадамирза сал бўлмаса портлаб кетай деди.

– Ҳа, ҳар уч кунда қувватини бир даражадан тушириб борамиз. Қарабсизки, пиёнисталар юз еллик кунда алкаголлиги нолга тушиб, ароқ билан сувнинг фарқига бормаидиган бўлиб қолишади. Буни руҳий муолажа, ичувчиларни «сут»дан чиқариш дейилади.

– Bundoq tushuntiring-da unda, axir, bizam yerdan chiqmaganmiz, – qizarib-bo‘zardi Dadamirza.

– Tushuntirsam, giyohvandlarni qanday qilib da’volashlarini bilasizmi? Bilmaysiz!

– Xudoga shukr, men u ko‘chalarga kirmaganman.

– Eshiting, men sizni u ko‘chaga kirgansiz demoqchi emasman...

– Xo‘p, gapiring, qulog‘im sizda.

– Xo‘-o‘-o‘-sh... oldin kasalning qonida qancha miqdor narkotik modda borligi aniqlanadi. Keyin o‘sha miqdor kuniga bir foizdan kamaytirilib-kamaytirilib kasalga berib boriladi. Bo‘lmasa u o‘lib qoladi, tushunyapsizmi, turshakdek qotib qoladi. Berilayotgan miqdor asta-sekin nolga tushgandan keyin odam asli holiga qaytib, tuzalib ketadi. Onalar ham bolalarini kamkandan emizib, sutdan chiqarishadi-ku. Piyonista-yu giyohvandlarni ham ana shunaqa asta-sekinlik bilan davolashadi. Zaharning kuchini zahar kesadi-da. Ammo lekin buning uchun bir dunyo pul kerak bo‘ladi.

– Baribir tushunmadim, Qozimirza uka, – deb bosh chayqadi Dadamirza.

– Bularni bilish uchun judayam ko‘p aql kerakmas, – kuldi Shaytonvachcha. – Sir bo‘lmasa menga ayting-chi, ishlab chiqargan arog‘ingizning quvvati qancha edi?

– Yigirma besh bilan o‘ttiz atrofida, nimaydi?

– Aroqning nomi-chi?

– «Muloyim».

– Hax-hax-ha-a-a-a... – qotib-qotib kuldi Shaytonvachcha. – Nominiyam ja topgan ekansiz – na u yoqlik, na bu yoqlik, arosat. Bunisining nomi «Do‘zax» bo‘ladi. Quvvatini 50 foiz qilamiz!

– 50 foiz?! «Do‘zax»?!

Dadamirza sal bo‘lmasa portlab ketay dedi.

– Ha, har uch kunda quvvatini bir darajadan tushirib boramiz. Qarabsizki, piyonistalar yuz ellik kunda alkagolligi nolga tushib, aroq bilan suvning farqiga bormaydigan bo‘lib qolishadi. Buni ruhiy muolaja, ichuvchilarni «sut»dan chiqarish deyiladi.

Дадамирзанинг кўзининг пахтаси ағдарилди. Баттар оғзи очилиб, бурни танқайди. «Қойил», – демади-ю, шундай аҳволга тушди.

– Одамларга ичманг, деб минг марта айтгандан кўра бу йўл яхши-да. Бунини шайтонлар оламида пичоқнинг сопини ўзидан чиқариш дейишади, – деб сал бўлмаса ўзини ўзи фош қилиб кўяй деди Шайтонвачча.

– 50 даража-я, хонавайрон бўламиз-ку, Қозимирза ука?!

– Наҳотки шуни ҳам тушунмаётган бўлсангиз, Дадамирза ака. Градуси пасайгани билан нархи жойида тураверади. Ким айтади сизни тижоратчи, деб, тавба, хонавайронмиш-а, миллионер бўлиб кетасиз, миллионер. Савобини айтмайсизми, савобини, қанча одам ичкиликдан қайтиб қолади.

Дадамирза икки ўт ўртасида қолди. Наҳотки бу иш савоб саналса? Яқинда имом домла бир китоб берган эди. Уни ўқиб, қанчалар кўрқиб кетган эди. Ҳазрати Пайғамбаримиз: «Аллоҳ хамрни (арақни), унинг ичувчисини, куйиб берувчисини, сотувчисини, сотиб олувчисини, сиқувчисини, сиқтирувчисини, кўтарувчисини ва кўтартирувчисини лаънатлайди», – деган эканлар. Қозимирза тушмагур бу ҳадисни билмасмикан? Бу ёғи Миср-у Бобилгача борган одам билмайдимас, билади. Лекин захар кучини захар кесади, деб шу йўл билан одамларни ичкиликдан қайтармоқчи. Яна ким билади...

– Йўқ, – деди Дадамирза тўнини тескари кийиб, – агарда шу ишни қиласан деб зўрласангиз, ҳозирок бориб имом домладан берган кўлимни қайтариб оламан, сиздан ҳам.

– Пирдан қайтгани биласизми нима қиладилар? Калласини танасидан жудо қиладилар.

– Қўрқитяпсизми?

– Ҳечам-да, – кўзларини лўқ қилди Шайтонвачча. – Пирдан қайтиш дегани – диндан қайтиш дегани. Диндан қайтган одам муртад бўлади. Муртаднинг жазоси – ўлим.

Dadamirzaning ko‘zining paxtasi ag‘darildi. Battar og‘zi ochilib, burni tanqaydi. «Qoyil», – demadi-yu, shunday ahvolga tushdi.

– Odamlarga ichmang, deb ming marta aytgandan ko‘ra bu yo‘l yaxshi-da. Buni shaytonlar olamida pichoqning sopini o‘zidan chiqarish deyishadi, – deb sal bo‘lmasa o‘zini o‘zi fosh qilib qo‘yay dedi Shaytonvachcha.

– 50 daraja-ya, xonavayron bo‘lamiz-ku, Qozimirza uka?!

– Nahotki shuni ham tushunmayotgan bo‘lsangiz, Dadamirza aka. Gradusi pasaygani bilan narxi joyida turaveradi. Kim aytadi sizni tijorat-chi, deb, tavba, xonavayronmish-a, millioner bo‘lib ketasiz, millioner. Savobini aytmaysizmi, savobini, qancha odam ichkilikdan qaytib qoladi.

Dadamirza ikki o‘t o‘rtasida qoldi. Nahotki bu ish savob sanalsa? Yaqinda imom domla bir kitob bergan edi. Uni o‘qib, qanchalar qo‘rqib ketgan edi. Hazrati Payg‘ambarimiz: «Alloh xamrni (araqni), uning ichuvchisini, quyib beruvchisini, sotuvchisini, sotib oluvchisini, siquvchisini, siqtiruvchisini, ko‘taruvchisini va ko‘tartiruvchisini la’natlaydi», – degan ekanlar. Qozimirza tushmagur bu hadisni bilmasmikan? Bu yog‘i Misr-u Bobilgacha borgan odam bilmaydimas, biladi? Lekin zahar kuchini zahar kesadi, deb shu yo‘l bilan odamlarni ichkilikdan qaytarmoqchi. Yana kim biladi?..

– Yo‘q, – dedi Dadamirza to‘nini teskari kiyib, – agarda shu ishni qilasan deb zo‘rlasangiz, hoziroq borib imom domladan bergan qo‘limni qaytarib olaman, sizdan ham.

– Pirdan qaytganni bilasizmi nima qiladilar? Kalasini tanasidan judo qiladilar.

– Qo‘rqityapsizmi?

– Hecham-da, – ko‘zlarini lo‘q qildi Shaytonvachcha. – Pirdan qaytish degani – dindan qaytish degani. Dindan qaytgan odam murtad bo‘ladi. Murtadning jazosi – o‘lim.

Шайтонваччанинг тишлари ваҳший ҳайвонни-  
кидек ғижирлаб кетди. У одамий қиёфадан шайтоний  
қиёфага кира бошлаган эди. Кўзларининг ичи чўғ-  
ланиб борарди. Дадамирзанинг юраги «шув» этиб  
кетди. Минг қилса ҳам жон ширин-да. Одамнинг  
яшагиси келади. Бунинг устига рўпарасидаги одамни  
ўз бошига ўзи бошоғриқ қилиб олди. Ундан ҳамма  
нарсани кутса бўлади.

Дадамирзанинг иймони ҳали жуда мўрт эди.  
У Аллоҳнинг: «Эй иймон келтирганлар! Исломга  
тўлиғича кириш. Ва шайтоннинг изидан эргашманг.  
Албатта, у сизга очик душмандир», – деган оятларини  
ўқимаган эди. Ҳақиқий иймон келтирганлар тана-  
сига арра солиб иккига бўлиб юборганларида ҳам,  
баданларидаги гўштларини тароқ билан тараб  
олганларида ҳам, тириклайин тош тагига бостириб  
кўйганларида ҳам мушрикларга таслим бўлмаган.  
Дадамирзада бунақа матонат қайда. У анча муддат  
титраб-қақшаб ўтириб, ниҳоят тилга кирди:

– Мен сизга ўша цехни одам-подами билан  
шундоқ кўш қўллаб бериб қўяқолсам қутуламанми? –  
деди. Унинг жасорати шундай дейишгагина етди. Бу  
ҳам у учун катта гап эди.

– Йўқ, мен унақа цехни хоҳлаган жойимда  
хоҳлаганча куриб олишим мумкин. Бу ишнинг  
бошида ўзингиз турасиз. Вассалом, гап тамом. Сир  
шу ерда қолсин, кўчага чиқмасин.

Шайтонвачча эсини егани йўқ Дадамирзани  
ўйиндан чиқариб. Ўйиндан чиқдимми, ё душманга,  
ё томошабинга айланади. Дадамирзанинг боши  
қотиб Шайтонваччанинг олдидан чиқиб кетди.  
Нима қилсин, ўзи пиширган ош, айланиб ҳам ичади,  
ўргилиб ҳам ичади...

«Эй нафс бандаси, – деди Шайтонвачча унинг  
орқасидан қараб қолар экан, – тузоғимга илин-  
дингми, энди дод дема! Шу пайтгача бунақа  
қинғир ишларнинг пири эдинг, бундан кейин ҳам  
шундоқлигингча қоласан!»



Shaytonvachchanning tishlari vahshiy hayvonnikidek g'ijirlab ketdi. U odamiy qiyofadan shaytoniy qiyofaga kira boshlagan edi. Ko'zlarining ichi cho'g'lanib borardi. Dadamirzaning yuragi «shuv» etib ketdi. Ming qilsa ham jon shirin-da. Odamning yashagisi keladi. Buning ustiga ro'parasidagi odamni o'z boshiga o'zi boshog'riq qilib oldi. Undan hamma narsani kutsa bo'ladi.

Dadamirzaning iymoni hali juda mo'rt edi. U Allohning: «Ey imon keltirganlar! Islomga to'lig'icha kiring. Va shaytonning izidan ergashmang. Albatta, u sizga ochiq dushmanidir», – degan oyatlarini o'qimagan edi. Haqiqiy imon keltirganlar tanasiga arra solib ikkiga bo'lib yuborganlarida ham, badanlaridagi go'shtlarini taroq bilan tarab olganlarida ham, tiriklayin tosh tagiga bostirib qo'yganlarida ham mushriklarga taslim bo'lmagan. Dadamirzada bunaqa matonat qayda. U ancha muddat titrab-qaqshab o'tirib, nihoyat tilga kirdi:

– Men sizga o'sha sexni odam-podami bilan shundoq qo'sh qo'llab berib qo'yaqolsam qutulamanmi? – dedi. Uning jasorati shunday deyishgagina yetdi. Bu ham u uchun katta gap edi.

– Yo'q, men unaqa sexni xohlagan joyimda xohlaganicha qurib olishim mumkin. Bu ishning boshida o'zingiz turasiz. Vassalom, gap tamom. Sir shu yerda qolsin, ko'chaga chiqamasin.

Shaytonvachcha esini yegani yo'q Dadamirzani o'yindan chiqarib. O'yindan chiqdimi, yo dushmanga, yo tomoshabinga aylanadi. Dadamirzaning boshi qotib Shaytonvachchanning oldidan chiqib ketdi. Nima qilsin, o'zi pishirgan osh, aylanib ham ichadi, o'rgilib ham ichadi...

«Ey nafs bandasi, – dedi Shaytonvachcha uning orqasidan qarab qolar ekan, – tuzog'imga ilindingmi, endi dod dema! Shu paytgacha bunaqa qing'ir ishlarning piri eding, bundan keyin ham shundoqligingcha qolasan!»

## РЕЖА РАҚАМИ ИККИ

*(ёки Шайтонваччанинг хўжақишлоқлик орачалари)*

Шайтонвачча «Дўзах»ни ишга тушириб юборгач, Дадамирзадан сўради:

– Хўш, қани менга айтинг-чи, миждозлар «Дўзах»ни қандай кутиб олишди?

– Қандай бўларди, чапак чалиб кутиб олишди, – тутун қайтарди Дадамирза.

– «Дўзах»га талаб борми, ишқилиб, шундан келинг?

– Талабгорлар керагидан ортиқ.

Шайтонвачча Дадамирзанинг бу ҳақда гаплашгиси келмаётганини сезиб баттар жиғига тегди:

– Сифатига нима дейишяпти?

– Дахшат, дейишяпти. Нуқул «Дўзах»дан узатворинг, «Дўзах»дан юзта қуйинг, дўзах дегани маза бўларкан-у, биз кўрқиб юрибмиз, деб ҳиринг-ҳиринг кулишяпти.

– Дахшат, дедингизми? – ҳушёр тортди Шайтонвачча. – Эссизгина, ароғимизнинг номини «Дахшат» кўйсак бўларкан, эҳ, аттанг... «Дахшат»дан борми, «Дахшат»дан юзта қуйинг», деб турса янаям бошқачароқ чиқар экан.

– Э, ҳаммаси ҳам бир гўр, – қўл силтади Дадамирза, – лекин айтиб қўяй, Қозимирза ука, мен бу икотининг бир тийинидан ҳам ҳазар қиламан. Ҳалол пулимни ҳаром қилмайман. Ҳамма уволи ўзларининг бўйнига.

– Билганингизни қилинг, лекин мен сизни бунга чақирмадим, – деди Шайтонвачча унга синчков караб. – Бошқа гап бор.

– Яхши гапми, ишқилиб, – хавотирли қаради Дадамирза.

– Яхшики, фақат сизнинг фойдангизга. Ислом жуда бағрикенг дин. Назаримда, шу «Тақво» масаласида хотин-қизларимизни сал камситиб қўйганга ўхшаймиз. Улар ҳам «Тақво»нинг таомларидан егиси келади, айниқса, ҳомиладор келинчақлар.

## REJA RAQAMI IKKI

*(yoki Shaytonvachchaning xo'jaqishloqlik opachalari)*

Shaytonvachcha «Do'zax»ni ishga tushirib yuborgach, Dadamirzadan so'radi:

– Xo'sh, qani menga ayting-chi, mijozlar «Do'zax»ni qanday kutib olishdi?

– Qanday bo'lardi, chapak chalib kutib olishdi, – tutun qaytardi Dadamirza.

– «Do'zax»ga talab bormi, ishqilib, shundan keling?

– Talabgorlar keragidan ortiq.

Shaytonvachcha Dadamirzaning bu haqda gaplashgisi kelmayotganini sezib battar jig'iga tegdi:

– Sifatiga nima deyishyapti?

– Dahshat, deyishyapti. Nuqul «Do'zax»dan uzatvoring, «Do'zax»dan yuzta quying, do'zax degani maza bo'larkan-u, biz qo'rqib yuribmiz, deb hiring-hiring kulishyapti.

– Dahshat, dedingizmi? – hushyor tortdi Shaytonvachcha. – Essizgina, arog'imizning nomini «Dahshat» qo'ysak bo'larkan, eh, attang... «Dahshat»dan bormi, «Dahshat»dan yuzta quying», deb tursa yanayam boshqacharoq chiqar ekan.

– E, hammasi ham bir go'r, – qo'l siltadi Dadamirza, – lekin aytib qo'yay, Qozimirza uka, men bu isqotining bir tiyidan ham hazar qilaman. Halol pulimni harom qilmayman. Hamma uvoli o'zlarining bo'yniga.

– Bilganingizni qiling, lekin men sizni bunga chaqirmadim, – dedi Shaytonvachcha unga sinchikov qarab. – Boshqa gap bor.

– Yaxshi gapmi, ishqilib, – xavotirli qaradi Dadamirza.

– Yaxshiki, faqat sizning foydangizga. Islom juda bag'rikeng din. Nazarimda, shu «Taqvo» masalasida xotin-qizlarimizni sal kamsitib qo'yganga o'xshaymiz. Ular ham «Taqvo»ning taomlaridan yegisi keladi, ayniqsa, homilador kelinchaklar.

– Бу томонларини ўйлаганмиз, Қозимирза ука, «Уйга хизмат» машинасини ташкил қилиб қўйибмиз-ку. Буюртиришсаёқ, бас, шу захоти элтиб беряпмиз.

– Гап шундаки, ҳамма ҳам буюртма бера олмайди-да. Бировнинг чўнтаги кўтаради, бировники йўқ... У ёғини сўрасангиз, битта буюртманинг пулига иккита қорин тўяди. Ё гапим ёлғонми?

– Бирор таклифингиз борми, айтаверинг, қулоғим сизда...

– Эркак официантларингизни аёл официантларга алмаштирсак, нима дейсиз? Албатта, сони очик, кўкраги очик официантларгамас, ҳижоблисига. Кафенгизга янаям файз кирарди-да. Тасаввур қилинг, улар кафеда бамисоли оққушлардек суз-и-и-и-б юришса. Эркакка ҳам, аёлга ҳам бирдек хизмат қилишса, нимаси ёмон.

Дадамирза бир зум кўзларини юмиб, Қозимирза айтаётган таклифни тасаввур қилиб кўрди-да:

– Воҳ, – деб қарсак уриб юборди вақти чоғ бўлиб. – Нимага бу фикр калламга илгари келмаган экан? «Тақво» деб ажойиб ном топибман-у, бу ёғини ўйламаганимни қаранг. Айтаман-ку, ақлингиз ўзингиздан олдин юради, деб. Фақат унақаларни топиш қийин-да. Ҳижоблилар официантликка унашмайди...

– Бу ёғини менга қўйиб беринг. Биласиз-ку, камина сувни кўрмай этик ечмайман.

Улар бинонинг учинчи қаватида ўтиришар эди. Шайтонвачча биринчи қаватдаги одамни чақирадиган тугмачани босди. Сал ўтмай зинада оёқ товушлари эшитилди. Ичкарига одоб билан салом бериб бирин-кетин ўранган-сўранган аёллар кириб келишди. Улар тўртта эди. Дадамирза кутилмаган бу манзарадан тахта бўлиб қолди. Уларга ҳайрат билан тикилиб қаради-ю, кейинига кўз зиноси эсига тушиб нигоҳини олиб қочди. Улар ниҳоятда хушсурат, гўзал эди. Қаердан топди экан бу жононларни Қозимирза тушмагур?

– Танишинглар, бу киши Дадамирза ака бў-

– Bu tomonlarini o‘ylaganmiz, Qozimirza uka, «Uyga xizmat» mashinasini tashkil qilib qo‘yibmiz-ku. Buyurtirishsayoq, bas, shu zahoti eltib beryapmiz.

– Gap shundaki, hamma ham buyurtma bera olmaydi-da. Birovning cho‘ntagi ko‘taradi, birovniki yo‘q... U yog‘ini so‘rasangiz, bitta byurtmaning puliga ikkita qorin to‘yadi. Yo gapim yolg‘onmi?

– Biror taklifingiz bormi, aytavering, qulog‘im sizda...

– Erkak ofitsiantlaringizni ayol ofitsiantlarga almashtirsak, nima deysiz? Albatta, soni ochiq, ko‘kragi ochiq ofitsiantlargamas, hijoblisiga. Kafengizga yanayam fayz kirardi-da. Tasavvur qiling, ular kafeda bamisoli oqqushlardek suz-i-i-i-b yurishsa. Erkakka ham, ayolga ham birdek xizmat qilishsa, nimasi yomon.

Dadamirza bir zum ko‘zlarini yumib, Qozimirza aytayotgan taklifni tasavvur qilib ko‘rdi-da:

– Voh, – deb qarsak urib yubordi vaqti chog‘ bo‘lib. – Nimaga bu fikr kallamga ilgari kelmagan ekan? «Taqvo» deb ajoyib nom topibman-u, bu yog‘ini o‘ylamaganimni qarang. Aytaman-ku, aqlingiz o‘zingizdan oldin yuradi, deb. Faqat unaqalarni topish qiyin-da. Hijoblilar ofitsiantlikka unashmaydi...

– Bu yog‘ini menga qo‘yib bering. Bilasiz-ku, kami-na suvni ko‘rmay etik yechmayman.

Ular binoning uchinchi qavatida o‘tirishar edi. Shaytonvachcha birinchi qavatdagi odamni chaqiradigan tugmachani bosdi. Sal o‘tmay zinada oyoq tovushlari eshitildi. Ichkariga odob bilan salom berib birin ketin o‘rangan-so‘rangan ayollar kirib kelishdi. Ular to‘rtta edi. Dadamirza kutilmagan bu manzaradan taxta bo‘lib qoldi. Ularga hayrat bilan tikilib qaradi-yu, keyiniga ko‘z zinosi esiga tushib nigohini olib qochdi. Ular nihoyatda xushsurat, go‘zal edi. Qayerdan topdi ekan bu jononlarni Qozimirza tushmagur?

– Tanishinglar, bu kishi Dadamirza aka bo‘ladilar.

ладилар. Эшитгансизлар, раҳматлик онамиз битта-ю битта тоғалари ҳақида кўп гапирардилар. Болалигимизда адашиб кетганмиз, қаердаликларини билмайман, дер эдилар. Дадамирза ака ўша тоғамизнинг зурриётлари бўлади. Энди бизга кичик тоға ўрнидалар. Бизни тасоддифан Худонинг ўзи учраштириб қўйди. Энди, Дадамирза ака, бу мастура кизларни сизга таништирай, – деб ҳанг-манг бўлиб турган Дадамирзага қаради Шайтонвачча. – Булар менинг опачаларим, яъни сизнинг жиянчаларингиз. Хавотир олиб, мени кўргани келишган экан. Шу... бояги мен айтган ишга шу опачаларимни тавсия этмоқчиман. Маъқул кўрсангиз, албатта, тоғажон?

Дадамирза шошиб қолди ва деди:

– Бу жиянларим бизнинг кафега хайипов... Баъзи хўрандаларимизни биласиз, кўзлари деворни тешворай дейди.

– Сизникидан бошқа кафе бўлганда ўзим ҳам кадам изи қилдирмасдим. Сиз ўйлаган шилқимликлар ароқ сотиладиган, стриптизи бор кафеларда бўлади. Мижозларингизнинг кўпчилиги кўз зиноси нималигини яхши билишади. Жа хоҳлаб қолишса, никоҳлаб, уйланишади-кўйишади. Опачаларимнинг бошлари очик. Сиз билан биз никоҳ тўйларида дуогўй бўлиб, ошини еймиз.

– Э, бош устига, бош устига, жиянларим қишлоқдан мени қора тортиб келишади-ю, мен йўқ дермидим. Яхшилик қилсангиз энг олдин яқинларингизга яхшилик қилинг, деганлар ҳазрати Пайғамбаримиз. Шундайми, Қозимирза ука?

– Яшанг, тоғажон, яшанг, ўлманг, дунё тургунча туринг, бошимизга соябон бўлинг, – деди Шайтонвачча иш пишганидан хурсанд бўлиб. Кейин опачаларига қаради: – Ана, тоғамизнинг марҳамати билан ишлик ҳам бўлиб олдинглар, сизлар бўлса қишлоғимизга қайтиб кетамиз, деб юрибсизлар. Тоғажонимизга қуллуқ қилинглари-чи!

– Қуллуқ, умрингиздан барака топинг, тоғажон.

Eshitgansizlar, rahmatlik onamiz bitta-yu bitta tog'alari haqida ko'p gapirardilar. Bolaligimizda adashib ketganmiz, qayerdaliklarini bilmayman, der edilar. Dadamirza aka o'sha tog'amizning zurriyotlari bo'ladi. Endi bizga kichik tog'a o'rnidalar. Bizni tasoddifan Xudoning o'zi uchrashtirib qo'ydi. Endi, Dadamirza aka, bu mastura qizlarni sizga tanishtiray, – deb hang-mang bo'lib turgan Dadamirzaga qaradi Shaytonvachcha. – Bular mening opachalarim, ya'ni sizning jiyanchalaringiz. Xavotir olib, meni ko'rgani kelishgan ekan. Shu... bo'yagi men aytgan ishga shu opachalarimni tavsiya etmoqchiman. Ma'qul ko'rsangiz, albatta, tog'ajon?

Dadamirza shoshib qoldi va dedi:

– Bu jiyanlarim bizning kafega hayipov... Ba'zi xo'randalimizni bilasiz, ko'zlari devorni teshvoray deydi.

– Siznikidan boshqa kafe bo'lganda o'zim ham qadam izi qildirmasdim. Siz o'ylagan shilqimliklar aroq sotiladigan, striptizi bor kafelarda bo'ladi. Mijozlaringizning ko'pchiligi ko'z zinosi nimaligini yaxshi bilishadi. Ja xohlab qolishsa, nikohlab, uylanishadi-qo'yishadi. Opachalarimning boshlari ochiq. Siz bilan biz nikoh to'ylarida duogo'y bo'lib, oshini yeymiz.

– E, bosh ustiga, bosh ustiga, jiyanlarim qishloqdan meni qora tortib kelishadi-yu, men yo'q dermidim. Yaxshilik qilsangiz eng oldin yaqinlaringizga yaxshilik qiling, deganlar hazrati Payg'ambarimiz. Shundaymi, Qozimirza uka?

– Yashang, tog'ajon, yashang, o'lmang, dunyo turguncha turing, boshimizga soyabon bo'ling, – dedi Shaytonvachcha ish pishganidan xursand bo'lib. Keyin opachalariga qaradi: – Ana, tog'amizning rahmati bilan ishlik ham bo'lib oldinglar, sizlar bo'lsa qishlog'imizga qaytib ketamiz, deb yuribsizlar. Tog'ajonimizga qulluq qilinglar-chi!

– Qulluq, umringizdan baraka toping, tog'ajon.

- Биздан қайтмаса, Худодан қайтсин, тоғажон.
- Худо хоҳласа юзингизни ерга қаратмаймиз, тоғажон.

Тўртинчиси нимагадир мум тишлаб, ерга қараб тураверди.

- Энди тоғажонимизга исмингларни айтиб, ўзларингни таништиринглар, – буюрди Шайтонвачча.
- Санобархон...
- Саидахон...
- Садбархон...

Яна тўртинчиси индамади. Қўлини ўйнаб, кўзларини жовдиратиб мўлтираб қўйди. Бунисини нима жин урди экан, деб хайрон бўлди Шайтонвачча.

- Бунинг исми Соҳибахон, соқов, лекин кулоғи эшитади, – деб унинг ўрнига жавоб берди бошқаси.

Дадамирза шунақами, дегандек Шайтонваччага қаради.

- Ҳа, – деди Шайтонвачча бош ирғаб, – поччамиз жаҳлдор одам эдилар, аёллик қилиб бир-икки оғиз ёлғон гапириб қўйган экан, шартта тилини кесиб олган у жаллод.

- Бай-бай, – деб бош чайқаб қўйди Дадамирза, – бу бориб турган вахшийлик-ку.

- Бунинг айби йўқ, қайтага ногиронларни ҳам ишга олибди, деб мижозлар сиздан хурсанд бўлишади, – деди Шайтовачча Дадамирзага. – Шундай қилиб, ўзларига янги ходималар муборак бўлсин, тоғажон, – деб кулди Шайтонвачча.

Шайтонвачча опачаларига имо билан жавоб бериб, Дадамирзадан сўради:

- Эркак официантларингизни нима қиласиз, ҳайдаб юборасизми?

- Асло, Қозимирза ука, асло. Бизда ўз оёғи билан ишга кириш бор-у, чиқиб кетиш йўқ. Гап шамоллаб қолади-да, ука.

- Уларни ўлдириб юборасизми?

- Йўқ, ўлдирвориш увол, сизнинг цехингизга



– Bizdan qaytmasa, Xudodan qaytsin, tog‘ajon.

– Xudo xohlasa yuzingizni yerga qaratmaymiz, tog‘ajon.

To‘rtinchisi nimagadir mum tishlab, yerga qarab turaverdi.

– Endi tog‘ajonimizga isminglarni aytib, o‘zlaringni tanishtiringlar, – buyurdi Shaytonvachcha.

– Sanobarxon...

– Saidaxon...

– Sadbarxon...

Yana to‘rtinchisi indamadi. Qo‘lini o‘ynab, ko‘zlarini jovdiratib mo‘ltirab qo‘ydi. Bunisini nima jin urdi ekan, deb hayron bo‘ldi Shaytonvachcha.

– Buning ismi Sohibahon, soqov, lekin qulog‘i eshitadi, – deb uning o‘rniga javob berdi boshqasi.

Dadamirza shunaqami, degandek Shaytonvachchaga qaradi.

– Ha, – dedi Shaytonvachcha bosh irg‘ab, – pochchamiz jahldor odam edilar, ayollik qilib bir-ikki og‘iz yolg‘on gapirib qo‘ygan ekan, shartta tilini kesib olgan u jallod.

– Bay-bay, – deb bosh chayqab qo‘ydi Dadamirza, – bu borib turgan vahshiylik-ku.

– Buning aybi yo‘q, qaytaga nogironlarni ham ishga olibdi, deb mijozlar sizdan xursand bo‘lishadi, – dedi Shaytonvachcha Dadamirzaga. – Shunday qilib, o‘zlari-ga yangi xodimalar muborak bo‘lsin, tog‘ajon, – deb kuldi Shaytonvachcha.

Shaytonvachcha opachalariga imo bilan javob berib, Dadamirzadan so‘radi:

– Erkak ofitsiantlaringizni nima qilasiz, haydab yuborasizmi?

– Aslo, Qozimirza uka, aslo. Bizda o‘z oyog‘i bilan ishga kirish bor-u, chiqib ketish yo‘q. Gap shamollab qoladi-da, uka.

– Ularni o‘ldirib yuborasizmi?

– Yo‘q, o‘ldirvorish uvul, sizning sexingizga tash-

ташлайман. Эркакми, эркакнинг ишини қилишсин,  
нима дедингиз?

– Маъқул гап...

## МАШВАРАТ

*(ёки Шайтонваччанинг «опача»лари билан гапни бир  
ерга қўйганлари)*

Шайтонвачча Дадамирзани кузатиб қўйгач,  
«опача»ларини қайта хузурига чақирди. Энди улар  
устиларига стриптизча либосларини кийиб олишган,  
ҳар бири ўзича ноз-карашма билан қилпиллаб тури-  
шар эди.

– Ҳа, – деди у ўзини соқов қилиб кўрсатган  
аёлга қараб, – жа тилингиз булбули гўё эди-ку, бу  
канақаси?

– Шунақаси, – деди у таманно билан, – камининг  
тили кечаси тўшакдагина чиқади, яна саволлари  
борми, яхши йигит?

– Бошқа пайтда-чи?

– Бошқа пайтда гунг ва соқовман.

– Буям яхши фазилатга ўхшайди, кўрайлик-чи  
охири нима билан тугаркин, – деди Шайтонвачча.  
Фақат хаёли қочди. Унинг хаёли «кечалари тўшак»жа  
кетган эди. Одамийлик ҳирси кўзиб, қони гупуларди.  
Аммо ўзини қўлга олди. Муздек ҳаводан чуқур-  
чуқур нафас олиб, қонини совитди. Одам болаларини  
халок қиладиган нарса ҳам шу – шахвоний ҳирс. Уни  
тизгинлаш ҳаммининг ҳам қўлидан келавермайди.  
Айниқса, жононлар эркакмисан дегандек рўпарасида  
кўз сузиб турса. Шайтонвачча ўзини жиловлаб,  
сўзида давом этди: – Мен сизларнинг қандайдир  
стриптизларда гулдек умрларингизни хазон қилиб  
юришларингизни хоҳламайман. Ҳар бирингиз битта  
хонадоннинг гулдек бекаси бўлиб умр кечиришга  
ҳақлисизлар. Сизлардаги жозоба, латофат қани энди  
ҳамма аёлларда ҳам бўлса. Насиб қилса бундан бу  
ёғига ҳаммаси яхши бўлади. Билиб қўйинглар,

layman. Erkakmi, erkakning ishini qilishsin, nima dedingiz?

– Ma’qul gap...

## MASHVARAT

*(yoki Shaytonvachchaning «opacha»lari bilan gapni bir yerga qo‘yganlari)*

Shaytonvachcha Dadamirzani kuzatib qo‘ygach, «opacha»larini qayta huzuriga chaqirdi. Endi ular us-tilariga striptizcha liboslarini kiyib olishgan, har biri o‘zicha noz-karashma bilan qilpillab turishar edi.

– Ha, – dedi u o‘zini soqov qilib ko‘rsatgan ayolga qarab, – ja tilingiz bulbuli go‘yo edi-ku, bu qanaqasi?

– Shunaqasi, – dedi u tamanno bilan, – kaminaning tili kechasi to‘shakdagina chiqadi, yana savollari bormi, yaxshi yigit?

– Boshqa paytda-chi?

– Boshqa paytda gung va soqovman.

– Buyam yaxshi fazilatga o‘xshaydi, ko‘raylik-chi oxiri nima bilan tugarkin, – dedi Shaytonvachcha. Faqat xayoli qochdi. Uning xayoli «kechalari to‘shak»ka ketgan edi. Odamiylik hirsini qo‘zib, qoni gupurardi. Ammo o‘zini qo‘lga oldi. Muzdek havodan chuqur-chuqur nafas olib, qonini sovitdi. Odam bolalarini halok qiladigan narsa ham shu – shahvoniy hirs. Uni tizginlash hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Ayniqsa, jononlar erkakmisan degandek ro‘parasida ko‘z suzib tursa. Shaytonvachcha o‘zini jilovlab, so‘zida davom etdi: – Men sizlarning qandaydir striptizlarda guldek umrlaringizni xazon qilib yurishlaringizni xohlamayman. Har biringiz bitta xonadonning guldek bekasi bo‘lib umr kechirishga haqlisizlar. Sizlardagi joziba, latofat qani endi hamma ayollarda ham bo‘lsa. Nasib qilsa bundan bu yog‘iga hammasi yaxshi bo‘ladi. Bilib qo‘yinglar, ishinglar juda nozik ish. Kafega do‘ppisi yerga tushsa,

ишинглар жуда нозик иш. Кафега дўпписи ерга тушса, пулга олдирадиган бойлар, олди ўн марталаб, кети беш марталаб ҳаж қилган такводор хожилар, имом домлалар ташриф буюришади. Бир сўз билан айтганда, қаёққа қарасангиз – такво. Такводорликда сизлар мижозларни ярим йўлда қолдиришингиз керак. Ҳалигидек «кечалари тўшакда» деганга ўхшаган мижозларни чалғитадиган гаплар бўлмаслиги керак. – Шайтонваччанинг қони яна бир гупуриб кўйди. – Энди сизларнинг кафеда пайдо бўлишингиз билан хўрандалар хотинларини ҳам олиб кела бошлайдилар. Уларга ўз опа-синглингиздек меҳрибон, ноз-карашмали бўлинг. Тўғри, аёл кишига аёл кишининг ноз-карашмаси ёқмайди. Гап бошқа ёқда. Айтишади-ку, қизим сенга гапираман, келиним, сен эшит, деб... Шундай қилинги, ёнида ўтирган эри сизнинг ноз-карашмаларингиздан эриб кетсин, ха, эриб... Сиз тошни бошқа ёққа қараб отинг. «Э, хотининг бўлса мана шунақа бўлса-да», – деган қарорга бориб қолишсин эрлари. Бу дунёда пулдор эр топиш осонмас. Баъзи эрлар қовун полиздаги кўрикчига ўхшайди. Хотинини қизғанишни ҳам билмайди. Баъзи хотинлар ҳам ўлардек пандавақи. Кўйнидаги эрини қаердаги суюқоёқ хотинларга бериб кўяди...

– Насиҳатларингиз бош устига...

– Бу ёғидан хавотир олманг...

– Мен фақат битта нарсага тушунмаяпман, – деди «соқов хоним» ишва билан, – бу яхшилиқлар эвазига биздан нима истайдилар?

– Савоб, савоб ва яна савоб... Қолаверса, нима исташимни ҳар бирингизнинг қулоғингизга алоҳида-алоҳида айтаман, – деб Шайтонвачча қўлларини икки ёққа ёзиб, керишиб кўйди.

– О-о-о... ёқмай кетсин, – деб тўрт аёл тўрт томондан эснаб, қорин ўйин қилиб кўйишди...

Шайтонвачча Дадамирза амакиваччаси билан қасдлашиб қолганини эшитганда ичида ажаб бўпти экан, деган, шундан сўнг калласида кўз кўриб, қулок

pulga oldiradigan boylar, oldi o‘n martalab, keti besh martalab haj qilgan taqvodor hojilar, imom domlalar tashrif buyurishadi. Bir so‘z bilan aytganda, qayoqqa qarasangiz – taqvo. Taqvodorlikda sizlar mijozlarni yarim yo‘lda qoldirishingiz kerak. Haligidek «kechalari to‘shakda» deganga o‘xshagan mijozlarni chalg‘itadigan gaplar bo‘lmasligi kerak. – Shaytonvachchaning qoni yana bir gupurib qo‘ydi. – Endi sizlarning kafeda paydo bo‘lishingiz bilan xo‘randalar xotinlarini ham olib kela boshlaydilar. Ularga o‘z opa-singlingizdek mehribon, noz-karashmali bo‘ling. To‘g‘ri, ayol kishiga ayol kishining noz-karashmasi yoqmaydi. Gap boshqa yoqda. Aytishadi-ku, qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit, deb... Shunday qilingki, yonida o‘tirgan eri sizning noz-karashmalingizdan erib ketsin, ha, erib... Siz toshni boshqa yoqqa qarab oting. «E, xotining bo‘lsa mana shunaqa bo‘lsa-da», – degan qarorga borib qolishsin erlari. Bu dunyoda puldor er topish osonmas. Ba‘zi erlar qovun polizdagi qo‘riqchiga o‘xshaydi. Xotinini qizg‘anishni ham bilmaydi. Ba‘zi xotinlar ham o‘lardek pandavaqi. Qo‘ynidagi erini qayerdagi suyuqoyoq xotinlarga berib qo‘yadi...

– Nasihatlaringiz bosh ustiga...

– Bu yog‘idan xavotir olmang...

– Men faqat bitta narsaga tushunmayapman, – dedi «soqov xonim» ishva bilan, – bu yaxshiliklar evaziga bizdan nima istaydilar?

– Savob, savob va yana savob... Qolaversa, nima istashimni har biringizning qulog‘ingizga alohida-alohida aytaman, – deb Shaytonvachcha qo‘llarini ikki yoqqa yozib, kerishib qo‘ydi.

– O-o-o... yoqmay ketsin, – deb to‘rt ayol to‘rt tomondan esnab, qorin o‘yin qilib qo‘yishdi...

Shaytonvachcha Dadamirza amakivachchasi bilan qasdlashib qolganini eshitganda ichida ajab bo‘pti ekan, degan, shundan so‘ng kallasida ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan rejalar unga tinchlik bermay qo‘ygandi. Ha, qa-

эшитмаган режалар унга тинчлик бермай кўйганди. Ҳа, қариндошларнинг бир-бири билан юзкўрмас бўлиши шайтонлар учун байрам. Шайтонвачча амакиваччанинг кафесига анча кун қатнаб, ниҳоят у ердаги стриптизчи аёлларни йўлдан урди. Нима учунлигини унинг ўзигина билади. У ёғи сир бўлиб турақолсин. Лекин «Шубҳасиз, шайтоннинг макри заиф бўлгувчидир», дейилади китобда. Ташқарида киш тобора қиличини қайраяпти. Шайтонвачча яшаётган ҳайҳотдек қаср кундан-кунга совиб боряпти. Мана энди бир эмас, тўртта жононни обкелиб олди. Ҳеч бўлмаса кечалари илиқ-иссиқ ётади.

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

*(ёки бир қадам олдинга-ю, икки қадам орқага)*

Ҳайъат аъзолари «Тақво» кафеси билан шуғулланиши керак бўлган шуъба бошлигини чин дилдан олқишладилар. Аслида у ҳеч вақо қилмаган эди. Ахир, ароқ заводини Шайтонвачча ишга тушириб юборди-ку, у эмас.

– Ишонинглар, бу ишга менинг зиғирчаям алоқам йўқ, – деди у тан олиб.

– Камтарлик қилманг, ундан кўра тажрибангизни ўртоқлашинг, – деди раис ўриндиққа ястаниб.

Яхшиям рост гапиргани, бўлмаса йўқ тажрибани каердан олиб гапирарди. Сохта обрў нафақат Одам болаларига, шайтонларга ҳам панд беради.

– Сизни алдай олмайман, жаноб раис, иш ўз-ўзидан юришиб кетди, ўзим ҳам хайрон қолдим, – деди у яна.

– Жанобларининг пойқадами ёқибди-да, – унга пахта кўйган бўлди Ахборотчи.

– Ароқнинг қувватини эллик қилишибдими?

– Номини айтмайсизми, жаноб, «Дўзах»-а, ваҳ...

– Бу билан Одам болаларини ароқдан қайтаришмоқчимиз, тушунмадим?

rindoshlarning bir-biri bilan yuzkoʻrmas boʻlishi shaytonlar uchun bayram. Shaytonvachcha amakivachchanning kafesiga ancha kun qatnab, nihoyat u yerdagi strip-tizchi ayollarni yoʻldan urdi. Nima uchunligini uning oʻzigina biladi. U yogʻi sir boʻlib turaqolsin. Lekin «Shubhasiz, shaytonning makri zaif boʻlguvchidir», deyiladi kitobda. Tashqarida qish tobora qilichini qayrayapti. Shaytonvachcha yashayotgan hayhotdek qasr kundan kunga sovib boryapti. Mana endi bir emas, toʻrtta jononni obkelib oldi. Hech boʻlmasa kechalari iliq-issiq yotadi.

## HAYʼAT YIGʻILISHI

*(yoki bir qadam oldinga-yu, ikki qadam orqaga)*

Hayʼat aʼzolari «Taqvo» kafesi bilan shugʻullani-shi kerak boʻlgan shuʼba boshligʻini chin dildan olqish-ladilar. Aslida u hech vaqo qilmagan edi. Axir, aroq zavodini Shaytonvachcha ishga tushirib yubordi-ku, u emas.

– Ishoninglar, bu ishga mening zigʻirchayam aloqam yoʻq, – dedi u tan olib.

– Kamtarlik qilmang, undan koʻra tajribangizni oʻrtoqlashing, – dedi rais oʻrindiqa yastanib.

Yaxshiyam rost gapirgani, boʻlmasa yoʻq tajribani qayerdan olib gapirardi. Soxta obroʻ nafaqat Odam bolalariga, shaytonlarga ham pand beradi.

– Sizni alday olmayman, janob rais, ish oʻz-oʻzidan yurishib ketdi, oʻzim ham hayron qoldim, – dedi u yana.

– Janoblarning poyqadami yoqibdi-da, – unga paxta qoʻygan boʻldi Axborotchi.

– Aroqning quvvatini ellik qilishibdimi?

– Nomini aytmay sizmi, janob, «Doʻzax»-a, vah...

– Bu bilan Odam bolalarini aroqdan qaytarishmoq-chimi, tushunmadim?

– Aksincha, – dedi shuʼba boshligʻi, – Odam bola-

VAH-VAH, BUNING HAM SHO'RI QURIDI





TO'RT TOMONING QIBLA, TUTUNDAN TARQAGANLARI!



– Аксинча, – деди шуъба бошлиғи, – Одам болариди дўзахга меҳр-муҳаббат уйғотишмоқчи. «Дўзах»нинг бозори чакқон, ҳамма ўшани олиб ичяпти.

– «Такво» кафесидан яна бир янгилик, – деди Ахборотчи. – Эркак официантлар ўралган, хижобли аёл официантларга алмаштирилди.

– Бу яхшими, ёмонми? – кўзлари соққа бўлиб кетди раиснинг.

– Вақт кўрсатади, хазратим, вақт.

Хонада битта ўриндиқ бўш турганига раис энди эътибор қилди. Савол назари билан Ахборотчига каради.

– Бу устолнинг эгаси, – деб бўш ўриндиққа ишора қилди Ахборотчи, – Ажинашамол бошлиқ исёнчилар тўдаси билан музокара олиб боряптилар, шунга бугунги йиғилишга қатнаша олмадилар.

Йиғилишда Шарманканинг бошлиғи яна сувга тушган мушукдек шумшайиб ўтирарди. Маълум бўлишича, бир кунда тўртта энг зўр стриптизчи қизлари йўқолиб қопти. Шартномалар тузиб, қочиб кетмайдиган қилиб мустаҳкамлаб қўйишган экан-у, кимдир уларни йўлдан урибди-да. Ким бўлса ҳам бу ишни ўзига ишонган одам қилган. Бўлмаса, бу кафенинг эгаси ҳам ҳазилакаммас. Унинг қизларини йўлдан уриш учун отнинг калласидек юрак керак.

– Шундай қилиб, ишларимиз бир қадам олдинга-ю, икки қадам орқага бўпти-да, – деб раис йиғилишни ёпди. Жанобларининг хаёли жуда парижон эди. Нимагадир бу сафар йиғилишда Одамшайтон ҳақида гап-сўз бўлмади...

## ЎТМАС ПИЧОҚ

*(ёки Шайтонваччанинг имом домланинг пешанасига тақиллатиши)*

Пешин намозидан кейин Шайтонваччанинг зиёратига овоз ёзиш студиясининг бошлиғи билан имом домла кириб келди. Сув халталарда совғасаломлар.

larida Do‘zaxga mehr-muhabbat uyg‘otishmoqchi. «Do‘zax»ning bozori chaqqon, hamma o‘shani olib ich-yapti.

– «Taqvo» kafesidan yana bir yangilik, – dedi Axborotchi. – Erkak ofitsiantlar o‘ralgan, hijobli ayol ofitsiantlarga almashtirildi.

– Bu yaxshimi, yomonmi? – ko‘zlari soqqa bo‘lib ketdi raisning.

– Vaqt ko‘rsatadi, hazratim, vaqt.

Xonada bitta o‘rindiq bo‘sh turganiga rais endi e‘tibor qildi. Savol nazari bilan Axbarotchiga qaradi.

– Bu ustolning egasi, – deb bo‘sh o‘rindiqqa ishora qildi Axborotchi, – Ajinashamol boshliq isyonchilar to‘dasi bilan muzokara olib boryaptilar, shunga bugungi yig‘ilishga qatnasha olmadilar.

Yig‘ilishda Sharmankaning boshlig‘i yana suvga tushgan mushukdek shumshayib o‘tirardi. Ma‘lum bo‘lishicha, bir kunda to‘rtta eng zo‘r striptizchi qizlari yo‘qolib qopti. Shartnomalar tuzib, qochib ketmaydigan qilib mustahkamlab qo‘yishgan ekan-u, kimdir ularni yo‘ldan uribdi-da. Kim bo‘lsa ham bu ishni o‘ziga ishongan odam qilgan. Bo‘lmasa, bu kafening egasi ham hazilakammas. Uning qizlarini yo‘ldan urish uchun otning kallasidek yurak kerak.

– Shunday qilib, ishlarimiz bir qadam oldinga-yu, ikki qadam orqaga bo‘pti-da, – deb rais yig‘ilishni yopdi. Janoblarining xayoli juda parishon edi. Nimagadir bu safar yig‘ilishda Odamshayton haqida gap-so‘z bo‘lmadi...

## O‘TMAS PICHOQ

*(yoki Shaytonvachchaning imom domlaning peshanasiga taqillatishi)*

Peshin namozidan keyin Shaytonvachchaning ziyoratiga ovoz yozish studiyasining boshlig‘i bilan imom domla kirib keldi. Suv xaltalarda sovg‘a-salomlar.

Салом-аликдан кейин имом домланинг шериги шошаётганини билдириб:

– Таксирим, ўзларини обкетгани қачон келай, – деб имом домлага қаради.

– Ўзим кўнғироқ қиламан, – деди у. – Ҳа, мутаваллига айтиб қўйсангиз, асрни шу ерда ўқисам керак, жаноблари билан гаплашиб оладиган ишларим кўп.

Шайтонвачча имом домлани ясатиғлик дастурхонга таклиф қилди. Стриптизчи қизлар ҳар куни қошдан қовоқ қайтармай навбат билан Шайтонваччага «супер» хизмат кўрсатишарди.

Шайтонвачча чой қайнаткичнинг тугмачасини босиб кўяр экан, имом домлага қаради-да:

– «Тақво»га кўнғироқ қилиб, иссиқроқ бирон нарса буюртирайми, кўнгиллари нима тусайди? – деди.

– Пирим ҳечам ташвиш қилмасинлар, ҳозир учинчи худойидан чиқиб келишим. Пешиндан кейин никоҳ бор. Шу, сизнинг билганингиз билган-да, ош-овқатдан чарчаблар кетаман.

Имом домла гап баҳонасида ўтирадиган столини пастроққа сурди.

– Э, нима қияпсиз, таксирим, юқорига ўтинг, меҳмон отангдан улуғ.

– Пирлик хурматингиз бор-а, битта дастурхон атрофида ўтиришнинг ўзи биз учун катта бахт.

Шу пайт чой биқиллаб қайнади. Имом домла гавдасига ярашмаган чаққонлик билан ўрнидан туриб, чой дамламоқчи бўлди. Бошда салла, устида чакмон, ғалати кўринар экан. Шайтонваччанинг пирлиги тутибми ё атайлабми имом домлани ўз ҳолига қўйиб берди. Баттар бўлсин. Худо хор қиламан деса, шунақа – шайтонга хизмат қилдириб кўяди.

Имом домланинг чой қуйиб узатишлари ҳам ғалати. Шошибми ё эътибор қилмайми, пиёлани чап кўлда узатди. «Умрида бировга ҳеч нарса узатмаганда, фақат олиб ўрганган», – ичида кулиб қўйди Шайтонвачча. Олганда ҳам чап кўли билан олган.

Salom-alikdan keyin imom domlani sheringi shoshayotganini bildirib:

– Taqsim, o‘zlarini obketgani qachon kelay, – deb imom domlaga qaradi.

– O‘zim qo‘ng‘iroq qilaman, – dedi u. – Ha, mutavalliga aytib qo‘ysangiz, asrni shetta o‘qisam kerak, janoblari bilan gaplashib oladigan ishlarim ko‘p.

Shaytonvachcha imom domlani yasatig‘lik dasturxonga taklif qildi. Striptizchi qizlar har kuni qoshdan qovoq qaytarmay, navbat bilan Shaytonvachchaga «super» xizmat ko‘rsatishardi.

Shaytonvachcha choy qaynatkichning tugmachasini bosib qo‘yar ekan, imom domlaga qaradi-da:

– «Taqvo»ga qo‘ng‘iroq qilib, issiqroq biron narsa buyurtiraymi, ko‘ngillari nima tusaydi? – dedi.

– Pirim hecham tashvish qilmasinlar, hozir uchinchi xudoyidan chiqib kelishim. Peshindan keyin nikoh bor. Shu, sizning bilganingiz bilgan-da, osh-ovqatdan charchablar ketaman.

Imom domla gap bahonasida o‘tiradigan ustolini pastroqqa surdi.

– E, nima qilyapsiz, taqsim, yuqoriga o‘ting, mehmon otangdan ulug‘.

– Pirlilik hurmatingiz bor-a, bitta dasturxon atrofida o‘tirishning o‘zi biz uchun katta baxt.

Shu payt choy biqillab qaynadi. Imom domla gavasiga yarashmagan chaqqonlik bilan o‘rnidan turib, choy damlamoqchi bo‘ldi. Boshda salla, ustida chakmon, g‘alati ko‘rinar ekan. Shaytonvachchaning pirligi tutibmi yo ataylabmi imom domlani o‘z holiga qo‘yib berdi. Battar bo‘lsin. Xudo xor qilaman desa, shunaqa – shaytonga xizmat qildirib qo‘yadi.

Imom domlani choy quyib uzatishlari ham g‘alati. Shoshibmi yo e‘tibor qilmaymi, piyolani chap qo‘lda uzatdi. «Umrida birovga hech narsa uzatmagan-da, faqat olib o‘rgangan», – ichida kulib qo‘ydi Shaytonvachcha. Olganda ham chap qo‘li bilan olgan.

– Кечирадилар, шайтонларгина чап кўлда еб-ичадилар, биз Одам болаларимиз, – кулибгина танбех берган бўлди Шайтонвачча.

– Ҳа-я, узр-узр...

Шайтонвачча имом домланинг шунчаки зиёрат учун келмаганини сезиб турарди. Маҳаллада бировни бировга иситиш ёки совитиш билан боғлиқ иш чиқиб қолган бўлиши керак. Ахир, Шайтонвачча Бобилда ўқиб келган-ку. Шунинг учун Шайтонвачча чойдан ҳўплаб, «хизмат» дегандек имом домлага қаради.

– Шу десангиз, – деб имом домла бир турланиб олди. Лекин мақсадга ўтмади, гапни бошқа ёқдан бошлаб ўзига жабр қилди: – каминани кўрдан бир нарса қийнайди, тақсирим... Буни сизга айтмасам, бошқа ҳеч кимга айтолмайман.

– Ҳўш? – шайхларга хос синиқлик билан унга қаради Шайтонвачча. – Гапирсинлар, тортинмасинлар. Тақсиримнинг дин ташвишидан бўлак яна қанақа ташвишлари бўлиши мумкин?

– Шу... назаримда дуоларим қабул бўлмаётгандек... Ўзим жойнамозда бўламан-у, хаёлим қайларда юради, денг. Бировни бировга иситай, деб дам солсам, аксинча, ўша одам исиш ўрнига уйи бузилиб кетяпти. Совитай десам, аксинча, исиб кетяпти. Шу десангиз, одамлар орасида «тескари домла» деган висир-висир гаплар ҳам юриб қолди. Нима қилишга ҳайронман.

Бу гапларга Шайтонвачча бепарвогина кулиб туриб жавоб қайтарди:

– Ҳеч ажабланманг, тақсирим, бу имом домларга теккан касал. Касалнинг сабаби ҳам оддий. Мана, кеча сизнинг маҳаллангиздаги бир қиморвоз худойи қилиб, уйига чақирди. Бормай кўринг-чи, олдингизга кўйган таомини емай кўринг-чи?! Маҳалладан кўчириб юборар.

– Ё кудратингдан, уйда ўтириб шуларгача билиб ўтирбсизми-а, ҳазратим, айтсангиз-айтмасангиз кеча шундай бўлди, – мўлтиради имом домла. Шай-

– Kechiradilar, shaytonlargina chap qo‘lda yeb-ichadilar, biz Odam bolalarimiz, – kulibgina tanbeh bergan bo‘ldi Shaytonvachcha.

– Ha-ya, uzr-uzr...

Shaytonvachcha imom domlaning shunchaki ziyorat uchun kelmaganini sezib turardi. Mahallada birovni birovga isitish yoki sovutish bilan bog‘liq ish chiqib qolgan bo‘lishi kerak. Axir, Shaytonvachcha Bobilda o‘qib kelgan-ku. Shuning uchun Shaytonvachcha choydan ho‘plab, «xizmat» degandek imom domlaga qaradi.

– Shu desangiz, – deb imom domla bir turlanib oldi. Lekin maqsadga o‘tmadi, gapni boshqa yoqdan boshlab o‘ziga jabr qildi: – Kaminani ko‘pdan bir narsa qiynaydi, taqsim... Buni sizga aytmasam, boshqa hech kimga aytolmayman.

– Xo‘sh? – shayxlarga xos siniqlik bilan unga qaradi Shaytonvachcha. – Gapirsinlar, tortinmasinlar. Taqsimning din tashvishidan bo‘lak yana qanaqa tashvishlari bo‘lishi mumkin?

– Shu... nazarimda duolarim qabul bo‘lmayotgandek... O‘zim joynamozda bo‘laman-u, xayolim qaylarda yuradi, deng. Birovni birovga isitay, deb dam solsam, aksincha, o‘sha odam isish o‘rniga uyi buzilib ketyapti. Sovitay desam, aksincha, isib ketyapti. Shu desangiz, odamlar orasida «teskari domla» degan visir-visir gaplar ham yurib qoldi. Nima qilishga hayronman.

Bu gaplarga Shaytonvachcha beparvogina kulib turib javob qaytardi:

– Hech ajablanmang, taqsim, bu imom domlalariga tekkan kasal. Kasalning sababi ham oddiy. Mana, kecha sizning mahallangizdagi bir qimorvoz xudoyi qilib, uyiga chaqirdi. Bormay ko‘ring-chi, oldingizga qo‘ygan taomini yemay ko‘ring-chi?! Mahalladan ko‘chirib yuborar.

– Yo qudratingdan, uyda o‘tirib shulargacha bilib o‘tiribsizmi-a, hazratim, aytasangiz-aytmasangiz kecha shunday bo‘ldi, – mo‘ltiradi imom domla. Shay-

тонвачча шунчаки тусмол билан гапирган эди, бу ёғи  
рост чиқиб қолди.

– Қиморни биласиз, Аллоҳ ҳаром қилган. Ундан  
топилган пул ҳам ҳаром. Жиғилдонга ҳаром лукма  
киргандан кейин дуо қабул бўладими? Асло! Қирк  
кунгача қабул бўлмайди. Тунов куни бир ёшгина  
йигит оламдан ўтди. Тўртта боласи етим қолди.  
Жанозасини ўқидингиз. Ўлик эгаларидан бири ата-  
ганини чўнтагингизга солиб қўйди. Етим ҳақини  
ейиш – дўзах ўтини ейиш билан баробар. Буни яхши  
биласиз. Лекин олмай кўринг-чи, яна балога қоласиз.  
Биз турибмиз-ку, деб кўкрагига уради тоғалари.

– Ўлманг, пирим, ўлманг, – бош эгиб минғирлади  
имом домла. Шайтонваччага унинг салласи-ю гўшт-  
дор икки елкасигини кўринарди.

– Шундан кейин ҳам дуо қабул бўлсинми?

– Ҳеч қачон, ҳеч қачон! – деб имом домланинг  
елкалари уча бошлади. У чиндан ҳам йиғлар эди.  
Шайтонвачча бўлса уни баттар эза бошлади. Гап  
келганда отангни аяма, дейди Одам болалари.

– Пайғамбаримиз суннатларига амал қилиб ду-  
шанба, пайшанба кунлари нафл рўзалари тутгингиз  
келади, лекин тута олмайсиз. Маҳаллада нима кўп –  
худойи кўп. Улар душанба, пайшанба деб ўтириш-  
майди. Рўзадорман, деб кўринг-чи. Яна балога  
қоласиз. Кечалари таҳажжуд намозига тургингиз  
келади. Қайда... Бир ёқда тўй, бир ёқда маърака, Хол  
уканинг итидек чарчайсиз. Дуо қабул бўладиган  
пайтларда тош қотиб ухлаб ётасиз. Шундан кейин  
ҳам дуо қабул бўлсинми? Намозларингизда хушу  
ва хузу пайдо бўлсинми? Шайтоннинг Атеме деган  
ўғли бор. Ухлаб қолиб, намоз вақтини ўтказиб  
юборсангиз, у келади-да, қулоғингизга сийиб кетади.  
Энди бу кулокка қироат кирадими? Шайтоннинг  
яна бир Кухайл исмли ўғли бор. Энди кўлингизга  
китоб олиб, илмимни зиёда қилай, деганингизда у  
пайдо бўлади-да, эркалаб, кўзингизни силаб қўяди.  
Қарабсизки, китоб бир ёқда қолиб, ўзингиз тўшакда  
ётибсиз-да!



tonvachcha shunchaki tasmol bilan gapirgan edi, bu yog‘i rost chiqib qoldi.

– Qimorni bilasiz, Alloh harom qilgan. Undan topilgan pul ham harom. Jig‘ildonga harom luqma kirgandan keyin duo qabul bo‘ladimi? Aslo! Qirq kungacha qabul bo‘lmaydi. Tunov kuni bir yoshgina yigit olamdan o‘tdi. To‘rtta bolasi yetim qoldi. Janozasini o‘qidingiz. O‘lik egalaridan biri ataganini cho‘ntagingizga solib qo‘ydi. Yetim haqini yeyish – do‘zax o‘tini yeyish bilan barobar. Buni yaxshi bilasiz. Lekin olmay ko‘ring-chi, yana baloga qolasiz. Biz turibmiz-ku, deb ko‘kragiga uradi tog‘alari.

– O‘lmang, pirim, o‘lmang, – bosh egib ming‘irladi imom domla. Shaytonvachchaga uning sallasi-yu go‘shtdor ikki yelkasigini ko‘rinardi.

– Shundan keyin ham duo qabul bo‘lsinmi?

– Hech qachon, hech qachon! – deb imom domlanning yelkalari ucha boshladi. U chindan ham yig‘lar edi. Shaytonvachcha bo‘lsa uni battar eza boshladi. Gap kelganda otangni ayama, deydi Odam bolalari.

– Payg‘ambarimiz sunnatlariga amal qilib dushanba, payshanba kunlari nafl ro‘zalari tutgingiz keladi, lekin tuta olmaysiz. Mahallada nima ko‘p – xudoyi ko‘p. Ular dushanba, payshanba deb o‘tirshmaydi. Ro‘zadorman, deb ko‘ring-chi. Yana baloga qolasiz. Kechalari tahajjud namoziga turgingiz keladi. Qayda... Bir yoqda to‘y, bir yoqda ma‘raka, Xol ukaning itidek charchaysiz. Duo qabul bo‘ladigan paytlarda tosh qotib uxlab yotasiz. Shundan keyin ham duo qabul bo‘lsinmi? Namozlaringizda xushu va huzu paydo bo‘lsinmi? Shaytonning Ate me degan o‘g‘li bor. Uxlab qolib, namoz vaqtini o‘tkazib yuborsangiz, u keladi-da, qulog‘ingizga siyib ketadi. Endi bu quloqqa qiroat kiradimi? Shaytonning yana bir Kuhayl ismli o‘g‘li bor. Endi qo‘lingizga kitob olib, ilmimni ziyoda qilay, deganingizda u paydo bo‘ladi-da, erkalab, ko‘zingizni silab qo‘yadi. Qarabsizki, kitob bir yoqda qolib, o‘zingiz to‘shakda yotibsiz-da!

Имом домла энди салласининг печини кўзига босиб, ростмана хўнграб берди. Ҳа, Шайтонвачча имом домланинг пешанасига роса тақиллатди. Атайлаб тақиллатди. Кимлигини кўзига кўрсатиб қўйди. Охиратда Аллоҳга бу бандангнинг пешанасига тақиллатганман, дейиш учун ҳам шундай қилди.

– Нима қил дейсиз, пирим, нима маслаҳат берасиз? – пиқиллади имом домла...

– Ҳеч нарса қилмайсиз. Қила олмайсиз ҳам. Ўтган кунингизга шукр қилиб юраверасиз.

## НАФС БАЛОСИ

*(ёки имом домланинг «соқов хоним»га совчи қўйганлари)*

Пир ва мурид жим бўлиб қолишди. Шайтонвачча имом домланинг нимага келгани ҳам эсидан чиқиб кетдиёв, пешанасига керагидан ортиқроқ «тақиллатиб» юбордим, шекилли, деб ўйлаб қолди.

– Яна бир гап, – деб тилга кирди имом домла, гўё битта масалани ҳал қилиб олиб, кейингисини ҳам ҳал қилиб олмоқчидек. Лекин у ҳозиргина афсус ва надомат чеккан одамга ўхшамас эди. – Шу десангиз, тунов куни келинойингизни бир зиёфат қилдирай деб «Тақво»га олиб борган эдим. Балоба қолдим-да. Шу, битта офатижон официант аёл бор экан, соқов...

– Ҳаҳ-ҳа-ҳ-а-а-а... – деб кулиб юборди Шайтонвачча. – Кеннойим рашк қилдиларми, ўзингиз ҳам бошқача кўз билан қарагандирсиз-да. Айтишади-ку, менинг нафсим балодир, ёнган ўтга солодир, деб...

– Мен эмас, кеннойингиз ўшани ёқтириб қопти, эшитяпсизми, кеннойингиз. Бечора ногирон экан, ошхоналарда бунақа қилиб мўлтираб юрмасин, қараб туриб юрагим ачишиб кетди, менга чўри қилиб бўлсаям олиб беринг, деяпти.

– Э, э... – деб юборди Шайтонвачча шошиб қолганидан. – Қулчиликка келдим, демайсизми, тақсирим. Биз бўлса халидан бери охиратнинг таш-

Imom domla endi sallasining pechini ko'ziga bosib, rostmana ho'ngrab berdi. Ha, Shaytonvachcha imom domlaning peshanasiga rosa taqillatdi. Ataylab taqillatdi. Kimligini ko'ziga ko'rsatib qo'ydi. Oxiratda Allohga bu bandangnngi peshanasiga taqillatganman, deyish uchun ham shunday qildi.

– Nima qil deysiz, pirim, nima maslahat berasiz? – piqilladi imom domla...

– Hech narsa qilmaysiz. Qila olmaysiz ham. O'tgan kuningizga shukr qilib yuraverasiz.

## NAFS BALOSI

*(yoki imom domlaning «soqov xonim»ga sovchi qo'yganlari)*

Pir va murid jim bo'lib qolishdi. Shaytonvachcha imom domlaning nimaga kelgani ham esidan chiqib ketdiyov, peshanasiga keragidan ortiqroq «taqillatib» yubordim, shekilli, deb o'ylab qoldi.

– Yana bir gap, – deb tilga kirdi imom domla, go'yo bitta masalani hal qilib olib, keyingisini ham hal qilib olmoqchidek. Lekin u hozirgina afsus va nadomat chekkan odamga o'xshamas edi. – Shu desangiz, tunov kuni kelinoyingizni bir ziyofat qildiray deb «Taqvo»ga olib borgan edim. Baloga qoldim-da. Shu, bitta ofatijon ofitsiant ayol bor ekan, soqov...

– Hah-ha-h-a-a-a... – deb kulib yubordi Shaytonvachcha. – Kennoyim rashk qildilarmi, o'zingiz ham boshqacha ko'z bilan qaragandirsiz-da. Aytishadi-ku, mening nafsım balodir, yongan o'tga solodir, deb...

– Menamas, kennoyingiz o'shani yoqtirib qopti, eshityapsizmi, kennoyingiz. Bechora nogiron ekan, oshxonalarda bunaqa qilib mo'ltirab yurmasin, qarab turib yuragim achishib ketdi, menga cho'ri qilib bo'lsayam olib bering, deyapti.

– E, e... – deb yubordi Shaytonvachcha shoshib qolganidan. – Qulchilikka keldim, demaysizmi, taqsirim.

вишини қилиб бошқа кўчаларда адашиб юриб-миз. Шу озгина кеч қолдингизда, қадрдон. У опачамнинг харидори чиққан, ширинкомасига юз минг «кўки»данам бериб қўйган. Ширинкомани мен аллақачон ишлатиб ҳам юбордим. Соқов опачамнинг иложи йўқ, бошқасига харидор бўлақолсинлар.

– Йўқ, пирим, ким совчи қўйган бўлса ҳам шартни бузинг, ҳа, мен учун бузинг, ўла-ўлгунча қулингиз бўлай, жон пирим, – ёлбора бошлади имом домла. – Каминани, каминага қўшиб шўрлик хотинимни ноумид қилманг.

– Бу дейман, тақсирим, Худо ўзларини фарзанддан қисганми, дейман.

– Зийраксизда, пирим... Зора чўримиздан фарзанд кўрсак, хотиним билан эгачи-сингилдек яшайверишади-да. Тили-жағи йўқ экан бунинг устига.

– Хўш, – деб шунчаки хаёл сурган бўлди Шайтонвачча, – шартни бузадиган бўлсам ширинкомани икки баравар қилиб қайтаришим керак-да, тақсир. Ҳа, бўлмайти, ҳеч иложи йўқ.

– Мен бераман ўша икки баробарини, кўркманг!

– Унда сут пулини кимдан оламан?

– Сут пулини ҳам мендан оласиз, хотирингиз жам бўлсин.

– Ним-а-а-а... – кўзлари пешанасига чиқиб кетди Шайтонваччанинг. Шайтонвачча эшитаётган кулоқларига ишонмаётган эди. Битта фоҳишага шунча пул! Бу кунингдан баттар бўл-э, дегандек имом домлага жирканиб қараб қўйди.

Шайтонвачча имом домладан икки юз минг «кўки»ни олиб, олдинги харидор билан орани очик қилиб олгандан кейин жавобини айтадиган бўлди. Албатта, у айтган «харидор» шунчаки уйдирма харидор эди. Лекин Шайтонваччани битта нарса ўйлантириб қўйди. Бу пуллар унга қўйилган тузоқ бўлмасин тагин? Бир балоси бўлмаса, шудгорда куйруқ на қилур... Хўжақишлоқда сал қолди-ку тузоққа тушиб, оёқ остида тепкиланиб кетишига. Имом домланинг асл мақсади нима экан? Ҳар қалай

Biz bo‘lsa halidan beri oxiratning tashvishini qilib boshqa ko‘chalarda adashib yuribmiz. Shu ozgina kech qoldingizda, qadrdon. U opachamning xaridori chiqqan, shirinkomasiga yuz ming «ko‘ki»danam berib qo‘ygan. Shirinkomani men allaqachon ishlatib ham yubordim. Soqov opachamning ilojim yo‘q, boshqasiga xaridor bo‘laqolsinlar.

– Yo‘q, pirim, kim sovchi qo‘ygan bo‘lsa ham shartni buzing, ha, men uchun buzing, o‘la-o‘lguncha qulinigiz bo‘lay, jon pirim, – yolbora boshladi imom domla. – Kaminani, kaminaga qo‘shib sho‘rlik xotinimni noumid qilmang.

– Bu deyman, taqsirim, Xudo o‘zlarini farzanddan qisganmi, deyman.

– Ziyraksizda, pirim... Zora cho‘rimizdan farzand ko‘rsak, xotinim bilan egachi-singildek yashay-verishadi-da. Tili-jag‘i yo‘q ekan buning ustiga.

– Xo‘sh, – deb shunchaki xayol surgan bo‘ldi Shaytonvachcha, – shartni buzadigan bo‘lsam shirinkomani ikki baravar qilib qaytarishim kerak-da, taqsir. Ha, bo‘lmaydi, hech iloji yo‘q.

– Men beraman o‘sha ikki barobarini, qo‘rqmang!

– Unda sut pulini kimdan olaman?

– Sut pulini ham mendan olasiz, xotiringiz jam bo‘lsin.

– Nim-a-a-a... – ko‘zlari peshanasiga chiqib ketdi Shaytonvachchaning. Shaytonvachcha eshitayotgan qu-loqlariga ishonmayotgan edi. Bitta fohishaga shuncha pul! Bu kuningdan battar bo‘l-e, degandek imom domlaga jirkanib qarab qo‘ydi.

Shaytonvachcha imom domladan ikki yuz ming «ko‘ki»ni olib, oldingi xaridor bilan orani ochiq qilib olgandan keyin javobini aytadigan bo‘ldi. Albatta, u aytgan «xaridor» shunchaki uydirma xaridor edi. Lekin Shaytonvachchani bitta narsa o‘ylantirib qo‘ydi. Bu pullar unga qo‘yilgan tuzoq bo‘lmasin tag‘in? Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur... Xo‘jaqishloqda sal qoldi-ku tuzoqqa tushib, oyoq ostida tepkilanib ke-

бир кўришдаёқ ошиғу бекарор бўлиб қолмагандир? Лекин «соқов хоним» ростдан ҳам офатижонда. Кўзлари жоду. Кийикникидек мўлтираб ҳатто тошни ҳам эритади. Соқовлик унинг учун айб эмас – хусн. Қадди-қоматини ҳижоб ичида киши билмас шунақанги ўйнатиб кўядики, кўрган эркак оҳ деб юборади. Эс-хушини йўқотади. Шу топда Шайтонваччага Ажинашамолнинг қадри ўтди. Шайтонваччага хос айғоқчи жинлар керак эди. Ахир, Одам болалари киши билмас унга чоҳ қазийтган бўлиши ҳам мумкин-да. Бўлмаса битта фоҳишанинг нархи ҳеч жаҳонда тўрт юз минг долларга ҳам чиқадими? Бу ерда бир гап бор.

## МУЛОЙИМ СУПУРГИЛАР

*(ёки Шайтонваччанинг қон босими мингга чиқиб кетганлари)*

Шайтонвачча жинлар оламида нималар бўлаётганидан беҳабар эди. Шунинг учун дарвозани ичкаридан беркитиб, учинчи қаватга кўтарилди. Бинонинг кўп қаватли бўлгани хўп яхши бўлди-да, Ажинашамол билан бемалол, бурунни бурунга қўйиб гаплашиш мумкин. У деразани очиб, қўл телефонида кодни терди. Ҳозирок ҳаммаёқни тўзғитиб етиб келади қадрдони Ажинашамол. Шайтонвачча кўзлари тўрт бўлиб кута бошлади. Ҳадеганда ундан дарак бўлавермади. Нима бало, ароқ ичавериб у ҳам пиёниста бўлиб қолдимикан? Ё мияси айнаб, кодни эсидан чиқардимикан? Унақа бўлмасин-да, ишқилиб. Бу дунёда Ажинашамолдан бошқа ишонадиган кими бор унинг? Ажраб қолса, ҳаммаси тамом бўлади-я!

Шу пайт Шайтонваччанинг қулоғига ғалати овозлар эшитилиб қолди. Тепадан пастга қараган эди, ҳовлида юрган мулойим супургиларга кўзи тушди. Улар нукул Шайтонваччага қараб қўл силкишарди:

tishiga. Imom domlaning asl maqsadi nima ekan? Har qalay bir ko‘rishdayoq oshig‘u beqaror bo‘lib qolmagandir? Lekin «soqov xonim» rostdan ham ofatijonda. Ko‘zlari jodu. Kiyiknikidek mo‘ltirab, hatto toshni ham eritadi. Soqovlik uning uchun ayb emas – husn. Qaddi-qomatini hijob ichida kishi bilmas shunaqangi o‘ynatib qo‘yadiki, ko‘rgan erkak oh deb yuboradi. Es-hushini yo‘qotadi. Shu topda Shaytonvachchaga Ajinashamolning qadri o‘tdi. Shaytonvachchaga xos ayg‘oqchi jinlar kerak edi. Axir, Odam bolalari kishi bilmas unga choh qaziyotgan bo‘lishi ham mumkin-da. Bo‘lmasa bitta fohishaning narxi hech jahonda to‘rt yuz ming dollarga ham chiqadimi? Bu yerda bir gap bor.

## MULOYIM SUPURGILAR

*(yoki Shaytonvachchanning qon bosimi mingga chiqib ketganlari)*

Shaytonvachcha jinlar olamida nimalar bo‘layotganidan bexabar edi. Shuning uchun darvozani ichkari-dan berkitib, uchinchi qavatga ko‘tarildi. Binoning ko‘p qavatli bo‘lgani xo‘p yaxshi bo‘ldi-da, Ajinashamol bilan bemalol, burunni burunga qo‘yib gaplashish mumkin. U derazani ochib, qo‘l telefonidan kodni terdi. Hoziroq hammayoqni to‘zg‘itib yetib keladi qadrdoni Ajinashamol. Shaytonvachcha ko‘zlari to‘rt bo‘lib kuta boshladi. Hadeganda undan darak bo‘lavermedi. Nima balo, aroq ichaverib u ham piyonista bo‘lib qoldimikan? Yo miyasi aynab, kodni esidan chiqardimikan? Unaqa bo‘lmasin-da, ishqilib. Bu dunyoda Ajinashamoldan boshqa ishonadigan kimi bor uning? Ajrab qolsa, hammasi tamom bo‘ladi-ya!

Shu payt Shaytonvachchanning qulog‘iga g‘alati ovozlari eshitilib qoldi. Tepadan pastga qaragan edi, hovlida yurgan muloyim supurgilarga ko‘zi tushdi. Ular nuqul Shaytonvachchaga qarab qo‘l silkishardi:

– Хе-й-й-й... Салом, хўжайин...

Олдинига Шайтонвачча уларни танишни ҳам, танимасликни ҳам билмай туриб қолди. Нимага деганда илгари мулойим супургиларнинг кекирдаги битта эди-да. Энди ҳар бири ўз ҳолича мустақил бўлиб олибди. Шайтонвачча ҳозир тушаман, деб ишора қилди-ю, бирдан кўрқиб кетди. Нимага Ажинашамолнинг ўзи келмай, ўғилларини юборди экан? Отасининг кодини болалари билмас эди-ку. Мабодо ота ўлиб-нетиб қолсагина код болаларига мерос бўлиб ўтарди. Наҳотки куриб кеткур Дада-мирзанинг ароғи Ажинашамолнинг бошига етган бўлса?! Шайтонвачча ҳовлига юриб тушдими, учиб тушдими, билмай ҳам қолди. Аммо жинбаччалар олдида ўзини тезда қўлга олди. Жўртага ўзини танимаганга олиб, деди:

– Вей, сенлар кимсанлар, бировнинг ҳовлисида нима қилиб юрибсанлар?

– Танимай қолдингизми, хўжайин? Жа кўзингизни ёғ босиб қолибдими?

– Э, сен бу кишимни хўжайин дема, бой ота де, – жикиллади униси. – Қара уй-жойларини – шоҳона-ку, вой-бў-ў-ў...

– Э, ўзингдан катта гапирганда жим турсанг-чи, жинқарча.

– Бекорларни айтибсан, баравар туғилганмиз, танамиз битта-ю, калламиз иккиталигини эсингдан чиқардингми, эси паст?

– Жим бўл, менинг каллам сеникидан олдин чиққан. Шундай қилиб, хўжайин, биз Хўжақишлоқдаги ўша мулойим супургилармиз. Ка-а-а-атта бўлдик. Лекин энди мен ҳовли супурмайман, манави маҳмадона жинқарча супураверсин. Менга ка-а-а-атта ишларни буюринг.

– Шунақа қилиб катта бўлволдик, денглар? – Шайтонвачча ҳали ҳам оталарингга нима бўлди, деб сўрашга тили айланмаётган эди. Мабодо «Ўлиб қолди», деган хабарни эшитса, қай аҳволга тушишини тасаввур ҳам қила олмас эди.



– He-y-y-y... Salom, xo‘jayin...

Oldiniga Shaytonvachcha ularni tanishni ham, tanimaslikni ham bilmay turib qoldi. Nimaga deganda ilgari muloyim supurgilarning kekirdagi bitta edida. Endi har biri o‘z holicha mustaqil bo‘lib olibdi. Shaytonvachcha hozir tushaman, deb ishora qildi-yu, birdan qo‘rqib ketdi. Nimaga Ajinashamolning o‘zi kelmay, o‘g‘illarini yubordi ekan? Otasining kodini bolalari bilmas edi-ku. Mabodo ota o‘lib-netib qolsagina kod bolalariga meros bo‘lib o‘tardi. Nahotki qurib ketkur Dadamirzaning arog‘i Ajinashamolning boshiga yetgan bo‘lsa?! Shaytonvachcha hovliga yurib tushdimi, uchib tushdimi, bilmay ham qoldi. Ammo jinbachchalar oldida o‘zini tezda qo‘lga oldi. Jo‘rtaga o‘zini tanimaganga olib, dedi:

– Vey, senlar kimsanlar, birovning hovlisida nima qilib yuribsanlar?

– Tanimay qoldingizmi, xo‘jayin? Ja ko‘zingizni yog‘ bosib qolibdimi?

– E, sen bu kishimni xo‘jayin dema, boy ota de, – jikilladi unisi. – Qara uy-joylarini – shohona-ku, voy bo‘-o‘-o‘...

– E, o‘zingdan katta gapirganda jim turasang-chi, jinqarcha.

– Bekorlarni aytibsan, baravar tug‘ilganmiz, tanamiz bitta-yu, kallamiz ikkitaligini esingdan chiqardingmi, esi past?

– Jim bo‘l, mening kallam senikidan oldin chiqqan. Shunday qilib, xo‘jayin, biz Xo‘jaqishloqdagi o‘sha muloyim supurgilarmiz. Ka-a-a-atta bo‘ldik. Lekin endi men hovli supurmayman, manavi mahmadona jinqarcha supuraversin. Menga ka-a-a-atta ishlarni buyuring.

– Shunaqa qilib katta bo‘lvoldik, denglar? – Shaytonvachcha hali ham otalaringga nima bo‘ldi, deb so‘rashga tili aylanmayotgan edi. Mabodo «O‘lib qoldi», degan xabarni eshitsa, qay ahvolga tushishini tasavvur ham qila olmas edi.

– Ҳа, ка-а-атта бўлдик.

– Бундан чикди уйлантириб ҳам кўй, дерсизлар?

– Сиз ҳалиям уятсиз экансиз.

Шу пайт шамол туриб, қор учқунлари тўзғиб қолди. Шайтонвачча тепага қараб, кўзи шифтдек бўлиб турган Ажинашамолга тушди. Ўзиям тўлишиб, бикқидек бўлиб, таниб бўлмайдиган бўлиб кетибди. Шайтонвачча жинбаччаларни пастда қолдириб, ўзи юқори қаватга шошилди. Зиналардан учиб-қўниб юқорига кўтарилар экан, «Хайрият», – деб кўйди.

Маълум бўлишича, Ажинашамол ким биландир музокара олиб бораётганда Шайтонваччадан ЭСЭМЭС бориб қопти. Шунга мендан олдин бориб туринглар, деб Ҳасан ва Ҳусанни жўнатган экан. Шайтонвачча бўлса қаёқдаги хаёлларга бориб ўтирибди.

– Ким у сен билан музокара олиб борадиган? – жаҳл билан сўради Шайтонвачча. Ажинашамол олтин медалли бўлиб, жинларга зиёфат бергандан кейин бир тўда жинлар уни ўзларига подшо қилиб сайлаганларини, бундан буёғига ҳамма жинлар фақат Ажинашамолга ва Шайтонваччага хизмат қилишини айтиб берди. Уларнинг бу ишидан шохдор раис дарғазаб экан. Шунга жинлар шуъбасининг бошлиғи у билан музокара олиб бораётган экан.

– Мақсади нима экан уларнинг? – сергак тортди Шайтонвачча.

– Хожанг Одамшайтонни бизга тутиб берсанг бўлди, сен билан ишимиз йўқ, билганингни қилавер, дейишяпти. Кейин «кўки»дан икки миллион ваъда ҳам қилди, – деди Ажинашамол.

Шайтонвачча бундоқ ўйлаб қараса, ишни ўзи бузиб кўйган экан. Олтин медал билан Ажинашамолни ҳовликтириб нима қиларди? Ароқ билан ювишга бало бормиди? Одамлар ҳаётини жинлар ҳаётига олиб кириб нима қиларди? Олтин медал... «Ювиш»... Ҳе каллаварам... Хўжақишлоқда бир марта жинларнинг ҳақ ва ҳуқуқларини тиклаб берувди-ку, шунинг ўзи етарди. Ташландиқ суякларни ғажиб, чилдирмасини

– Ha, ka-a-atta bo‘ldik.

– Bundan chiqdi uylantirib ham qo‘y, dersizlar?

– Siz haliyam uyatsiz ekansiz.

Shu payt shamol turib, qor uchqunlari to‘zg‘ib qoldi. Shaytonvachcha tepaga qarab, ko‘zi shiftdek bo‘lib turgan Ajinashamolga tushdi. O‘ziyam to‘lishib, biqqidek bo‘lib, tanib bo‘lmaydigan bo‘lib ketibdi. Shaytonvachcha jinbachchalarni pastda qoldirib, o‘zi yuqori qavatga shoshildi. Zinalardan uchib-qo‘nib yuqoriga ko‘tarilar ekan: «Xayriyat», – deb qo‘ydi.

Ma’lum bo‘lishicha, Ajinashamol kim bilandir muzokara olib borayotganda Shaytonvachchadan ESEMES borib qopti. Shunga mendan oldin borib turinglar, deb Hasan va Husanni jo‘natgan ekan. Shaytonvachcha bo‘lsa qayoqdagi xayollarga borib o‘tiribdi.

– Kim u sen bilan muzokara olib boradigan? – jahl bilan so‘radi Shaytonvachcha. Ajinashamol oltin medalli bo‘lib, jinlarga ziyofat bergandan keyin bir to‘da jinlar uni o‘zlariga podsho qilib saylaganlarini, bundan buyog‘iga hamma jinlar faqat Ajinashamolga va Shaytonvachchaga xizmat qilishini aytib berdi. Ularning bu ishidan shoxdor rais darg‘azab ekan. Shunga jinlar shu’basining boshlig‘i u bilan muzakora olib borayotgan ekan.

– Maqsadi nima ekan ularning? – sergak tortdi Shaytonvachcha.

– Xojang Odamshaytonni bizga tutib bersang bo‘ldi, sen bilan ishimiz yo‘q, bilganingni qilaver, deyishyapti. Keyin «ko‘ki»dan ikki million va’da ham qildi, – dedi Ajinashamol.

Shaytonvachcha bundoq o‘ylab qarasa, ishni o‘zi buzib qo‘ygan ekan. Oltin medal bilan Ajinashamolni hovliqtirib nima qilardi? Aroq bilan yuvishga balo bormidi? Odamlar hayotini jinlar hayotiga olib kiritib nima qilardi? Oltin medal... «Yuvish»... He kallavaram... Xo‘jaqishloqda bir marta jinlarning haq va huquqlarini tiklab beruvdi-ku, shuning o‘zi yetardi.

чалиб юравермайдими бу жинлар? Қачон қараса меҳрибончилиги Шайтонваччанинг бошига бало бўлади.

– Ароқ тугадими? – дабдурустдан сўраб қолди Шайтонвачча.

– Э, у тугайдиган бало эмас. Битта шишасининг ўзи мингта жинга минг йилга етади.

– Жинларинг ароқни нима қилишяпти ўзи? – хайрон бўлиб сўради Шайтонвачча.

– Мингтаси бир ерга тўп бўлиб, тиқинини очишади-да, битта-битта ҳидлаб олишади, шу билан бўлди... Кейин кўзлари қонга тўлиб, буюринг, қиролим, қаерни бузайлик, қаерни тузайлик, деб шовқин кўтаришади. Кайфлари тарқагунча бир-бирлари билан жикқамушт бўлиб ёқалашади...

– Э, қойил, – деб минғирлади Шайтонвачча, – ҳидига шунчалик бўлса, тағинам Одам болалари бир-бирини еб қўйишмас экан.

– Хожам бир нима дедиларми?

– Ҳа, йўқ, – деди Шайтонвачча одатича бошини кашлаб. У ёқдагилар тутиб бер, дейишаётган бўлса, бунинг устига яна икки миллион мукофот... Демак, шайтонлар олами Одамшайтоннинг баҳридан ўтишмоқчи. Ажабо, Шайтонвачча уларга нима ёмонлик қилди экан? Ўзлари-ку сиғдиришмади. Думи билан қулоғини кесиб, замбаракка солиб отишди. Мана энди у бечора одам бўлиб одаммас, шайтон бўлиб шайтонмас. Аросатда юрибди. Шу биттагина бошига Одам болалари бир миллион доллар тикканда, ўзиникилар икки миллион доллар тикибди. Бу ёқда Дадамирзадан ҳам кўнгли тўқ эмас. Хоҳлаган пайтда панд бериши мумкин. Бунинг устига имом домланинг битта фоҳишага тўрт юз минг «кўки»ни санайман деб туриши ҳам шубҳали. Яшаш қанчалар қийин-а, ишонадиган кими бор ўзи унинг бу дунёда? Ажинашамолми? У ҳам йўқ жойдан подшо бўлиб олибди. Ана сенга дунёнинг ишлари... Шайтонваччанинг ичидан қиринди ўтса ҳам сездирмай Ажинашамолга деди:

Tashlandiq suyaklarni g‘ajib, childirmasini chalib yura-vermaydimi bu jinlar? Qachon qarasa mehribonchiligi Shaytonvachchaning boshiga balo bo‘ladi.

– Aroq tugadimi? – dabdurustdan so‘rab qoldi Shaytonvachcha.

– E, u tugaydigan balo emas. Bitta shishasining o‘zi mingta jinga ming yilga yetadi.

– Jinlaring aroqni nima qilishyapti o‘zi? – hayron bo‘lib so‘radi Shaytonvachcha.

– Mingtasi bir yerga to‘p bo‘lib, tiqinini ochishadi-da, bitta-bitta hidlab olishadi, shu bilan bo‘ldi... Keyin ko‘zlari qonga to‘lib, buyuring, qirolim, qayerni buzaylik, qayerni tuzaylik, deb shovqin ko‘tarishadi. Kayflari tarqaguncha bir-birlari bilan jiqqamusht bo‘lib yoqalashadi...

– E, qoyil, – deb ming‘irladi Shaytonvachcha, – hidiga shunchalik bo‘lsa, tag‘inam Odam bolalari bir-birini yeb qo‘yishmas ekan.

– Xojam bir nima dedilarmi?

– Ha, yo‘q, – dedi Shaytonvachcha odaticha boshini qashlab. U yoqdagilar tutib ber, deyishayotgan bo‘lsa, buning ustiga yana ikki million mukofot... Demak, shaytonlar olami Odamshaytonning bahridan o‘tishmoqchi. Ajabo, Shaytonvachcha ularga nima yomonlik qildi ekan? O‘zlari-ku sig‘dirishmadi. Dumi bilan qulog‘ini kesib, zambarakka solib otishdi. Mana endi u bechora odam bo‘lib odammas, shayton bo‘lib shaytonmas. Arosatda yuribdi. Shu bittagina boshiga Odam bolalari bir million dollar tikkanda, o‘zinikilar ikki million dollar tikibdi. Bu yoqda Dadamirzadan ham ko‘ngli to‘q emas. Xohlagan paytda pand berishi mumkin. Buning ustiga imom domlanning bitta fohishaga to‘rt yuz ming «ko‘ki»ni sanayman deb turishi ham shubhali. Yashash qanchalar qiyin-a, ishonadigan kimi bor o‘zi uning bu dunyoda? Ajinashamolmi? U ham yo‘q joydan podsho bo‘lib olibdi. Ana senga dunyoning ishlari... Shaytonvachchaning ichidan qirindi o‘tsa ham sezdirmay Ajinashamolga dedi:

– Табриклайман, омадинг кепти, энди мени уларга тутиб бер-да, икки миллион «кўки»ни олиб, подшолигингни мустаҳкамлаб ол, маза қилиб яша, мана, мени элтиб топшир. Кеча сен менинг кулим эдинг, бугун мен сенга қулман. Бу шунақа бевафо дунё экан, қариндош.

Шайтонвачча «қариндош» дейиши билан Ажинашамолга бир вақтлар осмону фалақдан ерга олиб тушиб қўйган пайтларини эслатди. Бирдан Ажинашамолнинг авзойи ўзгарди. Кўзлари соққа бўлиб кинидан чиқай деди. Шартта бўйнидаги ялтир-юлтирни юлиб, Шайтонваччанинг оёғи тагига отди:

– Қулингизни ҳақорат қилманг, хожам, ундан кўра мени ўлдилинг. Сизга садоқатим олдида подшолигу анови миллионлар мен учун бир тийин!

Шайтонвачча Одамшайтон бўлиб қолгандан бери биринчи марта одамга ўхшаб юраги эзилди. Кўнглининг бир чеккасида заифгина бўлса ҳам меҳр чечаклари мавж урди. Инсоний туйғулар эпкинни меҳр чечакларини сийпалаб ўтди. У шу пайтгача садоқат қанақа бўлишини билмас эди. Аммо ундаги одамий ўйлардан шайтоний ўйлари устун келди.

– Балли, – деди у Ажинашамолга, – шундай дейишингни билардим. Ўғилларингни менга қолдир. Яна хизматимга ўн-ўн бешта қилни қирқ ёрадиган жинлардан жўнатиб юбор. Кейин билган ишингни қилавер. Мен сендан хотиржамман. Ҳа, кўнглим тўқ.

– Амрингиз бош устига, хожам...

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

*(ёки шуъба бошлигининг жинлар олдидан ғалаба билан қайтиши)*

Бу галги йиғилиш жинлар ҳузуридан ғалаба билан қайтган шуъба бошлигини олқишлаш билан бошланди.

– Гапиринг, – деди шохдор раис унга сўз бериб. Раис жаноблари тафсилотларни билишга ошиқарди.

– Tabriklayman, omading kepti, endi meni ularga tutib ber-da, ikki million ko‘kini olib, poshsholigingni mustahkamlab ol, maza qilib yasha, mana, meni eltib topshir. Kecha sen mening qulim eding, bugun men senga qulman. Bu shunaqa bevafo dunyo ekan, qarindosh.

Shaytonvachcha «qarindosh» deyishi bilan Ajinashamolga bir vaqtlar osmonu falakdan yerga olib tushib qo‘ygan paytlarini eslatdi. Birdan Ajinashamolning avzoyi o‘zgardi. Ko‘zlari soqqa bo‘lib qinidan chiqay dedi. Shartta bo‘ynidagi yaltir-yultirni yulib, Shaytonvachchanning oyog‘i tagiga otdi:

– Qulingizni haqorat qilmang, xojam, undan ko‘ra meni o‘ldiring. Sizga sadoqatim oldida poshsholigu anovi millionlar men uchun bir tiyin!

Shaytonvachcha Odamshayton bo‘lib qolgandan beri birinchi marta odamga o‘xshab yuragi ezildi. Ko‘nglining bir chekkasida zaifgina bo‘lsa ham mehr chechaklari mavj urdi. Insoniy tuyg‘ular epkini mehr chechaklarini siypalab o‘tdi. U shu paytgacha sadoqat qanaqa bo‘lishini bilmas edi. Ammo undagi odamiy o‘ylardan shaytoniy o‘ylari ustun keldi.

– Balli, – dedi u Ajinashamolga, – shunday deyingni bilardim. O‘g‘illaringni menga qoldir. Yana xizmatimga o‘n-o‘n beshta qilni qirq yoradigan jinlardan jo‘natib yubor. Keyin bilgan ishingni qilaver. Men sendan xotirjamman. Ha, ko‘nglim to‘q.

– Amringiz bosh ustiga, xojam...

## HAY‘AT YIG‘ILISHI

*(yoki shu‘ba boshlig‘ining jinlar oldidan g‘alaba bilan qaytishi)*

Bu galgi yig‘ilish jinlar huzuridan g‘alaba bilan qaytgan shu‘ba boshlig‘ini olqishlash bilan boshlandi.

– Gapiring, – dedi shoxdor rais unga so‘z berib. Rais janoblari tafsilotlarni bilishga oshiqardi. Jinlarning

Жинларнинг шохдор раиснинг қўл остидан чиқиб кетиши шайтонлар салтанатининг заифлашиб, парчаланиб кетишига олиб келарди.

– Тан олишим керак, ҳурматли жаноблар, – дея ўтирганларга қаради шуъба бошлиғи ҳорғин бир қиёфада. Кўринишдан у ўзини анча олдириб қўйган эди. Ахир, бу топшириқ у учун ҳаёт-мамот масаласи бўлди-да. Уддасидан чиқса хўп-хўп-а, чиқолмаса ер юзига тутундек тарқаб кетарди. – Шу десангиз, кечагина қўл остингизда хошам бўласиз деб турган қавмга икки букилиб қуллуқ қилиш жудаям оғир бўларкан. Бундоқ ён берай демайди, лаънатилар. Ажинашамолнинг бўйнида анави ялтир-юлтир олтин медал. Подшоман, деб димоғи шишиб кетган. Али десам, бали дейди, бали десам, али дейди, у тутундан тарқаган. Унинг орқасида ким турганини биламасам экан, – деб у раисга бир қараб қўйди. Бу билан у Одамшайтонга ишора қилаётган эди. – Даъвосини қаранг, бизнинг олиб бораётган тутимимиз эскирганмиш. Янгича даври-давронлар бошланганиши керакмиш. Уларнинг биздан ажраб чиқиши ана шу янги давр-у давронлардан даракмиш. Охири мен ҳам масалани кўндаланг қўйдим. Бизга Одамшайтонни тутиб бер-да, подшолигинг билан қўшмозор бўл, эвазига яна икки миллион доллар оласан, дедим. Тўғри айтибманми, жаноб, – деб раисга қараб қўйди шуъба бошлиғи. Раис ноилож бош ирғаб, тасдиқлаган бўлди. Албатта, Одамшайтон ҳақида гап кетса, таёқнинг бир учи раисга тегишини ўтирганлар яхши билишади. – Менинг бу таклифимдан кейин у музокарадан тайм аут олиб, қайгадир ғойиб бўлди, десангиз. Ахир, унинг подшолигини тан олишимиз, бунинг устига икки миллион «кўки»дан беришимиз уни ўйлантириб қўйди-да. Кимда нафс йўқ дейсиз? Ниҳоят мўлжалга урдим, деб тайм аутнинг натижасини кута бошладим. – Раис сал безовта бўлиб қолди. Наҳотки Одамшайтонни тутиб келган бўлса? Наҳотки шундоқ нодир нарсанинг куни битган бўлса? – Лекин воқеа мен ўйлаганчалик бўлмади, –



shoxdor raisning qo‘l ostidan chiqib ketishi shaytonlar saltanatining zaiflashib, parchalanib ketishiga olib keldi.

– Tan olishim kerak, hurmatli janoblar, – deya o‘tirganlarga qaradi shu‘ba boshlig‘i horg‘in bir qi-yofada. Ko‘rinishdan u o‘zini ancha oldirib qo‘ygan edi. Axir, bu topshiriq u uchun hayot-mamot masalasi bo‘ldi-da. Uddasidan chiqsa xo‘p-xo‘p-a, chiqolmasa yer yuziga tutundek tarqab ketardi. – Shu desangiz, kechagina qo‘l ostingizda xojam bo‘lasiz deb turgan qavmga ikki bukilib qulluq qilish judayam og‘ir bo‘larkan. Bundoq yon beray demaydi, la‘natilar. Aji-nashamolning bo‘ynida anavi yaltir-yultir oltin medal. Podshoman, deb dumog‘i shishib ketgan. Ali desam, bali deydi, bali desam, ali deydi, u tutundan tarqagan. Uning orqasida kim turganini bilamasam ekan, – deb u raisga bir qarab qo‘ydi. – Bu bilan u Odamshaytonga ishora qilayotgan edi. – Da‘vosini qarang, bizning olib borayotgan tutimimiz eskirganmish. Yangicha davri-davronlar boshlananishi kerakmish. Ularning bizdan ajrab chiqishi, ana shu yangi davr-u davronlardan darakmish. Oxiri men ham masalani ko‘ndalang qo‘ydim. Bizga Odamshaytonni tutib ber-da, podsholing bilan qo‘shmozor bo‘l, evaziga yana ikki million dollar «ko‘ki»dan olasan, dedim. To‘g‘ri aytibmanmi, janob, – deb raisga qarab qo‘ydi shu‘ba boshlig‘i. Rais noiloj bosh irg‘ab, tasdiqlagan bo‘ldi. Albatta, Odamshayton haqida gap ketsa, tayoqning bir uchi raisga tegishini o‘tirganlar yaxshi bilishadi. – Mening bu taklifimdan keyin u muzokaradan taym aut olib, qaygadir g‘oyib bo‘ldi, desangiz. Axir, uning podsholigini tan olishimiz, buning ustiga ikki million «ko‘ki»dan berishimiz uni o‘ylantirib qo‘ydi-da. Kimda nafs yo‘q deysiz? Nihoyat mo‘ljalga urdim, deb taym autning natijasini kuta boshladim. – Rais sal bezovta bo‘lib qoldi. Nahotki Odamshaytonni tutib kelgan bo‘lsa? Nahotki shundoq nodir narsaning kuni bitgan bo‘lsa? – Lekin voqea men o‘ylaganchalik bo‘lmadi, –

деб ух тортди шуъба бошлиғи. – У тутундан таркаган қора мўнди нима деди денг: «Мен хожамга хиёнат қилмайман, унинг ҳаётига алмашадиган бунақа подшоликнинг менга кераги йўқ. Ундан воз кечаман, мукофот пулларинг бошингдан қолсин», – деб подшоллигини тарқатиб юборди. Бор гап шу... Бояги-бояги, бойхўжанинг таёғи, ҳаммаси ўз ўрнида қолди...

Раис эркин нафас олиб мажлисни ёпди. Одамшайтонни сиртдан ўлимга ҳукм қилган бўлса ҳам ич-ичидан уни ёқлаб юрарди. Ахир, яхшими-ёмонми Одамшайтон унинг гибрид боласи-да. Типратикон ҳам боласини юмшоғим деган-а?..

## 108-КАНАЛ ЯНА ЭФИРДА

*(ёки Дадамирзанинг ўйламай-нетмай қовун тушириб қўйганлари)*

Анчадан бери 108-каналнинг нафаси ичига тушиб кетган, кўрсатувлари тўхтаб қолган эди. Шайтонвачча шу балодан кутулдим-да, деб хурсанд юрарди. Дадамирза Шайтонваччага кўнғироқ қилиб: «Тез 108-канални ёқинг», – деб қолди. Шайтонваччанинг юраги «шув» этиб кетди. Яна нима гап бўлди экан? Ҳар қалай Дадамирза Шайтонваччага бекордан-бекорга 108-канални ёқинг, демайди. Шайтонвачча хавотир ичида пулт тугмасини босди.

Экранда яна ўша отнинг қашқасидек бўлиб қолган эски кадрдони – бошловчи қиз. Кўлига микрофонни тутволиб, тўйхонадами-ей, ишқилиб, катта бир издиҳомда у ёқдан бу ёққа саллона-саллона юрибдилар. Қайдандир кулоққа ёқимли мусиқа овозлари чалинади. Бирдан экранда «Тақво» деган таниш афиша пайдо бўлди-ю, Шайтонвачча шошиб қолди. Хона совуқ эди, баттар совқотиб кетди. Оббо, шуниси етмай турувди, яна нима бўлди экан?

– Азизлар, – деди бошловчи қиз экранга қараб, – биз лаззатли таомлари ва беминнат хизматлари билан

deb uh tortdi shu'ba boshlig'i. – U tutundan tarqagan qora mo'ndi nima dedi deng: «Men xojamga xiyonat qilmayman, uning hayotiga almashadigan bunaqa podsholikning menga keragi yo'q. Undan voz kechaman, mukofot pullaring boshingdan qolsin», – deb podsholigini tarqatib yubordi. Bor gap shu... Boyagi-boyagi, boyxo'janing tayog'i, hammasi o'z o'rnida qoldi...

Rais erkin nafas olib majlisni yopdi. Odamshaytonni sirtidan o'limga hukm qilgan bo'lsa ham ich-ichidan uni yoqlab yurardi. Axir, yaxshimi-yomonmi Odamshayton uning gibrid bolasi-da. Tipratikon ham bolasini yumshog'im degan-a?..

## 108-KANAL YANA EFIRDA

*(yoki Dadamirzaning o'ylamay-netmay qovun tushirib qo'yganlari)*

Anchadan beri 108-kanalning nafasi ichiga tushib ketgan, eshittirishlari to'xtab qolgan edi. Shaytonvachcha shu balodan qutildim-da, deb xursand yurardi. Dadamirza Shaytonvachchaga qo'ng'iroq qilib: «Tez 108-kanalni yoqing», – deb qoldi. Shaytonvachchanning yuragi «shuv» etib ketdi. Yana nima gap bo'ldi ekan? Har qalay Dadamirza Shaytonvachchaga bekordan bekorga 108-kanalni yoqing, demaydi. Shaytonvachcha xavotir ichida pult tugmasini bosdi.

Ekranda yana o'sha otning qashqasidek bo'lib qolgan eski qadrdoni – boshlovchi qiz. Qo'liga mikrafonni tutvolib, to'yxonadami-yey, ishqilib, katta bir izdihomda u yoqdan bu yoqqa sallona-sallona yuribdilar. Qaydandir quloqqa yoqimli musiqa ovozlari chalindi. Birdan ekranda «Taqvo» degan tanish afisha paydo bo'ldi-yu, Shaytonvachcha shoshib qoldi. Xona sovuq edi, battar sovqotib ketdi. Obbo, shunisi yetmay turuvdi, yana nima bo'ldi ekan?

– Azizlar, – dedi boshlovchi qiz ekranga qarab, – biz lazzatli taomlari va beminnat xizmatlari bilan ham-

хамманинг эътиборига тушган «Тақво» кафесидамиз. Бу кафе кўп нарсаларни эсга солади, – деб бошловчи киз мийғида кулиб қўйди. Унинг нималарга ишора қилаётганини зийрак томошабинлар тезда тушундилар. – Бугун гап ўзга сайёралик келгиндилар ҳақида эмас, гап кафедаги ажойиб бир янгилик ҳақида. Ҳозир мен эътиборингизни ўша янгиликка қаратаман. Ўзингиз ҳам тан бериб юборасиз. Ана, хўрандаларга фариштадек хизмат қилиб юрган официантларга диққат билан бир қаранг. Илгари бу ерда эркак официантлар хизмат қилишарди. Энди хонимлар билан алмаштирилди. Ва жуда тўғри иш қилинди. Уларнинг кийиб олган либосларига бир қаранг. Кафенинг номига жудаям мос, ранги ҳам ҳаворанг. Ҳа, яхлит бир ансамблни эслатади. Бамисоли сараланган гулдаста деяверинг. Бу – шахримиз аёллари учун яна бир қулайлик дегани. Илгари бу кафега аёл зоти умуман қадам босмасди. Фақат эркакларгина келишарди. Бу инсофданмиди? Йўқ, албатта. Мана, кўриб турганингиздек озгина изланиш билан эътирозга ўрин қолмади ҳисоб. Ҳаммаси янада яхши бўлди. Кафе кафемисан кафе бўлди...

Бу гаплар, табиий, Шайтонваччага ёқа бошлади. Оғзининг таноби қочиб, қанотини диваннинг икки ёғига ташлаб, оёқларини чалиштириб, ўзида ички бир ҳузур туйди. «Бу ишнинг ташаббускори ўзимиз-да, ойимча, Дадамирзанинг калласи бунақа ишларга сапчалик қилади!» Экранда дугоналари, эри, фарзандлари билан маза қилиб таомланиб ўтирган ҳижобли, ҳижобсиз аёллар кенг планда кўрсатилди. Кейин Шайтонваччанинг официант опачалари. Улар худди либослар уйидаги маникенларга ўхшаб ўзларича ишвалар қилган бўлишди. «Ҳа, кўрдиларингми, каминанинг даврида яйраб қолинглар, юрувдиларинг стриптизда ялтироқ совуқ темирни кучоқлаб», – деб хурсандчилигидан қарсак уриб юборди Шайтонвачча. Хўрандалардан кимлардир Дадамирзанинг номига мақтовлар ёғдирди. Таомларга гап йўқ, деб мақтади... Аммо

maning e'tiboriga tushgan «Taqvo» kafesidamiz. Bu kafe ko'p narsalarni esga soladi, – deb boshlovchi qiz miyig'ida kulib qo'ydi. Uning nimalarga ishora qilayotganini ziyrak tomoshabinlar tezda tushundilar. – Bugun gap o'zga sayyoralik kelgindilar haqida emas, gap kafedagi ajoyib bir yangilik haqida. Hozir men e'tiboringizni o'sha yangilikka qarataman. O'zingiz ham tan berib yuborasiz. Ana, xo'randalarga farishta-dek xizmat qilib yurgan ofitsiantlarga diqqat bilan bir qarang. Ilgari bu yerda erkak ofitsiantlar xizmat qilishardi. Endi xonimlar bilan almashtirildi. Va juda to'g'ri ish qilindi. Ularning kiyib olgan liboslariga bir qarang. Kafening nomiga judayam mos, rangi ham havorang. Ha, yaxlit bir ansamblni eslatadi. Bamisoli saralangan guldasta deyavering. Bu – shahrimiz ayollari uchun yana bir qulaylik degani. Ilgari bu kafega ayol zoti umuman qadam bosmasdi. Faqat erkaklarga kelishardi. Bu insofdanmidi? Yo'q, albatta. Mana, ko'rib turganingizdek ozgina izlanish bilan e'tirozga o'rin qolmadi, hisob. Hammasi yanada yaxshi bo'ldi. Kafe kafemisan kafe bo'ldi...

Bu gaplar, tabiiy, Shaytonvachchaga yoqa boshladi. Og'zining tanobi qochib, qanotini divanning ikki yog'iga tashlab, oyoqlarini chalishtirib, o'zida ichki bir huzur tuydi. «Bu ishning tashabbuskori o'zimiz-da, oyimcha, Dadamirzaning kallasi bunaqa ishlarga saphchalik qiladi!» Ekranda dugonalari, eri, farzandlari bilan maza qilib taomlanib o'tirgan hijobli, hijobsiz ayollar keng planda ko'rsatildi. Keyin Shaytonvachchanning ofitsiant opachalari. Ular xuddi liboslar uyidagi manikenlarga o'xshab, o'zlaricha ishvalar qilgan bo'lishdi. «Ha, ko'rdilaringmi, kaminaning davrida yayrab qolinglar, yuruvdilaring striptizda yaltiroq sovuq temirni quchoqlab», – deb xursandchiligidan qarsak urib yubordi Shaytonvachcha. Xo'randalardan kimlardir Dadamirzaning nomiga maqtovlar yog'dirdi. Taomlarga gap yo'q, deb maqtadi... Ammo shu yerga kelgan-

шу ерга келганда кутилмаган воқеа юз берди. Ўзи шунақа бўлади. Қаердандир ошга пашша тушади. Хўрандалардан бири гўё Дадамирзани мактамоқчидек микрофонни қўлига олиб, ғалати жилмайди.

– Мен, – деди у жаҳл билан, – кафенинг «Тақво» деб аталишига мутлақо қаршиман. Уни аслида «Тақво»мас, «Расво» деб аташ керак. Дадамирзани фирибгар, ўғри дейиш керак.

Бошловчи шошиб қолди.

– Ҳазиллашманг-э, – деб микрофонни унинг қўлидан олиб қўймоқчи бўлди.

– Жим туринг, – деб у бошловчини нари сурди, – ҳазиллашмаяпман... Айтган ҳар бир сўзимга жавоб бераман.

Шайтонвачча бақа бўлиб қолди. Иложи бўлса-ю, телевизорнинг ичига кириб, ўша одамни бўғиб ўлдирса. Гапираётган киши Дадамирзанинг амакиваччаси эди. У стриптизчи қизларини таниб қолганга ўхшайди. Оббо, бу ёғи неча пулданга тушди энди? Ҳеч тинчлик йўқ экан-да бу дунёда. Аммо Шайтонвачча довдираб қолмади. Тезда Ҳасан-Ҳусан жинларни чақириб, стриптизчи ҳақида маълумот тўплаб келишни буюрди. Жинлар «Тақво» кафеси томон равона бўлишди.

– Бу официант аёлларнинг тақвога ҳеч қанақа алоқаси йўқ, – деди у жаҳл билан. – Улар менинг стриптиз клубимнинг ходималари. Стриптизда қанақа ходималар ишлашини яхши биласизлар. Дадамирза уларни йўлдан уриб, бир думалатиб ҳижобга киритиб, официант қилиб қўйибди. Қолаверса, бу хонимчалар мен билан беш йилга шартнома тузишган. Энди Дадамирза ҳам, шартномани бузган бу хонимчалар ҳам жуда катта миқдорда жаримага тортиладилар ва қамаладилар.

Бошловчи қиз эркакнинг қўлидан микрофонни куч билан тортиб олиб, официант аёлларнинг бирига юзланди:

– Опажон, шу гаплар ростми?

– Тухмат. Биз Санобархон, Саидахон, Садбархон,

da kutilmagan voqea yuz berdi. O‘zi shunaqa bo‘ladi. Qayerdandir oshga pashsha tushadi. Xo‘randalardan biri go‘yo Dadamirzani maqtamoqchidek mikrafonni qo‘liga olib, g‘alati jilmaydi.

– Men, – dedi u jahl bilan, – kafening «Taqvo» deb atalishiga mutlaqo qarshiman. Uni aslida «Taqvo»mas, «Rasvo» deb atash kerak. Dadamirzani firibgar, o‘g‘ri deyish kerak.

Boshlovchi shoshib qoldi.

– Hazillashmang-e, – deb mikrafonni uning qo‘lidan olib qo‘ymoqchi bo‘ldi.

– Jim turing, – deb u boshlovchini nari surdi, – hazillashmayapman... Aytgan har bir so‘zimga javob beraman.

Shaytonvachcha baqa bo‘lib qoldi. Iloji bo‘lsayu, televizorning ichiga kirib, o‘sha odamni bo‘g‘ib o‘ldirsa. Gapirayotgan kishi Dadamirzaning amakivachchasi edi. U striptizchi qizlarini tanib qolgan-ga o‘xshaydi. Obbo, bu yog‘i necha puldanga tushdi endi? Hech tinchlik yo‘q ekan-da bu dunyoda. Ammo Shaytonvachcha dovdirab qolmadi. Tezda Hasan-Husan jinlarni chaqirib, striptizchi haqida ma’lumot to‘plab kelishni buyurdi. Jinlar «Taqvo» kafesi tomon ravona bo‘lishdi.

– Bu ofitsiant ayollarning taqvoga hech qanaqa aloqasi yo‘q, – dedi u jahl bilan. – Ular mening striptiz klubining xodimalari. Striptizda qanaqa xodimlar ishlashini yaxshi bilasizlar. Dadamirza ularni yo‘ldan urib, bir dumalatib hijobga kiritib, ofitsiant qilib qo‘yibdi. Qolaversa, bu xonimchalar men bilan besh yilga shartnoma tuzishgan. Endi Dadamirza ham, shartnomani buzgan bu xonimchalar ham juda katta miqdorda jarimaga tortiladilar va qamaladilar.

Boshlovchi qiz erkakning qo‘lidan mikrafonni kuch bilan tortib olib, ofitsiant ayollarning biriga yuzlandi:

– Opajon, shu gaplar rostmi?

– Tuhmat. Biz Sanobarxon, Saidaxon, Sadbarxon,

Сохибахонлар қишлоқдан келганмиз. Укамиз мана шу ёқларга келиб тоғамизнинг битта-ю битта ўғли Дадамирза акани топиб олган экан. Хавотир олиб, кўргани келувдик, бу ерда биз боп мана шунақа иш бор экан, ишляпмиз, шу... Биз қишлоқдаги энг тақволи хонадоннинг қизларимиз...

– Демак, сизларнинг ҳеч қанақа стриптизга алоқангиз йўқ?

– Йў-ў-ў, йў-ў-ў... Биз ҳеч қачон жиз-бизни билмаймиз, биззи ишимиз шу ерда – залда.

– Ана холос, стриптиз билан жиз-бизнинг фарқига бормайдиган аёлларга бу очикдан-очик тухмат. Кечирасизлар, қайси қишлоқдансизлар?

– Хўжақишлоқдан.

– Хўжақишлоқдан? – сергак тортди бошловчи қиз.

– Ҳа, нимаиди, опача?

– Укангизнинг исми Кавсарбекми-ей, Овсарбекми-ей, ишқилиб, шунақароқ эмасмиди?

– Йўғ-е, нималар деяпсиз? Укамизнинг исми бир чиройли – Қозимирз-о-о-о, – деди аёл оғзини тўлдириб.

– Буни текширув кўрсатади, – деди эркак бўш келмай, – сен артистдан чиққан стриптизчи эдинг, ҳозирам артислик қиялпсан!

– Кўрсатувимизни шу пардаларда тугатамиз, азиз томошабинлар, – деб шоша-пиша кўрсатувга яқун ясади бошловчи қиз. – Биз билан қолинг ва бизни кутинг...

## ЙЎҚ ЖОЙДАН МАШМАША

*(ёки Шайтонваччанинг боши берк кўчага кириб қолганлари)*

Дадамирза фойда кетидан қувиб, амакиваччасининг тузоғига илиниб қолди. Бунга 108-каналнинг ўзга сайёралик билан боғлиқ кўрсатуви сабаб бўлди-ю, рекламанинг мазасига тушуниб қолган Дадамирза 108-каналда яна чикқиси келиб қолди.



Sohibaxonlar qishloqdan kelganmiz. Ukamiz mana shu yoqlarga kelib tog'amizning bitta-yu bitta o'g'li Dadamirza akani topib olgan ekan. Xavotir olib, ko'rgani keluvdik, bu yerda biz bop mana shunaqa ish bor ekan, ishlayapmiz, shu... Biz qishloqdagi eng taqvoli xonadonning qizlarimiz...

– Demak, sizlarning hech qanaqa striptizga aloqangiz yo'q?

– Yo'-o'-o', yo'-o'-o'... Biz hech qachon jiz-bizni bilmaymiz, bizni ishimiz shu yerda – zalda.

– Ana xolos, strip tiz bilan jiz-bizning farqiga bormaydigan ayollarga bu ochiqdan ochiq tuhmat. Ke-chirasizlar, qaysi qishloqdansizlar?

– Xo'jaqishloqdan.

– Xo'jaqishloqdan? – sergak tortdi boshlovchi qiz.

– Ha, nimaydi, opacha?

– Ukangizning ismi Kavsarbekmi-yey, Ovsarbekmi-yey, ishqilib, shunaqaroq emasmidi?

– Yo'g'-e, nimalar deyapsiz? Ukamizning ismi bir chiroyli – Qozimirz-o-o-o, – dedi ayol og'zini to'ldirib.

– Buni tekshiruv ko'rsatadi, – dedi erkak bo'sh kelmay, – sen artistdan chiqqan striptizchi eding, hoziram artistlik qilyapsan!

– Ko'rsatuvimizni shu pardalarda tugatamiz, aziz tomoshabinlar, – deb shosha-pisha ko'rsatuvga yakun yasadi boshlovchi qiz. – Biz bilan qoling va bizni kuting...

## YO'Q JOYDAN MASHMASHA

*(yoki Shaytonvachchaning boshi berk ko'chaga kirib qolganlari)*

Dadamirza foyda ketidan quvib, amakivachchasining tuzog'iga ilinib qoldi. Bunga 108-kanalning o'zga sayyoralik bilan bog'liq ko'rsatuvi sabab bo'ldi-yu, reklamaning mazasiga tushunib qolgan Dadamirza 108-kanalda yana chiqqisi kelib qoldi. Shu

Шу билан амакиваччасини тамомила синдирмоқчи бўлди. Амакиваччасини «Такво»га атайлаб меҳмонга ҳам чақирди. Кутилмаганда иш бунақасига айланиб кетди. Стриптиз сўзини эшитгандан кейин хўрандалар буюртирган овқатларини ҳам емай кафени ташлаб чиқиб кетишди. Судлашиб, ҳақиқат қарор топгунча нима гап-у, нима сўз. Боши қотиб қолган Дадамирза Қозимирзанинг олдига чопди.

– Нима қилиб кўйдингиз, Дадамирза ака?! Шу рекламасиз ҳам пичоғингиз мой устида эди-ку. Ёмонам очкўз одам экансиз.

– Шайтон йўлдан урди, ука.

– Э... шайтонни тинч кўйинг, у жойида жим ўтирибди, – деб Шайтонвачча сал бўлмаса ўзини фош қилиб кўяй деди. – Хўш, нима қилмоқчисиз энди?

– 108-канал билан гаплашдим, у опачаларингизни олиб, қишлоғингизга борадиган, ўша ёқдан кўрсатув тайёрлаб, стриптизчини шарманда қиладиган, тухматчи деб уни жаримага тортадиган бўлди. Ҳа, опачаларингизнинг бокира аёллар эканлигини исботлайди. Шундай қилсак, судлашишга ҳам ҳожат қолмайди. «Такво» яна ўз обрўсини тиклаб олади.

– Бекорларни айтибсиз, энди бир камим бокира опачаларимни фоҳишамас, деб эл кўзига исботлашим қолувдими? Ахир, бу шармандалик-ку. Нуқул менга иш орттириб юрасиз, Дадамирза ака. Бўпти, бу ёғини ўзимга кўйиб беринг, амакиваччангизни шундай қилайки, дунёга келганига минг пушаймон есин, – деб Хўжақишлоқдаги спорт ўқитувчисини бир эслаб кўйди.

– Барака топинг, Қозимирза ука, ўзингиз бир иложини қилинг унда. Кўкиданми, сариғиданми, қанча кетса, кетсин, аяш йўқ. Нима қилиб бўлса ҳам «Такво»ни қайта юргизворишимиз керак. Амакиваччам олдида ер чизиб қолгандан ўлганим яхши.

– Боринг, уйингизга бориб, дамингизни олинг, – деди Шайтонвачча Дадамирзага раҳми келиб. – Ҳозир бир нарса дея олмайман. Аммо қишлоққа

bilan amakivachchasini tamomila sindirmoqchi bo‘ldi. Amakivachchasini «Taqvo»ga ataylab mehmonga ham chaqirdi. Kutilmaganda ish bunaqasiga aylanib ketdi. Striptiz so‘zini eshitgandan keyin xo‘randalar buyurtirgan ovqatlarini ham yemay kafeni tashlab chiqib ketishdi. Sudlashib, haqiqat qaror topguncha nima gap-u, nima so‘z. Boshi qotib qolgan Dadamirza Qozimirzaning oldiga chopdi.

– Nima qilib qo‘ydingiz, Dadamirza aka?! Shu reklamasiz ham pichog‘ingiz moy ustida edi-ku. Yomonam ochko‘z odam ekansiz.

– Shayton yo‘ldan urdi, uka.

– E... shaytonni tinch qo‘ying, u joyida jim o‘tiribdi, – deb Shaytonvachcha sal bo‘lmasa o‘zini fosh qilib qo‘yay dedi. – Xo‘sh, nima qilmoqchisiz endi?

– 108-kanal bilan gaplashdim, u opachalaringizni olib, qishlog‘ingizga boradigan, o‘sha yoqdan ko‘rsatuv tayyorlab, striptizchini sharmanda qiladigan, tuhmatchi deb uni jarimaga tortadigan bo‘ldi. Ha, opachalaringizning bokira ayollar ekanligini isbotlaydi. Shunday qil-sak, sudlashishga ham hojat qolmaydi. «Taqvo» yana o‘z obro‘sini tiklab oladi.

– Bekorlarni aytibsiz, endi bir kamim bokira opachalarimni fohishamas, deb el ko‘ziga isbotlashim qoluvdimi? Axir, bu sharmandalik-ku. Nuqul menga ish orttirib yurasiz, Dadamirza aka. Bo‘pti, bu yog‘ini o‘zimga qo‘yib bering, amakivachchangizni shunday qilayki, dunyoga kelganiga ming pushaymon yesin, – deb Xo‘jaqishloqdagi sport o‘qituvchisini bir eslab qo‘ydi.

– Baraka toping, Qozimirza uka, o‘zingiz bir ilojini qiling unda. Ko‘kidanmi, sarig‘idanmi, qancha ketsa, ketsin, ayash yo‘q. Nima qilib bo‘lsa ham «Taqvo»ni qayta yurgizvorishimiz kerak. Amakivachcham oldida yer chizib qolgandan o‘lganim yaxshi.

– Boring, uyingizga borib, damingizni oling, – dedi

бориб кўрсатув қилишни хаёлингиздан чиқариб ташланг.

Шайтонваччанинг боши қотди. Шарманда қиламан деса Худоба осон-да. Босар-тусарини билмай гуриллаб турган Дадамирза бир зумда мулла минган эшакдек бўлди-қолди. Шайтонвачча эса бунақа аҳволга кўп тушган. Одам болалари ҳам, шайтонлар ҳам Яратганининг олдида ожиз. Бўлиб ўтган воқеа Дадамирзадан кўра Шайтонваччага кўпроқ муаммо туғдирарди. Судлашса, стриптизчи ютиб чиқиши аниқ. Кўрпага қараб оёқ узатмаса бўлмайди. У Ҳасан ва Ҳусан жинларни сабрсизлик билан кута бошлади. Қани, бу жинбаччалар нима гап топиб келишар экан? Стриптизчи ҳам унча-мунча одамлардан эмас. Шаҳарда айтгани айтган, дегани деганлардан. Осонликча жон бермайди.

## ҲАСАН-ҲУСАН ЖИНЛАР

*(ёки Шайтонваччанинг «Азроил» билан мулоқотлари)*

Ҳасан ва Ҳусан жинлар шундай ажойиб ва ғаройиб маълумотларни топиб келишдики, Шайтонвачча хурсандлигидан чапак чалиб юборди. Барака топкур Ажинашамол жинбаччаларни яхши тарбия қилибди. Улар билан анча-мунча ишларни қилиб ташласа бўлади. Олиб келган маълумотларини қаранг: стриптизчи «Малборо» деган сигарет чекар экан. Тутунини оғзидан ҳалқа-ҳалқа қилиб чиқариб, томоша қилишни яхши кўраркан. Маймунга ўхшаб чап қулоғини кўп қашир экан. «Брэнди» шишасига олифтагарчиликка оддий мусалласдан солиб қўйганмиш. Офисда хос хожатхонаси бўлиб, сейфнинг тугмачаси унитазнинг ичида экан. Сув босими билан унитаз чеккага сурилиб, сейф чиқиб келар экан. Унда тўртта қуйма сариғидан ва яна тахи бузилмаган пуллар кўп экан. Азаматлар эринмай «кўки»ни санаб ҳам кўришибди.

Shaytonvachcha Dadamirzaga rahmi kelib. – Hozir bir narsa deya olmayman. Ammo qishloqqa borib ko‘rsatuv qilishni xayolingizdan chiqarib tashlang.

Shaytonvachchaning boshi qotdi. Sharmanda qilaman desa Xudoga oson-da. Bosar-tusarini bilmay gurillab turgan Dadamirza bir zumda mulla mingan eshakdek bo‘ldi-qoldi. Shaytonvachcha esa bunaqa ahvolga ko‘p tushgan. Odam bolalari ham, shaytonlar ham Yaratganning oldida ojiz. Bo‘lib o‘tgan voqea Dadamirzadan ko‘ra Shaytonvachchaga ko‘proq muammo tug‘dirardi. Sudlashsa, striptizchi yutib chiqishi aniq. Ko‘rpaga qarab oyoq uzatmasa bo‘lmaydi. U Hasan va Husan jinlarni sabrsizlik bilan kuta boshladi. Qani, bu jinbachchalar nima gap topib kelishar ekan? Striptizchi ham uncha-muncha odamlardan emas. Shaharda aytgani aytgan, degani deganlardan. Osonlikcha jon bermaydi.

## HASAN-HUSAN JINLAR

*(yoki Shaytonvachchaning «Azroil» bilan muloqotlari)*

Hasan va Husan jinlar shunday ajoyib va g‘aroyib ma’lumotlarni topib kelishdiki, Shaytonvachcha xursandligidan chapak chalib yubordi. Baraka topkur Ajinashamol jinbachchalarni yaxshi tarbiya qilibdi. Ular bilan ancha-muncha ishlarni qilib tashlasa bo‘ladi. Olib kelgan ma’lumotlarini qarang: striptizchi «Malboro» degan sigaret chekar ekan. Tutunini og‘zidan halqa-halqa qilib chiqarib, tomosha qilishni yaxshi ko‘rarkan. Maymunga o‘xshab chap qulog‘ini ko‘p qashir ekan. «Brendi» shishasiga oliftagarchilikka oddiy musallasdan solib qo‘yganmish. Ofisida xos hojatxonasi bo‘lib, seyfnig tugmachasi unitazning ichida ekan. Suv bosimi bilan unitaz chekkaga surilib, seyf chiqib kelar ekan. Unda to‘rtta quyma sarig‘idan va yana taxi buzilmagan

Қўл телефони ва машинасининг рақамларигача билиб келишган.

Шайтонвачча хурсанд бўлганидан сал бўлмаса жинбаччаларни ҳам биттадан олтин медалли қилиб юборишига бир баҳя қолди. Жинбаччалар бузилиб кетмасин, деб ўзини тийди. Шошмай турсин, Шайтонвачча бу маълумотлар билан стриптизчини шундоқ ноғорасига ўйнатадики... Нақ дабдаласини чиқаради.

У юмшоқ ўриндиққа жойлашиб ўтириб олди-да, стриптизчига шошмасдан сим қоқди:

– Жаноби олийларига чексиз ва чегарасиз саломларимиз бўлсин...

– Кимсан? – деган дағал жавоб бўлди у ёқдан.

– Олдин саломга алиқ оладилар-да, тақсирим, Салом Аллоҳнинг исми, ахир.

– Майнавозчилик қилма, мен сени танимайман.

– Биз эса жанобларини таниймиз, 108-каналда афти-ангорларини кўрдик, нутқ ирод қилганларини эшитдик. Шу десангиз, андак кўрқиб ҳам кетдик. Лекин лабга учуқ чиқадиган даражада эмас.

– Тушунарли, фоҳишаларнинг лайчасиман, дегин?

– Йўқ, камина Шайтон Шайтонович бўламан.

– Шайтон Шайтонович?!

– Ҳа, емоқда ҳам, ичмоқда ҳам, ётоқда ҳам ҳаммиша-ҳамрўз ажралмас ҳамроҳингиз – Шайтон Шайтонович.

– ...

– Ҳа, нимага жимиб қолдилар?

– Ҳе-хе-хе, – деб нописанд кулги эшитилди у тарафдан. – Сен шайтон бўлсанг, биласанми мен кимман? Мен Азроилман, Азроил!

Шайтонвачча ҳам хузур қилиб кулди-да:

– Шу, Одам болаларига ҳайронман-да, чўнтагига уч-тўрт танга тушиб қолдим, бас, бирпасда Азроил бўлиб қолишади.

Шайтонвачча сизди, у ёқда суҳбатдоши сигарет тутатди.

– Сиз билан танишганимдан хурсандман, жаноби

pullar ko‘p ekan. Azamatlar erinmay «ko‘ki»ni sanab ham ko‘rishibdi. Qo‘l telefoni va mashinasining raqamlarigacha bilib kelishgan.

Shaytonvachcha xursand bo‘lganidan sal bo‘lmasa jinbachchalarni ham bittadan oltin medalli qilib yuborishiga bir bahya qoldi. Jinbachchalar buzilib ketmasin, deb o‘zini tiydi. Shoshmay tursin, Shaytonvachcha bu ma’lumotlar bilan striptizchini shundoq nog‘orasiga o‘ynatadiki... Naq dabdaldasini chiqaradi.

U yumshoq o‘rindiqla joylashib o‘tirib oldi-da, striptizchiga shoshmasdan sim qoqdi:

– Janobi oliylariga cheksiz va chegarasiz salomlarimiz bo‘lsin...

– Kimsan? – degan dag‘al javob bo‘ldi u yoqdan.

– Oldin salomga alik oladilar-da, taqsim, Salom Allohning ismi, axir.

– Maynavozchilik qilma, men seni tanimayman.

– Biz esa janoblarini taniymiz, 108-kanalda aftangorlarini ko‘rdik, nutq irod qilganlarini eshitdik. Shu desangiz, andak qo‘rqib ham ketdik. Lekin labga uchuq chiqadigan darajada emas.

– Tushunarli, fohishalarning laychasiman, degin?

– Yo‘q, kamina Shayton Shaytonovich bo‘laman.

– Shayton Shaytonovich?!

– Ha, yemoqda ham, ichmoqda ham, yotoqda ham hamisha-hamro‘z ajralmas hamrohingiz – Shayton Shaytonovich.

– ...

– Ha, nimaga jimib qoldilar?

– He-he-he, – deb nopisand kulgi eshitildi u tarafdin. – Sen shayton bo‘lsang, bilasanmi men kimman? Men Azroilman, Azroil!

Shaytonvachcha ham huzur qilib kuldi-da:

– Shu, Odam bolalariga hayronman-da, cho‘ntagiga uch-to‘rt tanga tushib qoldimi, bas, birpasda Azroil bo‘lib qolishadi.

Shaytonvachcha sezdi, u yoqda suhbatdoshi sigaret tutatdi.

Азроил, энди «Малборо»га кўпам зўр беравермангда, Азроил бўлсангиз бир хунарингизни кўрсатинг-чи, нималарга қодир экансиз?

— ...

— Ҳа, чап қулоқни қашиб қолдингиз, тинчликми? Азроилман, дейсиз-у, «Брэнди»нинг шишасига хўжа кўрсинга мусаллас солиб қўясиз. Хабарингиз йўқми, «Дўзах» деган янгилари чикди-ку бу савилнинг.

— Қаердалигингни айт, сен билан пачакишлашиб ўтиришга вақтим йўқ.

— Ана холос, Азроилман дейдилар-у, яна ман-зилимни сўрайдилар, ҳе-хе-хе...

— Чайналма, мақсадга ўт! Нима дейсан?

— Бу бошқа гап. Азроил жаноблари, 108-каналга чиқадилар-да, бояги ирод қилган нутқларини қайтиб оладилар ва Дадамирзадан кечирим сўрайдилар, вассалом.

— Нима-нима? Ҳеч қачон. Қўлимда бир эмас, мингта исбот, далилим бор.

— Талашмайлиг-у, аслида стриптизчи хонимлар менинг ходималарим. Уларни сизга десант қилиб мен ташлагандим. Энди у ердан олиб Дадамирзага ташладим. Нимага десангиз, стриптизда қиладиган ишлари қолмади уларнинг.

— Жа нимани қойил қилиб қўйишибди ўша фо-хишаларинг?

— Билмасангиз билиб қўйинг, шаҳри азимдаги қанчадан қанча эркакман деганларни йўлдан уриб, пешанасига «зинокор» деган тамғани босишдими — босишди. Камига ўзларининг бўйнига «қўшмачи» деган тавқи лаънатни ҳам осишди. Охиратда бунинг жавобини берасиз. Стриптизнинг орқасидан тўртта олтин ёмби, ҳар бири ўн икки килодан, — деб Шайтонвачча «кўки»нинг ҳам аниқ ҳисобини айтди. — Шунча бойликни қўлга киритиб, нимани қойил қилишибди дейсиз-а, инсоф борми ўзи сизда, ўрток Азроил?..

— Ҳеч қанақа ёмби, ҳеч қанақа «кўки» йўқ, —



– Siz bilan tanishganimdan xursandman, janobi Azroil, endi «Malboro»ga ko‘pam zo‘r beravermangda, Azroil bo‘lsangiz bir hunaringizni ko‘rsating-chi, nimalarga qodir ekansiz?

– ...

– Ha, chap quloqni qashib qoldingiz, tinchlikmi? Azroilman, deysiz-u, «Brendi»ning shishasiga xo‘ja ko‘rsinga musallas solib qo‘yasiz. Xabaringiz yo‘qmi, «Do‘zax» degan yangilari chiqdi-ku bu savilning.

– Qayerdaligingni ayt, sen bilan pachakishlashib o‘tirishga vaqtim yo‘q.

– Ana xolos, Azroilman deydilar-u, yana manzilimni so‘raydilar, he-he-he...

– Chaynalma, maqsadga o‘t! Nima deysan?

– Bu boshqa gap. Azroil janoblari, 108-kanalga chiqadilar-da, boyagi irod qilgan nutqlarini qaytib oladilar va Dadamirzadan kechirim so‘raydilar, vassalom.

– Nima-nima? Hech qachon. Qo‘limda bir emas, mingta isbot, dalilim bor.

– Talashmaylig-u, aslida striptizchi xonimlar mening xodimalarim. Ularni sizga desant qilib men tashlagandim. Endi u yerdan olib Dadamirzaga tashladim. Nimaga desangiz, striptizda qiladigan ishlari qolmadi ularning.

– Ja nimani qoyil qilib qo‘yishibdi o‘sha fohishalaring?

– Bilmasangiz bilib qo‘ying, shahri azimdagi qanchadan qancha erkakman deganlarni yo‘ldan urib, peshanasiga «zinokor» degan tamg‘ani bosishdimi – bosishdi. Kamiga o‘zlarining bo‘yniga «qo‘shmach» degan tavqi la‘natni ham osishdi. Oxiratda buning javobini berasiz. Striptizning orqasidan to‘rtta oltin yombi, har biri o‘n ikki kilodan, – deb Shaytonvachcha «ko‘ki»ning ham aniq hisobini aytdi. – Shuncha boylikni qo‘lga kiritib, nimani qoyil qilishibdi deysiz-a, insof bormi o‘zi sizda, o‘rtoq Azroil?..

типирчилади стриптизчи. Хаёлида бу нарсаларни фоҳишалар ўмариб кетгандек ранг-кути ўчди.

– Асабийлашманг, Азроил жаноблари, асабийлашманг. Мен бир нарсани билмасам гапирмайман. Қоронғига кесак отишни ёмон кўраман. Мен айтган захираларга етиш учун офисдаги ҳожатхонанинг эшигини очиб, унитазга сув юборилса, олам гулистон. Бойликлар ўмариб кетилгани йўқ, қоғозга ўралган қантдек турибди. Лекин бир тийини ҳам нари-бери бўлмасин-а. Мутакази исмли укам бор. У Одам болаларининг хуфия ишлари ва омонатлари билан шуғулланади. Аччиғи ёмон – нақд каллангиз кетади-я. Омонатга хиёнат қилмасинлар, деганим шундан, а, лаббай? Кейин яна бир гап, ўша хазина яшириш жойини ихтиро қилган валломатни ўлдиртириб яхши иш қилгансиз. Хушёр одам тулкига ўхшаб думи билан изини супуриб юради. – Шайтон-вачча кейинги гапини тахминан айтиб юборди. Лекин у ҳақ эди. Инженерини ўлдириб юборган эди.

– ...

– Ҳа, нима бўлди, тирикмисиз?

– Бўлди, тавба қилдим, ишондим сенга, Шайтон Шайтонович. Кел, бирон жойда учрашиб, отамлашайлик.

– Мен билан учрашиш хавфли-да, қадрдоним, нақ шайтонлаб қолишингиз мумкин. Кейин нима бўлади? Жиннихонага тушиб қоласиз, Дадамирзага ўхшаганлар устингиздан кулиб юради.

– Лекин айтиб кўяй, икки дунёда ҳам Дадамирзадан кечирим сўрамайман.

– Айтиб кўяй, ҳозир бу қайсарликнинг мавриди эмас. Ҳа, менинг айтганимни қилаверинг, доғда қолмайсиз. Дадамирзанинг ҳали битта ёмбиси иккита бўлгани йўқ. «Кўки» ҳам борми-йўқдек. Ҳозирги ҳолида у синди нима-ю, синмади нима? Уни синдиришни менга кўйиб беринг. Шундай синдирайки, нақ пачағи чиқиб кетсин. «Тақво» деб тақвога амал қилмайдиган, хўжа кўрсинга намоз ўқийдиган, кў-

– Hech qanaqa yombi, hech qanaqa «ko‘ki» yo‘q, – tipirchiladi striptizchi. Xayolida bu narsalarni fohishalar o‘marib ketgandek rang-quti o‘chdi.

– Asabiylashmang, Azroil janoblari, asabiylashmang. Men bir narsani bilmasam gapirmayman. Qorong‘iga kesak otishni yomon ko‘raman. Men aytgan zaxiralarga yetish uchun ofisdagi hojatxonaning eshigini ochib, unitazga suv yuborilsa, olam guliston. Boyliklar o‘marib ketilgani yo‘q, qog‘ozga o‘ralgan qantdek turibdi. Lekin bir tiyini ham nari-beri bo‘lmasin-a. Mutakazi ismli ukam bor. U Odam bolalarining xufiya ishlari va omonatlari bilan shug‘ullanadi. Achchig‘i yomon – naqd kallangiz ketadi-ya. Omonatga xiyonat qilmasinlar, deganim shundan, a, labbay? Keyin yana bir gap, o‘sha xazina yashirish joyini ixtiro qilgan val-lomatni o‘ldirtirib yaxshi ish qilgansiz. Hushyor odam tulkiga o‘xshab dumi bilan izini supurib yuradi. – Shaytonvachcha keyingi gapini taxminan aytib yubordi. Lekin u haq edi. Injenerini o‘ldirib yuborgan edi.

– ...

– Ha, nima bo‘ldi, tirikmisiz?

– Bo‘ldi, tavba qildim, ishondim senga, Shayton Shaytonovich. Kel, biron joyda uchrashib, otamlashaylik.

– Men bilan uchrashish xavfli-da, qadrdonim, naq shaytonlab qolishingiz mumkin. Keyin nima bo‘ladi? Jinnixonaga tushib qolasiz, Dadamirzaga o‘xshaganlar ustingizdan kulib yuradi.

– Lekin aytib qo‘yay, ikki dunyoda ham Dadamirzadan kechirim so‘ramayman.

– Aytib qo‘yay, hozir bu qaysarlikning mavridi emas. Ha, mening aytganimni qilavering, dog‘da qolmaysiz. Dadamirzaning hali bitta yombisi ikkita bo‘lgani yo‘q. «Ko‘ki» ham bormi-yo‘qdek. Hozirgi holda u sindi nima-yu, sinmadi nima? Uni sindirishni menga qo‘yib bering. Shunday sindirayki, naq pachag‘i chiqib ketsin. «Taqvo» deb taqvoga amal qilmaydi-

лидан тасбех тушмайдиган мунофиқларнинг жойи каер эканини биласизми? Дўзахнинг «ад-Даркул асфал» деган жойи. Оҳ, у қандай ёмон жой. Дўзахнинг энг таг қавати. У жойнинг на туйнуғи, на деразаси бор. Бир эшикли хона. Амакиваччангизга ўхшаганлар ўшанақа хоналарга қамалади. Ҳам остидан, ҳам устидан ўт ёқилади. Ана азоб-у, мана азоб. Қалай, зўрми? Фақат шарти шу – кечирим сўрайсиз, вассалом. Нима, «Янглишган эканман, узр, беайб Парвардигор», деб кўйиш шунчалар қийинми?

– Хўп, кечирим сўрадим ҳам дейлик, кейин мени тинч кўясанми?

– Бунақа ваъда бера олмайман. Бобокалонимиз Одам болаларининг томиридаги қон йўллари йўл қилиб беришни Худодан сўраган. Сўров ижобат бўлган. Шундай экан, мен сизни ташлаб кета олмайман. Ҳа, бунинг ҳеч иложи йўқ. Охирги нафасларигача ўзлари билан бирга бўламан. Қиёматда ҳам учрашиб қолсак, ажаб эмас.

– Хўп, бойликнинг қанчасига эга чиқмоқчисан? – хўрсинди стриптизчи.

– Биз шайтонларда инсоф деган нарса бор. Одам болаларига ўхшаб беш қўлни оғизга тикмаймиз. Шерикка хиёнат қилиш йўқ. Эликка – элик! Ҳисоб рақамимни кутсинлар, эсэмэс орқали жўнатаман.

– Бу ёғи мардикорлик экан-да, ўроқда йўқ, машоқда йўқ, хирмонда ҳозир, – тўнғиллади стриптизчи.

– Марҳамат, ҳалол бизнес қилсинлар, гап йўқ. Ҳалол бизнесга шайтонлар бурнини тика олмайди. Ҳалол нарсалар бизга ҳаром қилинган, кадрдон.

– Кечирим сўрасам сўрарман, фақат Дадамирзанинг пачағи чиқиши керак. Агарда ростдан ҳам пачағи чиқса, бойликнинг қолган ярмидан ҳам воз кечаман, ғиринг деган номард.

– Қойил, мана бу бошқа гап! Ҳақиқий эркакча гап бўлди. Йигит кишининг ғурури ҳар қандай бойликдан устун турмоғи керак. Шайтон Шайтонович сўзим,

gan, xo‘ja ko‘rsinga namoz o‘qiydigan, qo‘lidan tasbeh tushmaydigan munofiqning joyi qayer ekanini bilasizmi? Do‘zaxning «ad-Darkul asfal» degan joyi. Oh, u qanday yomon joy. Do‘zaxning eng tag qavati. U joyning na tuynugi, na derazasi bor. Bir eshikli xona. Amakivachchangizga o‘xshaganlar o‘shanaqa xonalarga qamaladi. Ham ostidan, ham ustidan o‘t yoqiladi. Ana azob-u, mana azob. Qalay, zo‘rmi? Faqat sharti shu – kechirim so‘raysiz, vassalom. Nima, «Yanglishgan ekanman, uzr, beayb Parvardigor», deb qo‘yish shunchalar qiyinmi?

– Xo‘p, kechirim so‘radim ham deylik, keyin meni tinch qo‘yasanmi?

– Bunaqa va‘da bera olmayman. Bobokalonimiz Odam bolalarining tomiridagi qon yo‘llarini yo‘l qilib berishni Xudodan so‘ragan. So‘rov ijobat bo‘lgan. Shunday ekan, men sizni tashlab keta olmayman. Ha, buning hech iloji yo‘q. Oxirgi nafaslarigacha o‘zlari bilan birga bo‘laman. Qiyomatda ham uchrashib qolsak, ajab emas.

– Xo‘p, boylikning qanchasiga ega chiqmoqchisan? – xo‘rsindi striptizchi.

– Biz shaytonlarda insof degan narsa bor. Odam bolalariga o‘xshab besh qo‘lni og‘izga tiqmaymiz. Sherikka xiyonat qilish yo‘q. Elikka – ellik! Hisob raqamimni kutsinlar, esemes orqali jo‘nataman.

– Bu yog‘i mardikorlik ekan-da, o‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir, – to‘ng‘illadi striptizchi.

– Marhamat, halol biznes qilsinlar, gap yo‘q. Halol biznesga shaytonlar burnini tiqa olmaydi. Halol narsalar bizga harom qilingan, qadrdon.

– Kechirim so‘rasam so‘rarman, faqat Dadamirzaning pachag‘i chiqishi kerak. Agarda rostdan ham pachag‘i chiqsa, boylikning qolgan yarmidan ham voz kechaman, g‘iring degan nomard.

– Qoyil, mana bu boshqa gap! Haqiqiy erkakcha gap bo‘ldi. Yigit kishining g‘ururi har qanday boylikdan ustun turmog‘i kerak. Shayton Shaytonovich so‘zim,

Дадамирзанинг пачағини чиқараман. Туғилганига минг пушаймон бўлади. Хў-ў-ў-ш, шундай қилиб, қачон кечирим сўрайсиз?

– Шу бугун.

– Сабрсизлик билан кутаман-а.

## ДАДАМИРЗА РАҚСГА ТУШАДИ

*(ёки Шайтонваччанинг ҳам хўрдани, ҳам бурдани уриши)*

Шайтонвачча ишлари бунчалик ўхшаб кетишига ишонмаган эди. Ахир, нимага ўхшамасин? У киришган иш ўхшайди-да. Шайтонвачча стриптизчини яхшигина шилди. Энди навбат Дадамирзага. Шайтонваччанинг бобокалони жаннатдан қувилгандан кейин Аллоҳга қараб: «Қасамки, бандаларингдан маълум насибани оламан», – деб онт ичган эди. Шайтонвачча ҳам барча шайтонлар каби бу қасамга содиқ қолиб, насибасини ҳаддан ошириб оляпти, бундан кейин ҳам олаверади. Одам болаларининг насибасини туя қилишда бир зум ҳам жим турмайди. «Думи тугуклар» мадрасасида бекорга «Миллион биринчи» деган ном олмаган. Мана, салда миллионер бўлиб ҳам олди. Ишқилиб, охири бахайр бўлсин. Одам болалари тез келган давлатдан кўрқиш керак, дейишади. Бунинг Шайтонваччага алоқаси борми-йўқми, билмайди.

Шайтонвачча Дадамирзага меҳрибончилик қилиб: «Дам олинг», – деб уйига жўнатиб юборди. Лекин Дадамирзанинг кўнглига қил сиғмасди. Дам олишмиш-а? Амакиваччаси пичоқсиз сўйдику уни. Қаерданам фалокат босиб амакиваччасини «Тақво»га таклиф қилди-я?! Дадамирза ҳовлисида у ёқдан бу ёққа юрар, хаёлан минг бир кўчаларга кириб чиқарди. Бир вақтлар Дадамирзанинг дадаси ҳам укаси билан худди мана шунақа ит-мушук эди. Ака бўлмишнинг исми Қобил, ука бўлмишнинг исми Ҳобил эди. Қобил билан Ҳобил Одам Атонинг

Dadamirzaning pachag'ini chiqaraman. Tug'ilganiga ming pushaymon bo'ladi. Xo'-o'-o'-sh, shunday qilib, qachon kechirim so'raysiz?

– Shu bugun.

– Sabrsizlik bilan kutaman-a.

## DADAMIRZA RAQSGA TUSHADI

*(yoki Shaytonvachchaning ham xo'rdani, ham burdani urishi)*

Shaytonvachcha ishlari bunchalik o'xshab ketishiga ishonmagan edi. Axir, nimaga o'xshamasin? U kirishgan ish o'xshaydi-da. Shaytonvachcha strip-tizchini yaxshigina shildi. Endi navbat Dadamirzaga. Shaytonvachchaning bobokaloni jannatdan quvilgandan keyin Allohga qarab: «Qasamki, bandalaringdan ma'lum nasibani olaman», – deb ont ichgan edi. Shaytonvachcha ham barcha shaytonlar kabi bu qasamga sodiq qolib, nasibasini haddan oshirib olyapti, bundan keyin ham olaveradi. Odam bolalarining nasibasini tuya qilishda bir zum ham jim turmaydi. «Dumi tuguklar» madrasasida bekorga «Million birinchi» degan nom olmagan. Mana, salda millioner bo'lib ham oldi. Ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin. Odam bolalari tez kelgan davlatdan qo'rqish kerak, deyishadi. Buning Shaytonvachchaga aloqasi bormi-yo'qmi, bilmaydi.

Shaytonvachcha Dadamirzaga mehribonchilik qilib: «Dam oling», – deb uyiga jo'natib yubordi. Lekin Dadamirzaning ko'ngliga qil sig'masdi. Dam olishmish-a? Amakivachchasi pichoqsiz so'ydi-ku uni. Qayerdanam falokat bosib amakivachchasini «Taqvo»ga taklif qildi-ya?! Dadamirza hovlisida u yoqdan bu yoqqa yurar, xayolan ming bir ko'chalarga kirib chiqardi. Bir vaqtlar Dadamirzaning dadasi ham ukasi bilan xuddi mana shunaqa it, mushuk edi. Aka bo'lmishning ismi Qobil, uka bo'lmishning ismi Hobil edi. Qobil bilan

бош фарзандларининг исми эканини Дадамирза яқиндагина намозга кирганда билди. Одам Атонинг ўғиллари қиз талашиб, бири иккинчисини ўлдириб қўйган бўлса, бу ака-укалар мерос талашиб бири иккинчисини ўлдириб қўйди. Қизиғи шундаки, худди ривоятда келганидек Қобил Ҳобилни пичоқлаб ўлдирди. Қобил қамалиб кетиб, қамоқдан қайтмади. Мерос унисига ҳам, бунисига ҳам насиб қилмади. Меросни катталар аралашиб, иккала амакиваччага тенг бўлиб беришди. Биттаси ўша пулга стриптиз очди, иккинчиси унга қарши «Тақво»ни очди. Маҳалла-қўй Дадамирзанинг ишини маъқуллади, унисининг ишини қоралади. Дадамирзага шу керак эди. Озми-кўпми обрў орттириб олгач, орқадан ароқ цехини ишга тушириб юборди. Ахир, «Тақво» кафесида ароқ ишлаб чиқарилади, деса ким ҳам ишонарди. Амакиваччаларнинг ишлари қасдма-қасдликка юришиб турган бир пайтда орага Шайтонвачча тушди-ю, ҳамма ёқни остин-устин қилиб юборди. Стриптизчи синишини Дадамирзадан кўрди. Сабаби – ходималарини Дадамирзанинг кафесидан топиб олди-да. Амакиваччаси буларни Дадамирза устимдан кулиш учун атайлаб уюштирган, деб ўйлади. Бошловчи қиздан микрофонни тортиб олиб, темирни қизиғида босди. Амакиваччасининг шармандасини чиқарди. Қароқчи, фирибгар деган тамғаларни пешанасига босди. Бу шармандаликка Дадамирзанинг ўзи ҳам сабабчи бўлди, албатта. Бундоқ ўйлаб қараса, Қозимирза «Дўзах»дан катта фойда кўряпти. «Дўзах»нинг қуввати аллақачонлар елликдан йигирма даражага тушиб кетган. Аммо нархи ўша-ўша пуллаб ётибди. Дадамирзага алам қилди. Ҳижобли ходималари билан мақтаниб, хўрандаларни янада кўпайтириб олмоқчи бўлди. Шундоқ ҳам келиб турган кундалик фойдага қаноат қилмади. Беш панжасини оғзига тикди. Реклама учун катта пул тўлаб, 108-каналга мурожаат қилди. Натижада ишлари чаппасига кетди. Қилмиш – қидирмиш, деганлари шу бўлса керак-да.



Hobil Odam Atoning bosh farzandlarining ismi ekanini Dadamirza yaqindagina namozga kirganda bildi. Odam Atoning o'g'illari qiz talashib, biri ikkinchisini o'ldirib qo'ygan bo'lsa, bu aka-ukalar meros talashib biri ikkinchisini o'ldirib qo'ydi. Qizig'i shundaki, xuddi rivoyatda kelganidek Qobil Hobilni pichoqlab o'ldirdi. Qobil qamalib ketib, qamoqdan qaytmadi. Meros uni-siga ham, bunisiga ham nasib qilmadi. Merosni kattalar aralashib, ikkala amakivachchaga teng bo'lib berishdi. Bittasi o'sha pulga striptiz ochdi, ikkinchisi unga qarshi «Taqvo»ni ochdi. Mahalla-ko'y Dadamirzaning ishini ma'qulladi, unisining ishini qoraladi. Dadamirzaga shu kerak edi. Ozmi-ko'pmi obro' orttirib olgach, orqadan aroq sexini ishga tushirib yubordi. Axir, «Taqvo» kafesida aroq ishlab chiqariladi, desa kim ham ishonardi. Amakivachchalarning ishlari qasdma-qasdlikka yurishib turgan bir paytda oraga Shaytonvachcha tushdi-yu, hamma yoqni ostin-ustin qilib yubordi. Striptizchi sinishini Dadamirzadan ko'rdi. Sababi – xodimalarini Dadamirzaning kafesidan topib oldi-da. Amakivachchasi bularni Dadamirza ustimdan kulish uchun ataylab uyushtirgan, deb o'yladi. Boshlovchi qizdan mikrafonni tortib olib, temirni qizig'ida bosdi. Amakivachchasining sharmandasini chiqardi. Qaroqchi, fribgar degan tamg'alarni peshanasiga bosdi. Bu sharmandalikka Dadamirzaning o'zi ham sababchi bo'ldi, albatta. Bundoq o'ylab qarasa, Qozimirza «Do'zax»dan katta foyda ko'ryapti. «Do'zax»ning quvvati allaqachonlar ellikdan yigirma darajaga tushib ketgan. Ammo narxi o'sha-o'sha pullab yotibdi. Dadamirzaga alam qildi. Hijobli xodimalari bilan maqtanib, xo'randalarni yanada ko'paytirib olmoqchi bo'ldi. Shundoq ham kelib turgan kundalik foydaga qanoat qilmadi. Besh panjasini og'ziga tiqdi. Reklama uchun katta pul to'lab, 108-kanalga murojaat qildi. Natijada ishlari chappasiga ketdi. Qilmish – qidirmish, deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Дадамирза энди қандай қилиб бўлмасин амаки-ваччаси билан орани очди қилиб олиши керак. Унинг ҳам бурнини ерга шундай ишқасинки, одам бўлганига пушаймонлар есин. Бу ишда у Қозимирзага ишонади. Унинг кўлидан келмайдиган иш йўқ. Ахир, у Бобил деган мамлакатда малакасини ошириб келган.

Дадамирза ҳовлида юриб чарчагач, ичкарига кириб, хаёл суриб ўтирган эди, Шайтонвачча кўнғироқ қилиб, тезда етиб келишини айтди. Овозидан кайфияти чоғга ўхшарди. Дадамирза бундан яхши фол олиб, кадрдонининг ҳузурига қанот чиқариб, учиб келди. Шайтонвачча телевизорни ёқиб, юмшоқ ўриндикда раддияни кутиб ўтирарди. Дадамирза унга «Нима гап?» дегандек мўлтираб қаради.

– Сариғидан борми, Дадамирза ака? – дабдурустдан сўраб қолди Шайтонвачча.

Дадамирза ҳайрон бўлиб, «Йўғ-а», дегандек бошини сарак-сарак қилди.

– «Кўки»дан қанча бор?

Дадамирза борини айтди, яширмади.

– Кам, яна шунча керак.

– Ғам еманг, Қозимирза ука, кафени гаровга қўйиб бўлса ҳам топаман. Дўст-у душманлар олдида юзимни ёруғ қилиб, мени оқлаб беринг.

– Сизни ким бу тухмат балосидан қутқаришини биласизми?

– Ўзлари-да, Қозимирза ука, ўзларидан бошқа яна ким бўлиши мумкин? Сиз ишонган тоғимсиз.

– Айтсам ишонмайсиз, сизга тухмат қилган ўша амакиваччангизнинг ўзи қутқаради. Мана кўрасиз, у сиздан кечирим сўрайди. Сўрамасин-чи, нақ онасини учқўрғондан кўрсатаман.

– Йўғ-е, ҳазиллашяпсизми? – ҳайратдан қотиб қолди Дадамирза. – У икки дунёда ҳам мендан кечирим сўрамайди. Кечирим сўрагунча ўзини ўзи осиб қўя қолади.

– Гаров ўйнардим-у, эссиз, чўнтагингизда ҳемириям қолмади-да. Ё бекитган-секитганларингиз борми?

Dadamirza endi qanday qilib bo‘lmasin amakivachchasi bilan orani ochdi qilib olishi kerak. Uning ham burnini yerga shunday ishqasinki, odam bo‘lganiga pushaymonlar yesin. Bu ishda u Qozimirzaga ishonadi. Uning qo‘lidan kelmaydigan ish yo‘q. Axir, u Bobil degan mamlakatda malakasini oshirib kelgan.

Dadamirza hovlida yurib charchagach, ichkariga kirib, xayol surib o‘tirgan edi, Shaytonvachcha qo‘ng‘iroq qilib, tezda yetib kelishini aytdi. Ovozidan kayfiyati chog‘ga o‘xshardi. Dadamirza bundan yaxshi fol olib, qadrdonining huzuriga qanot chiqarib, uchib keldi. Shaytonvachcha televizorni yoqib, yumshoq o‘rindiqa raddiyani kutib o‘tirardi. Dadamirza unga «Nima gap?» degandek mo‘ltirab qaradi.

– Sarig‘idan bormi, Dadamirza aka? – dabdurusdan so‘rab qoldi Shaytonvachcha.

Dadamirza hayron bo‘lib, «Yo‘g‘-a», degandek boshini sarak-sarak qildi.

– «Ko‘ki»dan qancha bor?

Dadamirza borini aytdi, yashirmadi.

– Kam, yana shuncha kerak.

– G‘am yemang, Qozimirza uka, kafeni garovga qo‘yib bo‘lsa ham topaman. Do‘st-u dushmanlar oldida yuzimni yorug‘ qilib, meni oqlab bering.

– Sizni kim bu tuhmat balosidan qutqarishini bilasizmi?

– O‘zlari-da, Qozimirza uka, o‘zlaridan boshqa yana kim bo‘lishi mumkin? Siz ishongan tog‘imsiz.

– Aytsam ishonmaysiz, sizga tuhmat qilgan o‘sha amakivachchangizning o‘zi qutqaradi. Mana ko‘rasiz, u sizdan kechirim so‘raydi. So‘ramasin-chi, naq onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsataman.

– Yo‘g‘-e, hazillashyapsizmi? – hayratdan qotib qoldi Dadamirza. – U ikki dunyoda ham mendan kechirim so‘ramaydi. Kechirim so‘raguncha o‘zini o‘zi osib qo‘ya qoladi.

– Garov o‘ynardim-u, essiz, cho‘ntagingizda hemiriyam qolmadi-da. Yo bekitgan-sekitganlaringiz bormi?

– Бор-да, ўтирган уйингиз-чи, Қозимирза ука?

Дадамирза амакиваччасининг ўзидан кечирим сўраши учун ҳамма нарсага тайёр эди.

– Э, ҳа-а-а... эсим қурсин, – деб Шайтонвачча калласига шапатилаб кўйди. – Бировнинг уйида ижарада ўтирганим эсимда ҳам йўқ. Кўлни ташланг, гапдан қайтиш йўғ-а? Ютқизсангиз, уй-жой каминага нотариус орқали қонун-қондаси билан хатлаб берилади, келишдикми?

– Келишдик, сўзидан қайтган номард, – деб қўл ташлади Дадамирза.

Шайтонвачча билан Дадамирза экранга тикилиб, анча кутиб қолишди.

Ниҳоят 108-каналнинг ўзига хос ёқимли мусиқалари чалиниб, бошловчи қиз пайдо бўлди. У пешин пайти «Тақво» кафесида бўлиб ўтган воқеага такроран тўхталди. Қисқа-қисқа тасвирларни намойиш ҳам қилди. Кейин экранда Дадамирзанинг амакиваччаси кўринди. У хижобли аёлларни ходималарим деб янглиш айтганини билдириб, кафе маъмурияти ва унинг мижозларидан кечирим сўради. Қолганини бошловчи қиз: «Одам борки, хато қилади, кечирим сўраш ҳам одамийлик маданиятига киради»,– деб суваб ўтди. Дадамирза ўрнидан туриб, росмана ўйинга тушиб кетди. Шайтонваччани қайта-қайта қучоқлаб, чўлп-чўлп юзларидан ўпа бошлади.

– Буни сопини ўзидан чиқариш, дейдилар, Дадамирза ака, – деб керилди Шайтонвачча.

– Қойилман, ишқилиб, зўр–зўр эканда бу дунёда!

Дадамирза шундай деб беихтиёр хўрсинди. Уйни ютқазиб қўйгани энди унга алам қила бошлаган эди. Жуда қимматга тушиб кетди шу амакиваччасининг кечирим сўраши ҳам. Ҳе, кечирим сўрамай ўл. Кечирим сўрар экансан, нима қилардинг менга тухмат қилиб?!

– Сизга хавасим келади, Қозимирза ука, – деди Дадамирза ичи ёниб.

– Бунинг учун жудаям кўп ақл керакмас. Худо Одам болаларини тупроқдан яратди. Ейиш,

– Bor-da, o‘tirgan uyingiz-chi, Qozimirza uka?

Dadamirza amakivachchasining o‘zidan kechirim so‘rashi uchun hamma narsaga tayyor edi.

– E, ha-a-a... esim qursin, – deb Shaytonvachcha kallasiga shapatilab qo‘ydi. – Birovning uyida ijarada o‘tiranim esimda ham yo‘q. Qo‘lni tashlang, gapdan qaytish yo‘g‘-a? Yutqizsangiz, uy-joy kaminaga notarius orqali qonun-qoidasi bilan xatlab beriladi, kelishdik-mi?

– Kelishdik, so‘zidan qaytgan nomard, – deb qo‘l tashladi Dadamirza.

Shaytonvachcha bilan Dadamirza ekranga tikilib, ancha kutib qolishdi.

Nihoyat 108-kanalning o‘ziga xos yoqimli musiqalari chalinib, boshlovchi qiz paydo bo‘ldi. U peshin payti «Taqvo» kafesida bo‘lib o‘tgan voqeaga takroran to‘xtaldi. Qisqa-qisqa tasvirlarni namoyish ham qildi. Keyin ekranda Dadamirzaning amakivachchasi ko‘rindi. U hijobli ayollarni xodimalarim deb yanglish aytganini bildirib, kafe ma‘muriyati va uning mijozlaridan kechirim so‘radi. Qolganini boshlovchi qiz: «Odam borki, xato qiladi, kechirim so‘rash ham odamiylik madaniyatiga kiradi», – deb suvab o‘tdi. Dadamirza o‘rnidan turib, rosmana o‘yinga tushib ketdi. Shaytonvachchani qayta-qayta quchoqlab, cho‘lp-cho‘lp yuzlaridan o‘pa boshladi.

– Buni sopini o‘zidan chiqarish, deydilar, Dadamirza aka, – deb kerildi Shaytonvachcha.

– Qoyilman, ishqilib, zo‘r–zo‘r ekanda bu dunyoda!

Dadamirza shunday deb beixtiyor xo‘rsindi. Uyni yutqazib qo‘ygani endi unga alam qila boshlagan edi. Juda qimmatga tushib ketdi shu amakivachchasining kechirim so‘rashi ham. He, kechirim so‘ramay o‘l. Kechirim so‘rar ekansan, nima qilarding menga tuhmat qilib?!

– Sizga havasim keladi, Qozimirza uka, – dedi Dadamirza ichi yonib.

– Buning uchun judayam ko‘p aql kerakmas. Xudo

ичиш, кийим-кечаккача шу тупрокдан чиқариб беради. Бошпанангиз ҳам шу тупрокда. Буни қарангки, бандалари шу тупрокда яшаб, ўлгандан кейин яна шу тупроққа қайтади. Яна кизиғи шундаки, охиратда тирилиб, яна шу тупрокдан чиқиб келади. Худо бандаларига қарата: «Ибрат олмайдиларми?» – деганда ана шуларга ишора қилади. Энди сал манови ковоқ каллани ҳам ишлатиш керак-да, Дадамирза ака, – деб Шайтонвачча ўз чаккасига тўқиллатиб уриб кўйди.

Бунақа гаплар ҳозир Дадамирзанинг қулоғига кирмас эди. Шундоқ қошона ҳовли кўлдан кетиб турибди-ку. Лекин начора, гаров шайтон ўйини, бу ўйинда одам боласи ҳеч қачон ютиб чиқмаган...

Шайтонвачча қасдлашган амакиваччалардан жуда катта хирмон кўтарди. Бераридан қисмасин экан. Қараб туриб уйли-жойли ҳам бўлиб олди. Энди бу ёқдаги режаларини амалга оширса, Дадамирзанинг пачағини чиқарса, тўртта олтин ёмбиси бор бойга айланади. Ана ундан кейин ким унинг мушугини пишт дея оларди? Ҳаёт деганлари қизиқ экан-да. Бир вақтлар Шайтонвачча ака-укаларни уриштириб, овқатини тортиб оларди. Энди бўлса уларни жикқамушт қилиб, бор бойликлари, ҳатто уй-жойларигача тортиб оляпти. Яшаш қандай яхши-а! Айб уларнинг ўзида, бу кунларидан баттар бўлишсин! Бири ўлиб, бири қолмайдими...

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

Шайтонваччанинг стриптизчи билан эзмаланиб гаплашгани қимматга тушди. Қилни қирқ ёрадиган шуъба бошлиқлари улар суҳбатлашаётганида интернет орқали Одамшайтоннинг манзилени билиб олишди. Энди унинг қаердалиги аниқ бўлди. Ҳа, куни битди. Шарманканинг ходималарини йўлдан урган ҳам, жинларни шохдор раисга қарши кўйган

Odam bolalarini tuproqdan yaratdi. Yeyish, ichish, kiyim-kechakkacha shu tuproqdan chiqarib beradi. Boshpanangiz ham shu tuproqda. Buni qarangki, bandalari shu tuproqda yashab, o'lgandan keyin yana shu tuproqqa qaytadi. Yana qizig'i shundaki, oxiratda tiri-lib, yana shu tuproqdan chiqib keladi. Xudo bandalariga qarata: «Ibrat olmaydilarimi?» – deganda ana shularga ishora qiladi. Endi sal manovi qovoq kallani ham ishlatish kerak-da, Dadamirza aka, – deb Shaytonvachcha o'z chakkasiga to'qillatib urib qo'ydi.

Bunaqa gaplar hozir Dadamirzaning qulog'iga kirmas edi. Shundoq koshona hovli qo'ldan ketib turibdi-ku. Lekin nachora, garov shayton o'yini, bu o'yinda odam bolasi hech qachon yutib chiqmagan...

Shaytonvachcha qasdlashgan amakivachchalardan juda katta xirmon ko'tardi. Beraridan qismasin ekan. Qarab turib uyli-joyli ham bo'lib oldi. Endi bu yoqdagi rejalarini amalga oshirsa, Dadamirzaning pachag'ini chiqarsa, to'rtta oltin yombisi bor boyga aylanadi. Ana undan keyin kim uning mushugini pisht deya olardi? Hayot deganlari qiziq ekan-da. Bir vaqtlar Shaytonvachcha aka-ukalarni urishtirib, ovqatini tortib olardi. Endi bo'lsa ularni jiqqamusht qilib, bor boyliklari, hatto uy-joylarigacha tortib olyapti. Yashash qandog yaxshi-a! Ayb ularning o'zida, bu kunlaridan battar bo'lishsin! Biri o'lib, biri qolmaydimi...

## HAY'AT YIG'ILISHI

Shaytonvachchanning striptizchi bilan ezmalanib gaplashgani qimmatga tushdi. Qilni qirq yoradigan shu'ba boshliqlari ular suhbatlashayotganida internet orqali Odamshaytonning manzilini bilib olishdi. Endi uning qayerdaligi aniq bo'ldi. Ha, kuni bitdi. Sharmankaning xodimalarini yo'ldan urgan ham, jinlarni shoxdor raisga qarshi qo'ygan ham shu ekan. U yoqda «Taqvo»ning ishlari ham o'lda-jo'lda bo'lib qoldi. Savdoga chiqaril-

хам шу экан. У ёқда «Такво»нинг ишлари ҳам ўлда-жўлда бўлиб қолди. Савдога чиқарилган «Дўзах»нинг сувдан фарқи қолмади. Ҳали замон миси чиқиб қолиши ҳам мумкин. Жа инсофдан чиқиб кетди бу Одамшайтон. Уни йўқотишдан бошқа чора қолмади.

– Хўш, – деди шохдор раис, – уни қандай қилиб йўқ қилмоқчисизлар?

– Кечаси уйини ёқиб юборамиз.

– Қандай қилиб ёқиб юборасизлар?

– Яқинда шу маҳаллада битта қурумсоқ бой тўй қилади. У олдиндан электрчини рози қилмаслиги аниқ. Натижада электрчи бутун маҳалланинг чироғини жўртага ўчириб қўяди. Одамшайтон шағам ёқишга мажбур бўлади. Ушанда биз сичқонларни ишга соламиз. Улар шағам мумини ейман, деб гиламга тушириб юборади, қарабсизки, ёнғин чиқади-да, ўтда куйиб ўлади.

– Бу алмисоқдан қолган усул, уни Одамшайтон билади, ухлаганда шағамни ўчириб ётади.

– Чаёнга чақтирамиз, шу заҳоти тил тортмай ўлади.

– Бўлмайди, чаён учинчи қаватга чиқа олмайди. Эшиклари замонавий эшиклардан – акфа.

– Унда қутурган итга қоптирамиз...

Раис қаҳ-қаҳ отиб кулиб юборди:

– Ожизсизлар, жудаям ожизсизлар, бечоралар, – деди захархандалик билан. – Лекин нима қилайки, мен ҳам ожизман, – деди раис ҳам тан олиб. – Унга аталган икки миллион «кўки» ўз кучида турибди. Ким уни асфаласофилинга жўнатса, мукофот ўшаники.

Бу гапларни айтиш раисга осон бўлмади. Ўз боласини ўзи бўғиб ўлдираётгандек бир аҳволга тушди. Бечора Шайтонвачча-я, ростдан ҳам пешананг шўр экан. Ўзингники ўзагингни кесаман деб турса-я?!



gan «Do‘zax»ning suvdan farqi qolmadi. Hali zamon misini chiqib qolishi ham mumkin. Ja insofdan chiqib ketdi bu Odamshayton. Uni yo‘qotishdan boshqa chora qolmadi.

– Xo‘sh, – dedi shoxdor rais, – uni qanday qilib yo‘q qilmoqchisizlar?

– Kechasi uyini yoqib yuboramiz.

– Qanday qilib yoqib yuborasizlar?

– Yaqinda shu mahallada bitta qurumsoq boy to‘y qiladi. U oldindan elektrchini rozi qilmasligi aniq. Natijada elektrchi butun mahallaning chirog‘ini jo‘rtaga o‘chirib qo‘yadi. Odamshayton shag‘am yoqishga majbur bo‘ladi. O‘shanda biz sichqonlarni ishga solamiz. Ular shag‘am mumini yeyman, deb gilamga tushirib yuboradi, qarabsizki, yong‘in chiqadi-da, o‘tda kuyib o‘ladi.

– Bu almisoqdan qolgan usul, uni Odamshayton biladi, uxlaganda shag‘amni o‘chirib yotadi.

– Chayonga chaqtiramiz, shu zahoti til tortmay o‘ladi.

– Bo‘lmaydi, chayon uchinchi qavatga chiqa olmaydi. Eshiklari zamonaviy eshiklardan – akfa.

– Unda quturgan itga qoptiramiz...

Rais qah-qah otib kulib yubordi:

– Ojizsizlar, judayam ojizsizlar, bechoralar, – dedi zaharxandalik bilan. – Lekin nima qilayki, men ham ojizman, – dedi rais ham tan olib. – Unga atalgan ikki million «ko‘ki» o‘z kuchida turibdi. Kim uni asfalasofilinga jo‘natsa, mukofot o‘shaniki.

Bu gaplarni aytish raisga oson bo‘lmadi. O‘z bolasini o‘zi bo‘g‘ib o‘ldirayotgandek bir ahvolga tushdi. Bechora Shaytonvachcha-ya, rostdan ham peshanang sho‘r ekan. O‘zingniki o‘zagingni kesaman deb tursayay?!  
ya?!

## СОВЧИЛАР

(ёки «соқов хоним»нинг саркашликлари)

Шайтонваччанинг хузурига эшик қоқиб имом домла хотини билан келиб қолди. 108-каналнинг кўрсатувидан кейин имом домла мендан кўлини ювиб, кўлтиғига уриб кўйди, деб ўйлаган эди Шайтонвачча. Стриптизчи телевизор орқали кечирим сўраганидан кейин яна ҳаракатга тушиб қолишибди. Хотини анчагина тилли-жағли экан. Домла имомнинг: «Опачангизга мен эмас, хотиним хуштор бўлиб қолди», – деганича бор. Икки гапнинг бирида: «Бечорагина, кафеда ишламасин-а, увол-а, шўрликкинани мўлтирати-и-б кўйиб, қандай қилиб унинг кўлидан овқат ейишар экан-а?!» – деб ачиниб ётибди. Аёллар орасида ҳам аёл зотига шунчалик ачинадигани бўлар экан-да. Бўлмаса, етти ёт бегона-я. Шайтонвачча: «Ҳа, мўлтони», – деб «соқов хоним»ни ичида сўкиб кўйди. Ўзини соқов кўрсатиб рейтингини кўтариб олди-я, қойил. Энди нима қиларкан? Имом домланинг уйида бир умр соқов бўлиб қолармикан? Шайтонвачча у билан олдиндан келишиб кўйган бўлса ҳам, унга шунчаки йўлига «Йўқ», деб ноз қилишини тайинлаган эди.

– Мен, – деди Шайтонвачча аёлнинг гапларига кулоқ солиб, – опачамни чўриликка бермайман. Шундоғам у хаётда кўп қийналган. Поччамиз конхўр бир қассоб эди, билмасдан гап қайтариб кўйгани учун тилини шартта кесиб олган, номард.

– Вой шўрлиқкина-ей, – деб аёл рўмолининг учини кўзига босди. Кейин ўпкаси тўлиб деди: – Чўри қилиб олсак, ўлганнинг устига чиқиб тепган бўларкан-да. Бу Худога ҳам, бандасига ҳам ёқмайди. Донолар хайр қилсанг бутун қил, деганлар. Опачангизни ўзимга кундош қилиб оламан. Ҳа, яхшилаб эшитиб олинг, иккинчи хотин бўладилар. Худо хоҳласа, кўша-кўша фарзандлар туғиб берса, биргалаш-е-е-б катта қиламиз. Нима қилайки Худо мени тирноқдан қисди, ука.

## SOVCHILAR

*(yoki «soqov xonim»ning sarkashliklari)*

Shaytonvachchaning huzuriga eshik qoqib imom domla xotini bilan kelib qoldi. 108-kanalning ko‘rsatuvidan keyin imom domla mendan qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urib qo‘ydi, deb o‘ylagan edi Shaytonvachcha. Striptizchi televizor orqali kechirim so‘raganidan keyin yana harakatga tushib qolishibdi. Xotini anchagina tilli-jag‘li ekan. Domla imomning: «Opachangizga men emas, xotinim xushtor bo‘lib qoldi», – deganicha bor. Ikki gapning birida: «Bechoragina, kafeda ishlamasin-a, uvol-a, sho‘rlikkinani mo‘ltirati-i-b qo‘yib, qanday qilib uning qo‘lidan ovqat yeyishar ekan-a?!» – deb achinib yotibdi. Ayollar orasida ham ayol zotiga shunchalik achinadigani bo‘lar ekan-da. Bo‘lmasa, yetti yot begona-ya. Shaytonvachcha: «Ha, mo‘ltoni», – deb «soqov xonim»ni ichida so‘kib qo‘ydi. O‘zini soqov ko‘rsatib reytingini ko‘tarib oldi-ya, qoyil. Endi nima qilarkan? Imom domlaning uyida bir umr soqov bo‘lib qolarmikan? Shaytonvachcha u bilan oldindan kelishib qo‘ygan bo‘lsa ham, unga shunchaki yo‘liga «Yo‘q», deb noz qilishini tayinlagan edi.

– Men, – dedi Shaytonvachcha ayolning gaplariga quloq solib, – opachamni cho‘rilikka bermayman. Shundog‘am u hayotda ko‘p qiynalgan. Pochchamiz qonxo‘r bir qassob edi, bilmasdan gap qaytarib qo‘ygani uchun tilini shartta kesib olgan, nomard.

– Voy sho‘rlikkina-yey, – deb ayol ro‘molining uchini ko‘ziga bosdi. Keyin o‘pkasi to‘lib dedi: – Cho‘ri qilib olsak, o‘lganning ustiga chiqib tepgan bo‘larkan-da. Bu Xudoga ham, bandasiga ham yoqmaydi. Donolar xayr qilsang butun qil, deganlar. Opachangizni o‘zimga kundosh qilib olaman. Ha, yaxshilab eshitib oling, ikkinchi xotin bo‘ladilar. Xudo xohlasa, qo‘sha-qo‘sha farzandlar tug‘ib bersa, birgalash-e-e-b katta qilamiz. Nima qilayki Xudo meni tirnoqdan qisdi, uka.

– Яшанг, опа, мен айтди дейсиз, опачам этак-этак бола туғиб беради. Шундоқ бола туғиб берсинки... Лекин тўғрисини айтай, аёллар орасида сиздақаси кам. Мехрингиз дарё экан. Бир бечорани деб... Офарин! Ҳазрати Пайғамбаримиз ўзинг яхши кўрган нарсани биродарингга ҳам соғинмагунча мўмин бўла олмайсан, деганларида минг марта ҳақ эканлар. Эр бермоқ – жон бермоқ, деганларини эшитганим бор.

– Шундай, опоси, шундай. Билган одамнинг садағаси кетсанг арзийди.

Иш пишди-пишдига ўтганда «соқов хоним» «Йўқ», деб оёқ тираб туриб олди. Домла имомнинг хотини юз айланиб, минг ўргилса ҳам пинагини бузмади. Эр-хотин ноилож умид узолмай, яна келармиз, деб қайтиб кетишди.

Шайтонвачча «соқов хоним» билан ёлғиз қолгач, унга захрини сочди:

– Ҳов ойимча, нима бунча нархингни оширвординг, кимлигинг эсингдан чиқдим, фоҳиша?

– Мен уларни алдай олмайман, Худодан кўркаман...

– Ҳа-ха-ха-а-а... – Шайтонвачча яйраб кулди. Аёлга яқинроқ сурилди: – Ўзингмисан, жонидан? – деб елкасига қўл юборди.

– Ўзимман, ечинайми?

– Ҳе, туркинг курсин, сени кўришга кўзим йўқ. Сендан жирканаман. Фоҳишалик қилдинг – Худодан кўркмадинг. Одамлар кўзига соқов бўлиб олдинг – Худодан кўркмадинг. Бир уйнинг бекаси бўлиб айшингни сур, десам, Худодан кўркаман, дейсан, кўрнамак.

– Бўйимда бўлиб қолган...

– Сендан яхши биламан бўлиб қолганини, шунинг учун ҳам уларга тўғрилаб юборяпман сени. Уларга бола керак, сочи узун, ақли қисқа.

– Болани олдириб ташлайман. Соқовмаслигимни ҳам айтаман. Шундан кейин ҳам майли дейишса, тегсам тегаман...

Шайтонвачча бола кимданлигини яхши биларди.

– Yashang, opa, men aytdi deysiz, opacham etak-etak bola tug‘ib beradi. Shundoq bola tug‘ib bersinki... Lekin to‘g‘risini aytay, ayollar orasida sizdaqasi kam. Mehringiz daryo ekan. Bir bechorani deb... Ofarin! Hazrati Payg‘ambarimiz o‘zing yaxshi ko‘rgan narsani birodaringga ham sog‘inmaguncha mo‘min bo‘la olmaysan, deganlarida ming marta haq ekanlar. Er bermoq – jon bermoq, deganlarini eshitganim bor.

– Shunday, oposi, shunday. Bilgan odamning sadag‘asi ketsang arziydi.

Ish pishdi-pishdiga o‘tganda «soqov xonim» «Yo‘q», deb oyoq tirab turib oldi. Domla imomning xotini yuz aylanib, ming o‘rgilsa ham pinagini buzmad. Er-xotin noiloj umid uzolmay, yana kelarmiz, deb qaytib ketishdi.

Shaytonvachcha «soqov xonim» bilan yolg‘iz qol-gach, unga zahrini sochdi:

– Hov oyimcha, nima buncha narxingni oshirvording, kimliging esingdan chiqdimi, fohisha?

– Men ularni alday olmayman, Xudodan qo‘rqaman...

– Ha-ha-ha-a-a... – Shaytonvachcha yayrab kuldi. Ayolga yaqinroq surildi: – O‘zingmisan, jonidan? – deb yelkasiga qo‘l yubordi.

– O‘zimman, yechinaymi?

– He, turqing qursin, seni ko‘rishga ko‘zim yo‘q. Sendan jirkanaman. Fohishalik qilding – Xudodan qo‘rqmading. Odamlar ko‘ziga soqov bo‘lib olding – Xudodan qo‘rqmading. Bir uyning bekasi bo‘lib ayshingni sur, desam, Xudodan qo‘rqaman, deysan, ko‘rnamak.

– Bo‘yimda bo‘lib qolgan...

– Sendan yaxshi bilaman bo‘lib qolganini, shuning uchun ham ularga to‘g‘rilab yuboryapman seni. Ularga bola kerak, sochi uzun, aqli qisqa.

– Bolani oldirib tashlayman. Soqovmasligimni ham aytaman. Shundan keyin ham mayli deyishsa, tegsam tegaman...

«Соқов хоним»нинг нархини ошириб, имом домлага тикиштираётгани ҳам шундан эди. Шайтонваччанинг зурриёди шундоқ тўла-тўкс хонадонда улғайиши керак. Катта бўлиб барибир отасига тортади. Одам болаларини йўлдан уради. Яна кимнинг боласи бўлиб, имом-домланинг арзандаси бўлиб.

– Болани олдиранг, мен сени ўлдираман, – деди Шайтонвачча унга таҳдид билан.

– Бола билан нима ишинг бор сени?

– У меники.

– Қаердан биласан, ахир, мен фоҳишаман-ку!

– Сен шайтоннинг арғамчиси, туғишни бил, у ёғи билан ишинг бўлмасин. Имом домлага бола керак, дедим-ку. Хотинини қара, момақаймоқ. Бамисоли бўрсиллаган ер. Экканингни ундираман, деб турибди. Имом домланинг бўлса уруғи пуч. Хотини бечора буни билмайди. Туғиб берса, кундош орттиришга ҳам рози. Ахир, бу уй-жойлар кимгадир қолиши керак-ку. Одамлар тирноққа зор, сен эси паст, калтафаҳм, болани олдираман, дейсан. Олдирган кунинг ўлдираман. Худо урсин шундай қилмасам. Энди гапни кўпайтирма, эртага сени имом домлага ўзим никоҳлаб кўяман. Гап тамом, вассалом.

Аёл чуқур хўрсинди... Олдинда уни нималар кутаётганини билмасди.

## ЙЎҚОТИШ

*(ёки «соқов хоним»нинг кутилмаганда зойиб бўлиши)*

Шайтонвачча айтганини қилди. Никоҳни ўзи ўқиди-да, «соқов хоним»ни домла билан хотинининг олдига солиб юборди. Орқасидан иримига тош ҳам отиб кўйди. Ҳа, борган ерида тош қотсин. Имом домланинг хонадонидан шундай бир дарахт ўсиб чиқсинки, унинг номи шайтон дарахти бўлсин. У шунақанги заҳар-заққум мевалар қилсинки... бай... бай... Домла имомга иқтидо қилиб намоз ўқиётганларнинг шўри қурисин.

Shaytonvachcha bola kimdanligini yaxshi bilardi. «Soqov xonim»ning narxini oshirib, imom domlaga tiqishtirayotgani ham shundan edi. Shaytonvachchanning zurriyodi shundoq to‘la-to‘ks xonadonda ulg‘ayishi kerak. Katta bo‘lib baribir otasiga tortadi. Odam bolalarini yo‘ldan uradi. Yana kimning bolasi bo‘lib, imomdomlanning arzandasi bo‘lib.

– Bolani oldirsang, men seni o‘ldiraman, – dedi Shaytonvachcha unga tahdid bilan.

– Bola bilan nima ishing bor seni?

– U meniki.

– Qayerdan bilasan, axir, men fohishaman-ku!

– Sen shaytonning arg‘amchisi, tug‘ishni bil, u yog‘i bilan ishing bo‘lmasin. Imom domlaga bola kerak, dedim-ku. Xotinini qara, momaqaymoq. Bamisoli bo‘rsillagan yer. Ekkaningni undiraman, deb turibdi. Imom domlanning bo‘lsa urug‘i puch. Xotini bechora buni bilmaydi. Tug‘ib bersa, kundosh orttirishga ham rozi. Axir, bu uy-joylar kimgadir qolishi kerak-ku. Odamlar tirnoqqa zor, sen esi past, kaltafahm, bolani oldiraman, deysan. Oldirgan kuning o‘ldiraman. Xudo ursin shunday qilmasam. Endi gapni ko‘paytirma, ertaga seni imom domlaga o‘zim nikohlab qo‘yaman. Gap tamom, vassalom.

Ayol chuqur xo‘rsindi... Oldinda uni nimalar kutayotganini bilmasdi.

## YO‘QOTISH

*(yoki «soqov xonim»ning kutilmaganda g‘oyib bo‘lishi)*

Shaytonvachcha aytganini qildi. Nikohni o‘zi o‘qida, «soqov xonim»ni domla bilan xotining oldiga solib yubordi. Orqasidan irimiga tosh ham otib qo‘ydi. Ha, borgan yerida tosh qotsin. Imom domlanning xonadonidan shunday bir daraxt o‘sib chiqsinki, uning nomi shayton daraxti bo‘lsin. U shunaqangi zahar-zaqqum mevalar qilsinki... bay... bay... Domla imomga iqtido qilib namoz o‘qiyotganlarning sho‘ri qurisin.

Орадан бир хафта ўтар-ўтмас тўсатдан имом домладан Шайтонваччага кўнғироқ бўлиб қолди.

– Эшитаман, почча...

– Опачангиз мабода сиз тарафга ўтмадиларми, Қозимирза ука? – сўради почча сал истиҳола, сал ваҳима билан.

– Нималар деяпсиз, почча, эрингдан бесўрок кўчага чиқсанг оёғингни уриб синдираман, деганман-а.

– Ким билади, бомдоддан бери уйда йўк. Хотинимнинг сўраб-суриштирмаган жойи қолмади. Мабодо, қишлоғини соғиниб...

Поччанинг гапи оғзида қолди.

– Э, нималар деяпсиз, почча, – деб Шайтонвачча бобиллаб берди, – у шўрлик кўчада юришни билмайди-ку, сиз бўлса қишлоқ дейсиз-а. Билиб қўйинг, хотин кишининг иккита паноҳи бўлади. Бири эри бўлса, иккинчиси қабри. Агарда опачамга бир гап бўлса, мен сизни тинч қўймайман-а!

– Худо сақласин, Қозимирза ука, Худо сақласин, – деганича имом домла шошиб телефонни ўчирди. Кўнғироқ қилганига минг пушаймон бўлди.

Кутилмаган бу хабардан Шайтонвачча ўзини йўқотди. Калласида минг хил ўй. Болани олдиргани кетган бўлса-я. Тезда Ҳасан ва Ҳусан жинларни хузурига чақирди. «Соқов хоним»нинг уйда қолиб кетган эски кўйлагини топиб тутатди. Жинлар ундан ис олиб, кўйлак эгасини қидириб кетишди. Шайтонвачча ҳали дунёга келмаган зурриёди ҳақида қайғурарди. Фоҳиша, кўрнамак! Унга шоҳона ўй-жойларни топиб берсам-у, у ноз қилса. Наҳотки Худодан кўрқадиган бўлиб қолди у шўр тумшук? Ё астойдил тавба қилдимикан-а? Оҳ, шу топда унинг боласини чинқиртириб олиб ташлашаётган бўлишса-я? Аслида бунақа ишларни Одам болаларига шайтонларнинг ўзлари ўргатар эди. Энди бу фитнага ўзининг боласи дучор бўлиб ўтирибди.

Ҳасан ва Ҳусан жинлар кечга яқин ҳориб-чарчаб қайтиб келишди.



Oradan bir hafta o'tar-o'tmas to'satdan domla imomdan Shaytonvachchaga qo'ng'iroq bo'lib qoldi.

– Eshitaman, pochcha...

– Opachangiz maboda siz tarafga o'tmadilarmi, Qozimirza uka? – so'radi pochcha sal istihola, sal vahi-ma bilan.

– Nimalar deyapsiz, pochcha, eringdan beso'roq ko'chaga chiqsang oyog'ingni urib sindiraman, deganman-a.

– Kim biladi, bomdoddan beri uyda yo'q. Xotinimning so'rab-surishtirmagan joyi qolmadi. Mabodo, qishlog'ini sog'inib...

Pochchaning gapi og'zida qoldi.

– E, nimalar deyapsiz, pochcha, – deb Shaytonvachcha bobillab berdi, – u sho'rlik ko'chada yurishni bilmaydi-ku, siz bo'lsa qishloq deysiz-a. Bilib qo'ying, xotin kishining ikkita panohi bo'ladi. Biri eri bo'lsa, ikkinchisi qabri. Agarda opachamga bir gap bo'lsa, men sizni tinch qo'ymayman-a!

– Xudo saqlasin, Qozimirza uka, Xudo saqlasin, – deganicha imom domla shoshib telefonni o'chirdi. Qo'ng'iroq qilganiga ming pushaymon bo'ldi.

Kutilmagan bu xabardan Shaytonvachcha o'zini yo'qotdi. Kallasida ming xil o'y. Bolani oldirgani ketgan bo'lsa-ya. Tezda Hasan va Husan jinlarni huzuriga chaqirdi. «Soqov xonim»ning uyda qolib ketgan eski ko'ylagini topib tutatdi. Jinlar undan is olib, ko'ylak egasini qidirib ketishdi. Shaytonvachcha hali dunyoga kelmagan zurriyodi haqida qayg'urardi. Fohisha, ko'rnamak! Unga shohona uy-joylarni topib bersam-u, u noz qilsa. Nahotki Xudodan qo'rqadigan bo'lib qoldi u sho'r tumshuq? Yo astoydil tavba qildimikan-a? Oh, shu topda uning bolasini chinqirtirib olib tashlashayotgan bo'lishsa-ya? Aslida bunaqa ishlarni Odam bolalariga shaytonlarning o'zlari o'rgatar edi. Endi bu fitnaga o'zining bolasi duchor bo'lib o'tiribdi.

Hasan va Husan jinlar kechga yaqin horib-charchab qaytib kelishdi.

- Нима гап, топдиларингми?
- Топдик.
- Хайрият, қаерда экан у кўрнамак?
- Ўликхонада.
- А, у ерда нима қилаётган экан?
- Ўлиб ётган экан, хўжайин.
- Йўғ-е, адашмадиларингми?
- Одам ўлгандан кейин ундан тупроқ ҳиди келиб қолади, хўжайин. Тупроқдан таркаганда улар. Ҳиди кўйлагига уриб қолган экан, ўшандан билдик.
- Ажаб бўпти, хўп бўпти, – деди Шайтонвачча алам билан. – Туғилмаган гўдакка чоҳ казиб, чоҳга ўзи тушибдими, баттар бўлсин. Ўликхонада каламушларга ем бўлсин.

## ЛАҚҚА БАЛИҚ

*(ёки Шайтонваччанинг бошқа тарафдан ишлари  
юришиб қолгани)*

Шайтонвачча тўрвасини олдирган гадойдек нима қилишини билмай ўтирган эди, эр-хотин танишларини бошлаб Дадамирза келиб қолди.

– Қозимирза ука, – деди у шошиб, – буларнинг дардига сиздан бошқа ҳеч ким даво қила олмайди, илтимос, бир иложини қилинг. Булар билан биз кўп йиллик қадрдонмиз, мени қандоқ кўрсангиз, буларни ҳам шундоқ кўринг, илтимос. Мен ишга шошяпман, борақолай...

Шайтонвачча бундоқ қараса, эри хотиндан, хотини эридан тумтайган. Ҳойнаҳой, эр кайф устида хотинини талоқ қилган бўлса керак. Ажаб бўлибди. Талоқдан Аллоҳнинг арши силкинса, шайтонлар оламида байрам бўлади.

Шайтонвачча эшитса, эр-хотиннинг дарди тамоман бошқа нарса экан. Хотиннинг қимматбаҳо тилла асбоблари йўқолибди. У қайнонасидан кўрибди. Ўғил бўлмиш онасига: «Агарда сиз ўғирлаган бўлсангиз,

- Nima gap, topdilaringmi?
- Topdik.
- Xayriyat, qayerda ekan u ko‘rnamak?
- O‘likxonada.
- A, u yerda nima qilayotgan ekan?
- O‘lib yotgan ekan, xo‘jayin.
- Yo‘g‘-e, adashmadilaringmi?
- Odam o‘lgandan keyin undan tuproq hidi kelib qoladi, xo‘jayin. Tuproqdan tarqaganda ular. Hidi ko‘ylagiga urib qolgan ekan, o‘shandan bildik.
- Ajab bo‘pti, xo‘p bo‘pti, – dedi Shaytonvachcha alam bilan. – Tug‘ilmagan go‘dakka choh qazib, chohga o‘zi tushibdimi, battar bo‘lsin. O‘likxonada kalamushlarga yem bo‘sin.

## LAQQA BALIQ

*(yoki Shaytonvachchaning boshqa tarafdin ishlari yurishib qolgani)*

Shaytonvachcha to‘rvasini oldirgan gadoydek nima qilishini bilmay o‘tirgan edi, er-xotin tanishlarini boshlab, Dadamirza kelib qoldi.

– Qozimirza uka, – dedi u shoshib, – bularning dardiga sizdan boshqa hech kim davo qila olmaydi, iltimos, bir ilojini qiling. Bular bilan biz ko‘p yillik qadrdonmiz, meni qandoq ko‘rsangiz, bularni ham shundoq ko‘ring, iltimos. Men ishga shoshyapman, boraqolay...

Shaytonvachcha bundoq qarasa, eri xotindan, xotini eridan tumtaygan. Hoynahoy, er kayf ustida xotini taloq qilgan bo‘lsa kerak. Ajab bo‘libdi. Taloqdan Allohning arshi silkinsa, shaytonlar olamida bayram bo‘ladi.

Shaytonvachcha eshitsa, er-xotinning dardi tamoan boshqa narsa ekan. Xotinning qimmatbaho tilla asboblari yo‘qolibdi. U qaynonasidan ko‘ribdi. O‘g‘il bo‘lmish onasiga: «Agarda siz o‘g‘irlagan bo‘lsangiz,

сизни қариялар уйига жўнатаман, агарда келинингиз сизга тухмат қилаёган бўлса, уни талоқ қиламан», – деб оғзига сўз олиб кўйибди. Онаси «Қуръон»ни кўлига олиб қасам ичибди. Лекин тилла асбоблар барибир йўқ эмиш.

– Мен фолбинмасман, фол очмайман, – деди Шайтонвачча жўртага ўзини тарозига солиб. – Шариатда фол очиш ҳаром.

– Ажаб бўпти, хўп бўпти, – деди аёл эрига қараб. – Ўзимизнинг фолбинга борайлик десам, олдиндан келишиб кўйгансан, деб оғзимга урдингиз. Ҳалиям кетдик ўшанга, ўша яхши, ҳаром-паром деб ўтирмайди.

– Шошма-е, буларни Дадамирза каттакон азайимхон деб айтди-ку. Бир нимани билмаса гапирмайди бу кишим!

– Вой-й-й, азайимхонлик жа кўчада тушиб қоптида. Ҳали думбул-ку бу укам. «Зелонний». Она сути оғзидан кетмаган. Туринг-е, жўнадик, Худо урди-кетди...

Эр-хотин у деб, бу деб тортишгунча Шайтонвачча аёлнинг бошидаги қора жин билан тиллашиб, нима гаплигини билиб олди. Бир зумда оламжаҳон шайтоний режаларни ҳам тузиб ташлади. Ҳа, бу хотинга ким «зелонний»лигини кўрсатиб кўяди энди. Бир чапагини чалиб қолсин.

– Наҳотки иложи йўқ, ука, сизни роса мақтади-ку Дадамирза, – деди эркак худди олдиндан пулини тўлаб кўйган одамдек гина қилиб.

– Бу дунёда бўлмайдиган ишнинг ўзи йўқ, ака, – деди Шайтонвачча бирдан ўзгариб. – Фақат ишни жудаям чигаллаштирворибсизлар. Орага «қариялар уйи», «талоқ» деган гаплар тушибди. Кўлга «Қуръон» олиб қасам ичилибди. Э-ҳа... ғирт бошоғриқ. Шунга қараб шарти ҳам оғир бўлади-да. Шарти тўғри келса, тиллалар топилади, топилмайдимас, улар ишончли жойда турибди, ҳеч қаёққа кетгани йўқ... Ҳа, шундок кўряпман тиллаларни...

sizni qariyalar uyiga jo‘nataman, agarda keliningiz sizga tuhmat qilayogan bo‘lsa, uni taloq qilaman», – deb og‘ziga so‘z olib qo‘yibdi. Onasi «Qur‘on»ni qo‘liga olib qasam ichibdi. Lekin tilla asboblari baribir yo‘q emish.

– Men folbinmasman, fol ochmayman, – dedi Shaytonvachcha jo‘rtaga o‘zini taroziga solib. – Shariatda fol ochish harom.

– Ajab bo‘pti, xo‘p bo‘pti, – dedi ayol eriga qarab. – O‘zimizning folbinga boraylik desam, oldindan kelishib qo‘ygansan, deb og‘zimga urdingiz. Haliyam ketdik o‘shanga, o‘sha yaxshi, harom-parom deb o‘tirmaydi.

– Shoshma-ye, bularni Dadamirza kattakon azayimxon deb aytdi-ku. Bir nimani bilmasa gapirmaydi bu kishim!

– Voy-y-y, azayimxonlik ja ko‘chada tushib qoptida. Hali dumbul-ku bu ukam. «Zelonniy». Ona suti og‘zidan ketmagan. Turing-e, jo‘nadik, Xudo urdiketdi...

Er-xotin u deb, bu deb tortishguncha Shaytonvachcha ayolning boshidagi qora jin bilan tillashib, nima gapligini bilib oldi. Bir zumda olamjahon shaytoniy rejalarni ham tuzib tashladi. Ha, bu xotinga kim «zelonniy»ligini ko‘rsatib qo‘yadi endi. Bir chapagini chalib qolsin.

– Nahotki iloji yo‘q, uka, sizni rosa maqtadi-ku Dadamirza, – dedi erkak xuddi oldindan pulini to‘lab qo‘ygan odamdek gina qilib.

– Bu dunyoda bo‘lmaydigan ishning o‘zi yo‘q, aka, – dedi Shaytonvachcha birdan o‘zgarib. – Faqat ishni judayam chigallashtirvoribsizlar. Oraga «qariyalar uyi», «taloq» degan gaplar tushibdi. Qo‘lga «Qur‘on» olib qasam ichilibdi. E-ha... g‘irt boshog‘riq. Shunga qarab sharti ham og‘ir bo‘ladi-da. Sharti to‘g‘ri kelsa, tillalar topiladi, topilmaydimas, ular ishonchli joyda turibdi, hech qayoqqa ketgani yo‘q... Ha, shundoq ko‘ryapman tillalarni...

– Э, айтинг-да тезроқ шартингизни, – деб эркак ўтирган жойидан туриб кетди.

– Шарти шуки, келинойимиз чап қулоғидаги балдоғини, чап кўлидаги билакузук ва узукларни, яна бўйнидаги кўш занжирнинг биттасини ечиб ўртага ташлайдилар. Хуллас, элликка – эллик. Шунга келишамизми?

– Вой, йў-йў-йў-йў, – деганича аёл ўтирган ўрнидан туриб кетди. – Сиз фолбинмисиз, қароқчимисиз? Сиздан қолган бир пой тақинчоқларни бошимга урамани, ундан кўра тиллаларни топмай кўя қолинг. Кечдим ўша тиллалардан, сатқай сар...

– Ихтиёрингиз, мен сизларни бу ерга чақириб келганим йўқ, – деди Шайтонвачча.

– Ҳов, – деди эркак хотинига мушт дўлайтиб, – мени тақинчоқларинг қизиқтирмайди, ўғри ким, шуни билишим керак. Ҳа, кимлигини айтинг, ука, йўқолган тақинчоқнинг ҳаммаси сизники, гап битта, менга онажонимнинг шаъни аъло...

– Вой, нимага менинг тиллаларимга хўжайинлик қиласиз? – чинқириб юборди хотин эрига.

– Овозингни ўчир, ҳаммасини ўзим олиб берганман.

– Ўғри уйингиздаги қора мушук, – деб юборди Шайтонвачча.

Бу гапни эшитган эркак ниманидир эслади ва Шайтонваччанинг ҳузуридан ўқдек отилиб чиқиб кетди. Хотин ҳам жон ҳолатда эрининг орқасидан чопди...

Шайтонвачча орқаларидан қаҳ-қаҳ отиб кулиб қолди.

## НАЙРАНГ ДАВОМ ЭТАДИ

*(ёки Шайтонваччанинг тичоқнинг сотини яна ўзидан чиқаргани)*

Кечга яқин Шайтонваччанинг ҳузурига ҳалиги эркак кириб келди.

– E, ayting-da tezroq shartingizni, – deb erkak o‘tirgan joyidan turib ketdi.

– Sharti shuki, kelinoyimiz chap qulog‘idagi baldog‘ini, chap qo‘lidagi bilakuzuk va uzuklarni, yana bo‘ynidagi qo‘sh zanjirning bittasini yechib o‘rtaga tashlaydilar. Xullas, ellikka – ellik. Shunga kelishamizmi?

– Voy, yo‘-yo‘-o‘-o‘, – deganicha ayol o‘tirgan o‘rnidan turib ketdi. – Siz folbinmisiz, qaroqchimisiz? Sizdan qolgan bir poy taqinchoqlarni boshimga uramanmi, undan ko‘ra tillalarni topmay qo‘ya qoling. Kechdim o‘sha tillalardan, satqayi sar...

– Ixtiyoringiz, men sizlarni bu yerga chaqirib kelganim yo‘q, – dedi Shaytonvachcha.

– Hov, – dedi erkak xotiniga musht do‘laytib, – meni taqinchoqlaring qiziqtirmaydi, o‘g‘ri kim, shuni bilishim kerak. Ha, kimligini ayting, uka, yo‘qolgan taqinchoqning hammasi sizniki, gap bitta, menga onajonimning sha‘ni a‘lo...

– Voy, nimaga mening tillalarimga xo‘jayinlik qilasiz? – chinqirib yubordi xotin eriga.

– Ovozingni o‘chir, hammasini o‘zim olib berganman.

– O‘g‘ri uyingizdagi qora mushuk, – deb yubordi Shaytonvachcha.

Bu gapni eshitgan erkak nimanidir esladi va Shaytonvachchaning huzuridan o‘qdek otilib chiqib ketdi. Xotin ham jon holatda erining orqasidan chopdi...

Shaytonvachcha orqalaridan qah-qah otib kulib qoldi.

## NAYRANG DAVOM ETADI

*(yoki Shaytonvachchaning pichoqning sopini yana o‘zidan chiqargani)*

Kechga yaqin Shaytonvachchaning huzuriga haligi erkak kirib keldi.

– Илмингизга қойилман, тасанно, – деди эркак Шайтонваччага бош эгиб. – Мана хизмат ҳақингиз, онамнинг шаъни олдида бу тиллалар мен учун сариқ чақа. Хотин, бола-чақа топилади, ота-она топилмайди.

Шайтонвачча Дадамирзага қаради. Дадамирза бўлса шавқ-у завқ билан дўстининг гапини давом эттирди:

– Қўшниларни гувоҳ қилиб, олдин қора мушукнинг пачағини чиқардик, Қозимирза ука. Шу десангиз ичидан тақинчоқлар чиқиб келди-да. Тухматчи келин дод деб тақинчоқларнинг устига ўзини отди. Хотин кишининг макри қирқ туяга юк, деганлари шу экан-да. Мушукнинг орқасини тешиб, тақинчоқларини жойлаб, қадимгидек қилиб суваб қўйибди, денг. Шуларгача билганингизга қойилман. Лекин айтиб қўйай, мартабангиз ошиб кетди. Қўни-қўшнилар фолбиннинг манзилени айтинг-чи, айтинг, деб қолишди. Мен у киши фолбинмас, авлиё, азайимхон, дедим. Тўғри айтибманми, тақсирим?

– Кеннойини нима қилдингиз? – сўради эркакдан Шайтонвачча Дадамирзанинг саволига жавоб бермай.

– Кўч-кўронини ортиб, талоқ қилдим. Йигитнинг гапи битта бўлади, ука. Лекин яна бир марта қойилман сизга, тасанно.

– Бу дунёда одамзот ўзига ўзи қилади. Кеннойимиз юрган эдилар сиздек бойвуччанинг бекаси бўлиб.

– Э, ундақаларга ачинманг, ука.

– Энди, – деди Шайтонвачча, – иссиғида биттасига уйланиб олинг. Ҳа, тўшакни совитманг, ака. Бўлмаса тўшагингизга шайтон кириб олади-я, тўғрими, – деб Шайтонвачча Дадамирзага қаради. – Бу масалада тоғамиз сизга ёрдам берадилар. Нега деганда у кишининг битта солиҳа жиянлари бор, нима дедингиз, – деб Шайтонвачча Дадамирзага юзланди.



– Ilmingizga qoyilman, tasanno, – dedi erkak Shaytonvachchaga bosh egib. – Mana xizmat haqingiz, onamning sha’ni oldida bu tillalar men uchun sariq chaqa. Xotin, bola-chaqa topiladi, ota-ona topilmaydi.

Shaytonvachcha Dadamirzaga qaradi. Dadamirza bo‘lsa shavq-u zavq bilan do‘stining gapini davom ettirdi:

– Qo‘shnilarni guvoh qilib, oldin qora mushukning pachag‘ini chiqardik, Qozimirza uka. Shu desangiz ichidan taqinchoqlar chiqib keldi-da. Tuhmatchi kelin dod deb taqinchoqlarning ustiga o‘zini otdi. Xotin kishining makri qirq tuyaga yuk, deganlari shu ekan-da. Mushukning orqasini teshib, taqinchoqlarini joylab, qadimgidek qilib suvab qo‘yibdi, deng. Shulargacha bilganingizga qoyilman. Lekin aytib qo‘yay, martabangiz oshib ketdi. Qo‘ni-qo‘shnilar folbinning manzilini ayting-chi, ayting, deb qolishdi. Men u kishi folbinmas, avliyo, azayimxon, dedim. To‘g‘ri aytibmanmi, taqsim?

– Kennoyini nima qildingiz? – so‘radi erkakdan Shaytonvachcha Dadamirzaning savoliga javob bermay.

– Ko‘ch-ko‘ronini ortib, taloq qildim. Yigitning gapi bitta bo‘ladi, uka. Lekin yana bir marta qoyilman sizga, tasanno.

– Bu dunyoda odamzot o‘ziga o‘zi qiladi. Kennoyimiz yurgan edilar sizdek boyvuchchaning bekasi bo‘lib.

– E, undaqaqalarga achinmang, uka.

– Endi, – dedi Shaytonvachcha, – issig‘ida bittasiga uylanib oling. Ha, to‘shakni sovitmang, aka. Bo‘lmasa to‘shagingizga shayton kirib oladi-ya, to‘g‘rimi, – deb Shaytonvachcha Dadamirzaga qaradi. – Bu masalada tog‘amiz sizga yordam beradilar. Nega deganda u kishining bitta soliha jiyanalari bor, nima dedingiz, – deb Shaytonvachcha Dadamirzaga yuzlandi.

– Дарвоқе, – деди Дадамирза хаёлини йиғиб олиб, – опачангизни айтяпсизми, Қозимирза ука?

– Ҳа-да...

– Шунақами, Дадамирзанинг жияни таксиримнинг опачаси бўладими? Унда эртагаёқ тўй, – деб юборди эркак қарсак уриб.

– Йўқ, – деди Шайтонвачча бош чайқаб, – даб-дабанинг ҳеч кераги йўқ. Тўй харажатларини сут пулига қўшиб тоғамизга берасиз. Опачамни сиздек одамга ўзим никоҳлаб бераман. Менга волидаи мухтарамангизнинг шаънини оқлайман, деб куйиб-пишганингиз ёқиб қолди.

– Бу яхшилигингизни унутмайман, ука, ўла-ўлгунимча хизматингизда бўламан, – деб таъзим қилди эркак.

«Албатта ўла-ўлгунингча хизматимда бўласан», – дегандек Шайтонвачча мийиғида кулиб қўйди. Шундай қилиб Шайтонвачча ўз оёғи билан тўрига илинган навбатдаги ўлжадан ҳам қуруқ қолмади. Аёллардан яна биттасини шайтон никоҳига ўраб, жўнатиб юборди. Унга ҳам чўртон балиқдек ўз уруғини ташлаб улгурган эди.

Шунақа, Дадамирзанинг кафеси Шайтонвачча учун бамисоли инкубатор бўлиб қолган эди. Аёл ходималар ишдан кейин қошдан қовоқ қайтармай Қозимирзанинг хизматини қилишлари керак. Одам-шайтонимиз ёмонам хотинбоз чиқиб қолди...

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

Йиғилиш Ахборотчининг ҳисобати билан бошланди.

– Жаноб раисимиз, – деди у ҳайъат аъзоларига қараб, – Одамшайтон олдида «сизлар ожизсизлар» деганларида минг марта ҳақ эканлар. Биз ўзимизча Одамшайтонни илонларга, чаёнларга чактирмоқчи, овқатига заҳар солмоқчи бўлиб юрибмиз. Ишга киришганимизда маълум бўлдики, биз ўша судралиб юрувчи захри қотилларни яхши билмас эканмиз.

– Darvoqe, – dedi Dadamirza xayolini yig‘ib olib, – opachangizni aytyapsizmi, Qozimirza uka?

– Ha-da...

– Shunaqami, Dadamirzaning jiyani taqsirimning opachasi bo‘ladimi? Unda ertagayoq to‘y, – deb yubordi erkak qarsak urib.

– Yo‘q, – dedi Shaytonvachcha bosh chayqab, – dab-dabaning hech keragi yo‘q. To‘y xarajatlarini sut puliga qo‘shib tog‘amizga berasiz. Opachamni sizdek odamga o‘zim nikohlab beraman. Menga validai muhtaramangizning sha‘nini oqlayman, deb kuyib-pishganingiz yoqib qoldi.

– Bu yaxshiligingizni unutmayman, uka, o‘la-o‘lgunimcha xizmatizingizda bo‘laman, – deb ta‘zim qiladi erkak.

«Albatda o‘la-o‘lguningcha xizmatimda bo‘lasan», – degandek Shaytonvachcha miyig‘ida kulib qo‘ydi. Shunday qilib Shaytonvachcha o‘z oyog‘i bilan to‘riga ilingan navbatdagi o‘ljadan ham quruq qolmadi. Ayollardan yana bittasini shayton nikohiga o‘rab, jo‘natib yubordi. Unga ham cho‘rton baliqdek o‘z urug‘ini tashlab ulgurgan edi.

Shunaqa, Dadamirzaning kafesi Shaytonvachcha uchun bamisoli inkubator bo‘lib qolgan edi. Ayol xodimalar ishdan keyin qoshdan qovoq qaytarmay Qozimirzaning xizmatini qilishlari kerak. Odamshaytonimiz yomonam xotinboz chiqib qoldi...

## HAY‘AT YIG‘ILISHI

Yig‘ilish Axborotchining hisobati bilan boshlandi.

– Janob raisimiz, – dedi u hay‘at a‘zolariga qarab, – Odamshayton oldida «sizlar ojizsizlar» deganlarida ming marta haq ekanlar. Biz o‘zimizcha Odamshaytonni ilonlarga, chayonlarga chaqtirmoqchi, ovqatiga zahar solmoqchi bo‘lib yuribmiz. Ishga kirishganimizda ma‘lum bo‘ldiki, biz o‘sha sudralib yuruvchi zahri qo-

Ахир, хозир қиш – улар уйқуда экан-ку. Не-не итларни қутуртириб, қоптирмоқчи бўлдик. Итлар Одамшайтоннинг ўз атрофига жинлардан қўйган тансоқчиларини кўрганда думларини қисиб, қочиб қолишди.

– Нима қиладиган бўлдиларинг? – тоқати тоқ бўлди раиснинг.

– Одамшайтонни одамларнинг ўзи жазоламаса, бизнинг қўлимиздан ҳеч вақо келмайди.

– Шундай, жаноби олийлари, шундай.

– Лекин олма пиш, оғзимга туш, деб ўтириш йўқ, – деди раис.

– Хўп бўлади...

## ФИРИБГАР АВЛИЁ

*(ёки Шайтонваччанинг тўрига яна бир «пашша»нинг илингани)*

Шайтонваччанинг нияти тухматчи келинни қора-лаб, бечора онаизорни оқлаш эмас эди, албатта. Аксинча, бу билан ўргимчакка ўхшаб чор атрофга тўрни кенгроқ ташлаган эди. Бу тўрга яна кимдир илинишини биларди. Шундай ҳам бўлди. Азайимхонни Дадамирзадан сўраб-суриштирувчилар кўпайиб кетди. Дадамирза Шайтонваччага қўнғирок қилиб, бир нозик меҳмонни олиб бораётганини айтди. Бу дегани имиджингизни ўзгартириб, ўзингизга қараб олинг, дегани эди. Шайтонвачча ҳар хил париклар, соқол-мўйловли маскалар олиб келиб қўйган, хузурига нажот истаб келувчиларни турлитуман қиёфаларда кутиб оларди. Шундай қилмаса, Шайтонвачча оддий уй кийимида кўча боласига ўхшаб қоларди. Салобат деган нарса йўқ эди унда ҳали. Шайтонвачча нимагадир бу гал имиджини ўзгартирмади. Дадамирза ҳам билмайдиган пухтарок режа тузди. Ахир, калласи иккита-ку. Бири ишламаса, бири ишлайди. Меҳмонни оддий жомакорда кутиб

tillarni yaxshi bilmas ekanmiz. Axir, hozir qish – ular uyqida ekan-ku. Ne-ne itlarni quturtirib, qoptirmoqchi bo‘ldik. Itlar Odamshaytonning o‘z atrofiga jinlardan qo‘ygan tansoqchilarini ko‘rganda dumlarini qisib, qochib qolishdi.

– Nima qiladigan bo‘ldilaring? – toqati toq bo‘ldi raisning.

– Odamshaytonni odamlarning o‘zi jazolamasa, bizning qo‘limizdan hech vaqo kelmaydi.

– Shunday, janobi oliylari, shunday.

– Lekin olma pish, og‘zimga tush, deb o‘tirish yo‘q, – dedi rais.

– Xo‘p bo‘ladi...

## FIRIBGAR AVLIYO

*(yoki Shaytonvachchaning to‘riga yana bir  
«pashsha»ning ilingani)*

Shaytonvachchaning niyati tuhmatchi kelinni qoralab, bechora onaizorni oqlash emas edi, albatta. Aksincha, bu bilan o‘rgimchakka o‘xshab chor atrofga to‘rni kengroq tashlagan edi. Bu to‘rga yana kimdir ilinishini bilardi. Shunday ham bo‘ldi. Azayimxonni Dadamirzadan so‘rab-surishtiruvchilar ko‘payib ketdi. Dadamirza Shaytonvachchaga qo‘ng‘iroq qilib, bir nozik mehmonni olib borayotganini aytdi. Bu degani imidjingizni o‘zgartirib, o‘zingizga qarab oling, degani edi. Shaytonvachcha har xil pariklar, soqol-mo‘ylovli maskalar olib kelib qo‘ygan, huzuriga najot istab keluvchilarni turli-tuman qiyofalarda kutib olardi. Shunday qilmasa, Shaytonvachcha oddiy uy kiyimida ko‘cha bolasiga o‘xshab qolardi. Salobat degan narsa yo‘q edi unda hali. Shaytonvachcha nimagadir bu gal imidjini o‘zgartirmadi. Dadamirza ham bilmaydigan puxtaroq reja tuzdi. Axir, kallasi ikkita-ku. Biri ishlamasa, biri ishlaydi. Mehmonni oddiy jamokorda kutib olaverdi.

олаверди. Нозик одам дегани серрайган, димоғдор бир киши эди. Шайтонваччанинг саломига дурустрок алик ҳам олмади. Шайтонваччанинг сўрашиш учун узатган қўли хавода қолди. Мулзам бўлган Шайтонвачча нима қилишини билмай, ёпиқ турган ичкариги хонанинг эшигига қараб кўйди. Серрайган меҳмон Шайтонваччани авлиёнинг югурдаги бўлса керак, деб ўйлади ва у ҳам эшикка бир қараб кўйди. Дадамирза жиянини нима деб таништиришини ҳам билмай, иккиланиб туриб қолди. Бўлмаса, Қозимирзага олдиндан айтди-я ўзингизга қараб олинг, деб. Чакмон кийиб, кўзга кўзойнак, бошга саллани кўндириб олмайдами бу қайсар. Орага ноқулай жимлик чўкди. Охири Дадамирза таништиришни меҳмондан бошлади:

– Бу акахонимиз, – деди Дадамирза серрайган одамга қараб, – шахримизнинг энг кўзга кўринган бизнесменларидан бўладилар...

Дадамирзанинг гапи оғзида қолди.

– Ҳа, – деди бизнесмен Шайтонваччага қараб, – азайимхонми, авлиёми, жинми, шайтонми, ишқилиб, ўшанга кириб айт, мени тезроқ қабул қилсин, кутиб туришга вақтим йўқ.

Шундай деб у яна ёпиқ эшикка қараб кўйди. Дадамирза бир нима демоқчи бўлган эди, Шайтонвачча уни гапиртирмади. Меҳмонга итоаткорлик билан қуллуқ қилиб, ўрнидан турди-да, орқаси билан юриб, хонага кириб кетди. Дадамирза хангманг бўлиб қолди. Кўнглида Қозимирза энди киймини ўзгартириб чиқади, деб ўйлади. Аммо эшик очилиб, оппоқ соқолли, саллали, нуроний бир чехра кўринди-ю, яна эшик ёпилди. Дадамирза ҳайрон бўлиб эшикка қараганча қолди. Ким бўлди экан бу одам. Салдан кейин Шайтонвачча боз-боягидек чиқиб, эшикни орқасидан эҳтиётлаб ёпди-да, серрайган одамга юзланди:

– Узр, тақсир, ҳозир авлиё ҳазратлари фаришталарни қабул қилаётган эканлар. Нима дардингиз бўлса, каминага айтиб, телефон рақамингизни қол-

Nozik odam degani serraygan, dimog‘dor bir kishi edi. Shaytonvachchaning salomiga durustroq alik ham olmasdi. Shaytonvachchaning so‘rashish uchun uzatgan qo‘li havoda qoldi. Mulzam bo‘lgan Shaytonvachcha nima qilishini bilmay, yopiq turgan ichkarigi xonaning eshigiga qarab qo‘ydi. Serraygan mehmon Shaytonvachchani avliyoning yugurdagi bo‘lsa kerak, deb o‘yladi va u ham eshikka bir qarab qo‘ydi. Dadamirza jiyanini nima deb tanishtirishini ham bilmay, ikkilanib turib qoldi. Bo‘lmasa, Qozimirzaga oldindan aytdi-ya o‘zingizga qarab oling, deb. Chakmon kiyib, ko‘zga ko‘zoynak, boshga sallani qo‘ndirib olmaydimi bu qaysar. Oraga noqulay jimlik cho‘kdi. Oxiri Dadamirza tanishtirishni mehmondan boshladi:

– Bu akaxonimiz, – dedi Dadamirza serraygan odamga qarab, – shahrimizning eng ko‘zga ko‘ringan biznesmenlaridan bo‘ladilar...

Dadamirzaning gapi og‘zida qoldi.

– Ha, – dedi biznesmen Shaytonvachchaga qarab, – azayimxonmi, avliyomi, jinmi, shaytonmi, ishqilib, o‘shanga kirib ayt, meni tezroq qabul qilsin, kutib turishga vaqtim yo‘q.

Shunday deb u yana yopiq eshikka qarab qo‘ydi. Dadamirza bir nima demoqchi bo‘lgan edi, Shaytonvachcha uni gapirtirmadi. Mehmonga itoatkorlik bilan qulluq qilib, o‘rnidan turdi-da, orqasi bilan yurib, xonaga kirib ketdi. Dadamirza hang-mang bo‘lib qoldi. Ko‘nglida Qozimirza endi kiyimini o‘zgartirib chiqadi, deb o‘yladi. Ammo eshik ochilib, oppoq soqolli, sallali, nuroniy bir chehra ko‘rindi-yu, yana eshik yopildi. Dadamirza hayron bo‘lib eshikka qaraganicha qoldi. Kim bo‘ldi ekan bu odam. Saldan keyin Shaytonvachcha boz-boyagidek chiqib, eshikni orqasidan ehtiyotlab yopdi-da, serraygan odamga yuzlandi:

– UZR, taqsir, hozir avliyo hazratlari farishtalarni qabul qilayotgan ekanlar. Nima dardingiz bo‘lsa, kamina-ga aytib, telefon raqamingizni qoldirib ketar ekansiz.

дириб кетар экансиз. Ишингиз жиддий бўлса, сизни ўзлари чақириб олар эканлар. Бундоғроқ бўлса, телефон орқали ҳам битириб бераверар эканлар.

Ҳеч кимнинг қабулида бунчалик музтар бўлмаган бизнесменнинг пешанаси тиришди. Кимсан, катта бир шаҳарни ўтирғизиб турғазадиган одам келиб-келиб бир югурдакка дардини айтадими? У Дадамирзага жаҳл билан қаради-да:

– Авлиёнгиздан ўргилдим, димоғи жа баланд-ку, бурнини ерга ишқаб кўяйми? – деди.

Дадамирза нима дейишини билмай ерга қаради. Нималар бўлаётганига ҳали-ҳануз ўзи тушунмаётган эди. Тавба, ичкаридаги ким бўлиши мумкин? Э, Бобил шаҳридаги устозларидан бирортаси келиб қолдимикан-а? Бу гумондан Дадамирза бирдан хотиржам тортди. Бизнесменга «Сабр қилсинлар», дегандек кулиб қаради.

– Узоқ чўзиладими? – дўриллади серрайган Шайтонваччага еб юборгудек қараб.

– Нимани сўраяптилар? – атайлаб ўзини гўлликка солди Шайтонвачча.

– Нимани бўларди, жинлар билан гаплашиши-да.

– Фаришталар билан денг, таксирим!

– Э, нима фарқи бор...

Шайтонвачча унинг такаббурлигидан хурсанд бўлиб ичида: «Тўғри айтадилар», – дегандек кулиб қўйди. Ўзи Одам болаларининг жин билан фариштанинг фарқига бормагани яхши. Бунақа одамлар билан дўзахга тушсанг ҳам маза қиласан. Нега деганда жаннат билан дўзахнинг ҳам фарқига боришмайди-да. Шайтонвачча билагидаги соатга диққат билан қараб:

– Сизга айтсам, ҳазратнинг фаришталар билан суҳбатлари яна беш соат-у ўн икки минутга чўзилади-ёв, – деди.

– Нима? – деди бизнесменнинг кўзлари орқага кетиб. – Беш соат-у ўн икки минут? Устимдан куляпсанми, мишиқи, икки минутига бало борми?



Ishingiz jiddiy bo'lsa, sizni o'zlari chaqirib olar ekanlar. Bundog'roq bo'lsa, telefon orqali ham bitirib bera-verar ekanlar.

Hech kimning qabulida bunchalik muztar bo'lmagan biznesmenning peshanasi tirishdi. Kimsan, katta bir shaharni o'tirg'izib turg'azadigan odam kelib-kelib bir yugurdakka dardini aytadimi? U Dadamirzaga jahl bilan qaradi-da:

– Avliyongizdan o'rgildim, dimog'i ja baland-ku, burnini yerga ishqab qo'yaymi? – dedi.

Dadamirza nima deyishini bilmay yerga qaradi. Nimalar bo'layotganiga hali-hanuz o'zi tushunmayotgan edi. Tavba, ichkaridagi kim bo'lishi mumkin? E, Bobil shahridagi ustozlaridan birortasi kelib qoldimikan-a? Bu gumondan Dadamirza birdan xotirjam tortdi. Biznesmenga «Sabr qilsinlar», degandek kulib qaradi.

– Uzoq cho'ziladimi? – do'rilladi serraygan Shaytonvachchaga yeb yuborgudek qarab.

– Nimani so'rayaptilar? – ataylab o'zini go'llikka soldi Shaytonvachcha.

– Nimani bo'lardi, jinlar bilan gaplashishi-da.

– Farishtalar bilan deng, taqsirim!

– E, nima farqi bor...

Shaytonvachcha uning takabburligidan xursand bo'lib ichida: «To'g'ri aytadilar», – degandek kulib qo'ydi. O'zi Odam bolalarining jin bilan farishta-ning farqiga bormagani yaxshi. Bunaqa odamlar bilan do'zaxga tushsang ham maza qilasan. Nega deganda jannat bilan do'zaxning ham farqiga borishmaydi-da. Shaytonvachcha bilagidagi soatga diqqat bilan qarab:

– Sizga aytsam, hazratning farishtalar bilan suhbatlari yana besh soat-u o'n ikki minutga cho'ziladi-yov, – dedi.

– Nima? – dedi biznesmenning ko'zlari orqaga ketib. – Besh soat-u o'n ikki minut? Ustimdan kulyapsanmi, mishiqli, ikki minutiga balo bormi?

– Бу бизга боғлиқмас, акахон, – деди Шайтонвачча тиржайиб, – тепага боғлиқ, – деб кўрсаткич бармоғи билан юқорига ишора қилиб қўйди. – Ўн бешдан ўн икки дақиқа ўтганда аср вақти киради. Кундузги фаришталар билан тунги фаришталар ўрин алмашадилар. Ҳазратим ўзлари еча олмаган баъзи масалаларни фаришталардан илтимос қилиб тепага бериб юборадилар. Ҳозир ана шунақа зарур ишлар билан бандлар.

Бу гаплар серрайган одамни сал чўчитди, шекилли, хаёл суриб туриб қолди. Албатта, беш соат кута олмас эди. Такдирга тан берди. Ноилож Шайтонваччага қараб:

– Бўпти, эшит бўлмаса, ё ёзиб оласанми-а? – деди.

– Гапираверсинлар, эсим жойида, кейин бу ердаги деворларнинг ҳам қулоғи бор.

Шундай қилиб бу серрайган бизнесменнинг қари отаси бор эди. Ота-бола ўртасида шундай суҳбат бўлиб ўтади:

– Ўғлим, пулинг кўпми?

– Ҳа, ота, пулим кўп, нима қил дейсиз?

– Мени рози қил.

– Уйлантириб қўяйми?

– Майнавозчилик қилма, менга дугона керакмас.

– Унда нима қил дейсиз?

– Жаннатдан жой сотиб олиб бер...

– Бир оғиз сўзингиз, ота.

Бой ўғил маҳалла имомини хузурига чақиртириб, отасининг дардини айтди. «Юртга ош бериб юборинг, яхшилаб дуо қиламиз, кўпчиликнинг дуоси қабул», – деди домла. Ўғил: «Бундан осони бор эканми», – деб ярим шаҳарга ош берди. Ўх-хў-ў-ў... издиҳомга кимлар келмади-я.

– Ҳе, – деди ота норози бўлиб, – бир-икки қозон ош билан жаннатни сотиб олса, жаннатнинг жаннатлиги қоладими, эси паст.

– Bu bizga bog‘liqmas, akaxon, – dedi Shaytonvachcha tirjayib, – tepaga bog‘liq, – deb ko‘rsatkich barmog‘i bilan yuqoriga ishora qilib qo‘ydi. – O‘n beshdan o‘n ikki daqiqa o‘tganda asr vaqti kiradi. Kunduzgi farishtalar bilan tungi farishtalar o‘rin almashadilar. Hazratim o‘zlari yecha olmagan ba’zi masalalarni farishtalardan iltimos qilib tepaga berib yuboradilar. Hozir ana shunaqa zarur ishlar bilan bandlar.

Bu gaplar serraygan odamni sal cho‘chitdi, shekilli, xayol surib turib qoldi. Albatta, besh soat kuta olmas edi. Taqdirga tan berdi. Noiloj Shaytonvachchaga qarab:

– Bo‘pti, eshit bo‘lmasa, yo yozib olasanmi-a? – dedi.

– Gapiraversinlar, esim joyida, keyin bu yerdagi devorlarning ham qulog‘i bor.

Shunday qilib bu serraygan biznesmenning qari otasi bor edi. Ota-bola o‘rtasida shunday suhbat bo‘lib o‘tadi:

– O‘g‘lim, puling ko‘pmi?

– Ha, ota, pulim ko‘p, nima qil deysiz?

– Meni rozi qil.

– Uylantirib qo‘yaymi?

– Maynavozchilik qilma, menga dugona kerakmas.

– Unda nima qil deysiz?

– Jannatdan joy sotib olib ber...

– Bir og‘iz so‘zingiz, ota.

Boy o‘g‘il mahalla imomini huzuriga chaqirtirib, otasining dardini aytdi. «Yurtga osh berib yuboring, yaxshilab duo qilamiz, ko‘pchilikning duosi qabul», – dedi domla. O‘g‘il: «Bundan osoni bor ekanmi», – deb yarim shaharga osh berdi. O‘h-ho‘-o‘-o‘... izdihomga kimlar kelmadi-ya.

– He, – dedi ota norozi bo‘lib, – bir-ikki qozon osh bilan jannatni sotib olsa, jannatning jannatligi qoladimi, esi past.

Ўғил отасига атаб қабристонга кўк гумбазли сағана қурдирди. Атрофига минг хил гулларни эктирди. Жаннат қушлари деб товусларни у ёқдан бу ёққа юргазиб қўйди. Ота қабристонга келиб буларни кўрди-ю, баттар ғижинди.

– Нима, эрта кунда ўлишимни хоҳлаб қолдингми, падар лаънат...

Ўғил нима қилишини билмай турган эди, унинг жонига шу яқин орада ивирсиб юрган гўрков оро кирди. Уни четга тортиб, бир нималар деди. Ўғил хурсанд бўлиб кетди. Гўё жаннатнинг калитини топгандек бўлди. Уззукун одамларини у ёқдан бу ёққа югуртириб, гўрков айтган нарсани топтирди. Уни қўлтиғига уриб, отасининг ҳузурига кирди.

– Ниҳоят топдим, ота, жаннат муборак бўлсин сизга, – деди ўғил суюнчилаб.

– Бир нима деддингми?

Ўғил Аллоҳнинг оятлари ёзилган қора бахмални кўрсатди.

– Бу нима каромат кўрсатаркан?

– Одам ўлгандан кейин устига ёпиб қўйилса, тўппа-тўғри жаннатга олиб кирар экан.

– Э ўғлим, пул топибсан-у, ақл топмабсан, – деб ота тескари қарайди.

Отани рози қила олмаган ўғил зиёфатда ўтириб, шаҳарда пайдо бўлиб қолган азайимхон ҳақида эшитиб қолди. Ўша зиёфатда хотинини уч талоқ қилган Дадамирзанинг оғайниси ҳам ўтирган эди. У қўшиб-чатиб бўлган воқеаларни айтиб берди. Шунга пул топиб, ақл топмаган ўғилнинг авлиёдан нажот истаб келган жойи эди.

Шайтонвачча ҳамма гапни эшитиб олгач, яна боягидек тавозе билан ичкарига кириб кетди. Бир оздан кейин чиқиб:

– Ҳазратим айтдиларки, – деди у, – бу дунёда битмайдиган ишнинг ўзи йўқ экан, атаганингизни ташлаб, телефон рақамингизни қолдириб кетар экансиз. Юқоридан сўраб, – дея яна қўли билан юқорига

O'g'il otasiga atab qabristonga ko'k gumbazli sag'ana qurdirdi. Atrofiga ming xil gullarni ektirdi. Jannat qushlari deb tovuslarni u yoqdan bu yoqqa yurgazib qo'ydi. Ota qabristonga kelib bularni ko'rdi-yu, battar g'ijindi.

– Nima, erta kunda o'lishimni xohlab qoldingmi, padar la'nat...

O'g'il nima qilishini bilmay turgan edi, uning joniga shu yaqin orada ivirsib yurgan go'rkov oro kirdi. Uni chetga tortib, bir nimalar dedi. O'g'il xursand bo'lib ketdi. Go'yo jannatning kalitini topgandek bo'ldi. Uzzukun odamlarini u yoqdan bu yoqqa yugurtirib, go'rkov aytgan narsani toptirdi. Uni qo'ltig'iga urib, otasining huzuriga kirdi.

– Nihoyat topdim, ota, jannat muborak bo'lsin sizga, – dedi o'g'il suyunchilab.

– Bir nima dedingmi?

O'g'il Allohning oyatlari yozilgan qora baxmalni ko'rsatdi.

– Bu nima karomat ko'rsatarkan?

– Odam o'lgandan keyin ustiga yopib qo'yilsa, to'ppa-to'g'ri jannatga olib kirar ekan.

– E o'g'lim, pul topibsanzu, aql topmabsanzu, – deb ota teskari qaraydi.

Otani rozi qila olmagan o'g'il ziyofatda o'tirib, shaharda paydo bo'lib qolgan azayimxon haqida eshitib qoldi. O'sha ziyofatda xotinini uch taloq qilgan Dadamirzaning og'aynisi ham o'tirgan edi. U qo'shibchatib bo'lgan voqealarni aytib berdi. Shunga pul topib, aql topmagan o'g'ilning avliyodan najot istab kelgan joyi edi.

Shaytonvachcha hamma gapni eshitib olgach, yana boyagidek tavoze bilan ichkariga kirib ketdi. Birozdan keyin chiqib:

– Hazratim aytdilarki, – dedi u, – bu dunyoda bitmaydigan ishning o'zi yo'q ekan, ataganingizni tashlab, telefon raqamingizni qoldirib ketar ekansiz. Yuqoridan

ишора қилди Шайтонвачча, – ўзлари хабар қилар эканлар.

– Ўзларининг телефон рақамлари-чи? – деди серрайган одам визиткасини узатар экан.

– Узр, – деди Шайтонвачча, – биз визиткалар тарқатиб, ўзимизни реклама қилмаймиз. Кейин бугун бу ердамиз, эртага қаердамиз, унисиниям билмаймиз. Худонинг ихтиёридаги одаммиз.

– Ҳозирдан бошлаб менинг ихтиёримга ўтасанлар, – деди серрайган одам кўзларини лўқ қилиб. – Менинг ишим битмагунча ҳеч қаерга жилмайсанлар. Билиб қўйинглар, самалётга чиқсаларинг самалётни, поездга чиқсаларинг поездни тўхтатиб қолиш қўлимдан келади, ҳа!

– Хотирингиз жам бўлсин, бизнинг самалётга ҳам, поездга ҳам ишимиз тушмайди, – деди Шайтонвачча бўш келмай. – Бизнинг самалётдан ҳам тез учадиган, поездингизни ярим йўлда қолдириб кетадиган ўз хаво кемаларимиз бор. Чақириб, шундоқ деразани очамиз-у, уч-и-и-б к-е-е-т-а-а-верамиз.

– Шунақами? – ха-холаб оғзини тўлдириб кулди серрайган. – Жа оширвординг-ку, болакай, бўпти, – деб чўнтагидан чек қоғозини чиқарди у. Унга Шайтонваччанинг паспорт бўйича исм ва фамилиясини ёзиб, чекни унинг олдига сурди:

– Қалай, бўладими?

Шайтонвачча кўриб турган кўзларига ишонмай қолди. Ярим миллион, «кўки»дан. Вой пул топиб ақл топмаган аҳмоғ-ей. Бу одамнинг пул кўзини тамоман кўр қилиб қўйибди-ку. Пул билан жаннатни сотиб олиб бўларканми? Отаси нима демоқчилигини ҳали ҳам тушунмапти бу каллаварам. Баттар бўлсин... Берганнинг бетига қарама, деб Шайтонвачча чекка қўл чўзди. Аммо серрайган шу заҳоти чекни тортиб олди:

– Ҳа, ёқмай кетсин, кўчага ташлаб қўйган пул бор эканми, олдин ишни битириб қўйинглар, ана ундан кейин...

so‘rab, – deya yana qo‘li bilan yuqoriga ishora qildi Shaytonvachcha, – o‘zlari xabar qilar ekanlar.

– O‘zlarining telefon raqamlari-chi? – dedi serraygan odam vizitkasini uzatar ekan.

– UZR, – dedi Shaytonvachcha, – biz vizitkalar tarqatib, o‘zimizni reklama qilmaymiz. Keyin bugun bu yerdamiz, ertaga qayerdamiz, unisiniyam bilmaymiz. Xudoning ixtiyoridagi odammiz.

– Hozirdan boshlab mening ixtiyoringa o‘tasanlar, – dedi serraygan odam ko‘zlarini lo‘q qilib. – Mening ishim bitmaguncha hech qayerga jillmaysanlar. Bilib qo‘yinglar, samalyotga chiqsalarining samalyotni, poyezdga chiqsalarining poyezdni to‘xtatib qolish qo‘limdan keladi, ha!

– Xotiringiz jam bo‘lsin, bizning samalyotga ham, poyezdga ham ishimiz tushmaydi, – dedi Shaytonvachcha bo‘sh kelmay. – Bizning samalyotdan ham tez uchadigan, poyezdingizni yarim yo‘lda qoldirib ketadigan o‘z havo kemalarimiz bor. Chaqirib, shundoq dera-zani ochamiz-u, uch-i-i-b k-e-e-t-a-a-veramiz.

– Shunaqami? – xa-xolab og‘zini to‘ldirib kuldi serraygan. – Ja oshirvording-ku, bolakay, bo‘pti, – deb cho‘ntagidan chek qog‘ozini chiqardi u. Unga Shaytonvachchaning pasport bo‘yicha ism va familiyasini yozib, chekni uning oldiga surdi:

– Qalay, bo‘ladimi?

Shaytonvachcha ko‘rib turgan ko‘zlariga ishonmay qoldi. Yarim million, «ko‘ki»dan. Voy pul topib aql topmagan ahmog‘-ey. Bu odamning pul ko‘zini toman ko‘r qilib qo‘yibdi-ku. Pul bilan jannatni sotib olib bo‘larkanmi? Otasi nima demoqchiligini hali ham tushunmapti bu kallavaram. Battar bo‘lsin... Berganning betiga qarama, deb Shaytonvachcha chekka qo‘l cho‘zdi. Ammo serraygan shu zahoti chekni tortib oldi:

– Ha, yoqmay ketsin, ko‘chaga tashlab qo‘ygan pul bor ekanmi, oldin ishni bitirib qo‘yinglar, ana undan keyin...

Бу гапдан кейин Шайтонвачча шошиб яна ичкарига кириб кетди. Кўпам ҳаялламай қайтиб чиқди-да:

– Ҳазрат айтдиларки, – деди у овозини кўтариб, – жаннатдан насияга жой сотиб олиб бўлмас экан. Чекни қолдирсангиз қолдирдингиз, бўлмаса тўрт томонингиз қибла экан.

– Нима, нима, ҳе ўша... ажинангни сени, – деб у ичкарига уйга ўқдек отилиб кириб кетди.

Шайтонвачча билан Дадамирза бу ёқда тахта бўлиб қолишди. Шайтонвачча найранглари роса иш бераётганидан ҳаволаниб кетиб ортиқча гап қилиб юборганини билди. Лекин кеч бўлган эди. Бу серрайган одамнинг шу пайтгача биров мушугини пишт демаган эди-да.

Ичкаридан у зум ўтмай қайтиб чиқди-да:

– Ҳе онагни, найрангбоз, хонада одам тугул ит ҳам йўқ-ку, – деб Шайтонваччага мушт тушириб қолди. Зарба ўз мўлжалига тушди. Шайтонвачча шилқ этиб гилам устига қулади. У Хўжақишлоқдаги пиёнистадан калла еганда ҳам, Дадамирзадан мушт еганда ҳам худди шу аҳволга тушган эди. Ҳасан ва Ҳусан жинлар ўз хожасининг кимдандир калтак еб, оёқ остида чўзилиб ётганини кўриб кўрқиб кетишди. Улар хожасини зўрларнинг зўри деб билишарди. Дадамирза яхшиям серрайган одамни ушлаб қолди. Бўлмаса Қозимирзани тепкилаб ўлдириб қўяқоларди. Дадамирза бир амаллаб бизнесменни кўчагача олиб чиқиб, машинасига ўтқазиб юборди. Шайтонвачча ҳамон хонада ўзидан кетиб ётарди. Бирпасда пешанаси кўкариб, шишиб чиқди. Дадамирза латтани хўллаб-хўллаб оғриқ жойига миздек-муздек боса бошлади. Шайтонвачча ўзига келди.

– Тузукмисиз, Қозимирза ука, мени ўлдирсангиз ҳам камлик қилади, қаердан ҳам бошлаб келдим ўша бошоғриқни, – деб минғирлади Дадамирза.

Шайтонвачча атрофга аланглаб, Ҳасан ва Ҳусан



Bu gapdan keyin Shaytonvachcha shoshib yana ichkariga kirib ketdi. Ko‘pam hayallamay qaytib chiqdi-da:

– Hazrat aytdilarki, – dedi u ovozini ko‘tarib, – jannatdan nasiyaga joy sotib olib bo‘lmas ekan. Chekni qoldirsangiz qoldirdingiz, bo‘lmasa to‘rt tomoningiz qibla ekan.

– Nima, nima, he o‘sha... ajinangni seni, – deb u ichkarigi uyga o‘qdek otilib kirib ketdi.

Shaytonvachcha bilan Dadamirza bu yoqda taxta bo‘lib qolishdi. Shaytonvachcha nayranglari rosa ish berayotganidan havolanib ketib ortiqcha gap qilib yuborganini bildi. Lekin kech bo‘lgan edi. Bu serraygan odamning shu paytgacha birov mushugini pisht demagan edi-da.

Ichkaridan u zum o‘tmay qaytib chiqdi-da:

– He onagni, nayrangboz, xonada odam tugul it ham yo‘q-ku, – deb Shaytonvachchaga musht tushirib qoldi. Zarba o‘z mo‘ljaliga tushdi. Shaytonvachcha shilq etib gilam ustiga quladi. U Xo‘jaqishloqdagi piyonistadan kalla yeganda ham, Dadamirzadan musht yeganda ham xuddi shu ahvolga tushgan edi. Hasan va Husan jinlar o‘z xojasining kimdandir kaltak yeb, oyoq ostida cho‘zilib yotganini ko‘rib qo‘rqib ketishdi. Ular xojasini zo‘rlarning zo‘ri deb bilishardi. Dadamirza yaxshiyam serraygan odamni ushlab qoldi. Bo‘lmasa Qozimirzani tepkilab o‘ldirib qo‘yaqolardi. Dadamirza bir amalab biznesmenni ko‘chagacha olib chiqib, mashinasiga o‘tqazib yubordi. Shaytonvachcha hamon xonada o‘zidan ketib yotardi. Birpasda peshanasi ko‘karib, shishib chiqdi. Dadamirza lattani ho‘llab-ho‘llab og‘riq joyiga mizdek-muzdek bosa boshladi. Shaytonvachcha o‘ziga keldi.

– Tuzukmisiz, Qozimirza uka, meni o‘ldirsangiz ham kamlik qiladi, qayerdan ham boshlab keldim o‘sha bosh og‘riqni, – deb ming‘irladi Dadamirza.

Shaytonvachcha atrofga alanglab, Hasan va

жинларни қидириб қолди. Улар ўзини йўқотиб, бурчакда қалтираб ўтиришарди. Кўз кўзга тушиши билан тезда хожасининг тепасида пайдо бўлишди. «Мени дўппослаган бояги одамнинг оёқ-кўлини ўтиндек қуритмагунча кўзимга кўринманглар», – деди Шайтонвачча алам билан. «Амрингиз бош устига, хошам», – дея Ҳасан ва Ҳусан жинлар кўздан ғойиб бўлишди.

– У одам ўзига ўзи қилди, – деди Шайтонвачча ўрнидан туриб ўтирар экан. – Эртага ўша серрайган сўхтаси совуқ олдимга бош уриб келади, ўшанда унинг терисига сомон тикаман.

– Қозимирза ука, – деб Дадамирза ичкарига ишора қилди, – у ёқдаги киши ким эди?

– Устозим бўладилар. Анави одам кирганда у киши аллақачон Бобилга етиб бориб, бола-чақасининг олдида «Аҳмад чой» ичиб ўтирган эди. Авлиё одамга масофа деганлари нима бўпти, икки дунё бир кадам.

– Шундай денг, хай, ҳа-а-а-й... кўнглим сезган эди-я. Афсус, кўллари олаолмай қопман-да устозингизнинг. Рухсат беринг, у киши ўтирган хонани бир зиёрат қилиб чиқай.

– Бўлган гаплар шу ерда қолсин, гуллаб кетмасин, – деди Шайтонвачча Дадамирзага.

– Хўп бўлади, Қозимирза ука, хўп бўлади... Ўрага сичқон тушди, гулдур гуп...

## ЭҲ, ОДАМЛАР, ОДАМЛАР...

*(ёки Шайтонваччанинг узоқ-узоқ хаёлларга толиб қолганлари)*

Шайтонвачча серрайган одамдан мушт еган бўлса ҳам унинг қочиб қутула олмаслигига ишонарди. Ҳали Ҳасан ва Ҳусан жинлар уни шундоқ ҳам тавбасига таянтирсинки, дунёга келганига минг пушаймон бўлиб, бор-будидан ажраб, кафангадо бўлсин. Шай-

Husan jinlarni qidirib qoldi. Ular o‘zini yo‘qotib, burchakda qaltirab o‘tirishardi. Ko‘z-ko‘zga tushishi bilan tezda xojasining tepasida paydo bo‘lishdi. «Meni do‘pposlagan boyagi odamning oyoq-qo‘lini o‘tindek quritmaguncha ko‘zimga ko‘rinmanglar», – dedi Shaytonvachcha alam bilan. «Amringiz bosh ustiga, xojam», – deya Hasan va Husan jinlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

– U odam o‘ziga o‘zi qildi, – dedi Shaytonvachcha o‘rnidan turib o‘tirar ekan. – Ertaga o‘sha serraygan so‘xtasi sovuq oldimga bosh urib keladi, o‘shanda uning terisiga somon tiqaman.

– Qozimirza uka, – deb Dadamirza ichkariga ishora qildi, – u yoqdagı kishi kim edi?

– Ustozim bo‘ladilar. Anavi odam kirganda u kishi allaqachon Bobilga yetib borib, bola-chaqasining oldida «Ahmad choy» ichib o‘tirgan edi. Avliyo odamga masofa deganlari nima bo‘pti, ikki dunyo bir qadam.

– Shunday deng, hay, ha-a-a-y... ko‘nglim sezgan edi-ya. Afsus, qo‘llarini olaolmay qopman-da ustozingizning. Ruxsat bering, u kishi o‘tirgan xonani bir ziyorat qilib chiqay.

– Bo‘lgan gaplar shu yerda qolsin, gullab ketmasin, – dedi Shaytonvachcha Dadamirzaga.

– Xo‘p bo‘ladi, Qozimirza uka, xo‘p bo‘ladi... O‘raga sichqon tushdi, guldur gup...

## **EH, ODAMLAR, ODAMLAR...**

*(yoki Shaytonvachchaning uzoq-uzoq xayollarga tolib qolganlari)*

Shaytonvachcha serraygan odamdan musht yegan bo‘lsa ham uning qochib qutula olmasligiga ishonardi. Hali Hasan va Husan jinlar uni shundoq ham tavbasiga tayantirsinki, dunyoga kelganiga ming pushaymon bo‘lib, bor-budidan ajrab, kafangado bo‘lsin.

тонваччага бир нима нашъа қилиб, одатича қулоғини  
кашиб кўйди. Бунақа пайтда уни ҳамиша хаёллар  
олиб қочади. Ўзини эмас, Одам болаларини ўйлай  
бошлайди. Бошқа кимни ҳам ўйларди? Ахир,  
унинг охиратгача қиладиган иши Одам болаларини  
йўлдан уриш бўлса. «Зап ғалати махлуқ-да бу Одам  
болалари, – ўйларди Шайтонвачча. – Худога ёқадиган  
бирон-бир иш қилганми-йўқми барибир ёппасига  
жаннатга кирсам дейди. Аллоҳнинг айтганини қилиб,  
жигарларимга силаи раҳм қиляпманми, ғариб-у  
ғураболарнинг бошини силаяпманми, закотни вақ-  
тида адо етяпманми, деб ўйлаб ҳам кўрмайди.  
Кўлига тўрт танга тушиб қолса, ҳатто жаннатни  
ҳам сотиб оламан дейди. Қилма деган ишни тезда  
қилади, қил деган ишни нимага қилар эканман, деб  
қилмайди. Қачон қараса шубҳа-ю ҳадик орасида  
яшайди. Аллоҳга таваккал қилишни билмайди.  
Шубҳа-ю ҳадикка бордими, унинг маслаҳатгўйи,  
йўл-йўриқ кўрсатувчиси шайтон бўлади. Ахир,  
Одам Ато билан Момо Ҳавонинг жаннатдан ерга  
тушишига ким сабабчи бўлди? Аллоҳ уларга: «Бу  
дарахтга яқинлашманглар», деди. Улар итоат қилиш  
ўрнига «Нимага?» – деб шубҳага боришди. Бу  
иккиланишдан дарров шайтон фойдаланди. «Мевани  
есанглар жаннатда қоласизлар, емасанглар тез кунда  
жаннатдан менга ўхшаб қувиласизлар», – деди.  
Васваса қилди ва уларнинг жаннатдан қувилишларига  
сабаб бўлди. «Думи тугуклар» мадрасасида шунга  
ўхшаган жуда кўп воқеа ва ҳодисалар ҳақида гаплар  
бўларди. Шайтонвачча бир кун асқатиб қолар, деб  
барчасини миридан сиригача эшитарди. Ўйлаб қа-  
раса, ҳар қалай ёмон талаба бўлмаган экан».

Бир замонларда Аллоҳ Таоло Одам болаларини  
иймонга киритиш учун жаннатдан тош тушир-  
ди. У шунчаки адашиб тушган тош эмас эди. У шу  
қадар ақиқ, шаффоф эдики, ер жинсига ўхшамасди.  
Тунлари тўлин ойдек чор атрофга ўзидан нур  
таратарди. Нури узоқ-узоқларга етарди. Бамисоли  
осмонда битта Ой-у ерда ҳам битта Ой пайдо бўлган

Shaytonvachchaga bir nima nash'a qilib, odaticha qulog'ini qashib qo'ydi. Bunaqa paytda uni hamisha xayollar olib qochadi. O'zini emas, Odam bolalarini o'ylay boshlaydi. Boshqa kimni ham o'ylardi? Axir, uning oxiratgacha qiladigan ishi odam bolalarini yo'ldan urish bo'lsa. «Zap g'alati maxluq-da bu Odam bolalari, – o'ylardi Shaytonvachcha. – Xudoga yoqadigan biron-bir ish qilganmi-yo'qmi baribir yoppasiga jannatga kirsam deydi. Allohning aytganini qilib, jigarlarimga silai rahm qilyapmanmi, g'arib-u g'urabolarning boshini silayapmanmi, zakotni vaqtida ado etyapmanmi, deb o'ylab ham ko'rmaydi. Qo'liga to'rt tanga tushib qolsa, hatto jannatni ham sotib olaman deydi. Qilma degan ishni tezda qiladi, qil degan ishni nimaga qilar ekanman, deb qilmaydi. Qachon qarasa shubha-yu hadik orasida yashaydi. Allohga tavakkal qilishni bilmaydi. Shubha-yu hadikka bordimi, uning maslahatgo'yi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchisi shayton bo'ladi. Axir, Odam Ato bilan Momo Havoning jannatdan yerga tushishiga kim sababchi bo'ldi? Alloh ularga: «Bu daraxtga yaqinlashmanglar», dedi. Ular itoat qilish o'rniga «Nimaga?» – deb shubhaga borishdi. Bu ikkilanishdan darrov shayton foydalandi. «Mevani yesanglar jannatda qolasizlar, yemasanglar tez kunda jannatdan menga o'xshab quvilasizlar», – dedi. Vasvasa qildi va ularning jannatdan quvilishlariga sabab bo'ldi. «Dumi tuguklar» madrasasida shunga o'xshagan juda ko'p voqea va hodisalar haqida gaplar bo'lardi. Shaytonvachcha bir kun asqatib qolar, deb barchasini miridan sirigacha eshitardi. O'ylab qarasa, har qalay yomon talaba bo'lmagan ekan».

Bir zamonlarda Alloh Taolo Odam bolalarini iymonga kiritish uchun jannatdan tosh tushirdi. U shunchaki adashib tushgan tosh emas edi. U shu qadar aqiq, shaffof ediki, yer jinsiga o'xshamasdi. Tunlari to'lin oydek chor atrofga o'zidan nur taratardi. Nuri uzoquzoqlarga yetardi. Bamisoli osmonda bitta Oy-u yerda ham bitta Oy paydo bo'lgan edi. Odamlar toshni Hajar

эди. Одамлар тошни Ҳажар ул-асад – Оқтош деб атай бошлашди. У ҳақда: «Кимки Аллоҳнинг яғоналигига иймон келтириб, Оқтошни тавоф қилса, жаннати бўлади», – деган гап тарқалди. Бу шунчаки миш-миш эмас эди. Чунки тош жаннат махлуқи бўлиб, охиратда Аллоҳнинг амри билан яна жаннатга қайтиб кетар, Аллоҳга иймон келтирганларга гувоҳлик берар эди. Одамлар Оқтошни тавоф қилиш учун тўрт тарафдан оқиб кела бошладилар. Бу шайтонларни ташвишга солиб қўйди. Шайтонлар тошдан таралаётган илоҳий нурни сўндира олмас эдилар. Оқтошга қараган шайтоннинг кўзи кўр бўлиб қоларди. Чунки Оқтош – мусулмон эди. Ундан таралаётган нур иймон нури эди. Иймон нурини иймонсизлик билангина кетказиш мумкин эди. Тошнинг нури сўнсагина зиёратчиларнинг оқими тўхтарди. Ҳа, шундагина унинг оддий тошдан фарқи қолмайди. Шайтонлар одамлар орасида юриб васваса қила бошладилар:

- Ҳой одамлар, зиёрат дегани бунақа бўлмайди.
- Қанақа бўлади?
- Тошни силаб-сийпаб юз-кўзга суртмоқ керак.

Одамлар ювиқли-ювуқсиз қўллари билан тошни силаб-сийпаб юз-кўзларига сурта бошладилар. Бундан Оқтошнинг юзи кундан-кунга қорая борди. Шайтонлар бу билан ҳам тинчишмади. Васваса қилишни давом эттиришди:

- Зиёрат дегани бунақа бўлмайди.
- Қанақа бўлади?
- Онадан туғма ҳолда зиёрат қилиш керак. Кийим-кечаклар чин ибодатдан сизни тўсади.

Шайтонлар ниятларига етдилар. Энди одамлар жаннатдан тушган илоҳий тошни яланғоч тавоф қила бошлашди. Бу шармандалиқдан тошнинг нури ўчди. Қорайди-қолди. Оқтошдан Қоратошга айланди. Одамлар Аллоҳнинг уйи Кабатуллоҳни шайтон васвасасига учиб яланғоч тавоф қилардилар. Ислом ҳукми батамом ерга тушгунча шундай бўлиб турди.

ul-asad – Oqtosh deb atay boshlashdi. U haqda: «Kimki Allohning yagonaligiga iymon keltirib, Oqtoshni tavof qilsa, jannati bo‘ladi», – degan gap tarqaldi. Bu shunchaki mish-mish emas edi. Chunki tosh jannat maxluqi bo‘lib, oxiratda Allohning amri bilan yana jannatga qaytib ketar, Allohga iymon keltirganlarga guvohlik berar edi. Odamlar Oqtoshni tavof qilish uchun to‘rt tarafdin oqib kela boshladilar. Bu shaytonlarni tashvishga solib qo‘ydi. Shaytonlar toshdan taralayotgan ilohiy nurni so‘ndira olmas edilar. Oqtoshga qaragan shaytonning ko‘zi ko‘r bo‘lib qolardi. Chunki Oqtosh – musulmon edi. Undan taralayotgan nur iymon nuri edi. Iymon nurini iymonsizlik bilangina ketkazish mumkin edi. Toshning nuri so‘nsagina ziyoratchilarning oqimi to‘xtardi. Ha, shundagina uning oddiy toshdan farqi qolmaydi. Shaytonlar odamlar orasida yurib vasvasa qila boshladilar:

- Hay odamlar, ziyorat degani bunaqa bo‘lmaydi.
- Qanaqa bo‘ladi?
- Toshni silab-siypab yuz-ko‘zga surtmoq kerak.

Odamlar yuviqli-yuvuqsiz qo‘llari bilan toshni silab-siypab yuz-ko‘zlariga surta boshladilar. Bundan Oqtoshning yuzi kundan kunga qoraya bordi. Shaytonlar bu bilan ham tinchishmadi. Vasvasa qilishni davom ettirishdi:

- Ziyorat degani bunaqa bo‘lmaydi.
- Qanaqa bo‘ladi?
- Onadan tug‘ma holda ziyorat qilish kerak. Kiyim-kechaklar chin ibodatdan sizni to‘sadi.

Shaytonlar niyatlariga yetdilar. Endi odamlar jannatdan tushgan ilohiy toshni yalang‘och tavof qila boshlashdi. Bu sharmandalikdan toshning nuri o‘chdi. Qoraydi-qoldi. Oqtoshdan Qoratoshga aylandi. Odamlar Allohning uyi Kabatullohni shayton vasvasasiga uchib yalang‘och tavof qilardilar. Islom hukmi batamom yerga tushguncha shunday bo‘lib turdi. Hatto bir vaqt-

Ҳатто бир вақтнинг ўзида ҳам эҳромли мусулмонлар, ҳам яланғоч мушриклар тавоф қилган пайтлар бўлди.

Шайтонлар ҳамиша Одам болаларининг Ер юзида кўпайишига қарши бўлиб келди. Шайтон васвасаси билан бўладиган қирғинбаротлардан мурод эркак зотини ўлдириш, хотинларни тул қилиб, болаларни етим қилиш эди.

Қадимда бир қабила бўлган. Ўта ғурурли, орномусли. Уларни кўшни қабила ўзига кул қилиб олмоқчи бўлиб жанг бошлайди. Бу қабила ниҳоятда ёвуз бўлиб, урушда мағлуб бўлган қабила қизларини, аёлларини оталари, акалари кўз олдида зўрлар эди. Шу йўл билан қабила эркакларини рухан ўлдирад эди. Уларнинг бу ёвузликлари қабила кишиларини оғир ўйларга солиб қўйди. Урушда енгилиб қолишса нима бўлади? Шайтон уларга маслаҳатга келди: «Олдин қизларингизни, аёлларингизни ўлдириб, ортиқча даҳмазадан қутулинг». Шу-шу қабиладагилар оилада қиз туғилса, гўдаклигидаёқ ўлдирадиган ёки тириклайин кўмадиган бўлишди. Араб диёрларида қиз болаларни тириклайин ўлдириш ислом дини тўла-тўқис ғалаба қилган кунларгача етиб келди.

Бир куни Шайтонвачча «Думи тугуклар» мадрасасида шунга ўхшаган тарихий воқеаларни эшитиб ўтириб эснаб юборди. «Ҳа, – деди катта ўқитувчи жаҳли чиқиб, – дарсим ёқмадимми?» «Бари алмисокдан қолган гаплар, ҳозир ҳеч ким қизини тириклайин кўммайди, қирғинбарот урушлар ҳам бўлаётгани йўқ, ҳаёт жуда зерикарли», – деди Шайтонвачча домланинг жиғига тегиб. Устози унинг укувсизлигидан куйиниб деди: «Сен нодон, ғирт ғафлат уйкусидаги шайтонвачча экансан. Кўзингни каттароқ очиб, ён-берингга қарасанг ўласанми? Қизларга киндигини очиб юришни биз ўргатдик-ку, ўқимаган. Натижа аъло. Ер юзида неча миллионлаб қизлар туғмас бўлиб қолишяпти-ку. Тукқанлари ҳам чала-ярим. Қанчаси бола ташлаб кўяяпти. Аёлларни ярим яланғоч кўравериб йигитлар ҳам хеббимлашиб боряпти. Бу шайтонлар оламининг найрангларини



ning o'zida ham ehromli musulmonlar, ham yalang'och mushriklar tavof qilgan paytlar bo'ldi.

Shaytonlar hamisha Odam bolalarining Yer yuzida ko'payishiga qarshi bo'lib keldi. Shayton vasvasasi bilan bo'ladigan qirg'inbarotlardan murod erkak zotini o'ldirish, xotinlarni tul qilib, bolalarni yetim qilish edi.

Qadimda bir qabila bo'lgan. O'ta g'ururli, ornomusli. Ularni qo'shni qabila o'ziga qul qilib olmoqchi bo'lib jang boshlaydi. Bu qabila nihoyatda yovuz bo'lib, urushda mag'lub bo'lgan qabila qizlarini, ayollarini otalari, akalari ko'z oldida zo'rlar edi. Shu yo'l bilan qabila erkaklarini ruhan o'ldirar edi. Ularning bu yovuzliklari qabila kishilarini og'ir o'ylarga solib qo'ydi. Urushda yengilib qolishsa nima bo'ladi? Shayton ularga maslahatga keldi: «Oldin qizlaringizni, ayollaringizni o'ldirib, ortiqcha dahmazadan qutuling». Shu qabiladagilar oilada qiz tug'ilsa, go'dakligidayoq o'ldiradigan yoki tiriklayin ko'madigan bo'lishdi. Arab diyorlarida qiz bolalarni tiriklayin o'ldirish islom dini to'la-to'kis g'alaba qilgan kunlargacha yetib keldi.

Bir kuni Shaytonvachcha «Dumi tuguklar» madrasasida shunga o'xshagan tarixiy voqealarni eshitib o'tirib esnab yubordi. «Ha, – dedi katta o'qituvchi jahli chiqib, – darsim yoqmadimi?» «Bari almisoqdan qolgan gaplar, hozir hech kim qizini tiriklayin ko'mmaydi, qirg'inbarot urushlar ham bo'layotgani yo'q, hayot juda zerikarli», – dedi Shaytonvachcha domlaning jig'iga tegib. Ustozi uning uquvsizligidan kuyinib dedi: «Sen nodon, g'irt g'aflat uyqusidagi shaytonvachcha ekan-san. Ko'zingni kattaroq ochib, yon-beringga qarasang o'lasanmi? Qizlarga kindigini ochib yurishni biz o'rgatdik-ku, o'qimagan. Natija a'lo. Yer yuzida necha millionlab qizlar tug'mas bo'lib qolishyapti-ku. Tuqqanlari ham chala-yarim. Qanchasi bola tashlab qo'yayapti. Ayollarni yarim yalang'och ko'raverib yigitlar ham hebbimlashib boryapti. Bu shaytonlar olami-ning nayranglarini senga aytmasligim kerak edi, tilimni

NAHOTKI HOVLIM QO'LDAN KETDI...



SHAYTONVACHCHA MILLIONER



сенга айтмаслигим керак эди, тилимни қичитиб кўйдинг-да, нобакор». «Нимага билмаслигим керак, ахир, мен мадрасага пашша кўригани келганим йўқ-ку», – бўш келмади Шайтонвачча. «Сен икки-юзламачи, сирларимизни Одам болаларига сотиб кўйишинг мумкин».

Шайтонвачча буларни эсламаса ҳам бўларди. Эслаганда нима? Фақат анави серрайган, пул топиб, ақл топмаган одамнинг муштидан кейин хотираси жойидами-йўқми шуни бир синаб олмоқчи бўлди. Хайрият, томи кетиб қолмапти. Хўжақишлоқда ёнғоқ еб ўзига келган эди. Томи кетганда муздек сув ҳам даво экан. Нима қилсин, бундан буёғига темир каска кийиб юрсамикан-а? Одам болаларига барибир ишонч йўқ-ку?

## ФИРИБГАР АВЛИЁ

*(ёки 108-каналнинг яна эфирда кўриниб қолгани)*

Анчадан бери 108-каналнинг овози ўчган, Шайтонвачча унинг олди-қочди гапларидан кутулиб, эркин-эркин нафас олиб юрар эди. Ишлари бир дақиқа ҳам тўхтамай олдинга босгандан босар эди. Мана, салкам миллионер ҳам бўлиб олди. Катта-кичик лаққа балиқлар бирин-кетин қармоғига илиниб турибди. У ёқда стриптизчи тез-тез кўнғроқ қилиб: «Амакиваччам қачон синади-ю, томошасини қачон кўраман?» – деб сўраб кўймайди. Аммо нимагадир Ҳасан ва Ҳусан жинлардан дарак йўқ. Серрайган одам Шайтонваччанинг оёғига аллақачон бош уриб келиши керак эди.

Шайтонвачча телевизор кўриб ўтирган эди, экранда таниш бошловчи қиз пайдо бўлди. У салом бериб улгурмасданок ролик кўйиб юборишди. Кўрқинчли афт-башаралар, ялмоғизлар, уч бошли аждаҳолар, бир зумда турли-туман қиёфаларга кирадиган гуманоидлар, хуллас, даҳшатли қиёфалар намоиш этилди. Шайтонвачча тезда тушунди,

qichitib qo‘yding-da, nobakor». «Nimaga bilmasligim kerak, axir, men madrasaga pashsha qo‘rigani kelganim yo‘q-ku», – bo‘sh kelmadi Shaytonvachcha. «Sen ikkiyuzlamachi, sirlarimizni Odam bolalariga sotib qo‘yishing mumkin».

Shaytonvachcha bularni eslamasa ham bo‘lardi. Eslaganda nima? Faqat anavi serraygan, pul topib, aql topmagan odamning mushtidan keyin xotirasi joyidami-yo‘qmi shuni bir sinab olmoqchi bo‘ldi. Xayriyat, tomi ketib qolmapti. Xo‘jaqishloqda yong‘oq yeb o‘ziga kelgan edi. Tomi ketganda muzdek suv ham davo ekan. Nima qilsin, bundan buyog‘iga temir kaska kiyib yursamikan-a? Odam bolalariga baribir ishonch yo‘q-ku?

## FIRIBGAR AVLIYO

*(yoki 108-kanalning yana efirda ko‘rinib qolgani)*

Anchadan beri 108-kanalning ovozi o‘chgan, Shaytonvachcha uning oldi-qochdi gaplaridan qutulib, erkin-erkin nafas olib yurar edi. Ishlari bir daqiqa ham to‘xtamay oldinga bosgandan bosar edi. Mana, salkam millioner ham bo‘lib oldi. Katta-kichik laqqa baliqlar birin-ketin qarmog‘iga ilinib turibdi. U yoqda striptizchi tez-tez qo‘ng‘roq qilib: «Amakivachcham qachon sinadi-yu, tomoshasini qachon ko‘raman?» – deb so‘rab qo‘ymaydi. Ammo nimagadir Hasan va Husan jinlardan darak yo‘q. Serraygan odam Shaytonvachchanning oyog‘iga allaqachon bosh urib kelishi kerak edi.

Shaytonvachcha televizor ko‘rib o‘tirgan edi, ekranda tanish boshlovchi qiz paydo bo‘ldi. U salom berib ulgurmasdanoq rolik qo‘yib yuborishdi. Qo‘rqinchli aftbasharalar, yalmog‘izlar, uch boshli ajdaholar, bir zumda turli-tuman qiyofalarga kiradigan gumanoidlar, xullas, dahshatli qiyofalar namoyish etildi. Shaytonvachcha tezda tushundi, ko‘rsatuv shunga o‘xshash oldi-qochdi

кўрсатув шунга ўхшаш олди-қочди воқеалар ҳақида бўлади. Шундан кейин экранда «ФИРИБГАР АВЛИЁ» деган ёзув пайдо бўлди.

– Каналимиз вебсайтига, – деди қиз ўзини ҳайрон бўлгандек қилиб кўрсатиб, – мухлисларимиздан бири овозли мактуб жўнатибди. Биз мактубни шунчаки эшитиб қўя қолишни ўзимизга эп кўрмадик. Чунки гап сиз азиз телетомошабинларнинг осойишта умр гузаронлиги, муҳофазаси ҳақида боради. Келинглари, овозли мактубни биргаликда эшитайлик.

«Мени эшитяпсизларми, ҳурматли 108-каналчилар. Эшитаётган бўлсангизлар гап бундай. Сизлар кейинги пайтларда кўрсатувларни жудаям бўшаштириб юбордиларинг. Дунёни сув босса тўпикларингга чиқмайди. Одамлар орасига кирай демайсизлар. Ҳамма ёқни товламачилар, сеҳргарлар, фолбинлар, фирибгарлар босиб кетди. Мана, биттаси каттакон шаҳарнинг ўртасида ўзини авлиё деб эълон қилиб, куппа-кундуз куни одамларнинг пулини шилиб ётибди...»

Шайтонвачча гап ўзи ҳақида бораётганини сезди. Телевизор овозини баландлатиб, унга яқинроқ сурилиб ўтирди. «Мана, масалан, мен ўзим арзимаган бир иш билан ўзини авлиё деб эълон қилган ўшанинг олдига бордим...» «Вой иблис-ей, – деб юборди Шайтонвачча азбаройи жаҳли чиққанидан, – жаннатни сотиб оламан деб келди-ку, арзимаган иш эмиш...» «Шу десангиз, авлиёнинг битта югурдаги бор экан. Маълум бўлишича, авлиёман деганлари нуқул ичкаридаги хонада жинлар билан гаплашиб ўтираркан. Одамларга кўринмас экан. Ҳамма ишни ўша югурдаги битирар экан. У кириб, дардингизни авлиёга айтади. Авлиё фаришталарга, фаришталар билмайман яна кимга. Хуллас, у ёғи мушт кетди. Хизмат ҳақи отнинг калласи. Арзимаган ишга «кўки»дан бир миллион сўради, тикилиб ўлгур. Эшитяпсизми, бир миллион-а?! Бели оғримаганнинг нон ейишини кўринг. Яна ярмини олдиндан бериш керакмиш. Жон-поним чиқиб, шартта ичкарига

voqealar haqida bo‘ladi. Shundan keyin ekranda «FIRIBGAR AVLIYO» degan yozuv paydo bo‘ldi.

– Kanalimiz veb saytiga, – dedi qiz o‘zini hayron bo‘lgandek qilib ko‘rsatib, – muxlislarimizdan biri ovozli maktub jo‘natibdi. Biz maktubni shunchaki eshitib qo‘ya qolishni o‘zimizga ep ko‘rmadik. Chunki gap siz aziz teletomoshabinlarning osoyishta umr guzaronligi, muhofazasi haqida boradi. Kelinglar, ovozli maktubni birgalikda eshitaylik.

«Meni eshityapsizlarmi, hurmatli 108-kanalchilar. Eshitayotgan bo‘lsangizlar gap bunday. Sizlar keyingi paytlarda ko‘rsatuvlarni judayam bo‘shashtirib yubordilaring. Dunyoni suv bossa to‘piqlaringga chiqmaydi. Odamlar orasiga kiray demaysizlar. Hamma yoqni tovlamachilar, sehrgarlar, folbinlar, firibgarlar bosib ketdi. Mana, bittasi kattakon shaharning o‘rtasida o‘zini avliyo deb e‘lon qilib, kuppakunduz kuni odamlarning pulini shilib yotibdi...»

Shaytonvachcha gap o‘zi haqida borayotganini sezdi. Televizor ovozini balandlatib, unga yaqinroq surilib o‘tirdi. «Mana, masalan, men o‘zim arzimagan bir ish bilan o‘zini avliyo deb e‘lon qilgan o‘shaning oldiga bordim...» «Voy iblis-ey, – deb yubordi Shaytonvachcha azbaroyi jahli chiqqanidan, – jannatni sotib olaman deb keldi-ku, arzimagan ish emish...» «Shu desangiz, avliyoning bitta yugurdagi bor ekan. Ma‘lum bo‘lishicha, avliyoman deganlari nuqul ichkaridagi xonada jinlar bilan gaplashib o‘tirarkan. Odamlarga ko‘rinmas ekan. Hamma ishni o‘sha yugurdagi bitirar ekan. U kirib, dardingizni avliyoga aytadi. Avliyo farishtalarga, farishtalar bilmayman yana kimga. Xullas, u yog‘i musht ketdi. Xizmat haqi otning kalasi. Arzimagan ishga «ko‘ki»dan bir million so‘radi, tiqilib o‘lgur. Eshityapsizmi, bir million-a?! Beli og‘rimaganning non yeyishini ko‘ring. Yana yarmini oldindan berish kerakmish. Jon-ponim chiqib, shartta ich-

бостириб кирдим. Воҳ, ичкарида авлиё тугул ит ҳам йўқ. Бир зумраша мендек бир одамнинг олдига похол солиб ўтирса-я. Бир мушт билан уни ер тишлатдим. Агарда ўлган бўлса, шаҳримиз битта фирибгардан кутулди. Ўлмаган бўлса, қайсидир касалхонанинг жонлантириш бўлимида ётибди. Айтмоқчиманки, унақаларга раҳм-шафқат қилмаслик керак. Боридан йўғи, тутиб олиб шартта баҳридан ўтавериш керак. Сиз, эй 108-каналчилар, ҳадеб бошқа сайёралик келгиндилар билан овора бўлавермай ўзимиздаги фирибгарлар билан ҳам шуғулланасизларми-йўқми, бу қанақаси? Эҳтиёт бўлмасанг ўзингники ўзагингни кесади, деган гапни эшитмаганмисизлар?»

– Афсуски, – деди бошловчи қиз елка қисиб, – овозли хат йўллаган мухлисимиз ўзини танитмабдилар, кейин фирибгар авлиёнинг манзилини ҳам айтмабдилар. Нимага айтмади экан, ҳайронмиз. Ушбу жонли мактубни шарҳлаш учун сўз мутахассисимизга.

Шайтонвачча шарҳловчини таниди. Шайтонваччани бошида ўзга сайёралик деб шов-шув кўтарган олим шу эди. Шундан кейин унинг обрўси ошиб, машҳур бўлиб кетди. Экранга алламбало галстуклар, қорайтирилган кўзойнак тақиб чиқадиган бўлиб қолди. Ҳозир ҳам чет эллик ажнабийга ўхшаб олибди.

– Менимча, – деди у, – бизга овозли мактуб юборган одамнинг ўзи фирибгар. Мақсади телеканалимизга тош отиш ва сиз муҳтарам мухлисларимизнинг ҳаловатини ўғирлаш. Одатда, ғийбатчи, миш-мишчи одамлар шунақа бўладилар. Агарда у кишининг кўнглида озгина бўлса ҳам самимият бўлганда, ўзининг ҳам, фирибгар авлиёнинг ҳам манзилини яширмай шартта-шартта айтган бўларди...

– Э, яшавор азамат, менга чуқур қазиган эди, чуқурга унинг ўзи тушди, фирибгар унвони муборак бўлсин, катта ака, – деб Шайтонвачча қувонганидан



kariga bostirib kirdim. Voh, ichkarida avliyo tugul it ham yo‘q. Bir zumrasha mendek bir odamning oldiga poxol solib o‘tirsaya. Bir musht bilan uni yer tishlatdim. Agarda o‘lgan bo‘lsa, shahrimiz bitta firibgardan qutuldi. O‘lmagan bo‘lsa, qaysidir kasalxonaning jonlantirish bo‘limida yotibdi. Aytmoqchimanki, unaqalarga rahm-shafqat qilmaslik kerak. Boridan yo‘g‘i, tutib olib shartta bahridan o‘taverish kerak. Siz, ey 108-kanalchilar, hadeb boshqa sayyoralik kelgindilar bilan ovora bo‘lavermay o‘zimizdagi firibgarlar bilan ham shug‘ullanasizlarmi-yo‘qmi, bu qanaqasi? Ehtiyot bo‘lmasang o‘zingniki o‘zagingni kesadi, degan gapni eshitmaganmisizlar?»

– Afsuski, – dedi boshlovchi qiz yelka qisib, – ovoqli xat yo‘llagan muxlisimiz o‘zini tanitmabdilar, keyin firibgar avliyoning manzilini ham aytmabdilar. Nimaga aytmadi ekan, hayronmiz. Ushbu jonli maktubni sharhlash uchun so‘z mutaxassisimizga.

Shaytonvachcha sharhlovchini tanidi. Shaytonvachchani boshida o‘zga sayyoralik deb shov-shuv ko‘targan olim shu edi. Shundan keyin uning obro‘si oshib, mashhur bo‘lib ketdi. Ekranga alambalo galsuklar, qoraytirilgan ko‘zoynak taqib chiqadigan bo‘lib qoldi. Hozir ham chet ellik ajnabiyga o‘xshab olibdi.

– Menimcha, – dedi u, – bizga ovoqli maktub yuborgan odamning o‘zi firibgar. Maqsadi telekanalimizga tosh otish va siz muhtaram muxlislarimizning halovatini o‘g‘irlash. Odatda, g‘iybatchi, mish-mishchi odamlar shunaqa bo‘ladilar. Agarda u kishining ko‘nglida ozgina bo‘lsa ham samimiyat bo‘lganda, o‘zining ham, firibgar avliyoning ham manzilini yashirmay sharttashartta aytgan bo‘lard...

– E, yashavor azamat, menga chuqur qazigan edi, chuqurga uning o‘zi tushdi, firibgar unvoni muborak bo‘lsin, katta aka, – deb Shaytonvachcha quvonganidan

чапак чалиб юборди. Аммо катта акадан мушт еган жойи лўқиллаб кўйди.

## БИР ТАВБАДАН МИНГ ТАВБА

*(ёки Шайтонваччанинг бизнесменни қандай қилиб пул билан савалаганлари)*

108-каналнинг кўрсатувидан бир кун ўтиб Дадамирза келиб Шайтонваччага дийдиё қилиб қолди:

– Ўртага тушмай мен ўлай, Қозимирза ука, ўртага тушдим – ўрага тушдим, деган экан бир куйган одам.

– Яна нима бўлди?

– Анов куни сизни дўппослаб кетган акахонимизнинг оёқ-қўли ишламай қопти. Ҳа, шол бўлиб қопти. Бутун дунёси қоронғи. Ҳамма ўшанинг тепасида, юлдузни бенарвон ураман деган дўхтирларнинг ҳам қўлидан ҳеч вақо келмаяпти.

Шайтонваччанинг ичида чироқ ёнди. Кеча у кишим телевизорда овозли чиқиш қилганидан кейин Ҳасан ва Ҳусан жинлардан хавотир олиб ўтирган эди. Нимага бу одамни зағизғонга ўхшатиб сайратиб кўйишди экан, деб. Хайрият, улар тирик экан, бизнесменнинг пачағини чиқаришибди.

– Сиз нима деб ўйловдингиз? – деди Шайтонвачча Дадамирзага ўзини бепарво кўрсатиб.

– Ўзиниям дарди ичида, бир тавбадан минг тавба қилиб ётибди ётган жойида. Келинг, кечириб кўя қолинг, сиздан нима кетди, ука, – деди Дадамирза. – Биламан, дилингиз оғриган.

– Ҳе, – деди Шайтонвачча кулиб, – мен Худомидим бандаси тавба қилса кечириб юбораверадиган. Мен... – деб тилини тишлаб қолди у. «Шайтонман, ахир», – деб юборишига озгина қолди. – Менинг ўз ҳисоб-китобларим бор, ўх-хў, шундай ҳисоб китобларки, эшитсангиз эсингиз тескари бўлиб кетади.

chapak chalib yubordi. Ammo katta akadan musht yegan joyi lo‘qillab qo‘ydi.

## BIR TAVBADAN MING TAVBA

*(yoki Shaytonvachchaning biznesmenni qanday qilib pul bilan savalaganlari)*

108-kanalning ko‘rsatuvidan bir kun o‘tib Dadamirza kelib Shaytonvachchaga diydiyo qilib qoldi:

– O‘rtaga tushmay men o‘lay, Qozimirza uka, o‘rtaga tushdim – o‘raga tushdim, degan ekan bir kuygan odam.

– Yana nima bo‘ldi?

– Anov kuni sizni do‘pposlab ketgan akaxonimizning oyoq-qo‘li ishlamay qopti. Ha, shol bo‘lib qopti. Butun dunyosi qorong‘i. Hamma o‘shaning tepasida, yulduzni benarvon uraman degan do‘xtirlarning ham qo‘lidan hech vaqo kelmayapti.

Shaytonvachchaning ichida chiroq yondi. Kecha u kishim televizorda ovozli chiqish qilganidan keyin Hasan va Husan jinlardan xavotir olib o‘tirgan edi. Nimaga bu odamni zag‘izg‘onga o‘xshatib sayratib qo‘yishdi ekan, deb. Xayriyat, ular tirik ekan, binesmenning pachag‘ini chiqarishibdi.

– Siz nima deb o‘ylovingiz? – dedi Shaytonvachcha Dadamirzaga o‘zini beparvo ko‘rsatib.

– O‘ziniyam dardi ichida, bir tavbadan ming tavba qilib yotibdi yotgan joyida. Keling, kechirib qo‘ya qoling, sizdan nima ketdi, uka, – dedi Dadamirza. – Bilaman, dilingiz og‘rigan.

– He, – dedi Shaytonvachcha kulib, – men Xudomidim bandasi tavba qilsa kechirib yuboraveradigan. Men... – deb tilini tishlab qoldi u. «Shaytonman, axir», – deb yuborishiga ozgina qoldi. – Mening o‘z hisob-kitoblaram bor, o‘h-ho‘, shunday hisob kitoblarki, eshitsangiz esingiz teskari bo‘lib ketadi.

– Энди гап бундоқ, Қозимирза ука. Ростини айтсам, сизни пастда машина кутиб турибди, бирров бориб, номига бўлса ҳам қадам ранжида қилиб, ўқиб кўйинг. Тузалса тузалар, тузалмаса сатқай сар.

– Ўнг юзингга урса чап юзингни тут, демоқчимисиз? Ҳа йўқ, унақаси кетмайди. Унинг олдига борадиган аҳмоқ йўқ. Баттар бўлсин.

Узил-кесил бу гапдан кейин Дадамирзанинг ранги ўчиб, нафаси ичига тушиб кетди. Юраги така-пука. Азроил келиб, жонини суғуриб олаётгандек бир аҳволда қолди.

– Менга раҳмингиз келсин, Қозимирза ука, – деди у минғирлаб, – бормасангиз мени ўлдиришади. Ҳа, бошлаб кўйган ишларим савил қолиб кетади. Мен ўлиб кетсам амакиваччаннинг кўчасида байрам бўлади. Ундан кейин ўзингизга ҳам қийин бўлади. Мендан ёмонлик кўрмадингиз, ахир.

Шайтонвачча ўйлаб қараса, иш жиддий. Жаннатники пулга сотиб оламан деган одамдан ҳар нарсани кутса бўлади. Дадамирзага ё авлиёни олиб келасан, ё калланг кетади, деган бўлса керак. Дадамирза ҳали Шайтонваччага керак. У ўлиб-негиб кетса, Шайтонваччанинг ҳам ишлари ора йўлда қолиб кетади.

– Сиз учун бўлса, нимаям қилдим, – деди Шайтонвачча шаштидан тушиб, – бир ёғи жигарчилик, тоғамсиз, ахир...

– Балли, ука, – деди Дадамирза Шайтонваччанинг оёғига йиқилиб, – шундай дейишингизни билардим, илоё дунё тургунча турунг.

– Лекин шарти бор-да.

– Айтаверинг, барига ўзим турибман.

– Акахонингизни олиб келасиз. Авлиёлар эшик-ма-эшик юрса унинг авлиёлиги қолмайди, авлиёнинг олдига келадилар. Шундай деб айтинг у кишига.

– Узр, Қозимирза ука, узр, бу тарафларини ўйлаб кўрмапман. Минг қилса ҳам сут эмган бандамиз-да!

– Endi gap bundoq, Qozimirza uka. Rostini aytsam, sizni pastda mashina kutib turibdi, birrov borib, nomiga bo‘lsa ham qadam ranjida qilib, o‘qib qo‘ying. Tuzalsa tuzalar, tuzalmasa satqayi sar.

– O‘ng yuzingga ursa chap yuzingni tut, demoqchimisiz? Ha yo‘q, unaqasi ketmaydi. Uning oldiga boradigan ahmoq yo‘q. Battar bo‘lsin.

Uzil-kesil bu gapdan keyin Dadamirzaning rangi o‘chib, nafasi ichiga tushib ketdi. Yuragi taka-puka. Azroil kelib, jonini sug‘urib olayotgandek bir ahvolda qoldi.

– Menga rahmingiz kelsin, Qozimirza uka, – dedi u ming‘irlab, – bormasangiz meni o‘ldirishadi. Ha, boshlab qo‘ygan ishlarim savil qolib ketadi. Men o‘lib ket-sam amakivachchamning ko‘chasida bayram bo‘ladi. Undan keyin o‘zingizga ham qiyin bo‘ladi. Mendan yomonlik ko‘rmadingiz, axir.

Shaytonvachcha o‘ylab qarasa, ish jiddiy. Jannatniki pulga sotib olaman degan odamdan har narsani kut-sa bo‘ladi. Dadamirzaga yo avliyoni olib kelasan, yo kallang ketadi, degan bo‘lsa kerak. Dadamirza hali Shaytonvachchaga kerak. U o‘lib-netib ketsa, Shaytonvachchanning ham ishlari ora yo‘lda qolib ketadi.

– Siz uchun bo‘lsa, nimayam qildim, – dedi Shay-tonvachcha shashtidan tushib, – bir yog‘i jigarchilik, tog‘amsiz, axir...

– Balli, uka, – dedi Dadamirza Shaytonvachchanning oyog‘iga yiqilib, – shunday deyishingizni bilardim, ilo-yo dunyo turguncha turing.

– Lekin sharti bor-da.

– Aytavering, bariga o‘zim turibman.

– Akaxoningizni olib kelasiz. Avliyolar eshik-ma-eshik yursa uning avliyoligi qolmaydi, avliyoning oldiga keladilar. Shunday deb ayting u kishiga.

– UZR, Qozimirza uka, uzr, bu taraflarini o‘ylab ko‘rmapman. Ming qilsa ham sut emgan bandamiz-da!

Пул топиб ақл топмаган бизнесменни салдаёк бир замбил қилиб кўтариб келишди. Ранг-кути ўчиб, кўзлари тепага қараб қопти. Ҳасан ва Ҳусан жинлар «Ҳап сеними», деб оёқ-қўлига чангак бўлиб ёпишиб олибди. Лекин унинг чакаги жойида.

– Мени кечиринг, бир тавбадан минг тавба... – деб шанғилларди у.

– Кимга тавба қияптилар? – жўртага сўради Шайтонвачча.

– Кимга бўларди, ўзларига-да. Мени кечиринг. Қилган ишимдан пушаймонман...

Вой нодон-ей, келиб-келиб шайтонга тавба қиласанми, э, бу кунингдан баттар бўл-э.

– Сиз, аввало, ёлғон гарирганингиз учун теле-томошабинлардан кечирим сўрашингиз керак.

– Олдин тузалиб олай, албатта, кечирим сўрайман, ҳурматли авлиё.

– Х-ў-ў-ш, – деди Шайтонвачча бамайлихотир, – жаннатни сотиб олиш масаласи нима бўлади энди?

– Э, ўзимнинг жоним кўзимга кўришиб турганда, кўйинг ўша мияси айниган бобойни, бу ишлар ўша бобойни деб бўлди.

– Оёққа туриб кетишингиз қанчага тушишини биласизми? – бизнесменга ёмон тикилди Шайтонвачча.

– Етса молим, етмаса жоним. Биламан, гуноҳим бўйнимда, сиздек ҳурматли зотга қўл кўтариб қўйдим... Ҳа, аҳмоқлик қилдим, – деб кўзларидан дув-дув ёш тўкди.

– Қани, авлиёнинг олдиларидан ўтайлик-чи, нима дер эканлар, – деб Шайтонвачча тавозе билан яна ичкарига кириб кетди. Сал ўтмай, қайтиб чиқиб, деди:

– Бир мучангизнинг соғайиши «кўки»дан бир миллион турар экан, бир, – деб кимошди савдосига ўхшатиб столга бир мушт туширди Шайтонвачча.

Мушт гўё бизнесменнинг бошига тушгандек:

– Ох, – деб юборди.

– Иккинчи мучангизнинг соғайиб кетиши «кўки»-

Pul topib aql topmagan biznesmenni saldayoq bir zambil qilib ko‘tarib kelishdi. Rang-quti o‘chib, ko‘zlari tepaga qarab qopti. Hasan va Husan jinlar «Hap seni-mi», deb oyoq-qo‘liga changak bo‘lib yopishib olibdi. Lekin uning chakagi joyida.

– Meni kechiring, bir tavbadan ming tavba... – deb shang‘illardi u.

– Kimga tavba qilyaptilar? – jo‘rtaga so‘radi Shaytonvachcha.

– Kimga bo‘lardi, o‘zlariga-da. Meni kechiring. Qilgan ishimdan pushaymonman...

Voy nodon-ey, kelib-kelib shaytonga tavba qilasanmi, e, bu kuningdan battar bo‘l-e.

– Siz, avvalo, yolg‘on gapirganingiz uchun teletomoshabinlardan kechirim so‘rashingiz kerak.

– Oldin tuzalib olay, albatta, kechirim so‘rayman, hurmatli avliyo.

– X-o‘-o‘-sh, – dedi Shaytonvachcha bamaylixotir, – jannatni sotib olish masalasi nima bo‘ladi endi?

– E, o‘zimning jonim ko‘zimga ko‘rinib turganda, qo‘ying o‘sha miyasi aynigan boboyni, bu ishlar o‘sha boboyni deb bo‘ldi.

– Oyoqqa turib ketishingiz qanchaga tushishini bilasizmi? – biznesmenga yomon tikildi Shaytonvachcha.

– Yetsa molim, yetmasa jonim. Bilaman, gunohim bo‘ynimda, sizdek hurmatli zotga qo‘l ko‘tarib qo‘ydim... Ha, ahmoqlik qildim, – deb ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kdi.

– Qani, avliyoning oldilaridan o‘taylik-chi, nima der ekanlar, – deb Shaytonvachcha tavoze bilan yana ichkariga kirib ketdi. Sal o‘tmay, qaytib chiqib, dedi:

– Bir muchangizning sog‘ayishi «ko‘ki»dan bir million turar ekan, bir, – deb kimoshdi savdosiga o‘xshatib stolga bir musht tushirdi Shaytonvachcha.

Musht go‘yo biznesmenning boshiga tushgandek:

– Oh, – deb yubordi.

– Ikkinchi muchangizning sog‘ayib ketishi «ko‘ki»-

дан икки миллион турар экан, икки, – деб яна столни гумбурлатди Шайтонвачча.

– Воҳ...

– Учинчи мучангизнинг соғайиб кетиши «кўки»дан уч миллион турар экан, уч...

– Вой дод...

– Охирги тўртинчи мучангизнинг соғайиб кетиши «кўки»дан тўрт миллион туради, тўрт... Ҳаммаси бўлиб ўн миллион... «Кўки»дан, – деб кўшиб кўйди Шайтонвачча.

Орага қоронғи тундек жимлик чўқди. Шайтонвачча қараса бизнесмен нафас ололмай қопти.

– Ие, ҳов, ўлиб-нетиб қолдингизми, тақсирим? – унинг устига энгашди Шайтонвачча.

– Хонавайрон бўлдим, хонавайрон, – деди у мингирлаб, – бу ётишда миллионларни бошимга урамни, айтинг авлиёга, мени тезроқ тузатсин.

– Ҳа, бу бошқа гап, энди ўзингизга келдингиз, чекни ёзинг, бўлақолинг, авлиё жанобларини яна олдингидек шошилишч Бобилга чақириб қолишлари мумкин. У киши ўша куни орқадаги эшиқдан чиқиб кетган эдилар. Сиз бўлсангиз 108-каналга қаёқдаги ёлғон-яшиқларни гапириб ўтирибсиз. Янаям авлиё ҳазратлари сизни аядилар... Ҳай майли, ўтган ишга саловот, бўлақолинг, чекни бу ёққа чўзинг.

– Ахир, манови оёқ-қўл савил ишламаса, чекни нима билан ёзаман? – деб чинқириб юборди бизнесмен.

Шайтонвачча уни хўжақишлоқлик спорт ўқитувчисини савалагандек савалаб, бир хумордан чиқмоқчи бўлди-ю, аммо бу сафар пул билан савалашни маъқул кўрди. Калтак зарби кетади, пул зарби кетмайди. Пул жигардан пайдо бўлган-да, жигарни эзади. Шайтонвачча Ҳасан ва Ҳусан жинларни қулоғидан ушлаб, намойишқорона бир бурчакка олиб бориб кўйди. Дадамирза бу хатти-харакатдан ҳайронлар қолди. Шайтонвачча яна ичкари уйга бир зумга кириб чикди.



dan ikki million turar ekan, ikki, – deb yana stolni gumburlatdi Shaytonvachcha.

– Voh...

– Uchinchi muchangizni sog‘ayib ketishi «ko‘ki»dan uch million turar ekan, uch...

– Voy dod...

– Oxirgi to‘rtinchi muchangizning sog‘ayib ketishi «ko‘ki»dan to‘rt million turadi, to‘rt... Hammasi bo‘lib o‘n million... «Ko‘ki»dan, – deb qo‘shib qo‘ydi Shaytonvachcha.

Oraga qorong‘i tunde k jimlik cho‘kdi. Shaytonvachcha qarasa biznesmen nafas ololmay qopti.

– Iye, hov, o‘lib-netib qoldingizmi, taqsim? – uning ustiga engashdi Shaytonvachcha.

– Xonavayron bo‘ldim, xonavayron, – dedi u ming‘irlab, – bu yotishda millionlarni boshimga uramanmi, ayting avliyoga, meni tezroq tuzatsin.

– Ha, bu boshqa gap, endi o‘zingizga keldingiz, chekni yozing, bo‘laqoling, avliyo janoblarini yana olidingidek shoshilinch Bobilga chaqirib qolishlari mumkin. U kishi o‘sha kuni orqadagi eshikdan chiqib ketgan edilar. Siz bo‘lsangiz 108-kanalga qayoqdagi yolg‘on-yashiq-larni gapirib o‘tiribsiz. Yanayam avliyo hazratlari sizni ayadilar... Hay mayli, o‘tgan ishga salovot, bo‘laqoling, chekni bu yoqqa cho‘zing.

– Axir, manovi oyoq-qo‘l savil ishlamasa, chekni nimam bilan yozaman? – deb chinqirib yubordi biznesmen.

Shaytonvachcha uni xo‘jaqishloqlik sport o‘qituvchisini savalagandek savalab, bir xumordan chiqmoqchi bo‘ldi-yu, ammo bu safar pul bilan savalashni ma‘qul ko‘rdi. Kaltak zarbi ketadi, pul zarbi ketmaydi. Pul jigardan paydo bo‘lgan-da, jigarni ezadi. Shaytonvachcha Hasan va Husan jinlarni qulog‘idan ushlab, namoyishkorona bir burchakka olib borib qo‘ydi. Dadamirza bu xatti-harakatdan hayronlar qoldi. Shaytonvachcha yana ichkari uyga bir zumga kirib chiqdi.

– Ҳазрат дуо қилдилар, туринг ўрнингиздан, – деди Шайтонвачча бизнесменга қараб.

Хона бирдан тапир-тупур бўлиб кетди. Бизнесмен хайратдан у ёқдан бу ёққа ёш боладек тапир-тупур қилиб юрар, қулочини ҳали у ёққа, ҳали бу ёққа ёзиб, ғалати қилиқлар қилар, соғайиб кетганига ишонгиси келмасди. Ахир, устида ҳазилакам дўхтирлар парвона бўлишдими? Бутун дунёнинг дори-дармонларини ишга солишди-я. Оёқ-қўллари тош қотиб, қимир этмай акашак бўлиб тураверди. Авлиё минг қилса ҳам авлиё экан-да. Бу мўжизага гувоҳ бўлиб ўтирган Дадамирза кўкрагига «туф-туф»лаб, замбилда кўтариб келганлардан суюнчи олгани ташқарига югурди.

– Бўлақолинг, авлиё шошиб турибдилар, – қистади Шайтонвачча.

Бизнесмен чўнтагидан шошилмай чек қоғозини чиқарди-да, беш миллион ёзиб:

– Шунга рози бўлинглар, ростини айтсам, бори шу... – деди. У шу пайтгача паст кетиб, бировга ялинмаган эди. Яна кимга, шайтонга. Иймонсиз бўлгандан кейин Аллоҳ шундай қилиб кўяр экан-да бандасини.

Шайтонвачча ўйлаб ўтирмади: чекни олганча яна шошиб ичкарига кириб кетди. Сал ҳаяллаб қолди ҳам. Бойвучча: «Кафангадо бўлдим, бари бобойни деб бўлди, жаннатга кирмай ҳар нарса бўл-а, икки ўртада мени дўзахга тикдинг», – деб ичида отасининг гўрига ғишт қалади. Шайтонвачча ичкаридан чиқиб келди-да, амирона деди:

– Замбилга ётинг!

У сеҳрлангандек шошиб замбилга узала туша қолди.

– Гап бундай, – деди Шайтонвачча, – эси бор одам авлиёлар билан савдолашмайди. Пулингизга яраша бир қўлингиз билан бир оёғингиз ишлайди. Дадамирза ака, каёқдасиз, олиб кетинглар бу одамни.

Бизнесмен дод-вой қилиб ўрнидан турмоқчи бўл-

– Hazrat duo qildilar, turing o‘rningizdan, – dedi Shaytonvachcha biznesmenga qarab.

Xona birdan tapir-tupur bo‘lib ketdi. Biznesmen hayratdan u yoqdan bu yoqqa yosh boladek tapir-tupur qilib yurar, qulochini hali u yoqqa, hali bu yoqqa yozib, g‘alati qiliqlar qilar, sog‘ayib ketganiga ishongisi kelmasdi. Axir, ustida hazilakam do‘xtirlar parvona bo‘lishdimi? Butun dunyoning dori-darmonlarini ishga solishdi-ya. Oyoq-qo‘llari tosh qotib, qimir etmay akashak bo‘lib turaverdi. Avliyo ming qilsa ham avliyo ekan-da. Bu mo‘jizaga guvoh bo‘lib o‘tirgan Dadamirza ko‘kragiga «tuf-tuf»lab, zambilda ko‘tarib kelganlardan suyunchi olgani tashqariga yugurdi.

– Bo‘laqoling, avliyo shoshib turibdilar, – qistadi Shaytonvachcha.

Biznesmen cho‘ntagidan shoshilmay chek qog‘ozini chiqardi-da, besh million yozib:

– Shunga rozi bo‘linglar, rostini aytsam, bori shu... – dedi. U shu paytgacha past ketib, birovga yalinmagan edi. Yana kimga, shaytonga. Iymonsiz bo‘lgandan keyin Alloh shunday qilib qo‘yar ekan-da bandasini.

Shaytonvachcha o‘ylab o‘tirmadi: chekni olgancha yana shoshib ichkariga kirib ketdi. Sal hayallab qoldi ham. Boyvuchcha: «Kafangado bo‘ldim, bari boboy-ni deb bo‘ldi, jannatga kirmay har narsa bo‘l-a, ikki o‘rtada meni do‘zaxga tiqding», – deb ichida otasining go‘riga g‘isht qaladi. Shaytonvachcha ichkaridan chiqib keldi-da, amirona dedi:

– Zambilga yoting!

U sehrlangandek shoshib zambilga uzala tusha qoldi.

– Gap bunday, – dedi Shaytonvachcha, – esi bor odam avliyolar bilan savdolashmaydi. Pulingizga yarasha bir qo‘lingiz bilan bir oyog‘ingiz ishlaydi. Dadamirza aka, qayoqdasiz, olib ketinglar bu odamni.

Biznesmen dod-voy qilib o‘rnidan turmoqchi bo‘l-

ган эди, ўнг қўли билан чап оёғи ишлаб, чап қўли билан ўнг оёғи ишламаётганини билди. Ҳасан ва Ҳусан жинлар Шайтонваччанинг битта ишораси билан унинг бир қўл, бир оёғига чангадек ёпишиб, қимирлатмай қўйди. Бизнесмен бамисоли бир қаноти синган қушдек бўлиб қолди. Бу аҳволга чидай олмай ёш боладек йиғлади, сиқтади, ростдан ҳам бошқа пули йўқлигини айтиб қасам ичди. Худонинг зорини қилди. Бу ётишда қолган пулни ҳам топа олмаслигини, пулдор оғайнилари ундан юз ўгириб кетишини айтди.

Ҳар доим ҳам бир ўқ билан иккита қуённи уришга ўрганган Шайтонвачча ўйлаб қўйган режасини ишга солди. У гўё бизнесменга ачинган бўлиб:

– Агарда гапларингиз рост бўлса, авлиё жанобларининг рухсатлари билан сизга озгина қарашвораман, – деди. – Қулоқ солинг, бизнинг битта аёл ходимамиз борлар, ўзиям фариштадек. Унга тайинлаймиз, сизга қарайди, парвариш қилади, кунига икки-уч марта укалаш машқларини олиб боради. Аммо ҳақини тўлайсиз.

– Тўлайман, тўламай-чи, – шошиб деди у.

– Бироқ битта шарти ҳам бор...

– Айтаверинг.

– Никоҳингизга олишингизга тўғри келади. Шу...

– Чиройлими? – ётган жойида кўзлари ўйнаб кетди бизнесменнинг.

– Айтяпман-ку, фариштадек деб. Шундай қилмасак бўлмайди. У сизга номаҳрам, ахир.

– Розиман, рози бўлмай-чи, – ётган жойида тўлғанди у.

Шундай қилиб Шайтонвачча стриптизчи аёллардан яна биттасини никоҳлаб, маҳрига бизнесменнинг уй-жойини ҳужжатлаштириб жўнатиб юборди. Ҳали дунёга келмаган яна битта зурриёдининг келажаги порлоқ бўладиган бўлди.

gan edi, o'ng qo'li bilan chap oyog'i ishlab, chap qo'li bilan o'ng oyog'i ishlamayotganini bildi. Hasan va Husan jinlar Shaytonvachchanning bitta ishorasi bilan uning bir qo'l, bir oyog'iga changakdek yopishib, qimirlatmay qo'ydi. Biznesmen bamisoli bir qanoti singan qushdek bo'lib qoldi. Bu ahvolga chiday olmay yosh boladek yig'ladi, siqtadi, rostdan ham boshqa puli yo'qligini aytib qasam ichdi. Xudoning zorini qildi. Bu yotishda qolgan pulni ham topa olmasligini, puldor og'aynilari undan yuz o'girib ketishini aytdi.

Har doim ham bir o'q bilan ikkita quyonni urishga o'rgangan Shaytonvachcha o'ylab qo'ygan rejasini ishga soldi. U go'yo biznesmenga achingan bo'lib:

– Agarda gaplaringiz rost bo'lsa, avliyo janoblarning ruxsatlari bilan sizga ozgina qarashvoraman, – dedi. – Quloq soling, bizning bitta ayol xodimimiz borlar, o'ziyam farishtadek. Unga tayinlaymiz, sizga qaraydi, parvarish qiladi, kuniga ikki-uch marta uqalash mashqlarini olib boradi. Ammo haqini to'laysiz.

– To'layman, to'lamay-chi, – shoshib dedi u.

– Biroq bitta sharti ham bor...

– Aytavering.

– Nikohingizga olishingizga to'g'ri keladi. Shu...

– Chiroylimi? – yotgan joyida ko'zlari o'ynab ketdi biznesmenning.

– Aytyapman-ku, farishtadek deb. Shunday qilmasak bo'lmaydi. U sizga nomahram, axir.

– Roziman, rozi bo'lmay-chi, – yotgan joyida to'lg'andi u.

Shunday qilib Shaytonvachcha striptizchi ayollardan yana bittasini nikohlab, mahriga biznesmenning uy-joyini hujjatlashtirib jo'natib yubordi. Hali dunyoga kelmagan yana bitta zurriyodining kelajagi porloq bo'ladigan bo'ldi.

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

Ҳайъат йиғилишини чақириш шарт эмас эди. Барча шуъбалар Одамшайтон олдида ўз ожизликларини тан олиб кўйишган эди. Лекин пул топиб ақл топмаган бизнесменнинг 108-канал орқали овозли чиқиши уларда салгина умид пайдо қилган эди. Айтганимиздек, Одамшайтонни Одам болаларининг ўзи бир ёқлик қилади, деб хурсанд эдилар. Аммо телеканалнинг маҳмадона шарҳловчиси чиқиб, уларни яна иккилантириб кўйди. Ҳа, мактуб эгасини фирибгарликда айблаб, ишни расво қилди. Аслида шарҳловчининг мақсади бошқа эди: овозли мактуб эгасининг жиғига тегиб, авлиёнинг манзилени аниқлаб олмоқчи эди, холос. Бизнесмен энди: «Ким фирибгар?» – деб телефон рақамини териб, Шайтонваччанинг манзилени айтмоқчи бўлиб турганда, Ҳасан ва Ҳусан жинлар унга ташланиб кимирлатмай кўйишди. Бирданига оёқ-кўли ишламай қолди. Бу ҳолдан бизнесмен кўрқиб кетди.

– Ўша гап, Одамшайтонни фақат одамлар кўли билангина бир ёқлик қилишимиз мумкин. У бизнинг ҳамма сир-асрорларимизни билади, – деб Ахборотчи яна эски гапни қайтарди.

Раис ўтирганларга қаради. У ич-ичидан ёмон устозлигини тан олиб ўтирарди. Яхши устоз бўлганида Одамшайтоннинг керак пайтда танобини тортиб кўядиган бирон-бир сирини ўзида олиб қолган бўларди. Бугунгидек ўз ёғига ўзи ковурилиб ўтирмасди.

– Хотиржам бўлинг, жаноб раис, – деди шуъба бошлиқларидан бири раиснинг ўй суриб қолганини кўриб, – чорасини кўриб кўйганмиз, фақат подадан олдин чанг чиқармайлик деб жим турибмиз. Атрофимизда Одамшайтоннинг айғоқчилари изғиб юришибди. Ҳозир ҳам менинг гапларимни эшитиб турган бўлишлари мумкин. Ис олиб қолишса, яна ҳаммаси чиппакка чиқиши мумкин. Шунинг учун

## HAY'AT YIG'ILISHI

Hay'at yig'ilishini chaqirish shart emas edi. Barcha shu'balar Odamshayton oldida o'z o'jizliklarini tan olib qo'yishgan eli. Lekin pul topib aql topmagan biznesmenning 108-kanal orqali ovozli chiqishi ularda salgina umid paydo qilgan edi. Aytganimizdek, Odamshaytonni Odam bolalarining o'zi bir yoqlik qiladi, deb xursand edilar. Ammo telekanalning mahmadona sharhlovchisi chiqib, ularni yana ikkilantirib qo'ydi. Ha, maktub egasini firibgarlikda ayblab, ishni rasvo qildi. Aslida sharhlovchining maqsadi boshqa edi: ovozli maktub egasining jig'iga tegib, avliyoning manzilini aniqlab olmoqchi edi, xolos. Biznesmen endi: «Kim firibgar?» – deb telefon raqamini terib, Shaytonvachchaning manzilini aytmoqchi bo'lib turganda, Hasan va Husan jinlar unga tashlanib qimirlatmay qo'yishdi. Birdaniga oyoq-qo'li ishlamay qoldi. Bu holdan biznesmen qo'rqib ketdi.

– O'sha gap, Odamshaytonni faqat odamlar qo'li bilangina bir yoqlik qilishimiz mumkin. U bizning hamma sir-asrorlarimizni biladi, – deb Axborotchi yana eski gapni qaytardi.

Rais o'tirganlarga qaradi. U ich-ichidan yomon ustozligini tan olib o'tirardi. Yaxshi ustoz bo'lganida Odamshaytonning kerak paytda tanobini tortib qo'yadigan biron-bir sirini o'zida olib qolgan bo'lardi. Bugungidek o'z yog'iga o'zi qovurilib o'tirmasdi.

– Xotirjam bo'ling, janob rais, – dedi shu'ba boshliqlaridan biri raisning o'y surib qolganini ko'rib, – chorasini ko'rib qo'rganimiz, faqat podadan oldin chang chiqarmaylik deb jim turibmiz. Atrofimizda Odamshaytonning ayg'oqchilari izg'ib yurishibdi. Hozir ham mening gaplarimni eshitib turgan bo'lishlari mumkin. Is olib qolishsa, yana hammasi chipakka chiqishi mumkin. Shuning uchun Sizga ham oshkor qilmaypmiz. Bu ishda bizga 108-kanal yordam beradi...

Сизга ҳам ошкор қилмаяпмиз. Бу ишда бизга 108-канал ёрдам беради...

Ана шундай тахминлар-у гумонлар билан йиғилиш тугади. Раис хотиржам бўлмади. Қайтага ичига ғулғула тушди. У барибир Одамшайтондан узил-кесил кўнгил узолмаётган эди. Лекин иложи ҳам йўқ. Одамшайтон унинг ўрнини кўзлаб ҳаракат қиларди.

## ОВОЗЛИ МАКТУБНИНГ ДАВОМИ

*(ёки авлиё ҳазратларининг рекламани ёқтирмаслиги)*

Шайтонвачча хотиржам, осойишта кечган яна бир кунни поёнига етказиб, Дадамирза жўнатган кечки таомдан кейин қорнини силаб, телевизор қаршисида ўтирарди. У 108-канал кўрсатувини сабрсизлик билан кутарди. Бизнесмен кечирим сўраши керак, ахир. Шайтонвачча бу канални ҳам яхши кўрар, айна пайтда ёмон ҳам кўрарди. Яхши кўриши – фирромлиги йўқ. Ўзининг зарарига бўлса ҳам рост гапни айтади. Воқеаларни кўпам хаспўшлаб андаваламайди. Ёқмагани шуки, Шайтонваччани бошқа сайёралик деб исковучдек изма-из орқасидан кувиб юрибди. Тинчгина яшашга ҳам кўймайди. Худди бу дунёда унга Шайтонваччадан бошқа эрмак қуриб кетгандек. Аслида 108-канал ўз обрўсини ўйласа, пул топиб ақл топмаган бизнесменнинг раддиясини бермайди. Агарда берса, томошабинлар: «Бу каналда тутуриқ қолмапти, бир ундоқ деб ваҳима кўтаради, бир мундоқ деб кечирим сўрайди», – деб маломат қилишлари мумкин. Лекин барибир кўрсатув бошланди. Бошловчи қиз ўзга сайёралик билан боғлиқ олдинги воқеаларни озгина шарҳлаган бўлди-да, навбатни яна овозли мактубга бериб кўяқолди.

«Ҳурматли 108-канал ихлосмандлари, мени эшитяпсизми? Овозимдан таниётган бўлсангиз керак. Ҳа, мен ўшаман. Авлиёни «фирибгар» деб ҳақорат



Ana shunday taxminlar-u gumonlar bilan yig'ilish tugadi. Rais xotirjam bo'lmadi. Qaytaga ichiga g'ulg'ula tushdi. U baribir Odamshaytondan uzilkesil ko'ngil uzolmayotgan edi. Lekin iloji ham yo'q. Odamshayton uning o'rnini ko'zlab harakat qilardi.

## OVOZLI MAKTUBNING DAVOMI

*(yoki avliyo hazratlarining reklamani yoqtirmasligi)*

Shaytonvachcha xotirjam, osoyishta kechgan yana bir kunni poyoniga yetkazib, Dadamirza jo'natgan kechki taomdan keyin qornini silab, televizor qarshisida o'tirardi. U 108-kanal ko'rsatuvini sabrsizlik bilan kutardi. Biznesmen kechirim so'rashi kerak, axir. Shaytonvachcha bu kanalni ham yaxshi ko'rar, ayni paytda yomon ham ko'rardi. Yaxshi ko'rishi – g'irromligi yo'q. O'zining zarariga bo'lsa ham rost gapni aytadi. Voqealarni ko'pam xaspo'shlab andavalamaydi. Yoqmagani shuki, Shaytonvachchani boshqa sayyoralik deb iskovuchdek izma-iz orqasidan quvib yuribdi. Tinchgina yashashga ham qo'ymaydi. Xuddi bu dunyoda unga Shaytonvachchadan boshqa ermak qurib ketgandek. Aslida 108-kanal o'z obro'sini o'ylasa, pul topib aql topmagan biznesmenning raddiyasini bermaydi. Agarda bersa, tomoshabinlar: «Bu kanalda tuturiq qolmapti, bir undoq deb vahima ko'taradi, bir mundoq deb kechirim so'raydi», – deb malomat qilishlari mumkin. Lekin baribir ko'rsatuv boshlandi. Boshlovchi qiz o'zga sayyoralik bilan bog'liq oldingi voqealarni ozgina sharhlagan bo'ldi-da, navbatni yana ovozli maktubga berib qo'yaqoldi.

«Hurmatli 108-kanal ixlosmandlari, meni eshityapsizmi? Ovozimdan taniyotgan bo'lsangiz kerak. Ha, men o'shaman. Avliyoni «firibgar» deb haqorat qilgan ovozli maktub egasiman. Avliyoni «firibgar» de-

қилган овозли мактуб эгасиман. Авлиёни «фирибгар» деганим учун, аввало, авлиё жанобларидан, кейин сизлардан кечирим сўрайман. Ўша куни ҳурматли авлиёнинг шогирдига мушт туширган эдим. Мушт туширмай мен ўлай, сал ўтмай оёқ-қўлим ишламай қолди. Тузатамиз деб қилни қирқ ёрган дўхтирлар етиб келишди. Бор дори-дармонларини ишга солишди. Лекин қўлларидан ҳеч нарса келмади. Бирдан калламга авлиёга тавба-тазарру қилсам-чи, деган фкр келиб қолди. Бордим. Битта дуо билан бир қўл, бир оёғим шу заҳоти ишлаб кетди, барака топсин. Худо хоҳласа, озгина сабр қилсам, қолгани ҳам ишлаб кетади. Сезиб турибман, авлиёнинг манзилени айтишимни хоҳлаяпсизлар. Нима қилайки авлиё жаноблари ўзларини реклама қилишларини ёқтирмас эканлар. Бироқ севимли 108-каналимиз бу ишга жиддийроқ киришса, авлиёни, албатта, топиб, у кишидан интервью олишига ишонаман. Шундай қилиб, мен «фирибгар» деб ҳақорат қилганим учун авлиё ҳазратларидан, қолаверса, сизлардан яна бир марта кечирим сўрайман».

Шайтонвачча анави олифта шарҳловчи чиқиб яна бир нималар дермикан, деб кутди. Ҳар тугул чикмади. Аслида шарҳлайдиган гапнинг ўзи қолмаган эди. Шайтонвачча ўз ғалабасидан бир қоп семириб, қорнини силаб қўйди. Шу ўринда бизнесменнинг ҳам калласи ишлаб кетганига тан берди. Авлиё ҳазратлари рекламани ёқтирмайдилар, деб хўп топиб айтди. Энди авлиёни бутун шаҳар қидиради. Бир-биридан сўраб, истаб топиб келаверишади... Албатта, 108-канал ҳам жим турмайди. Бу бор гап.

## САРМОЯ

*(ёки Шайтонвачча сахийлик кўчасига киради)*

Рекламасиз ҳам авлиёнинг эшиги тагида одамлар турнақатор тизилиб қолди. Шайтонвачча кўзга кўринмас жойларга кузатув камераларини ўрнатиб,

ganim uchun, avvalo, avliyo janoblaridan, keyin sizlardan kechirim so‘rayman. O‘sha kuni hurmatli avliyoning shogirdiga musht tushirgan edim. Musht tushirmay men o‘lay, sal o‘tmay oyoq-qo‘lim ishlamay qoldi. Tuzatamiz deb qilni qirq yorgan do‘xtirlar yetib kelishdi. Bor dori-darmonlarini ishga solishdi. Lekin qo‘llaridan hech narsa kelmadi. Birdan kallamga avliyoga tavba-tazarru qilsam-chi, degan fkr kelib qoldi. Bordim. Bitta duo bilan bir qo‘l, bir oyog‘im shu zahoti ishlab ketdi, baraka topsin. Xudo xohlasa, ozgina sabr qilsam, qolgani ham ishlab ketadi. Sezib turibman, avliyoning manzilini aytishimni xohlayapsizlar. Nima qilayki avliyo janoblari o‘zlarini reklama qilishlarini yoqtirmas ekanlar. Biroq sevimli 108-kanalimiz bu ishga jiddiyroq kirishsa, avliyoni, albatta, topib, u kishidan intervyu olishiga ishonaman. Shunday qilib, men «firibgar» deb haqorat qilganim uchun avliyo hazratlaridan, qolaversa, sizlardan yana bir marta kechirim so‘rayman».

Shaytonvachcha anavi olifta sharhlovchi chiqib yana bir nimalar dermikan, deb kutdi. Har tugul chiqmadi. Aslida sharhlaydigan gapning o‘zi qolmagan edi. Shaytonvachcha o‘z g‘alabasidan bir qop semirib, qorini silab qo‘ydi. Shu o‘rinda biznesmenning ham kalasi ishlab ketganiga tan berdi. Avliyo hazratlari reklamani yoqtirmaydilar, deb xo‘p topib aytdi. Endi avliyoni butun shahar qidiradi. Bir-biridan so‘rab, istab topib kelaverishadi... Albatta, 108-kanal ham jim turmaydi. Bu bor gap.

## SARMOYA

*(yoki Shaytonvachcha saxiylik ko‘chasiga kiradi)*

Reklamasiz ham avliyoning eshigi tagida odamlar turnaqator tizilib qoldi. Shaytonvachcha ko‘zga ko‘rinmas joylarga kuzatuv kameralarini o‘rnatib,

компьютерга улаб кўйди. Ҳали миждоз ҳузурига кирмасданок қанақалигини кўриб ўтиради. Шайтон йўлига юрган, иймони суст одамларни ва жин текканларни қабул қилади. Бошқаларни бўлса: «Узр, сизнинг касалингизни фақат дўхтир тузатади, айтган дорисини тўхтатмай ичаверинг», – деб жўнатиб юборади. Бунақа даволаш усули Шайтонваччани баттар машҳур қилиб юборди. Бир куни ҳузурига ранги захил, аммо соппа-соғ ўрта ёш бир одам кириб келди.

– Ҳурматли авлиё жаноблари, – деди у расмий оҳангда, афтидан анча сўзамол кўринарди. – Мен сиздан озроқ сармоя сўраб келдим, фоиз дейсизми, элликка – эллик дейсизми, ишқилиб, ҳамма шартингизга кўнаман. Биладан, сиззи пулингизнинг турган битгани барака.

Шайтонваччанинг пешанаси тиришди. Ҳамма олиб келса, бу олиб кетгани кептими? Ҳеч ким мендан сармоя сўрамаган эди. Ҳатто шундоқ кадрдони Дадамирза ҳам бу борада оғиз очмаган. Сўраб келганига бир пушаймондан минг пушаймон едирсамикан? Ҳа, шундай қилади. Шайтоннинг сармояси қанақа бўлишини бир кўриб, билиб кўйсин.

– Бизнесменмисиз?

– Шунақароқ, тақсирим...

– Синдингизми?

– Авлиёсиз-да, ер тагида илон қимирласа биласиз.

– Хўш, сармоя бериб турсам, гаровга нимангиз бор.

– Тўрт хонали уйим, бола-чакам...

– Бола-чақангиз ўзингизга сийлов, уйингизни қанчага баҳолайсиз?

– Эллик минг «кўки»га.

Шайтонвачча стол тортмасидан битта ҳужжатни олди-да, у ёқ-бу ёғига қаради. Унинг нияти бузилган эди. Бу ёқда стриптизчи аёллардан биттаси пишиллаб қолган, энди уни уйли-жойли қилиб, кўздан нари қилиш керак эди. Билгандек кўлига ўша аёлнинг ҳужжати илинибди.

kompyuterga ulab qo‘ydi. Hali mijoz huzuriga kirmas-danoq qanaqaligini ko‘rib o‘tiradi. Shayton yo‘liga yurgan, immoni sust odamlarni va jin tekkanlarni qabul qiladi. Boshqalarni bo‘lsa: «Uzr, sizning kasalingizni faqat do‘xtir tuzatadi, aytgan dorisini to‘xtatmay ichavering», – deb jo‘natib yuboradi. Bunaqa davolash usuli Shaytonvachchani battar mashhur qilib yubordi. Bir kuni huzuriga rangi zaxil, ammo soppa-sog‘ o‘rta yosh bir odam kirib keldi.

– Hurmatli avliyo janoblari, – dedi u rasmiy ohangda, aftidan ancha so‘zamol ko‘rinardi. – Men sizdan ozroq sarmoya so‘rab keldim, foiz deysizmi, ellikka – ellik deysizmi, ishqilib, hamma shartingizga ko‘naman. Bilaman, sizzi pulingizning turgan bitgani baraka.

Shaytonvachchani peshanasi tirishdi. Hamma olib kelsa, bu olib ketgani keptimi? Hech kim mendan sarmoya so‘ramagan edi. Hatto shundoq qadrdo-ni Dadamirza ham bu borada og‘iz ochmagan. So‘rab kelganiga bir pushaymondan ming pushaymon yedirsamikan? Ha, shunday qiladi. Shaytonning sarmoyasi qanaqa bo‘lishini bir ko‘rib, bilib qo‘ysin.

– Biznesmenmisiz?

– Shunaqaroq, taqsirim...

– Sindingizmi?

– Avliyosiz-da, yer tagida ilon qimirlasa bilasiz.

– Xo‘sh, sarmoya berib tursam, garovga nimangiz bor.

– To‘rt xonali uyim, bola-chaqam...

– Bola-chaqangiz o‘zingizga siylov, uyingizni qanchaga baholaysiz?

– Ellik ming «ko‘ki»ga.

Shaytonvachcha stol tortmasidan bitta hujjatni oldida, u yoq-bu yog‘iga qaradi. Uning niyati buzilgan edi. Bu yoqda striptizchi ayollardan bittasi pishillab qolgan, endi uni uyli-joyli qilib, ko‘zdan nari qilish kerak edi. Bilgandek qo‘liga o‘sha ayolning hujjati ilinibdi.

– Gap bunday, – dedi Shaytonvachcha, – men savdo-

– Гап бундай, – деди Шайтонвачча, – мен савдолашмайман, эллик минг бўлса эллик мингдир, таваккал, сизга йигирма беш минг «кўки»дан сармоя бераман. Олдин уйни гаровга қўйиб, нотариус орқали мана шу аёлнинг номига хужжатлаштирасиз. Шарти шу: ёлғон гапирмайсиз, пул олиб, пул сотмайсиз, ўртадаги тушумга хиёнат қилмайсиз, фойда элликка – эллик. Шартларнинг бирортаси бузилса, уй-жойингиз шу заҳоти хужжатдаги аёлнинг номига ўтиб кетади. Ҳа, уйни бўшатайсиз. Шу гапларнинг ҳаммаси нотариус қоғозида кўрсатилиши шарт. Нотариус вакили ва иккита одам гувоҳлигида хужжатга қўл қўямиз, шундан кейингина сармойани куртдек санаб оласиз.

– Мингдан минг ташаккур, авлиё жаноблари. Сиз ниҳоятда мурувватли, ниҳоятда ҳимматлисиз, одамларнинг мақтаганича ҳам бор экан, мартабангиз бундан-да баланд бўлсин, ҳазратим...

Мўмай сармоя уни шошириб қўйди. Оғзига келган сўзлар билан Шайтонваччани кўкларга кўтарди, керагича пахта қўйди.

«Вой мўлтони-ей, менинг совунимга кир ювмабсан ҳали сен, – деб қўйди ичида Шайтонвачча. – Бу шартларни бажариш осон эканми? Валломатинг ҳам шартларнинг уддасидан чиқа олмас. Ахир, сармоя кимники? Шайтонники-ку. Бор-йўғингни ўпириб кетар...»

## ҒАЛАТИ ТАКЛИФ

*(ёки Шайтонваччанинг руҳишунослик қилганликлари)*

Шайтонвачча жин чалиб, нажот излаб келган навбатдаги мижозини ваннадаги сувга солиб пишитилган гаврон билан савалаб турган эди, имом домла кўнғироқ қилиб қолди.

– Ҳа, опачам топилдими? – дўк урди Шайтонвачча жўртага опачаси аллақачон каламушларга ем бўлиб кетганини билса ҳам.

lashmayman, ellik ming bo'lsa ellik mingdir, tavakkal, sizga yigirma besh ming «ko'ki»dan sarmoya beraman. Oldin uyni garovga qo'yib, notarius orqali mana shu ayolning nomiga hujjatlashtirasiz. Sharti shu: yolg'on gapirmaysiz, pul olib, pul sotmaysiz, o'rtadagi tushumga xiyonat qilmaysiz, foyda ellikka – ellik. Shartlarning birortasi buzilsa, uy-joyingiz shu zahoti hujjatdagi ayolning nomiga o'tib ketadi. Ha, uyni bo'shatasiz. Shu gaplarning hammasi notarius qog'ozida ko'rsatilishi shart. Notarius vakili va ikkita odam guvohligida hujjatga qo'l qo'yamiz, shundan keyingina sarmoyani qurtdek sanab olasiz.

– Mingdan ming tashakkur, avliyo janoblari. Siz nihoyatda muruvvatli, nihoyatda himmatlisiz, odamlarning maqtaganicha ham bor ekan, martabangiz bundanda baland bo'lsin, hazratim...

Mo'may sarmoya uni shoshirib qo'ydi. Og'ziga kelgan so'zlar bilan Shaytonvachchani ko'klarga ko'tardi, keragicha paxta qo'ydi.

«Voy mo'ltoni-yey, menning sovunimga kir yuv-mabsan hali sen, – deb qo'ydi ichida Shaytonvachcha. – Bu shartlarni bajarish oson ekanmi? Vallomating ham shartlarning uddasidan chiqqa olmas. Axir, sarmoya kimniki? Shaytonniki-ku. Bor-yo'g'ingni o'pirib ketar...»

## G'ALATI TAKLIF

*(yoki Shaytonvachchaning ruhshunoslik qilganliklari)*

Shaytonvachcha jin chalib, najot izlab kelgan navbatdagi mijozini vannadagi suvga solib pishitilgan gavron bilan savalab turgan edi, imom domla qo'ng'iroq qilib qoldi.

– Ha, opacham topildimi? – do'q urdi Shaytonvachcha jo'rtaga opachasi allaqachon kalamushlarga yem bo'lib ketganini bilsa ham.

– Излатяпман, таксирим, излатяпман. Камина бошқа бир иш билан сизни безовта қилаётган эдим.

– Гапиринг тезроқ...

– Қабулингизга овоз ёзиш студиямизнинг бошлиғи кира олмаяпти экан. Бир ҳафта олдин келиб навбат олган экан бўлмаса...

– Нима қилай, бу ер ошна-оғайнигарчилик билан иш битирадиган идора эмаслигини биласиз-ку. Устозим билан иккимиз барчага баравармиз. Иш вақти тугагандан кейин «Тақво» орқали келсин, устозимсиз ўзим гаплашаман.

Дадамирза ароқ цехини Шайтонваччага топширгандан бери жиянига очикчасига пуллик хизмат кўрсатарди. Шайтонвачча бунинг ҳам йўлини топган: кечкурун битта-иккита мижозни «Тақво» орқали қабул қиларди. Жарақ-жарақ тушумлар эса тўғри кассасига кетарди.

Кечкурун овоз ёзиш студиясининг бошлиғи олиб келган совға-саломлардан сездик, иш жиддийроқ. Унинг оғзини ёглаб, еган оғиз уялар қилиб кўймоқчи. Кечга бориб Шайтонваччанинг нафси жудаям ҳакалак отиб кетар, овқатни кўрса ўзини тия олмай қоларди.

– Сиз гапираверинг, қулоғим сизда бўлади-ю, оғиз овқатда, – деб Шайтонвачча таомга ўзини урди.

– Мен олдингизга иккита иш билан келдим. Биринчиси яна ўша гап, мухлисларингиз сизни сўраб кўйишмаяпти. «Булбул қори» лойиҳасини амалга оширсак. Фойда элликка – эллик. Нима дейсиз?

– Йўқ, бўлмайди, кейинги масалага ўтинг, – товукнинг оёғидан кейин олма шарбатини ҳузур қилиб симирди Шайтонвачча.

– Хўп, эллик бирга – эллик.

– Тўқсон тўққизга бир бўлса ҳам бўл-май-ди, – деди у лунжини артиб.

– Вах, шундоқ овозни увол қилиб ўтирбсиз-а, таксирим, худо ярлақаб кўйибди-ку, фойдалансангиз бўлмайдами? Йўқ демаганингизда бунданам машхур бўлиб кетардингиз...



– Izlatyapman, taqsirim, izlatyapman. Kamina boshqa bir ish bilan sizni bezovta qilayotgan edim.

– Gapiring tezroq...

– Qabulingizga ovoz yozish studiyamizning boshlig‘i kira olmayapti ekan. Bir hafta oldin kelib navbat olgan ekan bo‘lmasa...

– Nima qilay, bu yer oshna-og‘aynigarchilik bilan ish bitiradigan idora emasligini bilasiz-ku. Ustozim bilan ikkimiz barchaga baravarmiz. Ish vaqti tugagandan keyin «Taqvo» orqali kelsin, ustozimsiz o‘zim gaplashaman.

Dadamirza aroq sexini Shaytonvachchaga topshirgandan beri jiyaniga ochiqchasiga pullik xizmat ko‘rsatardi. Shaytonvachcha buning ham yo‘lini topgan: kechqurun bitta-ikkita mijozni «Taqvo» orqali qabul qilardi. Jaraq-jaraq tushumlar esa to‘g‘ri kassasiga ketardi.

Kechqurun ovoz yozish studiyasining boshlig‘i olib kelgan sovg‘a-salomlardan sezdi, ish jiddiyroq. Uning og‘zini yog‘lab, yegan og‘iz uyalar qilib qo‘ymoqchi. Kechga borib Shaytonvachchaning nafs judayam haka-lak otib ketar, ovqatni ko‘rsa o‘zini tiya olmay qolardi.

– Siz gapiravering, qulog‘im sizda bo‘ladi-yu, og‘iz ovqatda, – deb Shaytonvachcha taomga o‘zini urdi.

– Men oldingizga ikkita ish bilan keldim. Birinchisi yana o‘sha gap, muxlislaringiz sizni so‘rab qo‘yishmayapti. «Bulbul qori» loyihasini amalga oshirsak. Foyda ellikka – ellik. Nima deysiz?

– Yo‘q, bo‘lmaydi, keyingi masalaga o‘ting, – tovuqning oyog‘idan keyin olma sharbatini huzur qilib simirdi Shaytonvachcha.

– Xo‘p, ellik birga – ellik.

– To‘qson to‘qqizga bir bo‘lsa ham bo‘l-may-di, – dedi u lunjini artib.

– Vah, shundoq ovozni uvol qilib o‘tirbsiz-a, taqsirim, xudo yarlaqab qo‘yibdi-ku, foydalansangiz bo‘lmaydimi? Yo‘q demaganingizda bundanam mashhur bo‘lib ketardingiz...

– Овозимда сал носозлик бор-да, бўлмаса йўқ демас эдим, – деди Шайтонвачча унга муғамбирона қараб. – Созлаш учун кунига биласизми нечта тухум ютишим керак?

– Айтаверинг, ўзим етказиб тураман.

– Юз донадан...

– Юз дона?

Ҳайратдан оғзи карракдек очилиб, кўзи олайди овоз ёзиш студияси бошлиғининг. Бу одам-подаммас, бориб турган юҳо, деб қўйди ичида у.

– Бедананинг тухумидан, шунга чидайсизми?

– Э, шундай демайсизми, неча кун ютишингиз керак? – иккиланиб сўради у. Ахир, бедананинг тухуми товукникидан икки баробар қиммат туради-да.

– Худо билади...

– Маҳалла болаларига... – деб кейинги масалага ўта қолди у, – компьютер ўйингоҳи очган эдим. Компьютер ўйинлари одамни бузар экан, деб ота-оналар болаларини юбормай қўйишди. Имом домла билан нима қилишни билмай қолдик. Бу ёқда солиқчилар тинчлик беришмаяпти.

– Сиз компьютерга болаларни бузадиган ўйинларни қўйманг-да, – деди Шайтонвачча чарвили кабобни иштаҳа билан чайнар экан.

– Интернетга улангандан кейин уларни идора қилиб бўлмай қолади-да.

– Сиз интернетдан узиб қўйинг.

– Бунинг ҳечам иложи йўқ, кафенинг номи «Интернет кафе».

– Унда сизга бошқа таклиф айтаман.

– Масалан?

– Ҳа, йў-ў-ў-қ, бу таклиф учун бугунги зиёфат камлик қилади, эртанги нонушталикни ҳам бўйнингизга олсангиз, айтаман.

– Гап йўқ, тўртта жиззали нон, қаймоғи билан сиздан ўргилсин.

– Ёнига ўнта қайнатилган тухум билан бир кило новвот ҳам қўшасиз.

– Ovozimda sal nosozlik bor-da, bo‘lmasa yo‘q demas edim, – dedi Shaytonvachcha unga mug‘ambirona qarab. – Sozlash uchun kuniga bilasizmi nechta tuxum yutishim kerak?

– Aytavering, o‘zim yetkazib turaman.

– Yuz donadan...

– Yuz dona?

Hayratdan og‘zi karrakdek ochilib, ko‘zi olaydi ovoz yozish studiyasi boshlig‘ining. Bu odam-podammas, borib turgan yuho, deb qo‘ydi ichida u.

– Bedananing tuxumidan, shunga chidaysizmi?

– E, shunday demaysizmi, necha kun yutishingiz kerak? – ikkilanib so‘radi u. Axir, bedananing tuxumi tovuqnikidan ikki barobar qimmat turadi-da.

– Xudo biladi...

– Mahalla bolalariga... – deb keyingi masalaga o‘ta qoldi u, – kompyuter o‘yingohi ochgan edim. Kompyuter o‘yinlari odamni buzar ekan, deb ota-onalar bolalarini yubormay qo‘yishdi. Imom domla bilan nima qilishni bilmay qoldik. Bu yoqda soliqchilar tinchlik berishmayapti.

– Siz kompyuterga bolalarni buzadigan o‘yinlarni qo‘ymang-da, – dedi Shaytonvachcha charvili kabobni ishtaha bilan chaynar ekan.

– Internetga ulangandan keyin ularni idora qilib bo‘lmay qoladi-da.

– Siz internetdan uzib qo‘ying.

– Buning hecham iloji yo‘q, kafening nomi «Internet kafe».

– Unda sizga boshqa taklif aytaman.

– Masalan?

– Ha, yo‘-o‘-o‘-q, bu taklif uchun bugungi ziyofat kamlik qiladi, ertangi nonushtalikni ham bo‘yningizga olsangiz, aytaman.

– Gap yo‘q, to‘rtta jizzali non, qaymog‘i bilan sizdan o‘rgilsin.

– Yoniga o‘nta qaynatilgan tuxum bilan bir kilo novvot ham qo‘shasiz.

– Келишдик.

– Компьютерга «Қуръон» оятларидан киритинг. Кимки битта оятни ёд олса, бир соатлик ўйинни текин қилиб қўйинг, натижа яхши бўлиши керак.

– Тушум йўқ деяпман-ку, сиз бўлса текинни гапирасиз-а, тақсирим.

– Айтганимни қилаверинг, кейин хурсанд бўласиз.

У каттагина чиқимга тушиб, хафсаласи пир бўлиб чиқиб кетар экан, Шайтонвачча унга эслатди:

– Эрталабки нонушта эздан чиқмасин-а...

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

– Гапиринглар, нима гап? – дея ҳайъат аъзоларига қаради шохдор раис. Лекин бир қарашдаёқ хурсанд қиладиган гап йўқлигини сезиб бўлган эди.

– Одамшайтонимиз иймон келтириб қўйганга ўхшайди, жаноби олийлари.

– Нима? – ўтирган жойидан туриб кетди раис. – Исбот, далил борми? – гапирган кишини еб қўйгудек бўлди раис. Агарда у ишонарли исбот-далил келтирмаса, думи ечилиб, кўчага ҳайдалиши аниқ эди.

– Одамшайтон синган бир бизнесменга раҳм-шафқат қилиб, каттагина сармоя берди...

– Берса нима, сизлар бермайсизларми?

– Лекин биз Одам болаларига гапирсанг ёлғон гапир, бировнинг ҳақиға хиёнат қил, судхўрлик қил, деб васваса қиламиз. У бўлса бу гапларнинг тамоман тескарисини: ёлғон гапирма, бировнинг ҳақиға хиёнат қилма, доллар олиб, доллар сотиш ҳаром, деб айтган.

– Буни мен ҳам тасдиқлайман, имом домланинг овоз ёзиш студиясининг бошлиғига компьютерларга «Қуръон» оятларини киритишни, ёд олган болаларга компьютер ўйинини бепул қилиб қўйишни маслаҳат берган. Шулардан фол олиб иймон келтириб қўйганми, демокдамиз. У энди юз фоиз бизга қарши ишлашга ўтди.

– Kelishdik.

– Kompyuterga «Qur'on» oyatlaridan kiringing. Kimki bitta oyatni yod olsa, bir soatlik o'yinni tekin qilib qo'ying, natija yaxshi bo'lishi kerak.

– Tushum yo'q deya pman-ku, siz bo'lsa tekinni gapirasiz-a, taqsim.

– Aytganimni qilavering, keyin xursand bo'lasiz.

U kattagina chiqimga tushib, hafsalasi pir bo'lib chiqib ketar ekan, Shaytonvachcha unga eslatdi:

– Ertalabki nonushta esdan chiqmasin-a...

## HAY'AT YIG'ILISHI

– Gapiringlar, nima gap? – deya hay'at a'zolariga qaradi shoxdor rais. Lekin bir qarashdayoq xursand qiladigan gap yo'qligini sezib bo'lgan edi.

– Odamshaytonimiz iymon keltirib qo'yganga o'xshaydi, janobi oliylari.

– Nima? – o'tirgan joyidan turib ketdi rais. – Isbot, dalil bormi? – gapirgan kishini yeb qo'ygudek bo'ldi rais. Agarda u ishonarli isbot-dalil keltirmasa, dumi yechilib, ko'chaga haydalishi aniq edi.

– Odamshayton singan bir biznesmenga rahmshafqat qilib, kattagina sarmoya berdi...

– Bersa nima, sizlar bermaysizlarmi?

– Lekin biz Odam bolalariga gapirsang yolg'on gapir, birovning haqiga xiyonat qil, sudxo'rlik qil, deb vasvasa qilamiz. U bo'lsa bu gaplarning tamoman teskarisini: yolg'on gapirma, birovning haqiga xiyonat qilma, dollar olib, dollar sotish harom, deb aytgan.

– Buni men ham tasdiqlayman, imom-domlaning ovoz yozish studiyasining boshlig'iga kompyuterlarga «Qur'on» oyatlarini kiritishni, yod olgan bolalarga kompyuter o'yinini bepul qilib qo'yishni maslahat bergan. Shulardan fol olib iymon keltirib qo'yanmi, demoqdamiz. U endi yuz foiz bizga qarshi ishlashga o'tdi.

– Хўш, қўлимиздан нима ҳам келарди, осмон узок, ер қаттиқ, менга қолса шундай бўлсин депманми, – деб раис сукут сақлади. Сукут узок давом этди ва йиғилиш сукут билан тугади.

## ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

Йиғилиш нимагадир олдингиларидан илиқ-иссиқ бошланди. Бу ҳолатни раиснинг кайфиятидан ҳам билса бўларди. У ўтирганларга «Қалайсизлар», дегандек қараб кўяр, Ахборотчининг тилга киришини сабрсизлик билан кутарди. Ҳеч нарсадан хабари йўқ ҳайъат аъзолари бир-бирларига ҳайрон бўлиб қарашар, наҳотки кайфиятни кўтарадиган иш содир бўлган бўлса-ю, улар беҳабар қолишган бўлса. Ё Одамшайтон кўлга тушдимикан-а?

– Жаноб раис, хурматли ҳайъат аъзолари, – деб сўз бошлади Ахборотчи. – Биз бундан аввалги йиғилишимизда Одамшайтон иймон келтириб қўйди, деб озгина шошган эканмиз. Йўқ, ундай бўлмаган экан. Одамшайтон раҳмдиллик қилиб пул берган бизнесмен сал ўтмаёқ ўртадаги келишилган шартни бузибди. Доллар сотиб кўлга тушибди. Шартга биноан уй-жойидан ажраб, бола-чақаси билан кўчада қопти.

– Баттар бўлсин, нафси бузук Одам болаларини ана шундай қилиб жазолаш керак, – деди раис хурсанд бўлиб. – Давом этинг, яна нима гап?

– Компьютерга оятларни киритиш ҳам шайтоларча ўйлаб қилинган экан. Бу янгиликдан хабар топган ота-оналар олдингидан ҳам кўпроқ пул бериб болаларини компьютер ўйинига юборишиб ётибди. Назорат йўқ, болалар номига бир-иккита оятни ёдлаган бўлиб, илгаригидек шармандали ўйинларни ўйнаб ётишибди. «Интернет кафе»нинг ишлари олдингидан ҳам юришиб кетди. Одамшайтонимиз Одам болаларининг руҳиятини яхши биладиган чиқиб қолди. Унинг бошлиғи ҳар куни юз донадан бедана тухумини кўтариб Одамшайтоннинг хузурига

– Xo‘sh, qo‘limizdan nima ham kelardi, osmon uzoq, yer qattiq, menga qolsa shunday bo‘lsin depmanmi, – deb rais sukut saqladi. Sukut uzoq davom etdi va yig‘ilish sukut bilan tugadi.

## HAY’AT YIG‘ILISHI

Yig‘ilish nimagadir oldingilaridan iliq-issiq boshlandi. Bu holatni raisning kayfiyatidan ham bilsa bo‘lardi. U o‘tirganlarga «Qalaysizlar», degandek qarab qo‘yar, Axborotchining tilga kirishini sabrsizlik bilan kutardi. Hech narsadan xabari yo‘q hay’at a‘zolari bir-birlariga hayron bo‘lib qarashar, nahotki kayfiyatni ko‘taradigan ish sodir bo‘lgan bo‘lsa-yu, ular bexabar qolishgan bo‘lsa. Yo Odamshayton qo‘lga tushdimikan-a?

– Janob rais, hurmatli hay’at a‘zolari, – deb so‘z boshladi Axborotchi. – Biz bundan avvalgi yig‘ilishimizda Odamshayton iymon keltirib qo‘ydi, deb ozgina shoshgan ekanmiz. Yo‘q, unday bo‘lmagan ekan. Odamshayton rahmdillik qilib pul bergan biznesmen sal o‘tmayoq o‘rtadagi kelishilgan shartni buzibdi. Dollar sotib qo‘lga tushibdi. Shartga binoan uy-joyidan ajrab, bola-chaqasi bilan ko‘chada qopti.

– Battar bo‘lsin, nafsi buzuq Odam bolalarini ana shunday qilib jazolash kerak, – dedi rais xursand bo‘lib. – Davom eting, yana nima gap?

– Kompyuterga oyatlarni kiritish ham shaytonlar-cha o‘ylab qilingan ekan. Bu yangilikdan xabar topgan ota-onalar oldingidan ham ko‘proq pul berib bolalarini kompyuter o‘yiniga yuborishib yotibdi. Nazorat yo‘q, bolalar nomiga bir-ikkita oyatni yodlagan bo‘lib, ilgarigidek sharmandali o‘yinlarni o‘ynab yotishibdi. «Internet kafe»ning ishlari oldingidan ham yuri- shib ketdi. Odamshaytonimiz Odam bolalarining ruhiyatini yaxshi biladigan chiqib qoldi. Uning boshlig‘i har kuni yuz donadan bedana tuxumini ko‘tarib

чопгани-чопган. «Булбул қори» лойихасини амалга оширмоқчи.

– Ана бўлмасам, – дея ха-холаб кулиб юборди раис, – шайтон бир думалаб Одамшайтонга, яна бир думалаб «Булбул қори»га айланиб турса, зап ишлар бўляптими? Яқин асрларда бунақаси бўлмаган.

– Жаноблари рост айтадилар, – деб ҳайъат аъзолари ўринларидан бир туриб ўтиришди.

– Хў-ў-ў-ш, – деди раис ғолибона кайфиятда, – Одамшайтонга қарши бир фитна бошлаган эдиларинг, бундан кейин нима дейсизлар?

Ҳайъат аъзолари бирдан жим бўлиб қолишди.

– Гапиринглар...

– Бир қошиқ қонимиздан кечинг, – деди шуъба аъзоларидан бири ўрнидан туриб, – лойиҳа ишга тушиб кетган, энди уни орқага қайтариб бўлмайди. Лекин шуни биламанки, Одамшайтон бу тузоқдан ҳам осонгина чиқиб кетиши мумкин. Ҳа, шундай бўлишини кўнглим сезиб турибди.

– Бошга тушганни кўз кўрар, денглар.

– Шундай, ҳазратим.

– Кўрамиз, унда курашда ким ғолиб чиқаркан.

## ТУЗОҚ

*(ёки Шайтонваччанинг боши берк кўчага кириб қолганлари)*

Кўпинча 108-канал шом билан хуфтон оралиғида эфирга чиқар эди. Бугун нимагадир эрталабки соат ўндан кўрсатувларини бошлаб юборди. Эфирда таниш бошловчи қиз. Қаердандир тўғридан-тўғри кўрсатув олиб боряпти.

– Азиз телетомошабинлар, – дейди у, – яна эътиборингизни ўзга сайёралик келгиндига қаратмоқчимиз. Ниҳоят у бугун кўлга тушадиган бўлди. Камераларимиз ўзга сайёралик яшайдиган бино атрофларига ўрнатилган. Кўриқчилар қўйилган.



Odamshaytonning huzuriga chopgani-chopgan. «Bulbul qori» loyihasini amalga oshirmoqchi.

– Ana bo‘lmasam, – deya xa-xolab kulib yubordi rais, – shayton bir dumalab Odamshaytonga, yana bir dumalab «Bulbul qori»ga aylanib tursa, zap ishlar bo‘lyaptimi? Yaqin asrlarda bunaqasi bo‘lmagan.

– Janoblari rost aytadilar, – deb hay‘at a‘zolari o‘rinlaridan bir turib o‘tirishdi.

– Xo‘-o‘-o‘-sh, – dedi rais g‘olibona kayfiyatda, – Odamshaytonga qarshi bir fitna boshlagan edilaring, bundan keyin nima deysizlar?

Hay‘t a‘zolari birdan jim bo‘lib qolishdi.

– Gapiringlar...

– Bir qoshiq qonimizdan keching, – dedi shu‘ba a‘zolaridan biri o‘rnidan turib, – loyiha ishga tushib ketgan, endi uni orqaga qaytarib bo‘lmaydi. Lekin shuni bilamanki, Odamshayton bu tuzoqdan ham osongina chiqib ketishi mumkin. Ha, shunday bo‘lishini ko‘nglim sezib turibdi.

– Boshga tushganni ko‘z ko‘rar, denglar.

– Shunday, hazratim.

– Ko‘ramiz, unda kurashda kim g‘olib chiqarkan.

## TUZOQ

*(yoki Shaytonvachchaning boshi berk ko‘chaga kirib qolganlari)*

Ko‘pincha 108-kanal shom bilan xufton oralig‘ida efirga chiqar edi. Bugun nimagadir ertalabki soat o‘ndan ko‘rsatuvlarini boshlab yubordi. Efirda tanish boshlovchi qiz. Qayerdandir to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatuv olib boryapti.

– Aziz teletomoshabinlar, – deydi u, – yana e‘tiboringizni o‘zga sayyoralik kelgindiga qaratmoqchimiz. Nihoyat u bugun qo‘lga tushadigan bo‘ldi. Kameralarimiz o‘zga sayyoralik yashaydigan bino at-

Ҳатто Ажинашамолга ҳам қарши чоралар кўриб кўйганмиз, – деб осмону фалакда гуриллаб чарх уриб турган верталётга ишора қилади у. – Ажинашамолни парраклари кучи билан тўзғитиб юборади. Хуллас, ўзга сайёралик деганимиз ўша биз тахмин қилган, шахримизнинг гавжум маҳаллаларидан бирига уя қуриб олган фирибгар авлиё бўлиб чикди. Келгиндимиз у деб, бу деб содда одамларнинг ишончига кириб, пулини шилиб ётибди. Ҳозир тасвирчимиз сизларга фирибгар авлиёга бош уриб келган фуқароларнинг узундан-узун навбатини кўрсатади. – Тасвирда ўранган, сўранган, совқотган одамлар. Ҳеч ким билан ишлари йўқ, ҳалидан бери куйиб-пишиб жавраётган бошловчи қизга «Нима деяпсан?» – деб қараб ҳам кўйишмайди. Кўзлари рўпарадаги уч қаватли бинода. Навбатлари тезрок келақолса-ю, дардларидан фориғ бўлиб кетақолишса. Улар дарвозахонага етиб олишсаёқ, бас. Мўжиза шу ерда юз беради. Кимдир радиокарнайдан худди кўриб тургандек мурожаат қилади: «Муҳтарам жаноб, сизнинг дардингизга Худо хоҳласа даво бор, кадамларига ҳасанот, кираверсинлар ёки сиз жанобнинг на дўхтирлик, на табиблик ишингиз бор, соппа-соғсиз, уйга қайтаверсинлар», – деган жавоб бўлади. Бу гапдан кейин ҳозиргина икки букчайиб турган касал одам бирдан соғайиб, елкаларини учириб, ўйинга тушиб жўнаб қолади.

– Ҳозир, – деди бошловчи қиз, – сўзларимизнинг исботи учун «Такво» кафесининг бошлиғи Дадамирза акага сўз берамиз. – Ҳой фирибгар авлиёга навбатда турган одамлар, эшитинглар, бу гаплар сизларга ҳам тегишли, – деб сўнг писанда қилиб кўйди. Кейин Дадамирзага қаради: – Дадамирза ака, нима бўлганини ўзингиз бир бошдан гапириб берасиз энди. Ҳалиги айтишади-ку, эгилган бошни қилич кесмас, деб. Ишқилиб, шунақа-да, марҳамат, эфирдасиз.

Дадамирза бир аҳволда гап бошлади:

– Хуллас, унинг бошқа сайёрадан келгани рост.

roflariga oʻrnatilgan. Qoʻriqchilar qoʻyilgan. Hatto Ajinashamolga ham qarshi choralar koʻrib qoʻyganmiz, – deb osmonu falakda gurillab charx urib turgan vertalyotga ishora qiladi u. – Ajinashamolni parraklari kuchi bilan toʻzgʻitib yuboradi. Xullas, oʻzga sayyoralik deganimiz oʻsha biz taxmin qilgan, shahrimizning gavjum mahallalaridan biriga uya qurib olgan firibgar avliyo boʻlib chiqdi. Kelgindimiz u deb, bu deb sodda odamlarning ishonchiga kirib, pulini shilib yotibdi. Hozir tasvirchimiz sizlarga firibgar avliyoga bosh urib kelgan fuqarolarning uzundan uzun navbatini koʻrsatadi. – Tasvirda oʻrangan, soʻrangan, sovqotgan odamlar. Hech kim bilan ishlari yoʻq, halidan beri kuyib-pishib javrayotgan boshlovchi qizga «Nima deyapsan?» – deb qarab ham qoʻyishmaydi. Koʻzlari roʻparadagi uch qavatli binoda. Navbatlari tezroq kelaqolsa-yu, dardlaridan forigʻ boʻlib ketaqolishsa. Ular darvozaxonaga yetib olishsayoq, bas. Moʻjiza shu yerda yuz beradi. Kimdir radiokarnaydan xuddi koʻrib turgandek murojaat qiladi: «Muhtaram janob, sizning dardingizga Xudo xohlasa davo bor, qadamlariga hasanot, kiraversinlar yoki siz janobning na doʻxtirlik, na tabiblik ishingiz bor, soppasogʻsiz, uyga qaytaversinlar», – degan javob boʻladi. Bu gapdan keyin hozirgina ikki bukchayib turgan kasal odam birdan sogʻayib, yelkalarini uchirib, oʻyinga tushib joʻnab qoladi.

– Hozir, – dedi boshlovchi qiz, – soʻzlarimizning isboti uchun «Taqvo» kafesining boshligʻi Dadamirza akaga soʻz beramiz. – Hoy firibgar avliyoga navbatda turgan odamlar, eshitinglar, bu gaplar sizlarga ham tegishli, – deb soʻng pisanda qilib qoʻydi. Keyin Dadamirzaga qaradi: – Dadamirza aka, nima boʻlganini oʻzingiz bir boshdan gapirib berasiz endi. Haligi aytishadi-ku, egilgan boshni qilich kesmas, deb. Ishqilib, shunaqa-da, marhamat, efirdasiz.

Dadamirza bir ahvolda gap boshladi:

– Xullas, uning boshqa sayyoradan kelgani rost.

Мен жонли гувоҳман, қадрли телетомошабинлар. Биз у билан ёлғондакам тоға-жиян тутинганмиз. Унинг ҳақиқий исмини ҳам, отасининг исмини ҳам ханузгача билмайман. Менга қишлоқлик етимчаман, хужжат тўғрилаб беринг, шаҳарда бир кунимни кўриб юрай, деб йиғлаб-сиқтаб илтимос қилган эди. Автоҳалокатга учраб ўлиб кетган Казимир Казаков деганнинг хужжати бўйича «К» ҳарфларини «Қ»га, «а» ҳарфларини «о»га алмаштириб, Қозимир Қозоқов қилиб қалбаки хужжат қилдириб берган эдим...

– Дадамирза ака, ўша қалбаки хужжат қилиб берган идоранинг манзилени айта оласизми?

– Афсуски айта олмайман.

– Нимага, кўрқасизми?

– Ҳа, йў-ў-ў-қ, бир бошга бир ўлим, нимага кўрқай. У идоранинг одамлари аллақачон қўлга тушиб, қамалиб кетишди. Номигина эсимда қолган, янглишмасам «Добрий услуг» эди, шекилли. Айтиб кўяй, мен бу ишни азбаройи кўнгилчанлигимдан, ҳа, раҳмдиллигимдан қилдим. Лекин у кўрнамак тузимни еб, тузлиғимга тупурди. Кўзбўямачиликка ўтди. Уй-жойларимни, пулларимни зўрлик билан тортиб олди. «Тақво»нинг ярмини ўзиники қилиб, «Дўзах» деган ароқ цехи очди. Ҳа, ҳа, «Дўзах», номини қаранг. Даҳшат. Аввалига мен уни ростдан ҳам авлиё деб ишонган эдим. Ароқ цехи очгандан кейин кўлимни ювиб, қўлтиғимга урдим. Бир марта уни ўлдирмоқчи ҳам бўлдим. Оёқ-қўлини пўлат симлар билан боғлаб, устидан эшикларни қулфлаб, миршаб чақириб келсам, қайда, не кўз билан кўрайки, нақ пўлат симларни қирқинчи ипдек чарс-чурс узиб ташлабди. Миршаблар олдида қаттиқ ўсал бўлдим. Шундан кейин ўзим ҳам ҳайрон-у лол бўлиб, унинг қулига айланиб қолдим. Э, сизларга айтсам у жудаям кўрқинчли махлуқ. Уни ҳозироқ ушлаб, тўғри асфаласофилинга жўнатиш керак. Суд-пуд қилиб ўтирмаслик керак. Қамокдагиларни ҳам йўлдан уради. Шундай қилиб мен гапириб бўлдим, ҳурматли телетомошабинлар...

Men jonli guvohman, qadrli teletomoshabinlar. Biz u bilan yolg'ondakam tog'a-jiyan tutinganmiz. Uning haqiqiy ismini ham, otasining ismini ham hanuzgacha bilmayman. Menga qishloqlik yetimchaman, hujjat to'g'rilab bering, shaharda bir kunimni ko'rib yuray, deb yig'lab-siqtab iltimos qilgan edi. Avtohalokatga uchrab o'lib ketgan Kazimir Kazakov deganning hujjati bo'yicha «K» harflarini «Q»ga, «a» harflarini «o»ga almashtirib, Qozimir Qozoqov qilib qalbaki hujjat qildirib bergan edim...

– Dadamirza aka, o'sha qalbaki hujjat qilib bergan idoraning manzilini ayta olasizmi?

– Afsuski ayta olmayman.

– Nimaga, qo'rqasizmi?

– Ha, yo'-o'-o'-q, bir boshga bir o'lim, nimaga qo'rqay. U idoraning odamlari allaqachon qo'lga tushib, qamalib ketishdi. Nomigina esimda qolgan, yanglishmasam «Dobriy uslug» edi, shekilli. Aytib qo'yay, men bu ishni azbaroyi ko'ngilchanligimdan, ha, rahmdilligimdan qildim. Lekin u ko'rnamak tuzimni yeb, tuzlig'imga tupurdi. Ko'zbo'yamachilikka o'tdi. Uy-joylarimni, pullarimni zo'rlik bilan tortib oldi. «Taqvo»ning yarmini o'ziniki qilib, «Do'zax» degan aroq sexi ochdi. Ha, ha, «Do'zax», nomini qarang. Dahshat. Avvaliga men uni rostdan ham avliyo deb ishongan edim. Aroq sexi ochgandan keyin qo'limni yuvib, qo'ltig'imga urdim. Bir marta uni o'ldirmoqchi ham bo'ldim. Oyoq-qo'lini po'lat simlar bilan bog'lab, ustidan eshiklarni qulflab, mirshab chaqirib kelsam, qayda, ne ko'z bilan ko'rayki, naq po'lat simlarni qirqinchi ipdek chars-churs uzib tashlabdi. Mirshablar oldida qattiq o'sal bo'ldim. Shundan keyin o'zim ham hayron-u lol bo'lib, uning quliga aylanib qoldim. E, sizlarga aytsam u judayam qo'rqinchli maxluq. Uni hoziroq ushlab, to'g'ri asfalasofilinga jo'natish kerak. Sud-pud qilib o'tirmaslik kerak. Qamoqdagilarni ham yo'ldan uradi. Shunday qilib men gapirib bo'ldim, hurmatli teletomoshabinlar...

Кун совуқ бўлишига қарамай Дадамирза терлаб-пишиб кетди. Ахир, шунча гапни юрак ютиб айтишнинг ўзи бўладими? Аммо тепада верталётнинг тинимсиз гуриллаб айланиб туриши, юзига ниқоб тутиб олган кўриқчиларнинг кўплиги уни анча дадиллаштириб юборган, ҳеч бўлмаса уй-жойлари ўзига қолиб кетишига умид қиларди.

– Энди микрофонни, – деди бошловчи қиз чаққонлик билан, – исмини эълон қилмаслигини сўраб мурожаат қилган бир опахонимизга берамиз.

Опахон ўзини танитмаслик учун бўлса керак, юз-кўзларини ўраб олган, одам эмас, худди кўриқчига ўхшаб кўринарди. У микрофонни обдан ичкари олиб кириб, хаста овозда гапира бошлади:

– У олдинига менга катта ваъдалар берди, кўйнимни пуч ёнғоққа тўлдирди. Лакқа тушдим. Орамизда ишқий савдолар бўлиб ўтди. Аммо бўйимда бўлиб қолгандан кейин у ўзгариб қолди. Мени бировга сотмоқчи бўлди. Болани олдириб ташлайман, дедим. Болани олдирсанг, сени ўлдираман, деди. Охири айтганини қилди. Ҳалиги одам олдида виждоним қийналди. Мен бор гапни секингина унга айтдим. У менинг гапларимни 108-каналчиларга етказди. Шундан кейин 108-каналчилар ўз ажали билан ўлган менга ўхшаброқ кетадиган бир дайди аёлга кўйлагимни кийдириб, мени ўлдига чиқаришди ва қаттиқ кўриқлашди. Ишга олимлар аралашди. Болани туғасан, бошқа сайёраликнинг боласи қанақа бўлишини билишимиз керак, дейишяпти.

– Кечирасиз, сиз айтган ишқий муносабатлар шу уйда бўлган-а? – деб Шайтонвачча яшаб турган иморатга ишора қилди бошловчи қиз.

– Ҳа, юз фоиз, ҳамма қонунга қарши ишлар шу ерда бўлган...

– Айта оласизми, у яна кимлар билан ишқий яқинлик қилган? Буни билишимиз жуда муҳим. Худо кўрсатмасин, улар кўпайиб кетишса, ҳаёт издан чиқиб кетади-я.

Kun sovuq bo‘lishiga qaramay Dadamirza terlab-pishib ketdi. Axir, shuncha gapni yurak yutib aytishning o‘zi bo‘ladimi? Ammo tepada vertalyotning tinimsiz gurillab aylanib turishi, yuziga niqob tutib olgan qo‘riqchilarning ko‘pligi uni ancha dadillashtirib yuborgan, hech bo‘lmasa uy-joylari o‘ziga qolib ketishiga umid qilardi.

– Endi mikrafonni, – dedi boshlovchi qiz chaqqonlik bilan, – ismini e’lon qilmasligini so‘rab murojaat qilgan bir opaxonimizga beramiz.

Opaxon o‘zini tanitmaslik uchun bo‘lsa kerak, yuzko‘zlarini o‘rab olgan, odam emas, xuddi qo‘riqchiga o‘xshab ko‘rinardi. U mikrafonni obdan ichkari olib kiritib, xasta ovozda gapira boshladi:

– U oldiniga menga katta va’dalar berdi, qo‘ynimni puch yong‘oqqa to‘ldirdi. Laqqa tushdim. Oramizda ishqiy savdolar bo‘lib o‘tdi. Ammo bo‘yimda bo‘lib qolgandan keyin u o‘zgarib qoldi. Meni birovga sotmoqchi bo‘ldi. Bolani oldirib tashlayman, dedim. Bolani oldirsang, seni o‘ldiraman, dedi. Oxiri aytganini qildi. Haligi odam oldida vijdonim qiynaldi. Men bor gapni sekingina unga aytdim. U mening gaplarimni 108-kanalchilarga yetkazdi. Shundan keyin 108-kanalchilar o‘z ajali bilan o‘lgan menga o‘xshabroq ketadigan bir daydi ayolga ko‘ylagimni kiydirib, meni o‘ldiga chiqarishdi va qattiq qo‘riqlashdi. Ishga olimlar aralashdi. Bolani tug‘asan, boshqa sayyoralikning bolasi qanaqa bo‘lishini bilishimiz kerak, deyishyapti.

– Kechirasiz, siz aytgan ishqiy munosabatlar shu uyda bo‘lgan-a? – deb Shaytonvachcha yashab turgan imoratga ishora qildi boshlovchi qiz.

– Ha, yuz foiz, hamma qonunga qarshi ishlar shu yerda bo‘lgan...

– Ayta olasizmi, u yana kimlar bilan ishqiy yaqinlik qilgan? Buni bilishimiz juda muhim. Xudo ko‘rsatmasin, ular ko‘payib ketishsa, hayot izdan chiqib ketadi-ya.

– Мен ўзимгагина жавоб бераман, бошқаларнинг тепасида турмаганман.

Шу пайт Шайтонвачча яшайдиган ҳовлидан бир кўзи тепага, бир кўзи пастга ағдарилган кўр одам кўлида ҳасса билан туртиниб-суртиниб чиқиб келди. У яқиндагина навбатсиз ичкарига кириб кетган сўқир тиланчи эди. Унинг кўзи очиқ бўлиб, чуқурчасига увода пахта тикиб қўйганга ўхшарди. У жума кунлари шаҳардаги энг катта жоме масжидида, бошқа кунлари бозорда тиланчилик қиларди.

– Ҳов телевизорчи қизим, қаердасан, бу ёққа ке, гапнинг каттасини мендан эшит, – деди у талмовсираб. – Мен сени танимайман, аммо сен мени танишинг керак. Мен тиланчиларнинг подшоси бўлман. Гап бундай, падарига лаънат бу авлиёни.

Сўқир одам бошловчи қиз бошқа ёқда қолиб, тамоман бошқа томонга қараб гапирарди.

– Мен бу ёқдаман, ота, – деди бошловчи қизга жон битиб. Тиланчи овоз келган томонга ўғирилди.

– Гапиринг, отахон, нималар бўлди? Ҳамманинг кўзи сизда.

– Дард бўлди, бало бўлди, қизим. Ҳа, ёмон бўлди. Мен унинг олдига кириб, авлиё бўлсанг кўзимни тузат, деб Худонинг зорини қилдим. У бўлса икки миллионни устол устига қўйинг, дейди. Ҳой, эсинг жойидами, мен бир тиланчи бўлсам, икки миллионни қаердан оламан, дедим жон-поним чиқиб. Гапни кўпайтирманг, ҳамма пул тиланчиларда бўлади, бунинг устига солиқлардан озодсизлар, дейди у гўрсўхта. Вой занғар-ей, вой тикилиб ўлгур-ей. Ҳеч бўлмаса битта кўзимни тузатиб қўй, савоб ҳам керак-ку, дедим оёғига йиқилиб. Савобнинг таги тешик, майли, бир миллион чўзинг, биттасини кўрадиган қилиб қўяман, дейди. Ўшанда ҳам чап кўзимни очиб қўярмиш у азайимхон. Билиб турибман, у авлиёмас, бориб турган фирибгар. Тўймас, очкўз. У яна нима қилди дегин, қизим, тиланиб топган уч-тўрт сўмимни ҳам тортиб олди. Бир тийинсиз



– Men o‘zimgagina javob beraman, boshqalarning tepasida turmaganman.

Shu payt Shaytonvachcha yashaydigan hovlidan bir ko‘zi tepaga, bir ko‘zi pastga ag‘darilgan ko‘r odam qo‘lida hassa bilan turtinib-surtinib chiqib keldi. U yaqindagina navbatsiz ichkariga kirib ketgan so‘qir tilanchi edi. Uning ko‘zi ochiq bo‘lib, chuqurchasiga uvada paxta tiqib qo‘yganga o‘xshardi. U juma kunlari shahardagi eng katta jome masjidida, boshqa kunlari bozorda tilanchilik qilardi.

– Hov televizorchi qizim, qayerdasan, bu yoqqa ke, gapning kattasini mendan eshit, – dedi u talmovsirab. – Men seni tanimayman, ammo sen meni tanishing kerak. Men tilanchilarning podshosi bo‘laman. Gap bunday, padariga la‘nat bu avliyoni.

So‘qir odam boshlovchi qiz boshqa yoqda qolib, tamoman boshqa tomonga qarab gapirardi.

– Men bu yoqdaman, ota, – dedi boshlovchi qizga jon bitib. Tilanchi ovoz kelgan tomonga o‘girildi.

– Gapiring, otaxon, nimalar bo‘ldi? Hammaning ko‘zi sizda.

– Dard bo‘ldi, balo bo‘ldi, qizim. Ha, yomon bo‘ldi. Men uning oldiga kirib, avliyo bo‘lsang ko‘zimni tuzat, deb Xudoning zorini qildim. U bo‘lsa ikki millionni ustol ustiga qo‘ying, deydi. Hoy, esing joyidami, men bir tilanchi bo‘lsam, ikki millionni qayerdan olaman, dedim jon-ponim chiqib. Gapni ko‘paytirmang, hamma pul tilanchilarda bo‘ladi, buning ustiga soliqlardan ozodsizlar, deydi u go‘rso‘xta. Voy zang‘arey, voy tiqilib o‘lgur-ey. Hech bo‘lmasa bitta ko‘zimni tuza-tib qo‘y, savob ham kerak-ku, dedim oyog‘iga yiqilib. Savobning tagi teshik, mayli, bir million cho‘zing, bit-tasini ko‘radigan qilib qo‘yaman, deydi. O‘shanda ham chap ko‘zimni ochib qo‘yarmish u azayimxon. Bilib tur-ribman, u avliyomas, borib turgan firibgar. To‘ymas, ochko‘z. U yana nima qildi degin, qizim, tilanib top-gan uch-to‘rt so‘mimni ham tortib oldi. Bir tiyinsiz qol-

қолдим... У-ф-ф... Ана шунақа гаплар, яхшилар. Шаҳар бедарвоза эмас... Ҳой одамлар, топганингизни фирибгарларга беравермай бизга беринг, биз Худога яқинмиз, дуоларимиз қабул бўлади...

Сўқир тиланчининг бу гаплари навбатда турганларни ҳам, юзига ниқоб тутиб, автомат ушлаганларни ҳам жунбушга келтириб юборди. Сабр косалари тўлиб, ичкарига қараб ёпирилишди. Верталёт янаям пастлаб, вариллай бошлади. Сурагчилар, тасвирчилар, журналистлар аралаш-қуралаш бўлиб кетишди. Ҳамма ўзга сайёраликни яқиндан кўришни хоҳлар эди. Бошловчи қиз ҳам тўс-тўполонда кўринмай қолди...

Аммо ичкарига кирганда ҳамма тахта бўлиб қолди. У ерда оёқ-қўли боғланган, оғзига латта тикилган, ярим яланғоч яна битта сўқир тиланчи ётарди. Буниси ҳақиқийси эди...

*Давомини кутинг.*

dim... U-f-f... Ana shunaqa gaplar, yaxshilar. Shahar bedarvoza emas... Hoy odamlar, topganingizni firibgarlarga beravermay bizga bering, biz Xudoga yaqinmiz, duolarimiz qabul bo'ladi...

So'qir tilanchining bu gaplari navbatda turganlarni ham, yuziga niqob tutib, avtomat ushlaganlarni ham junbushga keltirib yubordi. Sabr kosalari to'lib, ichkariga qarab yopirilishdi. Vertalyot yanayam pastlab, varillay boshladi. Suratchilar, tasvirchilar, jurnalistlar aralash-quralash bo'lib ketishdi. Hamma o'zga sayyoralikni yaqindan ko'rishni xohlar edi. Boshlovchi qiz ham to's-to'polonda ko'rinmay qoldi...

Ammo ichkariga kirganda hamma taxta bo'lib qoldi. U yerda oyoq-qo'li bog'langan, og'ziga latta tiqilgan, yarim yalang'och yana bitta so'qir tilanchi yotardi. Bunisi haqiqiysi edi...

*Davomini kuting.*